




NAMANGAN  
DAVLAT  
PEDAGOGIKA  
INSTITUTI

ISSN: 2992-9008

UDK: 37

# TA'LIM VA TARAQQIYOT

ILMIY-USLUBIY JURNAL



2024-YIL 3-SON



**Bosh muharrir:** Namangan davlat pedagogika instituti rektori *B.E.Xusanov*  
**Mas’ul muharrir:** Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor *M.R.Qodirxonov*

**Mas’ul muharrir o'rinxosari:** Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i *J.A.Yuldashev*

## TAHRIR HAY'ATI

**Aniq va tabbiy fanlar:** akad. *K.Tojibayev*, akad. *A.To'rayev*, k.f.d., prof. *Sh.Abdullayev*, f-m.f.d., dots. *R.Xakimov*, b.f.d., dots. *A.Batashov*, f-m.f.n., dots., *T.Abdullayev*, p.f.n., dots. *M.Eshnazarova*.

**Texnika fanlari:** t.f.d., prof. *A.Umarov*, PhD. *Sh.Xudoyqulov*, PhD. *Abdunazarov*.

**Ijtimoiy gumanitar fanlar:** s.f.d., prof. *T.Fayzullayev*, tar.f.d., prof. *A.Rasulov*. f.f.d., prof. *M.Ismoilov*, i.f.d., dots. *N.Sotivoldiyev*, t.f.n., dots. *A.Isoqboyev*, f.f.n., dots. *O.Mamatov*, t.f.n., dots. *Z.Haydarov*, PhD. *J.Yuldashev*, PhD. *A.Abdullayev*.

**Pedagogika fanlari:** p.f.d., prof. *U.Inoyatov*, p.f.d., prof. *B.Xodjayev*, p.f.d., prof. *SH.J.Yusupova*, p.f.d., prof. *O'M.Asqarova*. p.f.d., prof., *M.Y.Sobirova*, p.f.n., dots., *Sh.Ubaydullayev*, p.f.n., dots. *G.Nafasov*, PhD. *M.Asranboyeva*, PhD. *B.J.Urinov*.

**Filologiya fanlari:** fil.f.d., prof. *N.Uluqov*, fil.f.d., prof. *H.Usmanova*, p.f.n., dots. *S.Misirov*, PhD., dots. *P.Lutfullayev*, PhD., dots. *M.Yakubbayev*

### **Texnik muharrir: R.Tursunov**

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

**Pochta indeksi:** 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

**Email:** [Info@namspi.uz](mailto:Info@namspi.uz)

“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali elektron to’plam sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2024-yil 3-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 11-iyun 2024-yildagi 6-sonli kengaytirilgan yig’ilishida muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnomma № 06). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.



## **I. TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

**UDK: 372.881.1**

### **NEYROLINGVISTIK DASTURLASHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI**

***Nafasov G‘anisher Abdurashidovich***

*Guliston davlat universiteti dotsenti,*

*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), E-mail: gnafasov87@gmail.com*

***Abduraimov Dostonbek Egannazar o‘g‘li***

*Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi*

*E-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru*

***Ibragimov Javohir Ahmad o‘g‘li***

*Guliston davlat universiteti, Matematika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

*E-mail: ibragimovjavohir65@gmail.com*

***Rahmonov Samariddin Kamoliddin o‘g‘li***

*Guliston davlat universiteti, Matematika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

*E-mail: rahsamariddin@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu keltirilgan maqolada neyrolinguistik dasturlash, modellashtirish, shaxsning psixologik tipiga mos keluvchi reprezentativ tizim, uning o‘ziga xos xususiyatlari nazariy va amaliy jihatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Neyrolinguistika, dasturlash, modellashtirish, vizual, kinestetik, audial, mantiqiy, modellashtirish, karta, filtr, axborot madaniyati, topshiriqlar, kommunikatsiya.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты нейролингвистического программирования, моделирования репрезентативной системы, соответствующей психологическому типу человека, его специфическим особенностям.

**Ключевые слова:** Нейролингвистика, программирование, моделирование, визуальное, кинестетическое, аудиальное, логическое, моделирование, карта, фильтр, информационная культура, задачи, общение.

**Summary:** This article discusses the theoretical and practical aspects of neurolinguistic programming, modeling a representative system corresponding to the psychological type of a person and its specific characteristics.

**Key words:** Neurolinguistics, programming, modeling, visual, kinesthetic, auditory, logical, modeling, map, filter, information culture, tasks, communication.

## KIRISH

Bugungi kunda har bir kishi o‘z farzandining kelajagi, ayniqsa uning olayotgan ta’limi haqida chuqur qayg‘uradi.O‘z farzandlarini maktabga yuborish orqali ular ta’lim olish jarayonida zarur bilimlarni olishi, har tomonlama rivojlanishi va ota-onalar maktab va o‘qituvchilarni o‘z farzandlarining tarbiyasi uchun mas’ul yekanligi uning kelajagini belgilab beradi.Shu munosabat bilan o‘quv jarayonining hozirgi pozitsiyasi va an’analarini qayta ko‘rib chiqish, umumiy ta’limning yangi ta’lim standartlarini takomillashtirish zaruriyati tug‘iladi.

Shu munosabat bilan yurtimizda ulkan ijtimoiy islohotlar tufayli buniyodkorlik, obodonchilik ishlari, fan va texnika sohasi jadal rivojlanmoqda, ayniqsa zamonaviy axborot texnologiyalarni rivojlanishi natijasida dunyo olimlarining ilmiy izlanishlaridan xabardor bo‘lish imkoniyati kuchayib bormoqda.Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo’llash dunyo miqyosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga zamin yaratishni o‘z vaqtida anglagan pedagog, psixolog olimlarimiz psixologiyani yangi yutuqlarini tadbiq etmoqdalar, masalan, keyingi yuz yil ichida psixologiya fanida yuz bergen o‘zgarish, bu - neyrolingvistik dasturlashni paydo bo‘lishidir. Neyrolingvistik dasturlash miya, tana va til (nutq) ning o‘zaro mutanosib holda ishlashini o‘z ichiga oladi.Shuningdek, neyrolingvistik dasturlash psixologiyani dolzarb muammolaridan insonning subyektiv tajribasi, e’tiqod, ishonchni shakllanishi, dinamik ta’lim, tizimli tafakkur, inson daholigi, ijod va biznes ustida tadqiqot olib boradi.

Neyrolingvistik dasturlash 1970 yillarning boshida paydo bo‘ldi. Santa Kruzda Kaliforniya Universitetida lingvistika professorining assistenti bo‘lgan Djon Grinder va o‘sha universitetning psixologiya yo‘nalishi talabasi Richard Bendler hamkorligining mevasi bo‘ldi. Bundan tashqari Richard Bendler psixoterapiya bilan ham kuchli qiziqardi. Neyrolingvistik dasturlash muammosi bo‘yicha asosan chet el olimlari: R.Bendler, Djon Grinder, B.Beytson, Alfred tajribasini Maykl Xoll, Milton

Erikson va boshqalar tadqiqot olib borganlar.O‘zbekiston psixolog olimlari tomonidan neyrolingvistik dasturlash muammosi mamlakatimiz mustaqil bo‘lganidan so‘ng chet el olimlarining tadqiqotlari bilan tanishish imkoniyati bo‘lganidan keyingina o‘rganila boshlandi.Ular birgalikda uchta mashhur psixoterapevtlarning harakatlarini o‘rganadilar.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI.**

-Neyro qismi - xulq-atvor, harakatni ko‘rish, quloq solish, hidni sezish, mazani sezish, tegish va his qilish kabi nevrologik jarayonlardan boshlanadi, - degan fundamental g‘oyani aks ettiradi. Biz dunyoni o‘zimizning bitta sezish organizmiz orqali anglaymiz. Biz axborotning “ma’no”sini topamiz va keyin esa u asosida faoliyat ko‘rsatamiz. Bizning nevrologiya o‘zida faqat ko‘rinmas fikrli jarayonlarni emas, balki bizning ko‘zga ko‘rinarli fiziologik ta’sirlarni, g‘oyalar va hodisalarni ham o‘z ichiga oladi. Birinchisi ikkinchisining oddiy jismoniy darajadagi aksi bo‘lib hisoblanadi. Jism va aql bo‘linmas birlik, inson mohiyatini hosil qiladi.

-Lingvistik qismi esa bizning fikrlarimiz va xulq-atvorimizni tartiblashtirish uchun va boshqa odamlar bilan kommunikatsiyaga kirish uchun tilni ishlatishimizni ko‘rsatadi.

-Dasturlash qismi - natijani olish uchun biz o‘zimizning g‘oyalarimiz va harakatlarimizni tashkil qilish usullarini ko‘rsatadi.

Neyrolingvistik dasturlash - inson subyektiv tajribasining tuzilishi bilan bog‘liq: biz ko‘rgan, eshitgan va sezishni qanday tashkil qilamiz va biz tashqi dunyodan olganni sezish organlari yordamida qanday tahlil qilamiz va fikrlashtiramiz? Neyrolingvistik dasturlash ham, shuningdek, biz nutqda buni qanday ko‘rsatib berishimizni va qanday harakat qilishimizni tadqiq qiladi - niyat qilib, niyat qilmay - natija olish uchun.

Shunday qilib, neyrolingvistik dasturlash o‘tgan asrning katta kashfiyotlaridan biri bo‘lib, ahamiyat jihatidan internet ixtirosidan qolishmaydi. “Neyrolingvistik dasturlash” neyrolingvistik dasturlash iborasi ostida mutlaqo yangi g‘oya inson muloqoti va o‘z-o‘zini rivojlantirish yondashuvi yotadi. Ba’zilar uni “shaxsni takomillashtirish san’ati” yoki “subyektiv kechinmalarning tadbiq qilish fani” deb atashmoqda. Biz sezish organlarimizni tashqi dunyoni idrok qilish uchun,

uni o‘rganish va tubdan o‘zgartirish uchun ishlatalamiz. Dunyo cheksiz sensor, cheksiz xilma-xillikda namoyon bo‘ladi, lekin biz bu xilma-xilliklarning faqat juda kam qismini idrok qilamiz. Idrok qilinganlari o‘scha qismi faqat biz anglagan nodir tajribamiz, madaniyatimiz, tilimiz, boyliklarimiz, qiziqishlarimiz va taxminlarimiz orqali. Har birimiz o‘ziga xos sensor ta’surotlar va hayotning shaxsiy tajribasi asosida qurilgan noyob dunyoda yashaymiz va biz tassurotlarga, bizning dunyo modeliga suyanib harakat qilamiz. Bizda ko‘pchilik tabiiy, foydali va zarurli filtrlar bor.

Neyrolingvistik dasturlash odamning subyektiv tajribasini, uning fikrlash, xulq va kommunikativ jarayonlarini ifodalash usulidir. Neyrolingvistik dasturlash atrof dunyoni idrok qilishni, shuningdek odamlar uni qanday idrok qilishini, bir-biri bilan qanday muloqot qilishini tushunishga yordam beradi. Neyrolingvistik dasturlash xulq strategiyasini tahlil qiladi va uni muvaffaqiyat bilan qo’llashni o‘rgatadi.

Modellashtirish neyrolingvistik dasturlashning asosini tashkil qiladi. Neyrolingvistik dasturlashni paydo bo‘lishi ko‘p jihatdan modellashtirish jarayoniga bog‘liq. Neyrolingvistik dasturlash samaradorlikni o‘rgansa, modellashtirish esa, ana shu samaradorlikni anglash jarayonidir.

Modellashtirish - bu maksimal darajada to‘liq ifodalashdir. Neyrolingvistik dasturlash jabhasi inson tafakkuri malakalarini modellashtirish jarayonida rivojlanadi. Neyrolingvistik dasturlash miya qanday ishlashini, kommunikatsiyani noverbal vositalari va til stereotiplarini (lingvistik) tahlil qilish yo‘li modellashtirish jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu tahlilning natijasi keyinchalik berilgan malakalarni boshqa faoliyat sohasidagi boshqa odamlarga kiritiladi, ya’ni, ko‘p bosqichli strategiya yoki dasturlar orqali amalga oshiriladi.

Neyrolingvistik dasturlash shunday texnika va farqlar o‘lchovini ishlab chiqqani ular yordamida odamlarni noverbal va verbal xulq stereotiplarini ifodalaydi va identifikatsiya qilinadi. Ya’ni, odamlar nima qilish va gapirishni neyrolingvistik dasturlashning birinchi darajali maqsadi shundan iboratki, o’tkir qobiliyatli odamlarni boshqa odamlarda ham ko‘rish. Neyrolingvistik dasturlash asoschilarini uni (modellashtirish) mashhur psixoterapevtlar ishlarida qo’lladilar. Qaysiki, ular hayron qoladigan darajada natijalarga erishgan omma qanday

bo‘lganligini tushuntirib bera olishmagan. Modellashtirish hozirgi kunda neyrolingvistik dasturlashda markaziy o‘rinda va qo‘llanilish jabhasi terapiya chegarasidan chiqib, sport, biznes, davlat boshqaruvida savdo, oilaviy munosabatlar, ta’lim va shaxsni rivojlantirish sohalarida ham foydalanilmoqda. Modellashtirishni o‘zi birdaniga odamni muvaffaqiyatlar cho‘qqisiga olib chiqib qo‘yadi, deb ishonish, umid qilmoq kerak emas, darrov olimpiada sovrinlarini olib kelmaydi. Bunday umidlar ehtiyojni shaxsiy tajribaga muvofiqlashtirmaydi. Sportda muvaffaqiyatlar ko‘p narsaga bog‘liq. Jumladan, sog‘liqqa, ovqatlanish tizimiga va turmush tarziga, sport bilan shug‘ullanishni kechroq boshlasangiz ham sizda buyuk jismoniy in’omlar yo‘q bo‘lsa ham dunyo bo‘yicha mashhur bo‘lib ketmasangiz ham yaxshi natijalarga erishishingiz mumkin. Ko‘pchilik odamlar modellashtirishdan foydalanib yaxshi natijalarni qo‘lga kiritmoqdalar.

### **TADQIQOT NATIJALARI.**


Muvaffaqiyatning yana bir omili yaxshi shakllantirilgan maqsaddir. Takomillashuv albatta natijaga olib kelishi tabiiy holdir. Maqsad qo‘yishdan olingan huzurlanish unga sarf qilingan kuchni oqlaydi. Ammo turli-tuman xohish va irodalarimizning manbaidan qat’iy nazar imkoniyat ehtimolligini past baholamasligimiz kerak. Tug‘ma neyrofiziologik resurslar deyarli bitmas tiganmas, bu siz vaqtincha tabiat va tarbiyani esdan chiqarishingiz lozim degani. To‘g‘ri shakllantirilgan natija sizning harakatlaringizga va pirovard muvaffaqiyatingizga kuchliroq ta’sir qiladi. Hayot marafonida boshqalar qilgan narsani “men” ham eplay olaman desak, ishonch irsiy moyillik va erta sportdan qimmatliroq. Hatto, eng e’tiqodli genetiklar ham tabiiy moyillikni, layoqatni, muvaffaqiyatni ko‘p sonli omillardan biri deb hisoblashadi. Tajriba o‘zini fido qilish, mashqlar tufayli “tug‘ma in’omi” bor odamlardan ustun kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ilk yoshdan ota-onalar g‘amxo‘rligi jamiyat va tengdoshlarini rag‘bati shubhasiz, iste’dodli bolalardan ko‘ra muvaffaqiyatga erishishini ta’minalash mumkin. Asosiy masalaga qaytadigan bo‘lsak, shu narsani ta’kidlash lozimki, siz tabiiy in’om hisoblangan qobiliyatni modellashtirish orqali xohlagan strategiya bilan ishlastingiz mumkin. Bu o‘zini “genetik qoloq” deb hisoblaganlarda umid tug‘diradi. Shunday qilib, siz har qanday iste’dod yoki in’om, manbasidan qat’iy nazar modellashtirishni asosini

tashkil qiladi, deb hisoblappingiz kerak.

Modellashtirishdan tashqari neyrolingvistik dasturlashda shaxslararo muloqot bilan bog’liq boshqa asos bor. Karta va filtrlarni nazariy modeli odamlarga muloqot jarayonini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Buning uchun muloqotning ustasi farangini topish kifoya qiladi va u hollarda o‘z malakalarini namoyon qilishdan qanchalik umumqabul qilingan modelga muvofiq kelishi yoki kelmasligidan qat’iy nazar uni malakalarini egallassingiz, o‘zlashtirib olishingiz lozim. Modellashtirish yo‘li bilan biz takomillashish chegarasini kengaytirishimiz kerak, chunki boshqa odamlari bilan strategiyalarni almashamiz. Muvaffaqiyatni tekshirish, uni “modellashtirish” mumkin. Neyrolingvistik dasturlash tufayli o‘zgalar mahoratini u yoki bu qirralarini namoyon qilishimiz mumkin va yaxshilarini topib ularning strategiyasidan foydalanish imkoniyatiga egamiz. Ularning mahoratini o‘zlashtirib amaliyotda qo’llassingiz mumkin. Ularni usullarini hamda “tug‘ma qobiliyatlarini” ijaraga olib o‘zingizni o‘rganishingizni tezlashtirishingiz ko‘p yillar sinash va xato yo‘li bilan olayotgan narsalarni tezda o‘zlashtirib olishga erishasiz.

Shaxsning psixologik tipiga mos keluvchi reprezentativ tizim. Shaxsning nafas olishi, ovozining tezligi, kuchi, pastligi, lab formasi, tana va harakat turlari, gavdaning turishi, reprezentativ tizimga ya’ni insonning tasavvurlari tizimiga tegishli bo’lgan tushunchalari orqali shaxsni tiplarga osongina ajratishimiz mumkin:

1-jadval.



2-jadval.



Ma’lumki, individlarning har qaysisida reprezentatsiyaning bir necha usullari bor, ular orqali turli axborotni oladilar va unda uchta asosiy kirish kanali mavjud:

- ko’rish;
- eshitish;
- kinestetik.

Ko’rish - nimanidir vizual siyomosini yaratishga yordam beradi, - bu vizual reprezentativ tizimdir. Audial reprezentatsiyani axborotni ovozli qabul qilish orqali aniqlash mumkin. Shuningdek, nimanidir relyefli his qilish rivojlangan kinestetik reprezentatsiyasini aniqlaydi. Aynan, qaysi reprezentativ tizim ilg’or ekanligini aniqlash uchun faqatgina predikatlarga e’tibor qaratish lozim.

Predikatlar bu - u yoki bu individ tajribasining turli qismalarini tavsiflash uchun ishlatiladigan va uning tajribasida bo’lgan jarayon va munosabatlarga mos keladigan so’zlar.Axborotni qabul qilish ma’qullangan formasiga ko’ra, uch reprezentativ tizimli insonlar farqlanadi.Bu audiallar, kinestetiklar, vizualistlar.Audial axborotni eshitish orqali qabul qiladilar va uning uchun beriladigan materialning balandligi va intonatsiyasi zarur. Nutq va matnda ham predmetning kartinkasini tez tiklashga yordam beruvchi kalit so’zlar zarur. Kinestetiklarda his qilish, qulaylik, komfort asosiy o’rin egallaydi. Ko’rib chiqilgan reprezentativ tizimlar ta’lim jarayonida axborotni qabul qiluvchi tipni o’zida mujassam etadi.

### **XULOSA.**

Shu munosabatda ta’limga motivatsiyalashga uning qanday ta’sir etish savolini o’rganishga qiziqish uyg’otadi.Olib borgan izlanishlarimiz asosida quyidagi xulosaga keldik: ta’lim sohasi muhim ilmiy muammolardan biri bo’lib, subyektning tashqi dunyoni anglash jarayonini tavsiflash muammosi hisoblanadi. Bunda tashqi dunyo va subyektning o’zi (uning ichki dunyosi) yagona murakkab dinamik tizimni tashkil etadi. Muammoni yechish murakkabligi bu tizimning funksiyalash jarayonini tavsiflashda rasmiy (formal) metodlarning yo’qligidan iboratdir. Shaxsning reprezentativ tizimlari va ta’lim jarayonida qabul qilinayotgan axborotning tipini aniqlaydi. Shaxsning psixologik afzalliklarini hisobga olish, ta’lim olish jarayonida uning potensial imkoniyatlarini maksimal foydalanish va o’zlashtirish imkonini beradi.

Neyrolingvistik dasturlash odam subyektiv tajribasining strukturasi bilan ishlaydi. Tashqi dunyodan nimalarni olamiz, nimalarni ko’ramiz, eshitamiz va sezamiz, ularni quyidagicha tashkil qilamiz:

Neyrolingvistik dasturlash - yana ularni tilda qanday ifodalaymiz, natijaga erishish uchun qanday qararat qilamiz, ixtiyorimi yoki ixtiyorsizmi - ana shularni o’rganadi;

Neyrolingvistik dasturlashni ta’lim jarayoniga tadbiq qilish yaxshi natija beradi, chunki u odamni ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanishni o’rgatadi, o’qish va o’rganishni psixologik mexanizmlari bilan ishlaydi;

Neyrolingvistik dasturlash nazariyasi va amaliyoti quyidagilarga yordam beradi: shaxsiy o’zaro munosabatlarni tashkil qilish va yaxshilashga, ishonch in’omini rivojlantirishga, dunyoni ijobiy idrok qilishga o’tishga, o’z-o’zini baholashni ko’tarishga, o’tmishdagi salbiy kechinmalarni oqibatlaridan qutulishga, ko’zlangan maqsadga diqqatini to’plashga va unga erishishga barcha kuchlarini yo’naltirishga, yuqori unumdarlik bilan harakat qilishga, o’z sezgilarini boshqarishga, ko’zlangan maqsadi bilan ishonchini va qadriyatlar tizimini muvofiqlashtirishga, nomaqbtl odatlardan qutulishga, har qanday ishni boshlashda o’z kuchiga ishonishga, iloji yo’q bo’lib tuyulgan narsaga erishishga, mijozlar, buyurtmachilar va hamkasblar bilan o’zaro tushinishga erishishga, paydo bo’lgan muammolarni ijodiy yechishga, avval qo’rquvga sabab bo’lgan omillardan huzurlanishga, o’z vaqtini samarali boshqarishga, hayotni to’la aks etishini mustahkamlash va chuqurlashtirishga, boshqalarni hayron qoldiradigan sifatlarga erishishga, hayotdan ko’proq huzurlanishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 22, 2021 г. С 233-237.
2. F.F.Usmonov, Z.S.Elov. Suicide – as a global problem facing humanity. Web of scientist: international scientific research journal. Volume 3, Issue 2, Feb.,2022. 349-354
3. Olimov L, Avezov O. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. International Journal of Scientific & Technology Research. volume 9, issue 02, february 2020. P 2784-2786.
4. Бахрамова М.Р. Формирование личности преподавателя в процессе самовоспитания. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2018 год, Выпуск 17. 131-133 ст.
5. Baxtiyorovna, G. N. (2022). Bo’lajak fizika o ‘qituvchilarida mantiqiy kompetentliligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari. Qo’qon universiteti xabarnomasi, 5, 96-97.

6. Abdurashidovich, N. G., Muzaffarovich, U. N., Qosim o‘g‘li, N. Q., & Olimjon, D. (2023). Design in the process of teaching mathematics and its teaching methodology. *Genius Repository*, 25, 23-27.
7. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. *Genius Repository*, 25, 28-32.
8. Нафасов, Г. А., & Едгоров, Д. Д. (2023). Развитие когнитивной компетентности учащихся посредством преподавания элементарной математики. *Международный научно-практический электронный журнал «моя профессиональная карьера»*. Выпуск № 52 (том 1)(сентябрь, 2023). Дата выхода в свет: 30.09.2023., 143.
9. Nafasov, GA (2023). Suv omborlarining suv o'tkazuvchi traktining past bosim zonasini aniqlash. *Genius ombori* , 25 , 28-32.
10. Abdurashidovich, NG (2021). Boshlang'ich matematikani o'qitish jarayonida oliv o'quv yurtlari talabalarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari. *Europa molekulyar va klinik tibbiyat jurnali* , 8 (1), 789-806.
11. Abdullayeva, B. S., & Nafasov, G. A. (2019). Current State Of Preparation Of Future Teachers Of Mathematics In Higher Education Institutions. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(2), 12-17.
12. Nafasova, G., & Pardaveva, E. (2023). Bo'lajak fizika o'qituvchilarining mantiqiy kompetentliligini rivojlantirishda samarali fizika o'qitish metodlari. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 3(4), 50-53.
13. Abdurashidovich, N. G. Requirements for the selection of content for heuristic tasks in the teaching of elementary mathematics to future mathematics teachers.
14. Нафасов, Г. А., & Мирхайдаров, М. Х. (2022). Изучение интегрирования биномиальных. *Research and education*, 205.
15. Kengash, J., & Abdurashidovich, N. G. (2023). To approximate solution to a problem of filtration theory for small values of TIME. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 19, 32-37.
16. Abdurashidovich, N. G., & Kengash, J. (2022). The Local Problem with Integral Gluing Condition for Loaded Mixed Type Equation Involving the Caputo Fractional Derivative. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 14, 20-26.

17. Abdurashidovich, N. G., Tagayevich, D. U., & Mirkomilovich, K. M. (2023). The Use of Technology in The Approximation of Didactic Units in The Training of Future Mathematics Shooters on The Basis of Innovative Education. *Genius Repository*, 24, 34-38.
18. Nafasov, G., Xudoyqulov, R., & Usmonov, N. (2023). DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS IN MATHEMATICS TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 229-233.
19. Seytov, A., Abdurakhmanov, O., Kakhkhorov, A., Karimov, D., & Abduraimov, D. (2024). Modeling of two-dimensional unsteady water of movement in open channels. In E3S Web of Conferences (Vol. 486, p. 01023). EDP Sciences.
20. Mamatov, A., Bakhramov, S., Abdurakhmonov, O., & Abduraimov, D. (2023, October). Mathematical model for calculating the temperature of cotton in a direct-flow drying drum. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2746, No. 1). AIP Publishing.
21. АБДУРАИМОВ, Д., ҚИЛИЧЕВ, С., & АХМЕДОВА, Х. (2023). ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА ТАЛЬИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР. *Journal of Research and Innovation*, 1(3), 13-17.
22. АБДУРАИМОВ, Д. (2023). ТЕРМОЭЛАСТИК ДИНАМИК БОҒЛИҚ МАСАЛАНИНГ СТЕРЖЕНЬ УЧУН МАТЕМАТИК МОДЕЛИ ВА СОНЛИ ЕЧИМИ. *Journal of Experimental Studies*, 1(1), 3-7.
23. Нафасов FA, Абдураимов ДЭ, and Н. М. Усмонов. "ТРАНСВЕРСАЛ ИЗОТРОП ЖИСМ УЧУН ИККИ ЎЛЧОВЛИ ТЕРМОЭЛАСТИК БОҒЛИҚ МАСАЛАНИ СОНЛИ МОДЕЛЛАШТИРИШ ВА УНИНГ ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТИ." Қарду ҲАБ: 13.
24. Сейтов, А. Ж., Абдураимов, Д. Э., & Абдурахмонов, О. Н. (2023). МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ДЛЯ МОДЕЛИРОВАНИЯ ДВУХМЕРНОГО НЕУСТАНОВИВШЕГОСЯ ДВИЖЕНИЯ ВОДЫ НА ВОДОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОБЪЕКТАХ. *Экономика и социум*, (10 (113)-1), 639-649.
25. Раҳмонов С.К. Физик масала ва унинг геометрик ҳолатдаги ечими // Амалий математиканинг замонавий муаммолари ва истиқболлари мавзусидаги

республика илмий-амалий конференция тезислар тўплами. Қарши, 2024-йил 24-25- май. 474-476 бетлар.

26. Ибрагимов Ж.А. Тригонометрик формулаларнинг лабачевски геометриясидаги ўрни // Амалий математиканинг замонавий муаммолари ва истиқболлари мавзусидаги республика илмий-амалий конференция тезислар тўплами. Қарши, 2024-йил 24-25- май. 477-479 бетлар.
27. Ибрагимов Ж.А. Физик масалаларга менелай теоремасининг татбиқи // “Математиканинг замонавий масалалари: муаммо ва ечимлар” республика илмий-амалий конференция материаллари. Қўқон, 2024-йил 20- май. 32-36 бетлар.
28. Раҳмонов С.К. Математика фанинг иқтисодиётга интегратцияси // “Математиканинг замонавий масалалари: муаммо ва ечимлар” республика илмий-амалий конференция материаллари. Қўқон, 2024-йил 20- май. 111-114 бетлар.
29. Раҳмонов С.К. Ўрта махсус таълим тизимида математика фанининг бошқа фанлар билан алоқадорлиги // “Математиканинг замонавий масалалари: муаммо ва ечимлар” республика илмий-амалий конференция материаллари. Қўқон, 2024-йил 20- май. 296-299 бетлар.
30. Ибрагимов Ж.А. Таълим муассасаларида maple математик пакети имкониятларидан // “Математиканинг замонавий масалалари: муаммо ва ечимлар” республика илмий-амалий конференция материаллари. Қўқон, 2024-йил 20- май. 301-304 бетлар.

## TA’LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

**To‘xtaboyev A’zamjon Sharipxojayevich**

*Ilmiy rahbar: Namangan davlat universiteti Kengashi kotibi PhD*

**Yo’ldashev Safoxon A’loxon o’g’li,**

*Namangan davlat universiteti*

*Ijtimoiy fanlar fakul’teti Tarix yo’nalishi 3-bosqich talabasi*

*E-mail:[safoxonyuldashev@gmail.com](mailto:safoxonyuldashev@gmail.com)*

*Tel: (93)9854995*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalarning mazmun mohiyati, tarkibiy qismlari, ularning bosqichlari, qanday bo’lishi va boshqalar haqida so’z yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** Innovatsiya, pedagogik texnologiya, texnologiya, innovatsion texnologiya, obyektiv, subyektiv, gumanizm

Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o‘z-o‘zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat, qolaversa, uning negizida sohalar rivojini harakatga keltiruvchi kuch – malakali kadrlarni tayyorlash, ana shu maqsadga yo‘naltirilgan tizimni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Malakali kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj ishlab chiqarish korxonalari paydo bo‘lgan, sanoat sohasi rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo‘lsada, hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog‘liq ravishda yangidan-yangi yo‘nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo‘lishi, ular bo‘yicha kadrlar tayyorlash zaruriyatining vujudga kelishi, o‘zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarning kasbiy bilim, malaka va mahoratlarini izchil ravishda oshirib borishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi, shuningdek, mutaxassis sifatida mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga bo‘lgan talabning ortishi sanaladi.

Mavjud sharoitda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni malakali kadrlar bilan ta’minlashda puxta asoslangan mexanizmga ega bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimi, xususan, oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bosqichlari o‘ziga xos o‘rin tutadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, tezkorlik bilan rivojlanayotgan davr mutaxassislar oldiga shiddatli o‘zgarishlarga tayyor turish, davr bilan hamnafas bo‘lgan holda ijtimoiy va kasbiy nuqtayi nazardan o‘z-o‘zini takomillashtirib borish vazifasini qo‘ymoqda. Mutaxassislarning mazkur talabga to’laqonli javob bera olishlarida izchil tashkil etiladigan malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimining hissasi katta. Zero, muayyan vaqt oralig‘ida o‘zaro integratsiyalangan o‘quv dasturlari mutaxassislarni tegishli sohaga oid o‘zgarish, yangilanish, muammo va ularning yechimlari xususidagi bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish imkoniyatiga ega[1].

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish – innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar G‘arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo‘ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo‘lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I.Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.[2].

Pedagogik texnologiya — ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’lash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.[3].

“Texnologiya” - yunoncha so‘z bo‘lib,”tehnos”-mahorat, san’at ”logos” -ta’limot, fan ma’nolarini anglatadi.

Texnologiya - bu sifat jihatdan yangi masalalarni yechish uchun ta’lim evolutsiyasi bosqichini tayyorlagan obyektiv jarayon.

“Texnologiya” tushunchasi texnik taraqqiyot natijasida paydo bo‘ladi va uning lug’aviy ma’nosi (kasb, fan, tushuncha, ta’lim, san’at) materiallarning ishlash usul va uslublaridan iboratdir. Fan va texnika taraqqiyoti inson imkoniyatlarining kengayishiga olib keldi.

Yangi texnologiyalar katta ta’lim imkoniyatlarini ochdi. Ro‘y berayotgan sifat o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, odat bo‘lgan tushuntirishda “o‘rgatish” jarayonlari o‘qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladi. Vujudga kelgan yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va ko‘rgazma vositalari o‘ziga xos tarzda yangi metodikalar bilan ta’lim jarayoniga ko‘pgina yangiliklar kiritib, uning ajratilmas qismi bo‘lib qolmoqda. Biroq, pedagogik texnologik jarayonning o‘ziga xosligi, uning an’anaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon ta’limi muammolari real yechish usullari hali to’la o‘rganilmagan. Bu haqda chet ellik va o‘zbek avtorlari ko‘p yozmoqdalar. Lekin barchalari pedagogik texnologiyalar kelajakda ustuvor o‘ringa ega bo‘lishiga ishonadilar.

Ayni vaqtda «innovatsion» (vangilik kiritish) ta’limni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur ta’limning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

1) bu oldindan ko‘ra bilish, ya’ni, o‘quvchini avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o‘qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo‘ljallashga o‘rgatishdan iborat bo‘lib, o‘quvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish. ko‘zlash. modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur.

2) o‘quvchining hamkorlikda ta’lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish)da faol ishtirok etishini ta’minlash.[4]

“Ta’lim texnologiyasi” tushunchasiga ta’lim maqsadlarini tahlil qilish va rejalahtirish, o‘quv-tarbiya jarayonini ilmiy tashkil qilish, ta’lim samaradorligini ta’minlaydigan vosita, material va metodlar tanlanadi.

Hozirda ta’lim texnologiyasi yordamchi vosita bo‘lib qolmay balki, o‘quv jarayonining rivojlanishida katta rol o‘ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o‘zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchi va o‘quvchining pedagogik tafakkuriga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Texnologiyani bunday tavslif qilish ta’lim jarayonidagi barcha tuzuvchilar orasidagi uzviy bog’lanishning muhimligini, pedagog va o‘quvchining o‘zaro hamkorligini ko‘rsatadi. O‘quvchi passiv ta’lim obyektidan faol shaxs ta’lim va tarbiya subyektiga aylanadi va aktiv subyekt sifatida o‘qituvchi bilan bu jarayonda qatnashadi, mustaqil bilim olishga intiladi. Fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiyaning boshlang‘ich maktabdagagi roli va vazifalarini ko‘rsatish zarur.

Metodika asosiga qurilgan ta’limga qaraganda “ta’lim texnologiyasi” ko‘p qirralidir.

Birinchidan, texnologiya asosida tub mahsulotlarni aniq tavsifi turadi. Texnologiyada maqsad markaziy komponent hisoblanib, bu holat unga erishish darajasini aniq topishga olib keladi.

Ikkinchidan, tub va oraliq maqsadlari aniqlangani uchun texnologiya maqsadga erishish va nazorat obyektiw usullarini ishlab chiqishga yo’l ochadi.

Uchinchidan, texnologiya o‘qituvchining pedagogik eksperiment qilishga majbur qiladigan holatlarini kamaytiradi.

To‘rtinchidan, texnologiya o‘qituvchi va uni faoliyat turlariga yo‘naltirilgan dars ishlanmalar o‘rniga, o‘quvchilarining o‘quv-o‘rganish faoliyati mazmuni va tuzilishini aniqlaydigan o‘quv jarayonining loyihasini beradi. Metodik dars ishlanmasi har bir o‘qituvchi tomonidan turlicha o‘zlashtiriladi, dars va o‘quvchilar faoliyati ham turlicha tashkil qilinadi. O‘quvchilarining o‘quv faoliyatini loyihalashtirish esa, programmalashtirilgan ta’lim tajribasi ko‘rsatganidek o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasini ko‘taradi. Inson - bu murakkab tizim va unga kuchi va yo‘nalishi har xil yoki qarama-qarshi bo‘lgan ko‘p sonli tashqi kuchlar ta’sir etadi, shuning uchun u yoki bu ta’siring samarasini oldindan aytib berish qiyin. Ijtimoiy texnologiya bu borada katta samaraga ega, chunki u qayta aloqaga kirisha oladi.

Masalan, o‘qituvchi doimiy nazoratni tashkil qilib, o‘quv materialini o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch kelgan o‘quvchilarni aniqlaydi va ular bilan qo‘srimcha ish olib boradi. Bunday paytda o‘qituvchi yangi materialni tushuntirish va mustahkamlash texnologiyasini qo’llaydi. Ya’ni, bu narsa materialni yetarli darajada o‘zlashtira olmaganlar uchun o‘tkaziladi. Endi texnologiyaning yana bir turi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Bu tushuntirish metodi va mustahkamlashdir.

Masalan, dars boshida o‘qituvchi 4-5 daqiqa savol-javob qilib, o‘tgan darsdagi qaysi savollarni qaysi o‘quvchi qay darajada o‘zlashtirganini aniqlaydi. So‘ngra, o‘qituvchi mavzuni boshqatdan tushuntirib o‘tirmay, so‘rash davomida sinf diqqatini aynan shu savollarga qaratadi. Savolga to‘liq javob qaytargan o‘quvchilar tinglanadi va sinfdagi barcha o‘quvchilar o‘zlashtirmaganlarini bilib oladilar. Bu usul o‘qituvchilarga mashg‘ulotidagi muammolarni aniqlab, tezda ularni yechish, ya’ni o‘quvchilarga yordam berishga imkon yaratadi.

Bunday texnologiya jarayoni vaqtini tejab, o‘tilgan materialni so‘rash metodi orqali mustahkamlashga ko‘maklashadi. Ijtimoiy texnologiya muayyan barcha sharoitlarga tezda moslashishi bilan ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Ta’limda joriy etilayotgan texnologiyaning asosiy o‘ziga xosligi, ularning insonparvarlikka yo‘naltirilganligidadir. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ta’limning insonparvarlikka yo‘naltirilganligi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda bolalarning axborotlar bilan ishslashdagi kasbiy yondashuvi, har bir o‘quvchi olingan ma'lumotni tizimlashtira olishi, fikrlashda mantiqiy izchillikka rioya qilishi bilan

xarakterlanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining asosiy komponenti ta'limiy vaziyat bo'lib, ta'lim oluvchilarning kasbiy funksiyalari to'rt asosiy texnologiya asosida tahil qiladi:

- 1) “*Masala bilan yondashuv texnologiyasi*” shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini belgilovchi elementlardan tuzilgan turli darajadagi masalalardan iborat;
- 2) “*O'quv dialogi texnologiyasi*” didaktik kommunikativ muhitni yaratish bilan bog'liq, subyektiv fikrlovchi muloqotni ta'minlovchi, refleksiya va shaxsni mustaqil o'z-o'zini tashkil etishi;
- 3) “*Imitatsion ta'limiy o'yin texnologiyasi*” musobaqa shartlarini ta'minlovchi bellashuv;
- 4) “*Ta'limning moslashuvchanlik texnologiyasi*” intellektual tizimlarning o'ziga xosligiga asosan vujudga keladi, mazmun, jarayonlari o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sir bosqichlaridan iborat. Ta'lim faoliyatining ko'p qirrali aniqlanishi, har bir bosqich doirasida ish tarkibining sikl modeli moslashuv algoritmi yordamida, operativ tahlil asosida va ta'lim oluvchining kasbiy rivojlanish darjasini korreksiyasi misolida aniqlanadi. Ta'lim jarayonini chiziqsiz tashkiliy va boshqaruv texnikasidan foydalanish kam vaqt ichida maqsadga erishishni ta'minlaydi.

Innovatsion pedagogika - hozirgi davrda norasmiy fan sifatida ma'lum bo'lgan, biroq kun sayin butun jahon soha mutaxassislarining e'tiboriga tushib, jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta'limiy ahamiyatini tan olgan pedagoglar jamoasi, olimlar, shu boisdan ham mavjud an'anaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar.

Innovatsion pedagogika-hukmron nazariya, nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innovatorlar fikriga asosan odatiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas.

Hozirgi pedagogik fandagi vaziyat umumiy holda shundan iborat. Bu vaziyatda innovatsiya juda muhim. Pedagogika-bilimlar tizimidir.

Insonning aqliy rivojlanganligi va tarbiyasi haqidagi bilim darajasining talabga muvofiqligi - obyektivlikning yagona talabidir.

Bolalar qanday bo’lib tug‘ilishi uning ota-onasidan bo’lak hech kimga bog’liq emas. Lekin har bir isonning yetarlicha rivojlanishi, barkamol shaxs darajasiga erishishi, o’ziga yoqqan mashg’ulot va hayotda o’z o’rini topishi, o’z umrini hayotiy me’yorlarga munosib o’tkazishi avvalo maktabga bog’liq. Har bir bola shaxsini sevish, hurmat qilish va uning rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish lozim. Agarda tabiatni o’rgatuvchi pedagogika moslashishni talab etmagan bo’lsa, gumanistik pedagogika bu masalani munosabatlar markaziga qo’yishni va bola me’yoriy darajada rivojlnana olishi uchun hamma ishni qilishni talab qiladi. Gumanistik pedagogikani ko’pincha innovatsion deb ataydilar. Lekin uning innovatsionligi faqatgina ayrim ta’lim tizimlariga aloqador. Hozirgi zamon G‘arb mamlakatlari ta’lim tizimlari uchun esa allaqachon gumanistik yo’nalishga o’ta boshlagan. Ta’lim asta-sekin yangi munosabatlarga aylana boshlagan. Gumanistik pedagogikani innovatsion pedagogika deb atalganda so‘zning to’la ma’nosida aytish mumkin: u tashqaridan “in’eksiya” talab qilmaydi, yuqori o’quv tarbiyaviy ta’sir natijalari tizimining ichki qayta tashkil etilishi evaziga erishiladi.

Gumanistik pedagogika - o’quv-tarbiya jarayoni ishtirokchisini, o’z imkoniyati bo'yicha rivojlantiruvchi teng huquqli, ongli, faol tarbiyalanuvchining yetishib chiqishida rol o’ynovchi ilmiy-nazariy tizimdir. Inson - qadr-qimmatini eng yuqori o’ringa qo'yilgan bizning davlatimizda insonparvarlik g’oyalari uchun keng yo'l ochib berdi.

Insonparvarlik nuqtayi nazaridan tarbiyaning asl maqsadi, har bir tarbiyalanuvchi munosabatlar, o’zlashtirish faoliyati to’la huquqli subyekti, mustaqil erkin shaxs bo’lib yetishishidan iborat. Tarbiya jarayonining insonparvarlik darajasi, ushbu jarayon shaxs o’zini namoyon eta olishi, o’zidagi hamma tabiiy imkoniyatlarini ochib bera olish, uning erkinlikka qobiliyati, ijodga ma’suliyatini ochib berish uchun shart-sharoit yaratib berishi bilan (belgilanadi) va baholanadi.

Insonparvarlik pedagogikasi shaxsga qaratilgandir, Uning belgilari: ma’lumotlar egallab olish va ma’lum doiradagi mahorat va ko’nikmalar yuzaga keltirish o’rniga texnik, jismoniy, intellektual (aqliy) rivojlanishiga diqqatning qaratilishi: erkin, mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvchi shaxsni shakllantirishga qaratilgan kuchlarni jamlash, har qanday hayotiy va o’quv vaziyatlarida

asoslangan qarorini tanlay-qabul qila oladigan insonparvar fuqaro bo‘lib yetishishi: o‘quv-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli qayta yo‘naltirishga erishish uchun kerakli tashkiliy shart-sharoitlar bilan ta’minlash.

O‘quv - tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishni avtoritar pedagogikadan uning shaxsga pedagogik bosimdan voz kechib, o‘quvchi va pedagog o‘rtasida haqiqiy insoniy munosabatlar o‘rnatish o‘quvchi faoliyati va shaxsiy erkinligiga asosiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsga qaratilgan pedagogikaga o‘tish deb tushunish kerak.

Insonparvarlik maktabi amaliyotini innovatsion faoliyatining aniq shakl va uslublarini ishlab chiqish. Ulardan ba’zilari:

1. O‘quv-tarbiya faoliyatini defferentsiyalash.
2. O‘quv ta’lim jarayonlarini har bir shaxs xislatiga qarab muvofiqlashtirish.
3. Har bir tarbiyalanuvchini va qiziqishini rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratib berish.
4. Gotogen sinflar va shunga o‘xshashlarni tashkil etish.
5. O‘quv-tarbiya faoliyatining qulayligi.
6. Psixologik xavfsizlik, o‘quvchilarni himoyalash.
7. O‘quvchiga, uning kuchi va imkoniyatlariga ishonish.
8. O‘quvchini-qanday bo’lsa shunday qabul qilish.
9. Ta’lim-tarbiya muvaffaqiyatini ta’minlash.
10. Maktab maqsad yo‘nalishini o‘zgartirish.
11. Har bir o‘quvchi rivojlanish darajasining asoslanishi.
12. Sirtqi ta’limni (ekstronat) «o‘quvchi bilan ma’naviy aloqasi yo‘q» ta’milanmasligi sababli to‘xtatish, yo‘qotish.
13. O‘qituvchi shaxsiy ichki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmalarini qayta yo‘naltirish.
14. Insonparvarlik ta’limini kuchaytirish.

Insonparvarlik pedagogikasini statistik baholash juda qiyin. Ammo shu narsa aniqlanganki, autentingligi, empatiya va so‘zsiz ma’qullah o‘quvchilar rivojlanishi bilan moslashib, bo‘lanib ketishi va intizom, maktabga salbiy munosabat kabi muammolar bilan yomon moslashuvi aniqlangan.[5].

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.M atnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika. «Fan va texnologiya».2018. - 528b.
2. Sharipov Sh. S., Muslimov N. A. (TDPU) . Professor-o’qituvchilar davt – talabi// Toshkent. PEDAGOGIKA. 2015. - 134b.
3. M.X. Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov. Pedagogika. — Toshkent: « O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - 400 b.
4. Kamoldinova diyora. Bitiruv malakavi ishi. Andijon. 2013.- 55b.

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI JAMOADA ISHLASH KO‘NICKALARINI SHAKLLANTIRISH

### *Komilova Shohsanam Xatambek qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang‘ich ta’lim)yo‘nalishi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish taxlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar jamoasi, hamkorlik, ko‘nikma va yondashuv, o‘zaro yordam, ta’lim va tarbiya, mакtab jamoasi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida boshlang‘ich ta’lim jarayonini xalqaro ta’lim dasturlariga moslashtirish va uning ko‘rsatkichlarini oshirib borish “O‘zbekiston -2030”strategiyasida belgilangan asosiy vazifalardan birini tashkil qiladi[1]. Shuning uchun dunyo mamlakatlari ta’lim tizimida amal qilayotgan o‘quvchilarning 4K modeli,ya’ni kommunikatsiya(ta’lim sharoitidan foydalanish),kollabaratsiya(jamoa bo‘lib ishlash),kreativlik(ijodiy fikrlash) va krititsizm(tanqidiy fikrlash)ko‘nikmalarini shakllantirish muhim masala bo‘lib kelmoqda. Bu o‘rinda e’tiboringizni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ana shunday eng muhim ko‘nikmalaridan biri bo‘lgan jamoa bo‘lib ishlashni shakllantirishga e’tiboringizni tortamiz.

Jamoa- bu ikki va undan ortiq shaxslarning o‘zaro va yagona maqsad yo‘lida birlashib harakat qilishidir[2]. Shu jihatdan o‘quvchilar jamoasi -bu ta‘lim oluvchilarning jismoniy ,yosh,aqliy va estetik xususiyatlariga mos ravishda o‘zaro guruhlardan iborat bo‘lgan shaxslar majmuidir.Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoasiga xos bo‘lgan xususiyatlar ham farqlanadi.Mazkur farqliklar quyidagilardan iborat:

- 1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim olish maqsadida muayyan guruhlar shaklida jamoa bo‘lib tarkib topishi;
- 2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoasi muddatli va ta‘sir kuchiga ega bo‘lish;
- 3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoasi dinamik rivojlanib borish xususiyatiga egaligi;
- 4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoasini kuzatib borish zaruriyat mavjudligi.

Shu ma‘noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning jamoasi eng avvalo bilim olish maqsadida tarkib topishiga e‘tibor berish lozim.Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilim olish faoliyatidan boshqa shaxsiy manfaatlari bo‘yicha guruh bo‘lib shakllanmaydi va buning natijasida boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ijodiy xarakterli bo‘lgan hamda o‘ziga jalb etiluvchanlik xususiyatiga ega jamoa tarkib topadi.Bunday jamoa tabiiy ravishda boshlang‘ich sinflar kesimida rivojlanib boradi.Unutmaslik lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zaro o‘rtoq yoki dugona bo‘lishi guruh sifatida e‘tirof etilmaydi.Shu jihatdan o‘quvchilar guruhi bu eng kamida 5-6 nafar ta‘lim oluvchilardan iborat bo‘lgan kichik jamoadir va bunday guruhlarning majmui boshlang‘ich sinf o‘quvchilarnining jamoasini tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoasi sinflar kesimida muddatli rejimga ega bo‘lib, uning ta‘lim va tarbiya jarayoniga ta‘siri yuqori hisoblanadi.Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari sinflar kesimida bilim,ko‘nikma hamda amaliyot vositalarini o‘rganib borishi jarayoni bilan o‘quvchilar jamoasining muddatli va ta‘sir kuchiga ega bo‘lishini tarkib toptiradi.Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoaviylik shakllariga muddatli munosabatda bo‘lish va ularning ta‘siriga e‘tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoasi dinamik rivojlanish xususiyatiga ham ega bo‘ladi.Bunda ta‘lim olishning kuchayishi, tarbiyaning amaliy samaradorligini va o‘quvchilarning faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababdan boshlang‘ich sinflar kesimida o‘quvchilarning jamoasi murakkab omillar asosida rivojlanib borishini hisobga olgan holda, jamoaning jipsligini va birligini ta‘minlovchi tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.Bunda ayniqsa,sinf rahbarlarining faolligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar jamoasini kuzatib borish ishlari o‘qituvchilar jamoasi tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.Bu masalaning ahamiyati shundaki, agar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jamoasi o‘zaro ziddiyatlar asosida kechadigan bo‘lsa,uning ta‘lim va tarbiya sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi kelib chiqadi.Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilar jamoasini nazorat qilishni emas,aksincha,kuzatib borishni taqozo etadi.Endilikda o‘qituvchi jamoada paydo bo‘lgan va u bilan bog‘liq muammo, masalalarni yolg‘iz o‘zi hal qilmaydi.Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalgan etadi[3].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasini shakllantirishning eng muhim amaliy asoslaridan biri ularni berilgan topshiriq va uy vazifalarini jamoa bo‘lib bajarishga yo‘naltirishdir.Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va sinf rahbarlari o‘quvchilarning ta‘lim va tarbiya bo‘yicha berilgan topshiriqlarni hamda uy vazifalarini sinda jamoa bo‘lib bajarishga yo‘naltirish muhim o‘rin tutadi.Topshiriqlarni va uy vazifalarini jamoa bo‘lib bajarish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bir-birlaridan bilmaganlarini o‘rganadilar,ko‘nikmalar bo‘yicha o‘zlashtirish yuzaga keladi va eng asosiysi sinf jamoasini jipslashishning imkoniyatlari kengayadi.Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas‘uliyat hissini uyg‘ota borib,jamoa a’zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, a’zolarda jamoaga mansublik hissini paydo bo‘lishiga ko‘maklashadi[4].Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari topshiriqlar va uy vazifalarini katta yoshlilar yordamida bajarishdan ko‘ra, sinda jamoa bo‘lib bajarishda kerakli ko‘nikmalarni tez o‘zlashtiradilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jamoasini hamkorlik asosida rivojlanirishning muhim mexanizmlaridan biri maktab jamoasi bilan hamkorlik qilishdir.Bunda maktab o‘qituvchilari, psixologlari va tibbiyot hodimlari boshlang‘ich sinf

o‘quvchilari jamoasida muddatli yuzaga keladigan muammolarni hal etishda amaliy ishtirok etadi. Misol uchun, muayyan boshlang‘ich sinf jamoasida bilimlarni o‘zlashtirish susaydi, bunday sharoitda maktabning mahoratli o‘qituvchilari turli pedagogik va psixologik ta‘sirlar vositasida mazkur jamoada o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yuksaltirish ishlarini amalga oshiradi. Yoki maktab psixologi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jamoasidagi ijobiy yoki salbiy xususiyatlarni kuzatib borishi bilan mazkur jamoaning rivojlanishiga ilmiy hissa qo‘sishni eslatib o‘tish joiz. Shu ma’noda maktab jamoasining har birini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jamoasini rivojlantirishdagi ishda o‘z vazifalari mavjudligini ta‘kidlab o‘tish lozim.

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoada ishslash ko‘nikmasini shakllantirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda o‘quvchilar jamoasining o‘ziga xosligiga e’tibor berish, ularning psixologik holatiga, yoshiga, saviyasiga e’tibor qaratish, o‘quvchilar jamaosini maqsadli yo‘naltirish va mazkur jamoani hamkorlik vositasida rivojlantirib borish muhim o‘rin tutadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. "O‘zbekiston-2030"strategiyasi.// [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. Djurayev R. va boshqalar.Pedagogika atamalari lug‘ati.-Toshkent,2008
- 3.[www.kompy.info](http://www.kompy.info)
- 4.[www.azkurs.org](http://www.azkurs.org)2023

**UDK: 521.345**

## **SUN’IY NEYRON TO‘RINI SINTEZ QILSH MODELI VA UNING DASTURIY TA’MINOTI**

***Nafasov G‘anisher Abdurashidovich***

*Guliston davlat universiteti dotsenti,*

*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: gnafasov87@gmail.com*

***Abduraimov Dostonbek Egamnazor o‘g‘li***

*Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi*

*E-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru*

***Ibragimov Javohir Ahmad o‘g‘li***



Guliston davlat universiteti, Matematika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: [ibragimovjavohir65@gmail.com](mailto:ibragimovjavohir65@gmail.com)

**Rahmonov Samariddin Kamoliddin o‘g‘li**

Guliston davlat universiteti, Matematika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: [rahsamariddin@gmail.com](mailto:rahsamariddin@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bugungi kunda jamiyatimiz har bir a’zosi hayotiga va iqtisodiyotga kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarini ommaviy joriy etilishi uchun sharoit yaratishni, jahon bozorida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Ushbu muhim qarorlarni qabul qilinishiga jamiyat va iqtisodiyotni turli sohalarida tezkor axborot almashinuviga, dunyo axborot zahiralaridan foydalanishga bo‘lgan talab, ta’lim jarayonlarini va insonlarning kundalik hayotini kompyuterlashtirish zarurati hamda axborot va ma’lumotlar bazalarining xavfsizligini ta’minlanish talabi asos bo‘lib xizmat qildi. Keltirilgan ushbu maqolada sun’iy neyron to‘rini sintez qilsh modelini amalga oshirish va uning dasturiy ta’minoti hamda undan olingan natijalar keltirilib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sun’iy neyron to‘rlari, etalon, chiziqli qobig‘i, timsollar, signallar, obrazlar, proyeksiya usuli, elektrodiagramma, interpretatsiya.

**Аннотация:** Сегодня необходимо создать условия для массового внедрения компьютерных технологий и информационных технологий в жизнь и экономику каждого члена нашего общества, обеспечить конкурентоспособность экономики нашей страны на мировом рынке. Принятие этих важных решений является приоритетным. Основанным на потребности в быстром информационном обмене в различных областях общества и экономики, использовании мировых информационных ресурсов, образовании, необходимости компьютеризации процессов и повседневной жизни людей и требованиям обеспечения безопасности информации и баз данных послужило основанием этого. в статье представлена реализация модели синтеза искусственной нейронной сети и ее программного обеспечения, а также полученные от нее результаты.

**Ключевые слова:** Искусственные нейронные сети, эталон, линейная огибающая, символы, сигналы, изображения, проекционный метод, электродиаграмма, интерпретация.

**Annotation:** Today it is necessary to create conditions for the massive introduction of computer technologies and information technologies into the life and economy of every member of our society, to ensure the competitiveness of our country's economy in the world market. Making these important decisions is a priority. Based on the need for rapid information exchange in various areas of society and the economy, the use of world information resources, education, the need for computerization of processes and everyday life of people and the requirement to ensure the security of information and databases served as the basis for this. The article presents the implementation of the artificial neural network synthesis model and its software, as well as the results obtained from it.

**Keywords:** Artificial neural nets, standard, linear envelope, symbols, signals, images, projection method, electrodiagram, interpretation.

## KIRISH

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasini 2019-2021 yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasida keltirilgan vazifalardan kelib chiqqan holda 2021-2022 yillar uchun O‘zbekiston Respublikasining Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasining maqsadi - sun’iy intellekt sohasida milliy ilmiy tadqiqot va rivojlantirish faoliyatlarini tizimli tarzda yo‘lga qo‘yish hamda ta’limni samarali isloh etishdan iborat [1].

Ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta’lim, tibbiyot, bandlik, qishloq ho‘jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish asosiy masalalardan bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali 2030

yilga qadar innovatsion taraqqiy etgan yetakchi davlatlar qatoridan o‘rin egallash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Sun’iy intellekt (SI) inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi. Hozirda SI turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi. SI ning yorqin namunalaridan biri-IBM Watson superkompyuteri bo‘lib, u o‘z bazasidan kelib chiqib muayyan tilda berilgan savollarga javob beradi. Shuningdek, ko‘pchilikning doimiy hamrohiga aylanib ulgurgan mobil yordamchi Siri, fotosuratlarni qayta ishlovchi Prisma kabi dasturlarni SIning yutuqlaridan biri sifatida qayd etish mumkin. Hozirgi kunga kelib sun’iy intellekt keng ko‘lamda ommalashib kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Masalan, Xitoydagι Inchuan shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo‘q. Hisob-kitoblar bilan bog‘liq barcha jarayonlar sun’iy intellekt tomonidan insonning yuz qiyo fasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Sun’iy neyron to‘riini qurish masalasi - bu modellashtirish masalasidir. Chunki qo‘yilgan masalaga uchun mos qanday topologiyadagi sun’iy neyron to‘riini qurish zarurligi bo‘yicha o‘ziga mos konkret ko‘rsatmalar yo‘qligi sababli, sun’iy neyron to‘riini tuzilishi intuitiv ravishda aniqlanadi va hisoblash tajribalari asosida u yoki bu ko‘rinish qabul qilinadi. Xususan, ko‘p qatlamlı sun’iy neyron to‘riini uchun qatlamlar soni qanday bo‘lishi kerak, har bir qatlamda nechtadan neyron bo‘lishi kerak, o‘rganish jarayonining iterativ qadamlari soni va shu kabi savollar predmet soha tanlovi ustida amalga oshiriladigan tajribalar asosida qabul qilinadi.


Maqolada qo‘yilgan masalani yechish uchun C++ Builder dasturlash muhiti tanlandi. Chunki C++ Builder dasturlash muhiti obyektga yo‘naltirilgan dasturlash texnologiyasiga tayanadi, unda vizual dasturlash muhiti mavjud va u dinamik berilganlar bilan ishslash imkoniyatiga ega [6-7].

Dasturiy ta’mintonini yaratishda masala mohiyatiga mos keladigan berilganlar bazasini tanlash muhim ahamiyatga ega. Chunki mos berilganlar bazasini aniqlash – dasturni muvaffaqiyatli yaratilishining garovidir.

Masalani yechishda tajriba berilganlar bazasini (tanlovni) yaratish, tanlov chiziqli qobig‘ini qurish, nominal alomatlarni miqdoriy alomat bilan almashtirish, turli tajribalar o’tkazish asosida eng optimal chiziqli qobiqni topish va uning asosida bir qatlamlı suniy neyron to‘rinini qurish talab etiladi. Bu amallarga mos modullarni yaratishni taqozo etadi.

Dasturiy ta’mintonini yaratishda funksiyalardan foydalanilgan. Barcha funksiyalar bir sinf ostida birlashtirilgan.

Dasturiy ta’mintonini yaratishda funksiyalardan foydalanilgan. Barcha funksiyalar bir sinf ostida birlashtirilgan. Bosh funksiya dasturning asosiy funksiyasi bo‘lib, undan qolgan barcha funksiyalarga murojaat qilib, kerakli natijalarni olish mumkin.



1-rasm. Dasturiy taminotning tuzilishi

Dasturning bosh modul (funksiya) dasturning asosiy funksiyasi bo‘lib, undan qolgan barcha funksiyalarga murojaat qilib, kerakli natijalarni olish mumkin.

Masalani yechish strukturalashgan matn ko‘rinishida tanlov beriladi. Uning ko‘rinishi quyidagicha:

<obyektlar umumiy soni>

<alomatlar umumiy soni>

<sinfalar soni>

<jadval>

Bu yerda: <alomat umumiy soni> – tanlov obyektlari alomatlari soni.

<obyektlar umumiy soni> – tanlov obyektlari soni.

<sinfalar soni> – tanlov sinflari soni.

<jadval> – ekspertlar bergan bilimlar. Uning ko‘rinishi quyidagicha:

<sinf><alomat-1><alomat-2> ... <alomat-n>

Bu yerda: <sinf> - ushbu obyekt qaysi sinfga (holat yoki no holat, 1 yoki 2 qiymati bo‘lishi mumkin) tegishliligini bildiradi.

<alomat-1><alomat-2> ... <alomat-n> – obyekt alomatlarining miqdoriy qiymatlari. Har bir miqdoriy qiymat bilan berilgan alomat probel bilan ajratilib yozilgan bo‘ladi.

n – alomatlar soniga teng.

Obyektlar sonini dasturning o‘zi aniqlab oladi. Shuning uchun obyektlar sonini tanloving matn ko‘rinishida kiritish shart emas[1-6].

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Misol tariqasida “Iris” tanlovidan bir qismini keltirib o‘tamiz:

100 4 2

1 7.0 3.2 4.7 1.4

1 6.4 3.2 4.5 1.5

1 6.9 3.1 4.9 1.5

1 5.5 2.3 4.0 1.3

1 6.5 2.8 4.6 1.5

1 5.7 2.8 4.5 1.3

1 6.3 3.3 4.7 1.6

...

2 6.7 3.1 5.6 2.4

2 6.9 3.1 5.1 2.3

2 5.8 2.7 5.1 1.9

2 6.8 3.2 5.9 2.3

2 6.7 3.3 5.7 2.5

2 6.7 3.0 5.2 2.3

2 6.3 2.5 5.0 1.9

Ushbu misoldan ko‘rish mumkinki, alomatlar soni – 4 taga teng. Obyektlar soni esa – 14 ta. Ulardan 7 tasi 1-sinfga tegishli, qolganlari esa, ya’ni 2-sinf obyektlari miqdori 7 ta.

Bundan tashqari har bir alomatlarning nomi yozilgan fayl ham kerak bo‘ladi. Bu fayl ham matn ko‘rinishida bo‘ladi. Uning ko‘rinishi quyidagicha:

<alomat umumiyl soni>

<alomat nomeri – 1><1-alomat nomi>

<alomat nomeri – 2><2-alomat nomi>

...


<alomat nomeri – n><n-alomat nomi>

Bu yerda: <alomat umumiy soni> – tanlov obyektlari alomatlari soni. Keyingi qatorlarda esa har bir alomat uchun alomatning nomi keltirilgan. Alomatning tartiq raqamidan so‘ng 1 dona probel tashlab, so‘ngra alomatning nomi keltiriladi. Satr oxirigacha yozilgan barcha matn alomat nomi deb qabul qilinadi. Aniq bir masala uchun tanlovning ko‘rinishi 2-rasmida keltiriligan[1-3].

	1-xossa	2-xossa	3-xossa	4-xossa	4-xossa
1-obyekt	1	7.0	3.2	4.7	1.4
2-obyekt	1	6.4	3.2	4.5	1.5
3-obyekt	1	6.9	3.1	4.9	1.5
4-obyekt	1	5.5	2.8	4.0	1.3
5-obyekt	1	6.5	2.8	4.6	1.5
6-obyekt	1	5.7	2.8	4.5	1.3
7-obyekt	1	6.3	3.3	4.7	1.6
8-obyekt	1	4.9	2.4	3.3	1.0
9-obyekt	1	6.6	2.9	4.6	1.3
10-obyekt	1	5.2	2.7	3.9	1.4
11-obyekt	1	5.0	2.0	3.5	1.0
12-obyekt	1	5.9	3.0	4.2	1.5
13-obyekt	1	6.0	2.2	4.0	1.0
14-obyekt	1	6.1	2.9	4.7	1.4

2-rasm. Tanlovning “obyekt-xossa” jadvali

Shundan so‘ng qolgan hisoblash ishlarini bajarish mumkin. Buning uchun “Tajriba sozlamalari” bo‘limiga o’tiladi. Bu bo‘limda tajriba haqida izoh keltirilgan va tajriba o’tkazish uchun kiritilishi kerak bo‘lgan sozlamalarni tanlash kerak. Birinchisi – metrika, kerakli metrika tanlanadi. So‘ng tajribada qanchadan element o‘chirib borish kerakligini tanlash kerak. Kerakli ma’lumotlar kiritilgach “Hisoblash” tugmasi bosiladi. So‘ngra dastur tajribalarni o’tkazgan holda natijalarni foydalanuvchiga taqdim etadi.



3-rasm. Tanlov chiziqli qobig'i bilan tajriba natijalari

“Hisoblash” tugmasi bosilganda oyna avtomatik ravishda “Tajriba – qobiq obyektlar va turg‘unlik” bo‘limiga o’tadi. “Tajriba – qobiq obyektlar va turg‘unlik” bo‘limida o’tkazilgan tajriba natijalari taqdim etiladi. Bular qobiq obyektlar va ularning turg‘unligi. Tajribalar “T#” (# - tajribaning maxsus nomeri) ko‘rinishida taqdim etiladi. Birinchi tajribada berilgan berilgan tanlovning o‘zi, Tajribalar tanlovning turli ko‘rinishida va 3 xil metrikada o’tkaziladi. Birinchi tajribada berilgan berilgan tanlovning o‘zi, ikkinchi tajribada tanlov elementlari qiymatlarini [0;1] oraliqqa akslantirilgan xolatda, qolgan tajribalarda esa tanlov boshidan boshlab foydalanuvchi tanlagan miqdordagi obyektlarni surish yo‘li bilan o‘chirib borish orqali hosil bo‘lgan tanlov ustida tajriba o’tkazilgan. Birinchi jadvalda qobiq obyektlar taqdim etiladi. Ikkinchi jadvalda shu obyektlarning turg‘unligi taqdim etiladi.

Minimal konfiguratsiyali sun’iy neyron to’rini sintez qilish																																																																																																																																																						
Tanlov	Tajriba sozlamalari	Tajriba - qobiq obyektlar va turg'unlik	Tajriba - dispersiya	Xulosalar	Sintez																																																																																																																																																	
<b>Evklid metrikasida tajriba natijalari</b>																																																																																																																																																						
Qobiq obyektlar				Obyektlar turg'unligi																																																																																																																																																		
<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <thead> <tr> <th></th><th>T-1</th><th>T-2</th><th>T-3</th><th>T-4</th><th>T-5</th><th></th></tr> </thead> <tbody> <tr><td>1-neyron</td><td>7</td><td>21</td><td>5</td><td>7</td><td>7</td><td></td></tr> <tr><td>2-neyron</td><td>21</td><td>23</td><td>7</td><td>14</td><td>10</td><td></td></tr> <tr><td>3-neyron</td><td>23</td><td>28</td><td>21</td><td>19</td><td>21</td><td></td></tr> <tr><td>4-neyron</td><td>28</td><td>29</td><td>23</td><td>34</td><td>23</td><td></td></tr> <tr><td>5-neyron</td><td>29</td><td>34</td><td>28</td><td>52</td><td>28</td><td></td></tr> <tr><td>6-neyron</td><td>34</td><td>52</td><td>29</td><td>57</td><td>29</td><td></td></tr> <tr><td>7-neyron</td><td>52</td><td>57</td><td>34</td><td>70</td><td>57</td><td></td></tr> <tr><td>8-neyron</td><td>57</td><td>70</td><td>52</td><td>84</td><td>70</td><td></td></tr> <tr><td>9-neyron</td><td>70</td><td>74</td><td>57</td><td>85</td><td>74</td><td></td></tr> <tr><td>10-neyron</td><td>74</td><td>84</td><td>70</td><td>89</td><td>84</td><td></td></tr> <tr><td>11-neyron</td><td>84</td><td>85</td><td>74</td><td>93</td><td>89</td><td></td></tr> <tr><td>12-neyron</td><td>85</td><td>89</td><td>84</td><td></td><td>98</td><td></td></tr> <tr><td>13-neyron</td><td>89</td><td>93</td><td>85</td><td></td><td></td><td></td></tr> <tr><td>14-neyron</td><td>93</td><td>98</td><td>89</td><td></td><td></td><td></td></tr> <tr><td>15-neyron</td><td>98</td><td></td><td>93</td><td></td><td></td><td></td></tr> <tr><td>16-neyron</td><td></td><td></td><td>98</td><td></td><td></td><td></td></tr> </tbody> </table>								T-1	T-2	T-3	T-4	T-5		1-neyron	7	21	5	7	7		2-neyron	21	23	7	14	10		3-neyron	23	28	21	19	21		4-neyron	28	29	23	34	23		5-neyron	29	34	28	52	28		6-neyron	34	52	29	57	29		7-neyron	52	57	34	70	57		8-neyron	57	70	52	84	70		9-neyron	70	74	57	85	74		10-neyron	74	84	70	89	84		11-neyron	84	85	74	93	89		12-neyron	85	89	84		98		13-neyron	89	93	85				14-neyron	93	98	89				15-neyron	98		93				16-neyron			98																												
	T-1	T-2	T-3	T-4	T-5																																																																																																																																																	
1-neyron	7	21	5	7	7																																																																																																																																																	
2-neyron	21	23	7	14	10																																																																																																																																																	
3-neyron	23	28	21	19	21																																																																																																																																																	
4-neyron	28	29	23	34	23																																																																																																																																																	
5-neyron	29	34	28	52	28																																																																																																																																																	
6-neyron	34	52	29	57	29																																																																																																																																																	
7-neyron	52	57	34	70	57																																																																																																																																																	
8-neyron	57	70	52	84	70																																																																																																																																																	
9-neyron	70	74	57	85	74																																																																																																																																																	
10-neyron	74	84	70	89	84																																																																																																																																																	
11-neyron	84	85	74	93	89																																																																																																																																																	
12-neyron	85	89	84		98																																																																																																																																																	
13-neyron	89	93	85																																																																																																																																																			
14-neyron	93	98	89																																																																																																																																																			
15-neyron	98		93																																																																																																																																																			
16-neyron			98																																																																																																																																																			
<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <thead> <tr> <th></th><th>T-1</th><th>T-2</th><th>T-3</th><th>T-4</th><th>T-5</th><th>T-6</th><th>T-</th></tr> </thead> <tbody> <tr><td>2-neyron</td><td>0.200</td><td>0.089</td><td>0.205</td><td>0.298</td><td>0.533</td><td>0.044</td><td>0.</td></tr> <tr><td>3-neyron</td><td>0.267</td><td>0.022</td><td>0.091</td><td>0.404</td><td>0.067</td><td>0.089</td><td>0.</td></tr> <tr><td>4-neyron</td><td>0.044</td><td>0.467</td><td>0.091</td><td>0.000</td><td>0.111</td><td>0.044</td><td>0.</td></tr> <tr><td>5-neyron</td><td>0.622</td><td>0.000</td><td>0.023</td><td>0.819</td><td>0.000</td><td>0.444</td><td>0.</td></tr> <tr><td>6-neyron</td><td>0.156</td><td>0.289</td><td>0.432</td><td>0.191</td><td>0.400</td><td>0.000</td><td>0.</td></tr> <tr><td>7-neyron</td><td>0.244</td><td>0.200</td><td>0.000</td><td>0.191</td><td>0.178</td><td>0.267</td><td>0.</td></tr> <tr><td>8-neyron</td><td>0.000</td><td>0.200</td><td>0.273</td><td>0.234</td><td>0.178</td><td>0.200</td><td>0.</td></tr> <tr><td>9-neyron</td><td>0.089</td><td>0.200</td><td>0.182</td><td>0.447</td><td>0.178</td><td>0.200</td><td>0.</td></tr> <tr><td>10-neyron</td><td>0.133</td><td>0.222</td><td>0.182</td><td>0.191</td><td>0.200</td><td>0.200</td><td>0.</td></tr> <tr><td>11-neyron</td><td>0.111</td><td>0.467</td><td>0.182</td><td>0.319</td><td>0.178</td><td>0.200</td><td>0.</td></tr> <tr><td>12-neyron</td><td>0.378</td><td>0.200</td><td>0.205</td><td></td><td>0.489</td><td>0.378</td><td>0.</td></tr> <tr><td>13-neyron</td><td>0.044</td><td>0.289</td><td>0.386</td><td></td><td></td><td>0.200</td><td>0.</td></tr> <tr><td>14-neyron</td><td>0.244</td><td>0.578</td><td>0.182</td><td></td><td></td><td>0.267</td><td></td></tr> <tr><td>15-neyron</td><td>0.467</td><td></td><td>0.273</td><td></td><td></td><td>0.467</td><td></td></tr> <tr><td>16-neyron</td><td></td><td></td><td>0.477</td><td></td><td></td><td></td><td></td></tr> <tr><td>O’chirilmagan</td><td>7</td><td>7</td><td>7</td><td>14</td><td>2</td><td>7</td><td>1</td></tr> <tr><td>O’chirilganda</td><td>5</td><td>9</td><td>9</td><td>12</td><td>4</td><td>4</td><td>12</td></tr> </tbody> </table>								T-1	T-2	T-3	T-4	T-5	T-6	T-	2-neyron	0.200	0.089	0.205	0.298	0.533	0.044	0.	3-neyron	0.267	0.022	0.091	0.404	0.067	0.089	0.	4-neyron	0.044	0.467	0.091	0.000	0.111	0.044	0.	5-neyron	0.622	0.000	0.023	0.819	0.000	0.444	0.	6-neyron	0.156	0.289	0.432	0.191	0.400	0.000	0.	7-neyron	0.244	0.200	0.000	0.191	0.178	0.267	0.	8-neyron	0.000	0.200	0.273	0.234	0.178	0.200	0.	9-neyron	0.089	0.200	0.182	0.447	0.178	0.200	0.	10-neyron	0.133	0.222	0.182	0.191	0.200	0.200	0.	11-neyron	0.111	0.467	0.182	0.319	0.178	0.200	0.	12-neyron	0.378	0.200	0.205		0.489	0.378	0.	13-neyron	0.044	0.289	0.386			0.200	0.	14-neyron	0.244	0.578	0.182			0.267		15-neyron	0.467		0.273			0.467		16-neyron			0.477					O’chirilmagan	7	7	7	14	2	7	1	O’chirilganda	5	9	9	12	4	4	12
	T-1	T-2	T-3	T-4	T-5	T-6	T-																																																																																																																																															
2-neyron	0.200	0.089	0.205	0.298	0.533	0.044	0.																																																																																																																																															
3-neyron	0.267	0.022	0.091	0.404	0.067	0.089	0.																																																																																																																																															
4-neyron	0.044	0.467	0.091	0.000	0.111	0.044	0.																																																																																																																																															
5-neyron	0.622	0.000	0.023	0.819	0.000	0.444	0.																																																																																																																																															
6-neyron	0.156	0.289	0.432	0.191	0.400	0.000	0.																																																																																																																																															
7-neyron	0.244	0.200	0.000	0.191	0.178	0.267	0.																																																																																																																																															
8-neyron	0.000	0.200	0.273	0.234	0.178	0.200	0.																																																																																																																																															
9-neyron	0.089	0.200	0.182	0.447	0.178	0.200	0.																																																																																																																																															
10-neyron	0.133	0.222	0.182	0.191	0.200	0.200	0.																																																																																																																																															
11-neyron	0.111	0.467	0.182	0.319	0.178	0.200	0.																																																																																																																																															
12-neyron	0.378	0.200	0.205		0.489	0.378	0.																																																																																																																																															
13-neyron	0.044	0.289	0.386			0.200	0.																																																																																																																																															
14-neyron	0.244	0.578	0.182			0.267																																																																																																																																																
15-neyron	0.467		0.273			0.467																																																																																																																																																
16-neyron			0.477																																																																																																																																																			
O’chirilmagan	7	7	7	14	2	7	1																																																																																																																																															
O’chirilganda	5	9	9	12	4	4	12																																																																																																																																															

4-rasm. Evklid metrikasida tanlov chiziqli qobig‘ini bilan tajriba natijalari

Ushbu oynada turg‘unligi 0.1 dan past bo‘lgan obyektlar qizil rang bilan bo‘yalgan holda taqdim etiladi.O‘ngdag‘i jadvalda so‘nggi 2 qatorda turg‘unligi 0.1 dan past bo‘lgan qobiq elementlar o‘chirilmagan va o‘chirib tashlangan holatda berilgan tanlov elementlari sintez qilinganda qancha elementlar o‘z sinfiga tushmasligi taqdim etiladi.

## XULOSA

Maqlada qo‘yilgan sun’iy neyron to’rini sintez qilish modelini amalga oshirish masala keng qamrovlidir.Olingan natijalar bu sohadagi tadqiqotlarning bir yo‘nalishiga ta’lluqlidir.Chiziqli qobiqni qurishda turli toifadagi (miqdoriy va nominal) alomatlar holatlarini inobatga olish, ushbu usulni obyektlari sinflarga

ajratilmagan tanlovga qo’llash va shu asosda sun’iy neyron to‘rini qurish keyingi maqlalarda qo‘yilgan masalaning uzviy davomi deb hisoblash mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Гаврилов А.В. Системы искусственного интеллекта.- Новосибирск: НГТУ, 2004.-59с.
2. Игнатьев Н.А.О синтезе факторов в искусственных нейронных сетях // Вычислительные технологии.- Новосибирск, 2005.- Т. 10, №3. - С. 32 - 38.
3. Madrakhimov Sh.F. Yuldashev R. About a transparency of process of synthesis of neural networks with the minimal configuration // Труды конференции Актуальные проблемы прикладной математики и информационных технологий – Аль Хорезми 2009, Ташкент, 18-21 сентября, 2009, Том 2, с. 165-168.
4. Игнатьев Н.А. Интеллектуальный анализ данных на базе непараметрических методов классификации и разделения выборок объектов поверхностями // НУУз, “Университет”, Ташкент, 2006. 75 с.
5. Архангельский А.Я. C++ Builder 6. Справочное пособие. Книга 1. Язык C++. – М.: Бином-Пресс, 2002 г.-544с.
6. Б. Страуструп. Язык программирования C++. Специальное издание.-М.: ООО «Бином-Пресс», 2006.-1104 с.
7. Baxtiyorovna, G. N. (2022). BO ‘LAJAK FIZIKA O ‘QITUVCHILARIDA MANTIQIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 5, 96-97.
8. Abdurashidovich, N. G., Muzaffarovich, U. N., Qosim o‘g‘li, N. Q., & Olimjon, D. (2023). Design in the process of teaching mathematics and its teaching methodology. *Genius Repository*, 25, 23-27.
9. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. *Genius Repository*, 25, 28-32.
10. Нафасов, Г. А., & Едгоров, Д. Д. (2023). РАЗВИТИЕ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ ПРЕПОДАВАНИЯ ЭЛЕМЕНТАРНОЙ МАТЕМАТИКИ. *Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»*. Выпуск № 52 (том 1)(сентябрь, 2023). Дата выхода в свет: 30.09. 2023., 143.

11. Nafasov, GA (2023). Suv omborlarining suv o'tkazuvchi traktining past bosim zonasini aniqlash. *Genius ombori* , 25 , 28-32.
12. Abdurashidovich, NG (2021). Boshlang'ich matematikani o'qitish jarayonida oliv o'quv yurtlari talabalarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari. *Europa molekulyar va klinik tibbiyot jurnali* , 8 (1), 789-806.
13. Abdullayeva, B. S., & Nafasov, G. A. (2019). Current State Of Preparation Of Future Teachers Of Mathematics In Higher Education Institutions. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(2), 12-17.
14. Nafasova, G., & Pardaveva, E. (2023). BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING MANTIQIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHDA SAMARALI FIZIKA O'QITISH METODLARI. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 3(4), 50-53.
15. Abdurashidovich, N. G. REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF CONTENT FOR HEURISTIC TASKS IN THE TEACHING OF ELEMENTARY MATHEMATICS TO FUTURE MATHEMATICS TEACHERS.
16. Нафасов, Г. А., & Мирхайдаров, М. Х. (2022). ИЗУЧЕНИЕ ИНТЕГРИРОВАНИЯ БИНОМИАЛЬНЫХ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 205.
17. Kengash, J., & Abdurashidovich, N. G. (2023). To approximate solution to a problem of filtration theory for small values of TIME. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 19, 32-37.
18. Abdurashidovich, N. G., & Kengash, J. (2022). The Local Problem with Integral Gluing Condition for Loaded Mixed Type Equation Involving the Caputo Fractional Derivative. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 14, 20-26.
19. Abdurashidovich, N. G., Tagayevich, D. U., & Mirkomilovich, K. M. (2023). The Use of Technology in The Approximation of Didactic Units in The Training of Future Mathematics Shooters on The Basis of Innovative Education. *Genius Repository*, 24, 34-38.
20. Nafasov, G., Xudoyqulov, R., & Usmonov, N. (2023). DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS IN MATHEMATICS TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(5 Part 2), 229-233.

21. Seytov, A., Abdurakhmanov, O., Kakhkhorov, A., Karimov, D., & Abduraimov, D. (2024). Modeling of two-dimensional unsteady water movement in open channels. In E3S Web of Conferences (Vol. 486, p. 01023). EDP Sciences.
22. Mamatov, A., Bakhramov, S., Abdurakhmonov, O., & Abduraimov, D. (2023, October). Mathematical model for calculating the temperature of cotton in a direct-flow drying drum. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2746, No. 1). AIP Publishing.
23. АБДУРАИМОВ, Д., ҚИЛИЧЕВ, С., & АХМЕДОВА, Х. (2023). ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА ТАЛЬИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР. Journal of Research and Innovation, 1(3), 13-17.
24. АБДУРАИМОВ, Д. (2023). ТЕРМОЭЛАСТИК ДИНАМИК БОҒЛИҚ МАСАЛАНИНГ СТЕРЖЕНЬ УЧУН МАТЕМАТИК МОДЕЛИ ВА СОНЛИ ЕЧИМИ. Journal of Experimental Studies, 1(1), 3-7.
25. Нафасов ФА, Абдураимов ДЭ, and Н. М. Усмонов. "ТРАНСВЕРСАЛ ИЗОТРОП ЖИСМ УЧУН ИККИ ЎЛЧОВЛИ ТЕРМОЭЛАСТИК БОҒЛИҚ МАСАЛАНИ СОНЛИ МОДЕЛЛАШТИРИШ ВА УНИНГ ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТИ." Қарду ҳаб: 13.
26. Сейтов, А. Ж., Абдураимов, Д. Э., & Абдурахмонов, О. Н. (2023). МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ДЛЯ МОДЕЛИРОВАНИЯ ДВУХМЕРНОГО НЕУСТАНОВИВШЕГОСЯ ДВИЖЕНИЯ ВОДЫ НА ВОДОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОБЪЕКТАХ. Экономика и социум, (10 (113)-1), 639-649.
27. Раҳмонов С.К. Физик масала ва унинг геометрик ҳолатдаги ечими // Амалий математиканинг замонавий муаммолари ва истиқболлари мавзусидаги республика илмий-амалий конференция тезислар тўплами. Қарши, 2024-йил 24-25- май. 474-476 бетлар.
28. Ибрагимов Ж.А. Тригонометрик формулаларнинг лабачевски геометриясидаги ўрни // Амалий математиканинг замонавий муаммолари ва истиқболлари мавзусидаги республика илмий-амалий конференция тезислар тўплами. Қарши, 2024-йил 24-25- май. 477-479 бетлар.
29. Ибрагимов Ж.А. Физик масалаларга менелай теоремасининг татбиқи // "Математиканинг замонавий масалалари: муаммо ва ечимлар" республика

илмий-амалий конференция материаллари. Кўқон, 2024-йил 20- май. 32-36 бетлар.

30. Раҳмонов С.К. Математика фанинг иқтисодиётга интегратцияси // “Математиканинг замонавий масалалари: муаммо ва ечимлар” республика илмий-амалий конференция материаллари. Кўқон, 2024-йил 20- май. 111-114 бетлар.

31. Раҳмонов С.К. Ўрта маҳсус таълим тизимида математика фанинг бошқа фанлар билан алоқадорлиги // “Математиканинг замонавий масалалари: муаммо ва ечимлар” республика илмий-амалий конференция материаллари. Кўқон, 2024-йил 20- май. 296-299 бетлар.

32. Ибрагимов Ж.А. Таълим муассасаларида maple математик пакети имкониятларидан // “Математиканинг замонавий масалалари: муаммо ва ечимлар” республика илмий-амалий конференция материаллари. Кўқон, 2024-йил 20- май. 301-304 бетлар.

## **O’QUVCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI DARAJASIGA JISMONIY TARBIYA DARSALARINING TA’SIRI**

**Izatullayev Alisher Muxtorjon o’g’li**

*Namangan davlat pedagogika instituti, o’qituvchi*

**Mahmudjonov Asilbek Abduvoxid o’g’li**

*Namangan davlat pedagogika instituti, o’qituvchi*

**Saxijonov Jaloliddin Jaxongir o’g’li**

*Namangan davlat pedagogika instituti, talaba*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o’quvchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasiga jismoniy tarbiya darslarining ta’siri haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** Jismoniy faoliik, jismoniy mashqlar, sog’lomlashtiruvchi omillar.

Shug’ullanuvchilarining jismoniy tayyorgarligi darajasini o’rganish jismoniy tarbiya va sport tadqiqotlari amaliyatida ko’pincha qo’yiladigan va hal qilinadigan vazifadir.

Zamonaviy maktab o’quvchilarining jismoniy faolligini o’rganuvchi mualliflar jismoniy faollikning yetishmasligi bola tanasining rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi degan xulosaga kelishdi.

Ko’plab tadqiqotlar turli mashg’ulotlardagi jismoniy mashqlar (shu jumladan darslar) shakllarining biologik funktsiyalarga, tananing ishlashi va rivojlanishiga, o’quv qobiliyatiga, aqliy jarayonlarga, ijtimoiy faollikka va turli yoshdagi o’quvchilarining xatti-harakatlariga ijobiy ta’sirining keng doirasini ishonchli tarzda ko’rsatdi.

O’troq turmush tarzi va bo’sh vaqtdan passiv foydalanishning zamonaviy sharoitida jismoniy madaniyatning rolini yetarlicha baholamaslik yosh avlodning katta qismi uchun salbiy oqibatlarga olib keladi.

Aynan bolalikdan jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanish odatlarini tarbiyalash kerak, bu hayot davomida yaxshi sog’liq va yuqori ko’rsatkichlarni saqlashga yordam beradi, aks holda bu yoshda nosog’lom turmush tarzi hayotning keyingi yillarida o’zini to’liq namoyon qiladigan ba’zi surunkali kasalliklarning paydo bo’lishiga olib keladi.

Bugungi kunda o’quvchilarini jismoniy tarbiya va sportga muntazam jalg’etish juda qiyin. Shuningdek, bu muammoga majburlash asosidagi eski yondashuvlar o’tmishtga qaytib borganligi va bir qator olimlarning bolalarning eng kuchli motivatsion-qiyimatli holatlarini izlash bilan shug’ullanganligi aniq.

Maktabga qabul qilinganda, bolalarning harakat faolligi 50% ga kamayadi, bu sog’lig’ining yomonlashishiga, maktab kunida charchoqqa olib keladi, jismoniy va aqliy faoliyat xavfini kamaytiradi.

O’rta maktab o’quvchilarining 80% dan ortig’i jismoniy tarbiya darslariga salbiy munosabat bildirgan. Jismoniy tarbiya darslariga salbiy munosabatning natijasi bolalar va o’smirlarning jismoniy rivojlanishining past darajasi va kasallanicining yuqori foizi edi.

Rossiyalik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, o’z-o’zidan paydo bo’ladigan harakat faoliyati va maktabda tashkil etilgan jismoniy

tarbiya mashg’ulotlari normal rivojlanayotgan o’quvchi uchun zarur bo’lgan kunlik harakatlar extiyojini ta’minlay olmaydi, jismoniy tarbiya darsi zarur bo’lgan kunlik harakatlar diapazoni o’rtacha atigi 11% ni qoplaydi.

Rossiyada o’tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko’rsatdiki, jismoniy faolligi past bo’lgan maktab o’quvchilari tanasining funksionalligi va immunitetining pasayishi tufayli kasallanish darajasi oshadi.

Shunday qilib, haftada ikkita an’anaviy maktab jismoniy tarbiya mashg’ulotlari bolalar va o’smirlarning harakat faoliyatining yetishmasligini qoplamaydi. Ular o’quvchilarning jismoniy o’zini-o’zi takomillashtirishga bo’lgan ehtiyojlari yoki odatlarini shakllantira olmaydilar va pirovardida hozirgi bosqichda maktab jismoniy madaniyati oldiga qo’ylgan vazifalarini hal qila olmaydilar.

Bunday jismoniy tarbiya darslarida jismoniy faollik va sog’lomlashtiruvchi omillarning maktab o’quvchilari organizmiga ta’siri odatda nisbatan kichikdir. Haftada ikkita darsning umumiy yuki o’quvchi tomonidan talab qilinadigan jismoniy faoliyatning o’ndan biridan ko’p emas.

Shuning uchun maktab o’quvchilarining salomatligi va jismoniy rivojlanishini ta’minlash uchun jismoniy tarbiya darslaridan foydalanish uchun o’qituvchi zaxiralarni izlashi va nafaqat darsning jismoniy faolligi va uning sog’lomlashtiruvchi omilining o’quvchining jismoniy tarbiyasiga bevosita ta’sirini yodda tutishi kerak.

V.K.Balsevich va boshqalar, maktab o’quvchilari bilan jismoniy tarbiya mashg’ulotlari mazmunining asosini ko’rinadigan o’quv effektiga ega bo’lgan va tananing funktsional imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan tizim bo’lishi kerak, deb hisoblaydi.

Shunday qilib, maktab jismoniy madaniyatini yanada rivojlanirish yo’llari bo’yicha olimlar va mutaxassislarning keng ko’lamli fikrlari mavjudligi uning dars shaklidan foydalanishning mavjud bo’lmagan zaxiralaridan dalolat beradi.

Bizningcha, ma’lum bir maktabda eng ommabop bo’lgan bir yoki ikkita sport turi vositalaridan, ta’lim muassasasining turini hisobga olgan holda, ustuvor foydalanish bilan ma’lum bir yo’nalishdagi darslarni o’tkazishning maqsadga muvofiqligi oshgan davr keldi.

Maktab jismoniy tarbiya darsi (o’quv ishlari) - o’quvchi jismoniy tarbiyasini tashkillash mashg’ulotlarining asosiy shakllaridan biri bo’lib, maktabning o’quv rejasida jismo-niy madaniyat darsi sifatida, o’quv xafatasining ikki kuniga (darslar oralig’iga ketma-ket - dushanba, seshanba kunlari qo’yilmay), dars oralig’idagi kunlar teng qilib qo’yilishi qoidaga aylantirilishi lozim. Barcha siniflar va o’quv guruhlarida dars jadvali asosida majburiy, maktab “Jismoniy madaniyat” darsi shaklida, maxsus ma’lumotga ega bo’lgan mutaxassis tomonidan o’tkaziladi va jismoniy madaniyat davlat dasturi o’quv materialini o’qitish jarayoni yo’lga qo’yiladi.

Maxsus adabiyotlarda umumiyy ta’lim maktabida jismo-niy madaniyat darsiga quyidagicha ta’rif berilgan: “dars - jismoniy madaniyat mashg’ulotlarining tizimli shakli bo’lib, u yoshi, jismoniy rivojlanganligi va jismoniy tayyorgarligi bir biriga yaqin kontingent bilan, belgilangan vaqt (30,35,40,45,60,80 daqiqa) ichida o’tkaziluvchi, dastur mavzularini o’qitishning majburiy mashg’ulotidir” (B.A Ashmarin, 1978).

Jismoniy madaniyat darsi umumiyy ta’lim maktablari, akademik litseylar, gimnaziyalar, kasb-xunar kollejlari, texnikumlar, oliy o’quv yurtlari, va boshqa o’quv muassasalaridagi mashg’ulotlarning boshqa tiplaridan o’zining umumiyy maqsadi va darsda hal qilinadigan umumiyy va xususiy vazifalari bilan farqlanadi.

O’quv ishlari umumiyy ta’lim maktabida taxesil olish yillari davomida olib boriladi, u bir yoki birnecha yillik emas. Mazmuni va tashkillanishini turli tumanligi bilan xarakterlanadigan amaldagi jismoniy madaniyat darslari turli hilda turkumlanadi hamda jismoniy tarbiya ta’limining bu yo’nalishidagi belgilangan aniq vazifalarni hal qiladi. Darsning maqsadi esa o’quv choragining qator darslarida, o’quv choraklaridagi hamda o’quv yili davomida xal qilinishi belgilab qo’yiladi. Darsning umumiyy va xususiy vazifalari esa har bir darsda xal qilinadi.

Darslardagi o’qitilishi lozim bo’lgan o’quv materiali oldin o’qitilgan, o’rgatilgan harakatlar bilan va keyin o’qitiladiganlari uzviy bog’lanishda bo’lishi, boshqachasiga aytganda harakat texnikasining asosi, zvenolari yoki ularning ayrim qismi, o’sha qismining bo’lagi (detali) o’zaro bog’langan bo’lishini taqazo etadi. Harakatlar alohida tuzilmalar tarzida o’zining texnikasining asosi, zvenolari va

uning detallaridan tashkil topishi jismoniy madaniyat nazariyasining qonuniyatlaridan biridir.

Harakatlarni o’qitish - o’zlashtirish o’ziga xoslikga ega. Shuning uchun ularni o’qitadigan xar bir dars o’zining tuzilishini mavzuga moslab alohida rejalashtirishni taqazo etadi va harakat, jismoniy mashqlarni o’rgatish uslubiyotlarini qo’llash, tayyorlov va yo’llanma beruvchi mashqlardan maqsadli foydalanish, boshqachasiga aytganda darsning mazmunini ishlash - rejalashtirish belgilangan tizim asosida yo’lga qo’yiladi. Jismoniy madaniyat darslarining harakterli tomonlaridan yana biri uni maxsus tayyorgarlikka ega bo’lgan mutaxassis tomonidan tashkilanishi, jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligi taxminan bir-biriga yaqin kontingent bilan bir necha yilga mo’ljallangan dastur asosida o’qitilishi hamda ma’lum tizimga solingan jadval asosida tashkillanishidir.

Akademik L.P. Matveevning (1991) darsligida “jismoniy madaniyat darsi umumiy jismoniy madaniyati, kasb-xunar jismoniy tayyorgarligi va tanlangan sport turi bo’yicha sport mahoratini oshirish maqsadidagi akademik mashg’ulotlarning tizimli va nisbatan tejamli, samarali shaklidir” degan tarifi xam mayjud.

Jismoniy mashqlar bilan shug’ullanish mashg’ulotlarining asosiy shakli xisoblangan darsni jismoniy tarbiya jarayonining boshqa tipik mashg’ulot formalaridan farqini bilishning ahamiyati muhim. Jismoniy mashqlar bilan shug’ullanish mashg’ulotlarining darsdan tashqari shakllari darsga taqqoslanganda ular o’zining davriyligi, tizimli emasligi, faqat bir marotabaliligi yoki individualligi bilan akademik darslardan farqlanadi.

Odatda mashg’ulotlarning yuqorida qayd qilingan darsdan tashqari shakllari darsni boyitadi va uni xususiy va umumiy vazifalarini har tomonlama hal qilishda, ularni to’ldirish uchun qo’shimcha omil sifatida xizmat qiladi. Darsdan tashqari, oilada tashkillanadigan yoki maktabda sinfdan tashqari vaqtida tashkillanadigan mashg’ulotlar o’qituvchilarning jismoniy madaniyati bo’yicha ma’lum darajada talablarini qondiradi xolos. Mamlakatimizning umumiy ta’lim maktablaridagi jismoniy madaniyat darslari DTslari talablari bilan muvofiqlashtirilgan.

Jismoniy tarbiyada o’qitish jarayonning yakuniy natijalari «Jismoniy madaniyat» darslari orqali olib boriladigan o’quv-tarbiyaviy ishlarning sifati bilan bog’liq. Bunga har bir dars zamiridagi qator vazifalarni hal etish bilan erishiladi.

Hozirgi zamон jismoniy madaniyat darslarida ta’lim berish (o’qitish), tarbiyalash va sog’lomlashtirishdek umumiу vazifalar hal qilinmoqda. Qayd qilingan umumiу vazifalar ta’lim jarayonining “tanshtirish”, “o’zlashtirish”, “mustahkamlash” deb aniq belgilangan ta’limiy etaplarining talablari asosida darsning xususiy vazifalari tarzida hal qilishga yo’naltirilgan.

Darsning ta’lim berish vazifalari bolalarni jismoniy tarbiya dasturida tavsiya qilingan mashqlarni - tanshtirish, o’zlashtirishga, o’rganilgan mashqlarni mustahkamlash va takomillashtirishga, shuningdek, ularga oid endigina shakllangan malaka va ko’nikmalarni mustaxkamlash, takomillashtirishga hamda o’rganilgan mashqlarni turli sharoitda amaliyotda qo’llash malakasiga ega bo’lish va ularni tengdoshlariga o’rgatishni bilish talabini qo’yadi.

Ta’lim vazifalarini ratsional hal qilish jismoniy tarbiya dasturidagi o’quv materiallarini izchil va mustahkam o’zlashtirish bilan tugallanadi.

Ta’limning ayrim vazifalarini hal etish uchun nisbatan uzoq vaqt yoki qator ketma-ket darslar zarur bo’ladi.

Ayrim vazifalarni hal qilish uchun esa bir darsning o’zi kifoya kelishi mumkin. Shunday holatlar ham kuzatiladiki, belgilangan kompleks vazifalarni hal qilish davomida hal qilinishi lozim bo’lgan xususiy va boshqa xil vazifalar ham o’zidan hal bo’lishi jismoniy tarbiya ta’limi jarayonida kuzatilgan.

Masalan, arqonda ma’lum usulda tirmashib chiqish (xayotiy-zaruriy harakat) va uni bajarishdagi harakatlar ketma-ketligini bir darsnnng o’zida texnik jihatdan mukammal o’rganib olish mumkin emas. Bu umumiу vazifa, buni hal qilish uchun ketma-ket turkum darslar lozim bo’ladi.

Qolaversa, uni o’zlashtirishda samaraga erishish uchun shug’ullanuvchini harakat koordinatsiyasining rivojlanganligi holati, jismoniy tayyorgarligining me’yoriy darajasi, individning o’zlashtirish - harakatlarni muvofiqlashtira olish qobiliyatining yuqoriligi, ko’rganini qabul qila bilish jihatni, o’zlashtirilayotgan harakatga o’xshash yoki unga yaqin harakat zahiralarining o’quvchida mavjualigi yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Arqonni oyoqlari bilan ushlab tirmashib chiqishni bir darsda o’rgatish mumkin. Bu kichik xususiy vazifaligi uchun, uni mazkur darsning aniq xususiy vazifalaridan biri sifatida hal qilinadi. Yuqoridagilardan tashqari o’quvchilarni

jismoniy tarbiya va sport, sog’liqni saqlash, chiniqtirish, jismoniy mashqlarni to’g’ri bajarish xaqidagi nazariy bilimlarini oshirish hamda jismoniy harakatlar texnikasini nazariy va amaliy malakalariga oid tushunchalarni berish, ularni kengaytirish, boyitish orqali ham ta’lim jarayonining vazifalari ijobjiy hal qilinadi.

Jismoniy madaniyat darslarida faqat jismoniy tarbiya ta’limi emas, balki insoniy fazilatlar - e’tiborlilik, o’z diqqatini boshqara olish, intizom, iroda, saranjomlilik, maqsadga intilish, mustaqillik va qiyinchiliklarni yengishdagi qat’iyat va boshqalarni qo’shib tarbiyalash jismoniy tarbiya ta’limiga qo’yiladigan yetakchi talablardir.

Jismoniy madaniyat darsining sog’lomlashtirish vazifalari ham tarbiya vazifalari kabi har bir darsda hal etilish lozim. Jismoniy madaniyat darslarini to’g’ri uyushtirish va o’tkazish, tegishli kiyim bosh bilan shug’ullanishni, mashg’ulot joylarida zaruriy sanitariya-gigiena holatini saqlash va rioya qilish, darslarni ochiq havoda quyosh nuri, havo namligi va boshqa vositalardan foydalanib o’tkazish, sog’lomlashtirish vazifalarini ijobjiy hal etish imkoniyatini yaratadi.

Sog’lomlashtirish vazifalari tarbiyalash, bilim berish vazifalari bilan qorishtirilib yuborilishiga yo’l qo’yilmasligi lozim. Sog’lomlashtirish jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantirish vazifa qilib qo’yilmaydi. Sog’lomlashtirish jarayonida harakat sifatlarini tarbiyalashni vazifa qilib belgilamaslik bu jismoniy madaniyat nazariyasining qonuniyatlaridan biridir.

Maktab jismoniy tarbiya darslari vazifalarini puxta o’ylanganligi, uning mazmuni va tuzilishini mantiqan o’zaro bog’langan ketma-ketlikdagi vosita va metodlarini tanlash va amalda qo’llashni ham oldindan belgilab olishning imkonini beradi.

Maktab darsi jismoniy mashqlar bilan shug’ullanish mashg’ulotlarining uyushtirish va o’tkazishi nuqtai nazaridan bunday mashg’ulotlarning boshqa xillaridan aytarli darajada qiyin. Chunki shugullanuvchi o’quvchilarining tarkibi - kamida 30-35 nafar aralash o’quvchilar (o’g’il bolalar va qizlar)dan iboratligi, ularning organizmini individuallik nuqtai nazaridan birini biriga o’xshash bo’lmagan xususiyatlari, jihatlari o’qituvchiga har bir darsni o’tkazishdan avval samarali izlanishlar qilish talabini qo’yadi.

Qolaversa, o’qituvchi qo’yilgan vazifalarni hal qilishning eng oson yo’llarini topishga harakat qilishi, aynan shu darsga foydasi bo’lmagan, ahamiyatiga ko’ra keraksiz shablonlardan qochishining muhimligi, oldin o’tkazilgan darslarning taxlili natijalari, hamkasblarining umumlashtirilgan boy tajribasi, innovatsiyalardan, yangi pedagogik texnologiyalar, uslubiy adabiyotlardan foydalanishi odatga aylanishi zaruriyatdir.

Jismoniy madaniyat darsining samarasi ko’pincha o’qituvchining o’quv ishlarini tashkillash va o’tkazish uchun tuzgan rejalarining hayotiyligi, shug’ullanuvchilar faoliyatini tashkillash uchun tanlangan usullari va uslubiyotlarining, ish joyidagi mavjud jihozlar va sport anjomlari, ularning texnik sozligi, mavjud sport inshootlaridan samarali foydalanishni bilishi, iqlim sharoiti, ayniqsa, haroratini xisobga olish o’quvchilarning jismoniy rivojlanganligi, tayyorgarligi darajasini, ularning yoshi, individual xususiyatlarini hisobga olishdek jihatlari bilan bog’liq.

Darsni uyushtirish va uni moddiy-texnik ta’minlanganligi qaraganda quyidagilar: - mashg’ulot joyida tibbiy va gigiena yalroitini yaratish va unga rioya qilish; moddiy-texnik jihatdan ta’minlash, jihozlar, anjomlarni talab darajadaligi; darsda o’quvchilar faoliyatini tashkillash uslubiyotlarini to’g’ri tanlash orqali qo’yilgan vazifani effektli hal qilinishi nazarda tutiladi.

Dars o’tkazishning tibbiy-gigienik sharoiti o’z ichiga: dars - jismoniy mashqlar bilan shug’ullanishda yuzaga keladigan sog’lomlashtirish effektini, bir butun kompleksli tadbirni, tibbiy gigienik holatni o’z ichiga oladi.

Mashg’ulotlarni o’tkazish joyining qat’iyan belgilangan tibbiy-gigienik normalarga muvofiqlashtirish, sport zali uchun havo haroratining eng maquli 14° - 16°C da bo’lishi, tanaffuslarda maydonlarga suv sepilishi, sport zallarining shamollatilishi va boshqalarni darsning sog’lomlashtirish vazifasini hal qilishdagi ahmiyati beqiyos.

Inson o’pkasidagi odatiy havo aylanishi (ventilyatsiyasi) havo almashishi minutiga 4 dan 6 l. atrofida, yuqori intensivlikda bajarilayotgan mashqlarda (yugurish, sport o’yinlari) organizmni havo yutishi 10 l. va undan ortiq darajadan eshishi mumkinligini e’tiborga olsak mashg’ulot joylaridagi toza havo uning

ta’milanganligini ahamiyati muhim. Shunga ko’ra iloji boricha darslarni ochiq havoda olib borish talabi qo’yiladi.

Ayniqsa, zaldagi jihozlar, anjomlar, matlar (gilamlar), polni tozaligi doimiy diqqat va e’tiborni talab qiladi. Xar bir darsdan so’ng zalning poli namlangan latta bilan, shuningdek jihozlar, matlarni artib chiqish zaruriyati mavjud. Mashg’ulotlar tugagandan so’ng esa shug’ullanilgan joy ham tozalashni talab qiladi. Chunki tozalanmagan zal shug’ullanuvchi sog’ligiga katta putur yetkazadi. Eng avvalo nafas yo’li, badan sport kiyimlarini kirlanishiga sabab bo’ladi.

Darsni moddiy texnik ta’minalash deganda, darsning optimal zichligini ta’minalashga, qo’yilgan kompleks vazifalarni to’laqonli hal qilishni kafolatlashga imkon beradigan, yetarli darajadagi o’quv-tarbiya jihozlari, anjomlar va mashg’ulot o’tkaziladigan joy nazarda tutiladi.

Hozirgi kunga kelib deyarli barcha maktablarning jismoniy tarbiya o’qituvchilarining tashabbusi bilan sport zallari va sport maydonlari, bir vaqt ni o’zida bir necha o’quvchi shug’ullanishi mumkin bo’lgan nostandard jihozlar, anjomlar va trenajerlar bilan jihozlanmoqda. Bunday jihoz va anjomlardan foydalanish dars zichligini ahamiyatli darajada yuqori qilib tashkillashga imkon beribgina qolmay, mashg’ulotlardagi samaradorlikga ham ijobjiy ta’sir ko’rsatmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Muhtorjon ogli I. A. et al. THE DEVELOPMENT OF A TEENAGE CHILD’S PHYSICAL QUALITIES THROUGH A TYPE OF TABLE TENNIS //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 68-71.
2. Mahmudjonov A. A., Izatullayev A. M., Ergashaliyev D. N. THE IMPORTANCE OF GENERAL PHYSICAL FITNESS IN INCREASING THE EFFICIENCY OF SPORTS TRAINING IN PRIVATE SCHOOLS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY. – 2024. – C. 755-759.
3. Doston No’monjon o’g E. et al. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O’QUVCHILARNI JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA MILLIY HARAKATLI O’YINLARNING O’RNI //INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY. – 2024. – C. 717-721.

4. Muhtorjon ogli I. A. UMUM TA’LIM MAK TABI YUQORI SINF O’QUVCHILARIGA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA STATIK MASHQLARNI O’RGATISHNING PEDAGOGIK MEXANIZIMLARI //Scientific Impulse. – 2024. – T. 2. – №. 19. – C. 111-114.
5. Muhtorjon ogli I. A. et al. THE SIGNIFICANCE OF SPORTS GAMES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF PHYSICAL EDUCATION //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 164-167.
Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishda o’quv-bilish jarayoni hamda mazkur holatda subyektivlikning namoyon bo’lishi ham muhim o’rin tutadi.

O’quv faoliyatining muhim komponenti subyektning o’zi bilan bog’liqlikda sodir bo’lgan o’zgarishlarni o’zlashtirish darajasini baholashga doir xatti-harakatni ifoda etadi. Mazkur harakat orqali talaba qo’yilgan o’quv vazifasi to’g’ri amalga oshirildimi, kelgusida ko’plab nazariy vazifalarni hal etishda qo’llash bilan bog’liq o’quv harakatlari usullarini o’zlashtirgan yoki o’zlashtirmaganligini aniqlay oladi.[9; 377-b] O’quv faoliyati nazariy bilimlarni va o’quv-bilish faoliyati usullarini o’zlashtirishga yo’naltirilgan. O’quv faoliyati o’zida quyidagi komponentlarni aks ettiradi: maqsad qo’yish, o’z-o’zini yo’naltirish, o’z-o’zini baholash, rejallashtirish, qaror qabul qilish, nazorat, o’z-o’zini nazorat qilish, korreksiya, motivatsiya, o’zlashtirish.[8; 32-b] Yaxlitlikda o’quv faoliyati o’zaro birligida nazorat yoki refleksiya yordamida amalga oshiriladi.[84; 176-b]

G.P.Shedroviskiyning konsepsiyasida ijtimoiy tajribani o’zlashtirish jarayoni sifatida o’qish-o’rganish va o’quv-bilish faoliyati farqlanadi. O’qish-o’rganish – bu to’liq anglanmagan o’zlashtirish, o’quv-bilish faoliyati – bu o’quv vositalarini qo’llash bilan bog’liq ma xsus tashkil etilgan o’zlashtirish. O’quv-bilish faoliyati: mazmun, o’quv faoliyati natijasi, faoliyatni tashkil etish jarayonlari, psixik funksiyalar, qobiliyatlar va o’zlashtirish jarayonlaridan tashkil topadi.[1; 227-b]

V.D.Shadrikovning ta’kidlashicha, o’rganish – bu insonning atrof-muhit bilan o’zaro harakati va unga layoqatlilik, borliqdagi jarayonlarni bilishga yo‘naltirilgan ijodiy jarayon emas, “insoniyat tomonidan to‘langan madaniyatni o‘zlashtirish, “o‘zlashtirish” yoki “qabul qilish”dir.[7; 320-b]

S.Yu.Jdanovaning ta’kidlashicha,o‘quv-bilish faoliyati faoliyatning alohida turlarida natija olish uchun emas, o‘z-o‘zini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan nazariy va amaliy faoliyat sifatida yuzaga chiqadi hamda faoliyat komponentlari haqidagi bilimlarni, ularni amalga oshirishga doir bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda o‘zining natijaviyligiga ega.[5; 212-b]

N.A.Kiselyevskaya “o‘quv-bilish faoliyati” tushunchasini “ma’lum bir hajmdagi bilim, ko‘nikma va malakalar, faoliyat turlari va xulq-atvor shakllarini ongli tarzda o‘zlashtirish maqsadi boshqariladigan inson xatti-harakatlari” sifatida talqin etadi.[6; 124-b]

Professor M.G.Davletshin rahbarligida bu muammo yangicha ilmiy asosda o‘rganilgan. M.G.Davletshinning fikricha, yoshlar har xil sohalar mazmuniga o‘zlarining ongli ravishda yondashuvlari orqali ularda ilm olishga nisbatan to‘g‘ri va oqilona tasavvurlar ertaroq hosil bo‘ladi.[9; 81-b]

Taniqli olim E.F.Foziyev o‘z tadqiqotlarida mustaqil tafakkurning rivojlanishi, bilim jarayonining qiziqarli tashkil etilishi talabalar faoliyatida yangi muvaffaqiyatlarga erishishning ijodiy manbai, deb hisoblaydi.[2; 244-b] E.G.Oziyev tadqiqotlarida talabalarning o‘quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari, o‘quv faoliyatini rejalashtirish, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘zini-o‘zi baholash, inson faoliyatini aniqlash, o‘quv faoliyatini rejalashtirishni aniqlash, maqsad qo‘ya olishni aniqlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilishni aniqlash, bo‘s sh vaqt ni aniqlash kabi tushunchalar haqida mulohazalar yuritiladi. Olim mazkur tushunchalarga aniqlik kiritish maqsadida o‘quv faoliyatini boshqarishning diagnostik metodini ishlab chiqib, psixologiya fanining kam o‘rganilgan sohalaridan biri bo‘lgan o‘qish faoliyatini boshqarish muammosining nazariy va amaliy tomonlarini yoritib beradi. Bu tushunchalarni aniqlash uchun olim shu tushunchalarga mos anketalardan foydalandi. Har bir anketada o‘ndan ortiq savol bo‘lib, ba’zan qo’shimcha savollar ham berilgan. Bunda, albatta, o‘quvchilarining individual xususiyatlari hisobga olingan. Suhbatlarda esa, tushunchalarning etimologiyasiga katta ahamiyat

berilgan. Bunday tadbirlar o‘quv faoliyatini boshqarishning tarkibiy qismlari bilan tanishtirishni osonlashtirgan. Yana mazkur tadqiqotlarda o‘qish va o‘qitish jarayoni uchun tavsiyanoma ishlab chiqilgan va o‘z-o‘zini anglash bosqichlari to‘g‘risida ma’lumot berilgan. [3; 124-b] R.I.Sunnatova o‘z ilmiy tadqiqotlarida talabalarining o‘z-o‘zini boshqarish jarayonidagi fikrlash faoliyatlarini o‘rganadi. Olima o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarining fikrlash faoliyatiga ta’sir etish xususiyatlarini quyidagicha izohlagan. Bir tomonidan, talabalarining o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarida qator o‘zgarishlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, talabalarda o‘quv faoliyatiga nisbatan qiziqishning oshib borishi hamda o‘z-o‘zini boshqarish jarayonida bilim olishga nisbatan yangicha qarashlarning shakllanganligi ham ko‘rinadi. Shuningdek, talabalar o‘z-o‘zini boshqarish jarayonida o‘z-o‘zlarini tarbiyalash va o‘z qobiliyatlarini takomillashtirishga harakat qilganliklari ham kuzatiladi. [4; 41-b]

Z.T.Nishanova talabalarining mustaqil-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar majmuini ishlab chiqqan. Bu mashg‘ulotlarda asosiy diqqat tafakkur operatsiyalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsada, ijodiylikning tezligi, aniqligi, originalligi kabi xususiyatlarini rivojlantirish masalasi ham chetda qolmagan.[3; 391-b]

Talabalik yillarda kasbiy tarbiya va shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta’minlaydigan omillar o‘rtasida aniq vazifalar nuqtai nazaridan dolzarblik kasb etuvchi o‘quv fanlari, metod, usul va vositalar muhim sanaladi. Pedagogik-psixologik fanlar nafaqat talabalarni bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatga tayyorlash, balki uni sha xs sifatida shakllanishini ta’minlashda alohida o‘rin tutadi. Yuqoridagi fikr bilan bog‘liqlikda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishda pedagogik-psixologik fanlarning ta’sirini nazariy asoslash talab etiladi.

Pedagogik-psixologik fanlar mazmunini o‘zining mohiyatiga ko‘ra, insonning hayotiy maqsad va mo‘ljallarni to‘g‘ri belgilash uchun muhim hisoblangan axborotlar tashkil etadi. Bu axborotlar hayot mazmuni, insonning undagi o‘rni, insonparvar qadriyatlarni o‘zida ifoda etadi. Bu fanlar talabaga yaxshilik va yomonlik, burch va mas’uliyat, ya’ni ma’naviy yo‘nalganlik nuqtayi nazaridan

boshqa kishilar bilan munosabatlarni tushunish yordamida dunyoni ko‘rishga imkon beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Qarshiyeva Z.Sh. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish. // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2020. – B.90-95.
2. Qarshiyeva Z.Sh. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishning ayrim masalalari // Ta'lim, fan va innovatsiya. – Toshkent, 2020. – № 4. – B.27-33.
3. Qarshiyeva Z.Sh. Bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modeli tamoyillari. // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2020. – №6. – B.49-55.
4. Qarshiyeva Z.Sh. A model for developing future teacher's reflexive position // European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS) – Ispaniya, 2020. – No.4. – P.99-101.
5. Qarshiyeva Z.Sh. Bo'lajak o'qituvchilar refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishning ayrim masalalari // “Buyuk Ipak Yo'lida Umuminsoniy va milliy qadriyatlar: Til, Ta'lim va Madaniyat” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2020. – B.365-367.
6. Qarshiyeva Z.Sh. Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish. // “O'qituvchining kasbiy standarti: amaliyotga joriy qilish va istiqboldagi vazifalar” mavzusidagi Respublika ilmiy–amaliy onlayn konferensiyasi materiallari. – Samarqand, 2021. – B.107-109.
7. G'oziyev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi). – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 244 b.
8. G'oziyev E., Jabborov A. Faoliyat va hulq-atvor motivatsiyasi: (Universitetlarning psi xologiya muta xassisligi uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2003. – 124 b.
9. Brockbank A. & McGill I. Facilitating reflective learning in higher education. – Buckingham: SRHE&OUP, 1998. – 368 p.
10. Brookfield S.D. Becoming a critically reflective teacher. – San Francisco: Jossey-Bass, 1995. – 320 p.

11. Green A. *Becoming a Reflective English Teacher.* – Open University Press; McGraw-Hill Education; McGraw-Hill House, 2011. – 223 p.
12. Henke N.R. *Reflective teaching [Elektronniy resurs].* – Rejim dostupa: <http://www.disal.com>.
13. Hole S. & McEnte. *Reflection is at the heart of practice // Educational Leadership.* – 1999. – 56 (8) May. – P. 34-37.
14. Korthagen Fred, A.J. *Linking practice and theory. The Pedagogy of realistic teacher education / A.J. Korthagen Fred.* – Mahwah; New Jersey; London: Lawrence Erlbaum Associates Publishers, 2001. – 312 p.
15. Moon J. *Reflection in learning & professional development.* – London: Kogan Page, 1999. – 229 p.
16. Risko V.J., Vukelich C., & Roskos K. *Preparing teachers for reflective practice: Intentions, contradictions, and possibilities // Language Arts Journal,* 80 (2). – 2002. – R.134-144.



## II. ИЈТИМОИУ PEDAGOGIKA

# **ЎҚУВЧИ ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРVARЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШДА ОИЛАВИЙ АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ ВА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ САМАРАЛИ ВА ТАЪСИРЧАН УСУЛЛАРИ**

***Кулматов Норқобил Эшмаматович***

*СДВМЧВУТФ. катта ўқитувчи. [norgobil.65@mail.ru](mailto:norgobil.65@mail.ru) 91-166-22-35*

***Примова Фотима Абдурахимовна***

*СДВМЧВУТФ. ф.ф.н.доцент [primovafotima1958@gmail.com](mailto:primovafotima1958@gmail.com) 93-961-20-57*

***Риззаев Шавкатжон Рихсибоевич***

*СДВМЧВУТФ. Ассистент. 99-803-64-80*

***Маълумки, ёши авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва  
долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI – асрда  
бу масала ҳақиқатдан ҳам ҳаёт-момот масаласига айланниб  
бормоқда.***

**Ш.М.Мирзиёев**

***Аннотация:*** Уибу мақолада ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашида оиласиий ахлоқий таълим – тарбия ва қадриятларниң самарали ва таъсирчан усул ва воситалари масалалари баён этилади.

***Калит сузлар:*** Ватан, ватанпарварлик, оила, фарзанд, ўқувчи ёшлар, таълим-тарбия, одоб, ахлоқ, хулқ, муомила, ибо, ҳаё, маданият, маънавият, маърифат,

***Аннотация:*** В данной статье описаны действенные и действенные методы и средства семейного нравственного воспитания – воспитания и ценностей в воспитании учащейся молодежи в духе патриотизма.

***Ключевые слова:*** Родина, патриотизм, семья, дети, студенты, молодежь, образование, манеры, нравственность, поведение, поведение, этикет, скромность, культура, духовность, просвещение.

**Annotation:** This article describes effective and efficient methods and means of family moral education - education and values in educating students in the spirit of patriotism.

**Keywords:** Motherland, patriotism, family, children, students, youth, education, manners, morality, behavior, behavior, etiquette, modesty, culture, spirituality, enlightenment

**КИРИШ: Тадқиқот ишининг долзарбилиги:** Мустақиллик туфайли биз ўзбеклар ўзимизнинг ҳақиқий ватанимизни топдик, бу мустақилликнинг халқимизга берган энг олий неъматидир. Ватани мустақил бўлган халқнинг ўзи ҳам мустақил бўлади. Барчамизга маълумки, мустақиллик йилларида миллий маънавий қадриятларимизни тиклаш, такомиллаштириш, ўзлигимизни билиш, миллий маънавий қадриятлар тизимини яратиш умуммилий, долзарб вазифалардан бири бўлиб келди ва бугунги қунда у янада долзарброк бўлиб қолмоқда. Миллий маънавий қадриятларни миллий гоя ва мағкура билан уйғунликда олиб боришда умуминсоний қадриятлар, таълимтарбия, илм-фан ва одоб-ахлоқнинг ўрни ўзгачадир. Жўмладан, ахлоқий тарбия ва ахлоқий дунёқараш ёшларимизда ота-онаси, ака-укаси, опа-синглиси ва бошқа қариндош уруғлари, қолаверса Ватани олдидаги бурч ва жавобгарлик ҳиссини шакллантиради. Халқимизда қадим-қадимдан оила энг муқаддас ва мўътабар маскан ҳисобланиб, жамият учун етук ва комил инсонларни тарбиялаш ота-боболаримизнинг юксак бурчи ва масъулияти саналган. Оилада фарзанд тарбиясига алоҳида аҳамият бериш масаласига минг йиллар мобайнида халқимиз хеч қачон бефарқ қарамаган. Маънавиятли халқнинг маданияти юксак, истиқболи порлоқ бўлишига шак-шубҳа йўқ албатта. Бу жиҳатдан ўзбек халқимиз ўзининг бой мероси, миллий ва диний қадриятлари билан ҳар томонлама фахрланса арзийди. Мамлакатимизда маънавий ва жисмоний баркамол авлодни тарбиялаш борасида улкан ишлар амалга оширилаётган бўлса-да, улар бугунги кун давр талаблари даражасида кенг қамровли эмаслиги ҳам сир эмас. Шу билан бирга турли ҳаёт тарзлари ва гоялар кескин рақобатга киришган бугунги қунда дунёда юз берётган шиддатли глобаллашув жараёнлари, мағкуравий ўзгаришлар, ҳаётимизга

кириб келаётган коммуникацион янгиланишлар таъсир килиб, бундай мураккаб шароитда оиласларимиздаги минг йиллар мобайнида сақланиб келаётган юксак инсоний ахлоқий қадриятларимизни бутунги давр анъаналари билан бойитган ҳолда фарзандлар тарбиясида қўллашимиз, улар қалбида ватанпарварлик, одамийлик, иймон-эътиқод туйғуларини уйготиб, оила қарисидаги масъулиятни ҳис қила билиш, оиласвий ҳаётнинг мураккаб жиҳатларини англаш, ҳар қандай қийинчиликларни енгиг ӯтишга тайёрлашимиз ўргатишимиз лозим. Шунинг учун ҳам бу борадаги саъий-харакатларни янада кучайтириш зарур. Ўз даврида биринчи Президентимиз И.А.Каримов таъкидлаб ўтганлариdek: -Ўзбекистон XXI асрда жаҳон ҳамжамиятидан қандай ўрин эгаллаши ўсиб келаётган фарзандларимиз қандай инсонлар бўлиб вояга етишишига кўп жиҳатдан боғлиқдир. Шундай экан, айни пайтда бу соҳада йўл қўйилган ҳар қандай сусткашлик, камчилик келажакка берилган зарбага тенг, дейиш мумкин. Ана шундай улуғ инсоний фазилатларга эга бўлган, маънавий ва жисмоний баркамол инсонларни тарбиялаб вояга етказиш факат тинч, барқарор, мустакил юртда шаклланиши мумкин. Бугунги янгиланаётган Ўзбекистонда ана шундай тинч, барқарор муҳитнинг шакилланганлиги ҳар бир ўқувчи ёшни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш янги Ўзбекистон жамиятининг энг асосий вазифаларидан бири хисобланади. Шунинг учун биз танлаган “Ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда оиласвий ахлоқий тарбия ва қадриятларнинг самарали ва таъсирчан усуллари” мавзууси бугунги кун учун энг долзарб мавзулардан бири хисобланади.

**Муаммони ҳал қилиш йўллари:** Юртимиз ўқувчи ёшларига таълим-тарбия беришда, уларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда, ўзбек миллий давлатчилик тарихимизни ўргатишда, тарихий хотира, маънавий мерос, миллий ва умуминсоний қадриятларимизни, жумладан ахлоқ-одоб қоидаларини, оиласвий ахлоқий тарбияни уларнинг онги ва қалбига сингдиришда миллий-маънавий ривожланишнинг ўрни ва роли бекиёсdir. Ўқувчи ёшларимизга миллий ғоя асосида, ватанпарварлик руҳида таълим-тарбия бериш, ўқитиши бугунги янги Ўзбекистон жамиятининг ўз олдига қўйиган энг асосий ва муҳим вазифаларидан биридир. Хеч кимга сир эмаски ҳар бир

мустакил ривожланаётган жамиятда “тараққиётнинг тамал тоши ҳам, давлатни кудратли, миллатни буюк қиласиган куч ҳам илм-фан ривожи ва таълим ва тарбиянинг тӯғри йўлга қўйилганидадир”[1,30.10.2020]. Шу ўринда Биринчи Президентимиз Ислом Каримовнинг “Буюк давлат, буюк келажагимизга эришиш учун оқил, маърифатли, айни пайтда ўзининг ўтмиши, улуғ қадриятлари, миллати билан фахрланадиган инсонларни, келажакка ишонадиган инсонларни тарбиялашимиз керак”, [2,1993, 133]. -деган сўзларини эслаш кифоядир. Дарҳакиқат, ёш авлод тарбиясида миллий қадриятларимиздан устун қонуният йўқ экани минг йиллар мобайнида синовдан ўтган ҳақиқат. Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, оилада эрнинг ўз ўрни ва хотиннинг ўз ўрни бўлганидек, фарзанд тарбиясида ҳам отанинг ўз ўрни ва онанинг ўз ўрни бор. Агар бу тамойилга амал қилинмаса, яъни бири иккинчисини инкор этиб, ҳар бири ўз билганича харакат қилса, бола нафақат одобсиз, дангаса, қўрс ва тошмехр бўлиб ўсади, балки худбин, хиёнаткор, факат ўзи учун яшайдиган кимса бўлиб вояга етади. Мухтасар қилиб айтганда, болада соғлом онгни шакллантириш имконияти бой берилса, у вояга етганидан сўнг оиладаги ва жамиятдаги ҳаёт қонуниятларига зид, қарама-қарши ҳатти-харакатлар қиласи. Бундай пайтда ҳеч нарса афсуски, фойда бермайди. Ўзбекчилик, миллий ва маънавий қадриятлар, авлод-аждодлар, ўтмиш ва келажак ҳақидаги панд-насиҳатларимиз энди унга таъсир қилмайди. Шу боис ҳам улуғ аллома Абу Али ибн Сино бола тарбияси билан унинг туғилишидан аввалроқ, она қорнидан бошлабоқ шуғулланиш лозим, деган эди. Бугунги янги Ўзбекистон жамиятида юртимиз ёшлари-баркамол авлод сифатида қандай бўлиши керак? Ҳар бир ёш авлод аввало, чет тилини мукаммал билиши, компьютер билан тиллашиб, Интернетдан фойдалана олиши, миллий ва диний қадриятларга амал қилиши шарт. Ватан тарихи, оила ва маҳалла талабларини мукаммал билган йигит-қиз XXI аср талабига жавоб бера олади. Шу билан бирга у юрт корига ярайдиган, доимо хушёр, зийрак, фаросатли, фасоҳатли инсон бўлиб камол топишига ишонамиз. Бундай ёшлар юртимиз тинчлигини, осоиишталигини таъминлай оладиган инсонлар бўлиб етишадилар.

**Таклиф ва тавсиялар:** Ўкувчи ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда, уларга ахлоқий таълим тарбия беришда, халқимизнинг

ўтмишига, миллий давлатчилик тарихимизга бир назар ташлайдиган бўлсак, мустамлакачи чор Россияси ва собиқ совет мафкураси хукмронлиги йилларида Ватанимиз тарихининг, жумладан миллий ва диний қадриятларимизнинг нохолисано талқин этилиши натижасида пайдо бўлган муаммоларни бугунги кунда ўқувчи-ёшларимизга тўғри тушунтириш, уларга холисано баҳо бериш, объектив талқин қилиш заруратини ҳаётнинг ўзи мамлакатимиз тараккиётининг асосий вазифалардан бири қилиб кун тартибига қўйди. Бу соҳада Мустақил Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти Ислом Абдуғаниевич Каримовнинг саъиу-харакатлари ва ташабbusлари билан мустакиллик йилларида амалга оширилган катта ишлар ва президентимиз Ш.М.Мирзиёев томонидан амалга ошириб келинаётган Ватанимиз тарихини ўрганишнинг янги концепцияси яратилди. Бугунги кунда ҳам миллий давлатчилик тарихимизни ўрганишда ва ўқувчи ёшларга замонавий таълимтарбия, жумладан ахлоқий таълим тарбия беришда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги ПФ-5712 сонли фармони” [3,2019.30.04] ҳамда, “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” 2019 йил 8 октябрдаги 11Ф-5847-сон [4,2019.8.10], фармонларига мувофиқ, халқ таълими тизими ва олий таълим тизимида таълим-тарбия сифатини ошириш, соҳадаги мавжуд норматив-хуқуқий базани такомиллаштириш, халқ таълими ва олий таълим муассасаларининг халқаро нуфузини янада ошириш ва мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотлар, бўлажак миллий қадрларни тайёрлашда уларнинг фаоллигини таъминлаш янги Ўзбекистон жамиятининг энг долзарб вазифаларидан биридир. Ўқувчи ёшларимизни ижтимоийлашувида бўлажак фуқароларимизни ватанпарварлик хистуйғуларини миллий маънавий қадриятлар руҳида тарбиялаш, ўтмиш алломаларимизнинг ўгити, доно сўzlари, фикрларини қадрлаш, ўрганиш, ҳаётда қўллаш ўқувчи ёшларнинг фикрлаш қобилияtlарини ва дунёқарашибарини кенгайтиради. Бугунги ўқувчи ёшларимиз – келажагимиз пойдевори. Шундай экан, уларни ҳар томонлама етуқ, комил, ватанпарвар, юрт тинчлиги ва равнақи йўлида фидокор бўладиган фарзандлар қилиб тарбиялаш

зарур. Президентимиз Шавкат Миронович Мирзиёевнинг “Бизни ҳамиша ўйлантириб келадиган яна бир муҳим масала - бу ёшларимизнинг одоб-ахлоқи, юриш-туриши, бир сўз билан айтганда, дунёқараши билан боғлиқ. Бугун замон шиддат билан ўзгаряпти. Бу ўзгаришларни ҳаммадан ҳам қўпроқ ҳис этадиган ким - ёшлар. Майли, ёшлар ўз даврининг талаблари билан уйғун бўлсин. Лекин айни пайтда ўзлигини ҳам унутмасин. Биз киммиз, қандай улуғ зотларнинг авлодимиз, деган даъват уларнинг қалбида доимо акс-садо бериб, ўзлигига содик қолишга унданб турун. Бунга турган катта-катта муаммоларни ечиш, мустақиллигимизни ҳимоя қилиш, ҳаётда миллий ва умумбашарий қадриятлар уйғунлиги тамойилига амал қилиб яшашдек муҳим вазифаларни ёш авлодимиз ўзининг муқаддас бурчи деб билаётгани, айниқса, эътиборга сазовордир. Баркамол авлодни тарбиялашдек порлоқ ниятимиз учун бизда маънавий асос бор. [5,2016.Б-486],

**Кутилаётган ижтимоий самара(натижа) :** Ўқувчи ёшларни ватанпарварлик ҳисларини тарбиялаш механизmlарини такомиллаштириш технологияларидан фойдаланишининг назарий-педагогик асослари ишлаб чиқлади, унинг шакллари ва самарали усуслари аниқланади ва таълим-тарбияни такомиллаштиришда ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш мотивлари ишлаб чиқлади, ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мактаб, оила маҳалла жамоатчилик кенгапши ҳамкорлигини шакиллантиришда, шахсни камол топтиришда ёрдам беради. Яна шуни ҳам таъкидлаш керакки, ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда оиласи ҳадиси тарбия ва қадриятларнинг самарали ва таъсиран усусларидан фойдаланишда бобо ва момоларнинг тажрибаларига таяниш анъанавий оиласи қадриятларимизнинг узвий қисми бўлиб келган. Ёши улуғ отахон ва онахонларимизнинг ўз невараларига берган: сувга туфлама, нонни кўзингга сурт, каттага ҳурматда, кичикка иззатда бўл, ҳаромдан ҳазар қил, одобли-ахлоқли бўл каби ҳаётий ўгитлари, пандунасиҳатлари фарзандларимизнинг келгусида ҳар томонлама етук, маънавий баркамол, комил инсонлар бўлиб вояга етишишига сабаб бўлганига тарихда мисоллар жуда ҳам қўп. Шу ўринда биргина Амир Темур бобомизнинг невараси Шохруҳ мирзонинг ўғли Мирзо Улугбекни бувиси Бибихоним тарбиялагани

ҳақида тўхталиш кифоя. Бугунги кунда жамият тараққий этиб боргани сари ҳар томонлама етук инсонни шакллантириш талаблари ҳам ортиб бормокда. Бу эса, оиласда болага психологияк, эстетик, ахлоқий, диний-маърифий, жинсий тарбия бериш сифати ва кўламини оширишни такозо этмокда. Фарзанд тарбиясида бола хуқуқлари ҳеч қачон камситилмаслиги керак. Оилавий ахлоқий тарбия ижтимоий тарбияга нисбатан болаларнинг руҳий оламига, ҳиссиёти ва туйғуларига чукур таъсир кўрсатади. Қисқача қилиб айтганда, аждодларимизнинг узоқ давр мобайнида тарбия соҳасида орттирган тажрибалари асосидаги таълимотлар негизида шу маъно англашиладики, тарбиячининг ўзи ҳамиша ўрнак бўлиши зарур. **АХЛОҚ** - жамият, замон, баъзан умумбашарий аҳамиятга эга, инсоният тарихи учун намуна бўла оладиган ижобий хатти-ҳаракатлар йиғиндиси, инсоний камолот даражасини белгиловчи маънавий ҳодиса. **ХУЛҚ** - оила, жамоа, маҳалла - кўй миқёсида аҳамиятли бўлган, аммо жамият ва инсоният ҳаётига сезиларли таъсир кўрсатмайдиган ёқимли инсоний хатти -ҳаракатларнинг мажмуи. **ОДОБ** - инсон ҳақида ёқимли таассурот уйғотадиган, лекин жамоа, жамият ва инсоният ҳаётида бурилиш ясайдиган даражада муҳим аҳамиятга эга бўлмайдиган, миллий урф - одатларга асосланган чиройли хатти - ҳаракатларни ўз ичига олади.

Шу ўринда бугунги кунда ота – оналаримизнинг фарзандлар тарбиясида, айниқса ахлоқий тарбия ва қадриятларга суюнишларида қуидаги тавсияларни берган бўлардик.

- Отанинг шахсий намунаси ёшлар шахсини таркиб топтиришда муҳим аҳамиятга эгалигини унутманг.
- Фарзандларингизда тўғри хулқ-атворни юзага келтириш билан ахлоқий тажрибани бойитиш ва умумлаштириш зарур. Ёшлардаги ахлоқий билимнинг турли-туман формалари уларнинг онги ва ҳис-туйғуларига жонли, ёркин, оташин сўз орқали таъсир этишини унутманг.
- Дунёда содир бўлаётган янгиликлар, мамлакатимизда, жамиятимизда ўтказилаётган ислохотлардан тўлиқ хабардор бўлинг ва фарзандларингизга буларни тўғри талқин қилинг.
- Фарзандингизнинг келажакда муайян касб сохиби бўлишига ишонч

билдиринг, унинг оқилона танловини қўллаб-куватланг.

- Фарзандингизнинг ўқув муассасасидаги ўқиши билан қизиқинг, қайси фанларни урганишга иштиёқмандлигидан хабардор бўлинг.
- Бадиий адабиётларни ўқинг, янги нашр этилган адабиётлардан хабардор бўлинг, фарзандингизнинг маънавий-маърифий гоясини бойитадиган адабиётларни уларнинг ўқиши учун тавсия этиб боринг.
- Фарзандингиз билан биргаликда маънавий-маърифий гоясини бойитадиган фильмларни тамоша килинг, сунг мухокама давомида болангизнинг фикрини эшитиб, уни тўғри йўналтиринг.
- Фарзандингизнинг ўртоклари билан танишинг, улар билан сухбатлашинг, хулқ-атворини кузатинг.
- Ўғлингиз ёки қизингиз таълим муассасасида қандай ишларни бажаришини ўрганинг, уйда ҳам болангизнинг фойдали юмуш бажаришини назоратга олинг.
- Миллий ва умумбашарий қадриятлар билан фарзандингизни танишириб боринг. Уларга катталарга хурматда, кичикларга иззатда бўлишни ўргатинг.
- Фарзандингизга меҳрибон ваadolатли, кези келганда қаттиққўл ва талабчан бўлинг.
- Фарзандингизнинг ўқиш ва меҳнатдаги имконияти ва қобилиятини ўрганинг, унга ҳам ўз имкониятлари ва қобилиятига тўғри баҳо беришга ўргатинг, иродасини чиниқтиринг.
- Фарзандларингиз, оила аъзоларингизда бир-бирига кўмак бериш ҳиссини шакллантиринг, ахлоқий фазилатлар: ўз сўзида тура олиш, масъулият, олижаноблик, тантилик, инсонпарварлик, ватанпарварлик ҳиссини ривожлантиринг.
- Фарзандингиздаги салбий хислатларни биргаликда бартараф этишга ҳаракат қилинг, унга ишонч билдиринг, келгусидаги истиқболий режалар тўғрисида сухбатлашиб туринг.
- Фарзандингизнинг хулқидаги кайсиdir жиҳатлар сизни ташвишлантирса, бу тўғрисида шифокор, педагог, психолог маслаҳатига мурожаат қилишни унутманг.
- Фарзандингиз учун албатта бўш вақт ажратинг, сухбатлашинг, уй

юмушларини бажаришда ундан күмак сўранг (бала сизга керак эканлигини хис қилсин), табиат кўйнига, расм, мода, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ва бошқа кўргазмаларга сайрларни ташкил қилинг, уларга оила аъзоларингиз билан бирга ташриф буюринг. Бу оила аъзоларини жипслаштиради, уларда ҳамкорликка асосланган бир-бирига хурмат руҳини шакллантиради.

- Фарзандингизни албатта спорт, санъат, хореография, драма, тўгаракларига, турли пишириқлар пишириш, бичиш-тикиш, тилларни ўрганиш марказларига жалб қилинг.
- Болангизнинг хулқ-авторини яхши томонга ўзгартириш учун халқ қаҳрамонлари, буюк мутафаккирлар, донишманлар ҳаётидан мисоллар келтиринг, биргаликда улар ҳаёти тўғрисида китоблар ўқинг, фильмларни тамоша қилинг.
- Сийқаси чиққан насиҳатлар беришдан қочинг. Жаҳлингиз чиққан пайтда ҳам фарзандингизга қўпол гапиришдан тийилинг. Унга овозингизни баландлатмасдан залворли фикр ва ғоялар билан таъсир ўтказинг.
- Фарзандингиз билан мулоқотга киришаётган танишлари унга салбий таъсир кўрсатаётганини сезсангиз, албатта педагог ва психолог маслаҳатини олинг.
- Фарзандларингизни оила бюджети тўғрисидаги ахборот билан таништиришлари лозим.
- Оиланинг иқтисодий турмуш тарзи, истиқболий режалари тўғрисида ўз фарзандларингиз билан баҳамлашинг, ўртоклашинг.
- Ота фарзандининг айrim худбинона әхтиёжларидан воз кечиб, оила аъзоларининг талаб ва хоҳишлирини ҳам инобатга олиш иштиёқини шакллантира олиши керак.

Шунингдек, агар оила моддий жиҳатдан яхши таъминланган бўлса, ота ўз фарзандларини камтарин бўлишга ва бошқа оила фарзандлари олдида манманлик қилмасликка ўргатишлари лозим. Ёшларда моддий бойлиқдан кўра маънавий бойлик устун эканлигини онгига ва шуурига сингдириш катта аҳамият касб этади. Агар оиласда иқтисодий қийинчиликлар кузатилса ва бу оила кам таъминланганлар қаторидан ўрин эгаллаган бўлса, бундай оиланинг отаси ўз фарзандларида сабр, қаноат хусусиятларини шакллантиришлари, ўзга

моддий жиҳатдан бой оила фарзандларига ҳасад билан қарааш яхши эмаслигини ҳамда борига шукр қилиб яшаб, қўп ўқиб, меҳнат қилиш лозимлигини тушунтиришлари ва ижобий сифатларни шакллантиришлари лозим. Шулардан келиб чиқиб, ҳар биримиз фарзандларимиз тарбиясига ўта эътиборли бўлишимиз, бу муҳим масалада лоқайдлик ва бепарволикка йўл қўймаслигимиз зарур. Бу борада, айникса, авлоддан авлодга ўтиб келаётган қадриятларни, жумладан оилавий ахлоқий қадриятларни сақлаб қолиш ва ривожлантириш энг аввало, ота-оналарнинг олдида турган устувор вазифадир. Бошқача айтганда, ҳар бир инсон миллий қадриятларимизга аҳамият қаратиб, ўз фарзанди онгида ахлоқий қадриятларни болалигиданоқ шакллантириб бориши лозим. **Хулоса қилиб айтганда**, фарзандлар тарбияси ҳар қандай замон ва маконда ҳам давлат ва жамият аҳамиятига молик бўлган устувор масала ҳисобланган. Шундай экан, бу борада нафақат ота-она, балки ҳар бир инсон ўз бурчи ва мастьулиятини чуқур ҳис этган холда, Ватан манфаатлари нуқтаи назаридан ёндашган холда фаолият олиб бориши максадга мувофиқдир. “Агар катта авлоднинг билими ва тажрибасини, узокни кўра олиш фазилатларини ёшларимиздаги ғайрат-шижоат, мардлик ва фидоийлик билан бирлаштира олсан, кўзлаган мэрраларга албатта етамиз. Янги Ўзбекистонни ана шундай билимли ва бунёдкор ёшларимиз билан биргаликда барпо этамиз”.[6,29.12.2020]

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “Мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, илм-фан соҳаси ривожини жадаллаштириш масалалари муҳокамаси бўйича видеоселектор йиғилиши” Тошкент, 30.10.2020 йил.
2. И.Каримов. Ўзбекистон, миллий истиқлолиқтисод, сиёsat, мафкура. “Ўзбекистон”, 1993, 133-бет.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси ҳалқ таълими тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон фармони.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-11-Ф-5847сон фармони.

5. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараккиёт йулимизни катъият билан давом эттириб, янги боскичга кўтарамиз. “Ўзбекистон”, 2016.Б.486

6. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси. Тошкент. 2020 йил 29 декабрь

## **AMIR TEMUR VA U AMALGA OSHIRGAN HUQUQIY SIYOSATNING HOZIRGI ZAMON HUQUQIY TIZIMI RIVOJIGA QO`SHGAN ULKAN HISSASI**

***J.A.Umarov***

*Namangan davlat pedagogika instituti ijtimoiy gumanitar fanlarni o`qitish  
metodikasi kafedrasini katta o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk bobokalonimiz Amir Temurning insonparvar huquqiy siyosatining mohiyati, u yaratgan Tuzuklar, tuzuklarda mustahkamlangan huquqiy qoidalar, xususan, jinoyat va jazo, soliq turlari hamda uning hisob-kitobi, A.Temur huquqiy merosidan hozirgi zamon huquq tizimini yaratish va takomillashtirishda foydalanishning ahamiyati haqida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar-** tuzuk, Konstitutsiya, tizim, prinsip (tamoyil),adolat, norma, raiyat, korrupsiya, soliq, dehqon er-suv, inson huquqlari, insonparvarlik, g`oyalilar, axloq, ma`naviyat, jazo, xalqchillik.

Amir Temurning huquqiy qarashlari va qonunchilik tizimi butun Temuriylar sultanatida hayotning barcha jabhalarida o‘z aksini topib, ulkan amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan. Jumladan, Buyuk Ipak yo‘li xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilganki, bu bilan savdo-tijorat rivojiga katta hissa qo’shgan Sharqu G’arb mamlakatlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirgan.

Adolatning, nainki insonparvarlikning kuchi shunchalar yuksak ediki, agar mamlakatda biror odam bir tovoq oltin yo kumushni boshiga qo'yib, mag'ribdan mashriqqacha borsa, hech kim unga qo'l cho'zmas, oltin yo kumushdan bittasi ham kamaymasdi.

“Tuzuk” so‘zining lug‘aviy ma’nosи qonun-qoidalar to‘plami, nizom, degan ma’nolarni anglatadi. Boshqacha aytganda, **Tuzuk – Konstitutsiya** (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – **davlatning Asosiy qonuni, deganidir.**

Atoqli rus olimi **D.Logofet** “**Temur tuzuklari**”ni o‘rganib, unga Turkistonda Yevropadan 500 yillar oldin vujudga kelgan Konstitutsiyaviy kodeks, boshqacha aytganda, **Amir Temur sultanatining Konstitutsiyasi, deb yuksak baho bergan.** Binobarin, mustaqillikning dastlabki yillari - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining muhokamasi davrida Asosiy qonunimizni “Tuzuklar” deb atash tavsiya etilgani ham bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasining uchinchi bandida ushbu Asosiy Qonun “**o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib**” qabul qilindi, deb ta’kidlangan. Albatta, o‘zbek davlatchiligi rivoji tarixiy tajribasining eng muhim qismi – Amir Temur va temuriylardan meros huquqiy, siyosiy va tarixiy manbalardan, ayniqsa, “Temur tuzuklari”, “Boburnoma”, “Jahongir tuzugi”, “Humoyunnoma”, “Zafarnoma” kabi ko‘plab nodir asarlardan iboratdir.

Sohibqiron qoldirgan qonuniy me’yorlar va huquqiy normalardan Konstitutsiyamizning turli qism va boblarida, jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi”, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti”, “Vazirlar Mahkamasi”, “Sud hokimiyati”, “Mudofaa va xavfsizlik” boblarining muayyan moddalarida, zamon talablarini nazarda tutgan holda, ijodiy foydalanilgan.

Qonunga asoslangan tizimning ahamiyatini chuqur anglagan Amir Temur haqli ravishda “**Kuch – adolatda**” degan oliy me’yorni o‘ziga shior qilib olgan va hatto ushbu hikmatni uzuk-muhriga o‘yib yozdirgan. Bu haqda **Ibn Arabshoh** shunday guvohlik beradi: “**Temur tamg‘asining naqshi “Rosti rasti” bo‘lib, bu “haqgo‘y bo‘lsang, najot topasan” demakdir.**”

Amir Temurning huquqiy qarashlari va amaliy faoliyati har doim adolat va insof me’yorlari bilan hamohang bo‘lgan. Ulug‘ Sohibqiron o‘z davlati hududlarida

tuzuk-to‘ra va shariat qoidalari ustuvorligini amalda ta’minlagan. Bundan tashqari, Sohibqiron sultanatida kasbu hunar va ma’rifat ahli muntazam ish bilan ta’minlangan. Sarmoyasi qo’llidan ketib qolgan savdogarlarga o‘z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilgan. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bolsa, unga ekin-tekin uchun zarur urug‘lik va mehnat qurollari tayyorlab berilgan. Inson huquqlari va manfaatlarini ta’minalashga qaratilgan bunday amaliy misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

A.Temur davrida biz bugungi kunda “korrupsiya” va “poraxo‘rlik” deb ataydigan illatning har qanday ko‘rinishlari qoralangan. Unga qarshi kurashilgan va uning uchun javobgarlik belgilangan. Davlat mablag‘ini va davlatga tegishli otlarni talon-toroj qilgan qator yuqori martabali amaldorlar, firibgar va muttahamlar ham jinoiy javobgarlikka tortilib, ularga nisbatan jinoiy jazo tayinlangan. Ayni vaqtda Amir Temur qonuniy ishlagan tadbirkorlarni himoya qilgan... Amir Temur qat’iy choralarini yirik mansabdorlarga nisbatan ham qo’llagan. Mansabdorlar tomonidan jinoyatlarga jazo tayinlash alohida nazoratga olingan. Davlat amaldorlarining suiiste’molchiligi va poraxo‘rligi eng xavfli jinoyat hisoblangan. Mansab kishilari qilgan nojoiz ishi uchun, mansabidan qat’i nazar, qonun oldida javobgarlikka tortilgan. Bunday jinoyatlar uchun hatto o‘lim jazosi qo’llanilgan.

Yuqoridagi misollarni biz ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning “Kundaligi”dagi qaydlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Klavixo Amir Temur Samarqand sultanatida boshliq hisoblangan dina, ya’ni dorug‘ani - bosh vazirni Temur safardaligida uning ishonchidan foydalanib, o‘z lavozimini suiiste’mol qilgani uchun (masjid qurishda talon-torojlikka yo‘l qo‘ygan, mansabiga sovuqqonlik bilan qaragan) mol-mulki musodara qilinib, unga nisbatan o‘lim jazosi qo’llanilganini qayd etadi.

Bundan tashqari, Klavixoning kundaligida dorug‘aning gunohidan 400 kumush tanga evaziga kechishni so‘ragan podshoh a’yonlaridan biri ham o‘lim jazosiga hukm qilinganligi keltiriladi...

Amir Temur davlatda qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxsning javobgarlikka tortilishi shartligini, ya’ni javobgarlikning

muqarrarligi prinsipini joriy qilgan. Davlatda sudsarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biror-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmagan va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lgan. Klavixoning yozishicha, pora taklif qilgan shaxs ham tegishli tartibda jinoiy javobgarlikka tortilgan...

Sohibqiron o'tkazgan qabullardan biri to'g'risidagi ma'lumotlar bugungi davrimizgacha saqlanib qolgan. Unda yozilishicha, oddiy dehqonlardan bir guruhi miroblar ishidan norozi bo'lgan. Negaki, miroblar ariqlarni to'sib, kim pora bersa, shunga suv ochib bergen, porasiz hech kimga suv bermay qo'ygan. Amir Temur bu qing'irlikni odam o'ldirish kabi og'ir jinoyat bilan teng, deb hisoblagan. Shu sabab, bu og'ir jinoyatni ko'rib chiqishda xolis kishilarni — sayyidlarni chaqirib, ular bilan maslahatlashgan. Ular ishtirokida o'z nafsiqa qul bo'lgan miroblarga odil hukm chiqarib, aybdorlarni Zarafshon daryosiga tashlab yuborishga farmon bergen ekan...

Umuman olganda, "Temur tuzuklari"dan anglashiladiki, davlat boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlik muhim bo'lgan. Jinoyatlarning sodir etilgani va adolatli jazolar qo'llanilayotgani haqida xabargirlar saltanatning eng chekka yerlaridan ham muttasil yozma ravishda xabar berib turishi shart edi. Agar xabargir biror sipohiy yoki amaldorning xizmatini yashirsa yoxud yolg'on xabar yozsa, qilmishi isbotlangach, uning qo'llari kesilgan. Voqealarni ataylab yozmasalar, xabargirlarning barmoqlari kesilgan. Agarda xabarchilar yolg'on xabarni tuhmat yoki g'araz bilan yozgan bo'lsa, qatl etilgan. Xabarlar kunma-kun, haftama-hafta oyma-oy Amir Temurga yetkazib turilgan. Xabarnavislar har bir sarhad, viloyat va lashkarlarda tayin qilingan hamda ulardan rostlik-to'g'rilik talab qilingan.

A.Temur tuzuklarida "Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim. Har bir mamlakatning ahvolini, sipohu raiyat kayyafiyatini, turmushlarini, xalq-atvorlarini, qilish-qilmishlarini, bular o'rtasidagi aloqalarni yozib, menga bildirib turish uchun diyonatli, to'g'ri qalamli kishilardan voqeanavislar belgiladim"-deb bejiz ta'kidlamagan.

Soliq siyosati qat'iy tartibga solingan. Xalqdan qo'shimcha yoki bekor qilingan soliqlarni yig'ish taqiqlangan. To'langan soliq miqdorlari yozib borilgan.

G’azna mablag’larini suiiste’mol qilish yoki qisman o’zlashtirish holatlarida moliya vaziriga alohida sanksiyalar qo’llangan.

Amir Temur sultanat tepasiga kelgach, soliq tizimida ham keng islohotlar o’tkazdi. Sultanatda boshqa mamlakatlardan farqli ravishda soliqlarni hisoblab chiqish qoidalari ham joriy etilgan. Masalan, agar dehqon doimiy ariqlar, suv quvurlari yoki oqimlar bilan sug’oriladigan yerlarga ega bo’lsa va ana shu suv uzluksiz oqib tursagina, mazkur yerlardan olinadigan daromad uch qismga taqsimlangan. Ya’ni, bunda uchdan ikki qismi yer egasiga qolgan, bir qismi esa soliq sifatida olingan. Agar yer faqat yomg’ir suvi bilan sug’orilsa, ikki qismga taqsimlangan, ulardan hosilning uchdan bir qismi yoki choragi soliq sifatida olingan.

Mazkur tartib hozirgi kunda dunyo moliya amaliyotida qo’llanib kelayotgan yerlarni ball boniteti bo'yicha soliqqa tortishning nazariy asosi hisoblanadi. Demak, ayni paytda soliq qonunchiligidagi qo'llanilayotgan yer solig'i ball bonitetlari aynan Amir Temur hukmronligi davridan boshlangan va soliqlar stavkasini yerning unumdorlik darajasiga qarab tabaqlashtirish siyosati joriy etilgan.

A.Temur yangi yerlarni o’zlashtirishni rag’batlantirgan. Bo’z yerga ishlov bergen va uni sug’organ, unga ko’chat ekkan yoki qarovsiz yerlarni o’zlashtirgan dehqon birinchi yili soliqdan ozod qilingan, ikkinchi yili o’zi qancha xohlasa, shuncha soliq to’lash huquqi berilgan. Ushbu masala “Temur tuzuklari”da soliqlarni hisoblash va undirish to’g’risidagi tartibda: “Kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog’ ko’kartirsa yoxud biron xarob bo’lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat roziligi bilan bergenini olsinlar, uchinchi yili esa (oliq- soliq) qonun qoidasiga muvofiq xiroj yig’sinlar”, degan huquqiy me’yor belgilab qo’yilgan. Sohibqironning soliq siyosatidagi ushbu tartib bugungi O’zbekiston soliq qonunchiligidagi ham o’z aksini zamonaviy asosda topgani kuzatiladi. Xususan, yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 428-moddasida qishloq xo’jaligi maqsadlari uchun yangi o’zlashtirilayotgan yerlar- vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o’zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o’zlashtirilgan vaqtidan e’tiboran besh yil mobaynida; melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mayjud sug’oriladigan yerlar - vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga

muvofiq, ishlar boshlanganidan e’tiboran besh yil muddatga; yangi barpo etilayotgan bog’lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo’jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat’i nazar, besh yil muddatga yer solig‘idan ozod etilishi belgilab qo`yilgan.

Bunday adolatli soliq siyosati fuqarolar manfaatiga to’la mos tushgani ko‘pgina manba va adabiyotlarda o‘z ifodasini topgan. Xususan, D.Logofetning “Buxoro tog‘liklari va tekisliklarida” asarida Amur Temurning soliq siyosati to‘g‘risida quyidagilar bayon etiladi: “Uning hokimiyatida fuqarolarga adolat bilan munosabatda bo‘lishadi... Biz hozir zo‘r berib intilayotgan daromad solig‘i degan narsa uning hokimiyatida o’shandayoq mavjud edi”. Zero, u

Yevropa qirollariga yozgan xatida shunday degan edi: “Dunyoni savdogarlar obod qiladi, siz tomondan savdogarlar kelsa, biz ularning tinchligini, xotirjamligini kafolatlaymiz, ulardan hech qanday soliq olmaymiz, bizdan borgan savdogarlardan sizlar ham soliq olmanglar”.

A.Temur dunyoda ilk bor soliqlar belgilash va undirishning eng muhum to`rt tamoyilini (adolatlilik, aniqlik, qulay davrda to`lash va soliq tizimini takomillashtirish hamda solq yigish xarajatlarini kamaytirib borish) ishlab chiqqan. Boshqa sultanat rahbarlaridan farqli o`laroq, A.Temur xalqqa yengillik berish maqsadida soliq yig`uvchlarga xazinadan maxsus oylik to`laganligi ham alohida tahsinga molik. Oradan qariyb IV asr o`tib, G’arb soliqchilarining “bobosi” sanalgan Adam Smit “Xalqlar boyligining tabiatи va sabablari to‘g‘risida tadqiqot” nomli asarida (1776-yil) soliq tamoyillarini yaratganda bobokalonimiz Tuzuklaridan foydalanganligi aniqlansa, ajablanarli emas. Xulosa ornida shuni ta`kidlash joizki, A.Temurning jahon sivilizatsiyasiga, jumladan huquq tizimi va qonunchiligining taraqqiyotiga qo`shgan ulkan hissasi haqida fundamental tadqiqotlar zarurligini hayotni o`zi taqozo etmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Soliq nazariyasi: O’quv qo’llanma/Mual.: A. Jo’rayev, O. Meyliyev, G’.Safarov.T.: Toshkent moliya instituti, 2004. - V. 10.
2. Temur tuzuklari. T.: Cho’lpox, 1991. – B. 89.
3. Eshov B. O’zbekistonda davlat va mahalliy boshkaruv tarixi T.: Yangi asr avlod, 2012.- B. 292.

4. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar sultanati. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1994. B. 65.

**Akademik Akmal Saidovning** “Temur tuzuklari” – muhim tarixiy-huquqiy manba” nomli 2020-yil 9-apreldagi, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi **Ashurali Boymurodning** “Yangi O’zbekiston” gazetasi 2024-yil 5-aprel sonida, *Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori Bahodir Isroilovning* “Yangi O’zbekiston” gazetasi 2024-yil 6-aprel sonida, *Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazining katta o’qituvchisi T.Mamatov va SamDTU fiziatriya kafedrasi o’qituvchisi N.Mamatova nomidan* “Zarafshon” gazetasi 2024-yil 6-aprel sonida, *Farg’ona davlat universiteti rektori Bahodirjon Shermuhammadovning* “Xalq so’zi” gazetasi 2024-yil 9-aprel sonida, *Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi Davlat Oblaqulovning* “Inson va qonun” gazetasi 2024-yil 9-aprel sonida e’lon qilingan maqolalaridan foydalanildi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYALANUCHILARIGA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING MUHIMLIGI**

***Ergashema Muslima Komiljon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti 2- kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Bu qisqa tezisda, maktab o‘quvchilarining ekologik tushunchalarni oshirish uchun tabiatning roli va ahamiyati haqida so’zlar bor. Ayniqsa, maktablarda jonli tabiat burchaklarini yaratishga oid maslahatlar va takliflar ham keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, ekologik savodxonlik, tabiat burchaklari, o’simlik va hayvonot dunyosi, ekologik madaniyat, tabiatni asrash, ekologik muammolar, atrof-muhit.

**Аннотация:** В этом небольшом тезисе есть слова о роли и значении природы для повышения экологических знаний школьников. Также даются советы и предложения по созданию уголков живой природы, особенно в школах.

**Ключевые слова:** воспитанники дошкольных образовательных учреждений, экологическая грамотность, уголки природы, растительный и животный мир, экологическая культура, охрана природы, экологические проблемы, окружающая среда.

**Abstract:** In this short thesis, there are words about the role and importance of nature to increase the ecological understanding of schoolchildren. Tips and suggestions for creating living nature corners, especially in schools, are also provided.

**Key words:** pupils of preschool educational institutions, ecological literacy, corners of nature, flora and fauna, ecological culture, nature conservation, ecological problems, environment.

Bugungi kunda fan va texnikaning jadal rivojlanishi insonlar uchun atrof-muhitga ta'sir ko'rsatib bormoqda. Insonlar tabiatni o'zlashtirish orqali yaxshilik qilish uchun resurslardan va ehtiyojlardan ortiq foydalanishga boshladi. Bu esa ekologik ravishda buzilgan muvozanatni va tabiat ekosistemalarining zarar ko'rishiga olib keladi, bu esa insonlarning sog'lom va tinch hayotiga xavf soladi. Masalan, tuproqning sho'rланishi, qishloq xo'jaligi yerlarining zichlanishi, atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining yo'qotilishi, va chuchuk suv tanqisligi kabi muammolar keng ko'rinishda. O'zbekistonda suv tanqisligi muammolari xususan ko'payib borayotgan, va mamlakat olimlari bu muammoni hal qilish uchun ko'plab tadqiqotlar olib bormoqda. Masalan, qishloq xo'jaligida suvni tejamkor agrotexnologiyalar bilan tejash va suvni tejash yo'li bilan yechish uchun samarali usullar kabi misollar ko'rsatilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalari insonlarni tabiat bilan yaqinroq tanishtirish va ularni atrof-muhitga qarshi maslahatlarni qondirish maqsadida turli yo'llardan foydalanadi. Eng samarali usul bolalarni tabiat bilan tanishtirishdir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida xonadagi o'simliklar va hayvonlar uchun parvarish ostida tabiat burchagi yaratilishi, ular bilan muhabbat va mehrga o'rgatilishi maqsadida tanlangan. Bu bog'chada tabiatni o'rgatish uchun o'simliklar va hayvonlar, bolalar bilan bog'liq ta'lim va tarbiya dasturlariga muvofiq tanlanadi.

Jonli tabiat burchaklarida o'simliklar va hayvonlar ko'p turli manzaralarni ko'rish uchun qiziqarli vaqt o'tkazishadi. Bu turdag'i parvarish ishlari bolalar uchun tabiatga bo'lgan muhabbat va mehrga ko'proq ega bo'lishiga olib keladi, bu esa ularni tabiatni ehtiyotkor foydalanish va qadrlashga olib keladi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lif muassasalari ekologik bilim va ko'nikmalarga aloqador darajada shakllanmoqda, bolalar tabiat haqida yetarli bilimga ega bo'lib, jonli tabiat burchagini qanday tashkil etishni aniqlash maqsadida tadqiqotlar olib borilmoqda. Namangan viloyati Norin tumanining "Kamalak" nomidagi nodavlat oilaviy maktabgacha ta'lif tashkilotida bunyod etilgan tadqiqotlar esa bu maqsadni amalga oshirish uchun muhimdir.

Birinchi navbatda, maktabgacha ta'lif muassasasida jonli tabiat burchagi qanday tashkil etilganligi o'rganildi. Bog'chaning har bir xonasida turli xil manzarali xonadagi o'simliklar parvarish qilinayotganligi kuzatildi. Tarbiyachi har kuni xonadagi o'simliklarni qanday parvarish qilish kerakligini o'rgatdi va hatto bolalar bilan birgalikda o'simliklarni parvarish qilishni o'rgatdi. Shuningdek, bog'cha hovlisida mevali bog' ham tashkil etildi. Bolalar daraxtlarni qanday gullab meva tugishini yil davomida kuzatib borishdi va ularda qanday jarayonlar o'tadi haqida tushunchaga ega bo'lishdi. Bu esa bolalarni tabiatga bo'lgan sevgilarini oshiradi.

Keyinroq, bolalar ekologik savodxonligi qanday darajada ekanligini aniqlash maqsadida ularga yosh xususiyatlari boyicha savollar berildi. Ular tabiat bilan bog'liq turli savollarga javob berib, imtixonlar o'tkazildi. Ular o'rganishlarining birinchi bosqichida "ona tabiat" degan tushuncha bo'yicha savolga qanday javob berishganlarini ko'rdik. Bolalar tabiatga bo'lgan ehtiromlarini, o'zi uchun tabiatning nima ma'noni anglatganini ko'rsatishdi. So'nggi imtixonlarida, bolalar hayvonlar va mevalar rasmlari bilan tanishishdi. Ular hayvonlarni rasmlarda to'g'ri aniqlashda yaxshi bo'lib, ularni qayerda yashashini, qanday oziqlanishini va ularning turlarini yaxshi tushunishdi. Ularning ko'proqidan ko'proq qismi hayvonlarni tushunishda va ularning nomlarini eslab qolishda muvaffaqiyatli bo'ldi.

O'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, o'rganilgan maktabgacha ta'lif muassasasida jonli tabiat burchagidan o'simliklar yaxshi tashkil etilgan, lekin

hayvonot dunyosi vakillaridan iborat jonli burchak tashkilanmaganligi aniqlandi. Bu esa bolalar hayvonot dunyosiga doir savollarga multfilmlarning o'rni yuqori bo'lgan to'g'ri javoblarini berishlari bilan chetlatildi. Bunaqa bo'lsa ham, hayvonot dunyosi vakillaridan iborat jonli burchakni tashkil etish juda muhimdir, chunki bu yosh bolalarning hayvonot dunyosiga bo'lgan sevgi va ehtiromini oshirishga yordam beradi.

O'tkazilgan tadqiqotning ijobiy natijalari maktabgacha ta'lif muassasasida ekologik ta'lif va tarbiya jarayonining yaxshi olib borilganligini ko'rsatadi. Tarbiyachilar mas'uliyat bilan vazifalarini bajarishadi va bu jarayonga qo'llaniladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Asamovich, K. B., & Rustamjonovich, K. M. (2018). Organization of gardens without irrigation on the adyrs of the northeastern part of the fergana valley. European science review, 1(11-12), 7- 10.
2. Ergasheva T. Maktabgacha Ta'lif muassasalarida qiziqarli o'yinlar yordamida ekologik ta'lif samaradorligini oshirish imkoniyatlari //Экономика. – С. 84-87.
3. Kamalov, B. A., Abdurakhmanov, S. T., & Koriev, M. R. (2015). Possibility of crop in arid conditions without irrigation. European applied sciences, 10, 13-17.
4. Koriev, M. R., & Abdujabborov, A. A. (2022). Alternative energy resources of Uzbekistan and possibilities of their effective use. Dera Natung Government College Research Journal, 7, 20-31.
5. Koriev, M. R. (2019). Assessment of the opportunities of the organization of dry horticulture on the adyr zones by mulching. ZENITH International Journal of Multidisciplinary Research, 9(8), 27-33.
6. Qoriyev Mirzohid, Ubaydullayeva Muhlis. Maktabgacha ta'lif muassasalari tarbiyalanuvchilariga ekologik ta'lif va tarbiyani kuchaytirishning zarurati xususida. Iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2021. – №3. – 304-309 b.

#### **O'ZBEK TILIDAGI TARKIBGA AJRATILISHI MURAKKAB BO'LGAN AYRIM SO'ZLARNING TAHLILI**

***Habibullayev Nodirbek***

*Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

Paleogeografik so‘zi tarkibidagi o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, qadimiy, qadimiylitka, qadimiyatga oid kabi ma’nolarni o‘zi qo‘shilayotgan so‘zga yuklaydi. Keyingi qismda kelayotgan geo- prefaksi, graf asosi va -ik morfemasi haqida yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Shunday qilib, ushbu so‘z paleo/geo/graf/ik kabi tarkibga ajratiladi. Paleo/geo/graf/iya so‘zining tarkibi ham yuqoridagi so‘zga o‘xshash bo‘lib, ushbu so‘zda -iya morfemasi so‘z yasash uchun xizmat qilmoqda.

Radioavtografik so‘zining tarkibiy qismlarini yuqorida batafsil tahlil qilganmiz. Ushbu so‘z radio/avto/graf/ik kabi tarkibga ajratiladi. Radio/avto/graf/iya so‘zining tarkibi ham o‘zidan oldingisi bilan o‘xshash. Faqatgina bunda -iya so‘z yasash uchun xizmat qilmoqda. Radio/foto/graf/iya so‘zining tarkibi ham shu qolipda bo‘lib, bunda ikkinchi prefiks foto- hisoblanadi. Bu haqida ham yuqorida to‘xtalib o‘tganmiz.

Sotsiogeografiya so‘zi tarkibidagi sotsio- prefaksi o‘zlashma qo‘shma, yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, so‘zning jamiyatga, ijtimoiy sohalarga aloqadorligi mazmunini yuklaydi. Keyingi o‘rinlarda kelayotgan geo- prefaksi, graf asosi va -iya morfemasi haqida yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Demak, ushbu so‘z sotsio/geo/graf/iya kabi tarkibga ajratiladi.

Stereofotografiya so‘zining tarkibiy qismlariga yuqorida batafsil to‘xtalib o‘tganmiz. Ushbu so‘z stereo/foto/graf/iya kabi tarkibga ajratiladi. stereo/karto/graf/iya so‘zi tarkibidagi karto- prefaksi izohli lug‘atda berilmagan. Ammo ushbu so‘z qatnashgan so‘zlarning mazmuniga e’tibor qilinsa, uning karta (xarita) so‘ziga aloqador ekanini payqash mumkin. Demak, buni alohida prefiks sifatida qabul qilish o‘rinli bo‘ladi. Keyingi qismlarga yuqorida batafsil to‘xtalib o‘tganimiz sabab yana qayta tahlilga o‘rin yo‘q deb hisobladik.

Teleelektrokardiograf so‘zi tarkibidagi elektro- prefaksi o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, elektriga aloqador, unga xos, elektr bilan harakatga keltiriladigan, elektr hosil qiladigan, elektr tufayli ishlaydigan kabi ma’nolarni bildiradi. Uchinchi o‘rinda kelayotgan kardio- prefaksi o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning yurak bilan aloqadorligini bildiradi. Graf ushbu so‘zda asos qism vazifasini bajarmoqda. Qolgan qismlar

haqida yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Shunday qilib, ushbu so‘z tele/elektro/kardio/graf kabi tarkibga ajratiladi.

Vibrokardiografiya so‘zi tarkibidagi vibro- prefaksi o‘zlashma qo‘shma so‘zlar tarkibida kelib, shu so‘zlarning tebranishga, vibratsiyaga aloqadorligini ko‘rsatadi. Ushbu so‘zning keyingi qismlari haqida yuqorida batafsil to‘xtalib o‘tdik. Demak, ushbu so‘z vibro/kardio/graf/iya kabi tarkibga ajratiladi.

Zoogeografik, zoogeografiya so‘zlarining tarkibiy qismlari haqida yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Demak, ushbu so‘zlar zoo/geo/graf/ik, zoo/geo/graf/iya kabi tarkibga ajratiladi.

O‘zbek tilida prefikslarning bir necha marta bir so‘zning o‘zida kelishi holatlari haqida manbalarda to‘xtalinmagan edi. Ammo yuqoridagi so‘zlarning tahlillaridan buni o‘zbek tili uchun kerak ekanini anglaymiz. So‘zga bitta prefiks qo‘silsa, u prefiks o‘zi qo‘shilayotgan so‘zga o‘zining xususiy ma’nosini beradigan bo‘lsa, yana bir qo‘srimcha prefiks qo‘silganida xuddi shunday holat u so‘zda qayta takrorlanadi. Ya’ni ikkinchi prefiks ham o‘zining xususiy ma’nosini o‘zi qo‘shilayotgan so‘zga yuklaydi. Shunday ekan, ularga alohida morfema sifatida qarash o‘rinlidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nosirjon o'g'li, Xabibullayev Nodirbek. "Analysis of some words which are difficult to distribute into uzbek language." International journal of artificial intelligence 4.03 (2024): 592-594.
2. Habibullayev, Nodirbek Nosirjon o'g'li. "Qozoq va o‘zbek tilidagi modal so‘zlar chog’ishtirmasi." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3.5 (2023): 27-33.
3. Xabibillayev, Nodirbek. "Mumtoz Adabiyotni Targ’Ib Etishda Adabiy Moslashtirishning Ahamiyati (“Lison Ut-Tayr” Ning Moslashtirilgan Matni Misolida)." Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi 16.3 (2024): 65-71.
4. Raximova Shaxzoda. R. (2023). Artistic coverage of pedagogical problems in the works of Valentin Rasputin. International Journal of Advance Scientific Research, 3(12), 378-382

5. Raximova Shaxzoda. R. (2023, December). Views and pedagogical experience of valentin rasputin. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 80-82).
6. Nishonova, X.T. (2024). Methodology of development of young learner's lexical competence through comics in primary english classes. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 29-36
7. Nishonova, X. T. (2024). Boshlang'Ich Sinf Ingliz Tili Darslarida O'Quvchilarni Leksik Kompetensiyasini Komikslar Orqali Rivojlantirish. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 785-790
8. Олимова, М. (2024). Жизни и творчества ис тургенева с акцентом на его цикл очерков" записки охотника". ilm fan xabarnomasi, 1(2), 579-581
9. Egamberdiyeva Sh. Umumturkiy tillar allalarida alliteratsiya va assonans //tadqiqotlar. – 2024. – Т. 32. – №. 2. – С. 46-50.
10. Egamberdiyeva Sh. Problems in the study and classification of turkish lullabies //International journal of artificial intelligence. – 2024. – Т. 4. – №. 03. – С. 588-591.
11. Tashpulatovna B. M. Development of Lingvokultural Inofons Competence on Russian Lessons //International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 1.
12. Бабажанова М. Т. Изучение категории вида русского глагола в классах с узбекским языком обучения как лингвометодическая проблема //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 16. – №. 3. – С. 55-64.
13. Dehqanova G.A (2024). The importance and role of lexical competence in teaching foreign languages to students. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 16–23. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/1451>
14. Dehqanova. G.A. Improving the scientific and methodological aspects of preparing students for effective communication techniques and innovative technologies in teaching foreign languages //ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – т. 15. – №. 3. – с. 81-88.
15. Otaxonova, Shohsanam. "Chingiz Aytmatov asarlarida tabiat va inson munosabati." Academic research in educational sciences 5.CSPU Conference 1 (2024): 814-816.

16. Yuldashev O. K. et al. CHARACTERISTICS OF LITERARY TRENDS OF AMERICAN LITERATURE //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1202-1208.
17. Otaxonova, Shoxsanam. "DUNYO TILLARINING O 'ZARO ALOQASI VA LEKSIKASIGA TA'SIRI." Educational Research in Universal Sciences 2.15 SPECIAL (2023): 114-116.

## **O'ZBEK VA TURK ALLALARIDAGI ISTIORALARNING TASNIFFLASH TAMOYILLARI**

***Egamberdiyeva Shamsiya Mamajonovna***

*Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

[Shamsiyaegamberdiyeva8@gmail.com](mailto:Shamsiyaegamberdiyeva8@gmail.com)

**Annotatsiya:** Badiiy asarning qimmati ham uning badiiy tasvir vositalaridan nechog'lik mohirona foydalanganligi bilan baholanadi. Folklorda esa xalqning boy leksikasi, teran tafakkuri she'riy misralarda jilolanadi. Beshik qo'shiqlari tarkibiga kiruvchi alla matnlarida ham O'zbek va turk onalari farzandlarini o'zlari munosib ko'rgan beqiyos go'zalliklarga qiyoslaydilar. O'zbek va turk xalq og'zaki ijodida ham Onalik folklori xalq onalarining sezimlari, tuyg'ulari, ichki kechinmalari bilan istioralanib borgan. Onalar aziz jiigarbandlarini bir qarasang oyga, yulduzga; bir qarasang gulga, lolaga qiyoslaganlar. Onalik folklorida gul bilan, nur bilan, chorvachilik bilan bog'liq istioralar mavjud. Nafaqat o'zbek xalq allalarida ko'pgina turkiy xalqlar, jumladan, turk, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon va tatar xalq allalarida ham bunday istioralar ko'plab uchraydi.

**Kalit so'zlar:** trop, metafora, chorvachilik, dehqonchilik, bog'dorchilik, yorug'lik, gul, san'atkor

## **KIRISH**

Onalik folklori namunalari allalar chuqur falsafiy fikr va yuksak mantiq kuchi bilan, shuningdek, mayin lirizmi, tabiiy ohanraboligi bilan kishini o'ziga maftun etadi. Allani har bir ona kuylaydi. Uning qo'shiq aytishga qobiliyati bormi,

yo‘qmi, vokal imkoniyatlari qay darajada? U so‘z san’atkori sifatida o‘zini namoyon qila oladimi? Onalar alla kuylash jarayonida bularning hech birini o‘ylamaydi. Onaga bu bir martalik ijod Yaratgan tomonidan tortiq qilingan in’omdir. Ona bu jarayonda o‘zligini unutadi, farzandini erkelaydi, ammo tafakkur chegarasini ham unutmaydi. Maxsus badiiy tasvir vositalarini o‘z o‘rnida qo’llash, uni g‘oyaviy-badiiy maqsadga xizmat qildirish — so‘z san’atkorlaridan o‘ziga xos mahorat talab qiladi. Ona esa o‘z improvizatsiyasi bilan bu mahorat bosqichini bosib o’tadi. “Adabiy asarda so‘z asl yoki ko‘chma ma’noda qo’llaniladi. Agar asar tilida so‘z asl ma’noda emas, balki ko‘chma ma’noda qo’llanilgan bo’lsa, u maxsus badiiy tasvir vositasi hisoblanadi.”

Ko‘chimlar she’riy nutqni boyitadi, unda yangi mazmunni ifodalovchi yangi so‘z yoxud so‘z birikmasini yaratadi. “Ikki predmet yoki hodisani chog‘ishtirish, o‘xshatish troplarga asos qilib olinadi. Ya’ni predmet yoki voqeа-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa bir predmet yoki voqeaning belgisi ko‘chiriladi, o‘xshatiladi”.

Istiora-arabcha “qarzga olish” ma’nosini bildirib, allalarda onalarning farzandini erkash asnosida uni turli atamalar bilan atashi naijasи o’larоq yuzaga chiqadi. Biz tadqiqotimizda mavzu nuqtayi nazaridan istioralarning quyidagi turlarini farqlashga harakat qildik.

#### **O‘zbek va turk allalarida qo’llanilgan istioralarning mazmun ko‘lamiga ko‘ra tasnifi:**

Istioralarning bog‘liqligi	O‘zbek allalari	Turk ninnilar
<b>Gul bilan bog‘liq istioralar</b>	Gulim, lolam, rayhonim, gulg‘uncham, atirgulim	Gülüm, nazlı gülüm, nergis çiçeği, gonca gülüm
<b>Nur bilan bog‘liq istioralar</b>	Yulduzim ,kunduzim, shamchirog‘im, oyim, chirog‘im, quyoshim.	Yıldızım, gündüzüm, çırıam, ayım,
<b>Shirinlik bilan bog‘liq istioralar</b>	Shirinim, shakarim, asalim, qandim, novvotim	Tatlim, sekerim
<b>Chorvachilik bilan</b>	Qulunim, qo‘zichog‘im,	Kuzum, yavrum,

<b>bog’liq istioralar</b>	qo‘zim, toychog‘im, qo‘chqorim	
<b>Dehqonchilik bilan bog’liq istioralar</b>	Olma-anorim, charosim	Medine hurmesi, kirmizi elma

Talay istioralar osmon jismlari va yorug‘lik manbalari vositasida yuzaga chiqadi. Ona oyning derazadan mo‘ralashiga qarab yarim tun bo‘lganini, o‘zining charchagan va beholligini tasvirlab, bolasini “qo‘zim” deb erkelaydi. Shu bilan birgalikda farzandi uning uchun barcha quvonch va shodliklar sababchisidir. Qalbidagi yorug‘lik farzandi yonida bo‘lganidan. Shu sababli uni “**kunduzim**” deb chaqiradi:

*Ko‘kda oy yarqiraydi, alla  
Derazadan qaraydi, alla  
Ko‘zlarining yumgin, qo‘zim  
Yot quvonchim, kunduzim, alla*

Turk allalarida ham jigarbandini xuddi shunday “yulduzim”, “kunduzim”deb istioralash ko‘p kuzatiladi.

*Uyu kuzum, yıldızım,  
Kara gözüm, gündüzüm, ninni,  
Apağımsın, canımsın  
Gönlümde huzurumsun, ninni.*

Ona farzandini uxlatish jarayonida uning ikki chaqnoq ko‘zlarini yulduzga qiyos etadi. Shuning uchun ham qora ko‘zim sifatlashini kunduz so‘zi bilan birgalikda qo’llaydi. Yulduzda ham, kunduzda ham nur elementlari bolaning ko‘zlariga nisbat beradi. Bola ona hayotini yoritib unga nur beruvchi manba hamdir. Go‘dagi borligi uchun ham onaning ko‘ngliga huzur kiradi. *Apağım* sifatlashi ham barcha turkiy xalqlar uchun bolani erkakashda qo’llaniladigan umumiy sifatlashdir. Har bir inson farzandi dunyoga kelar ekan, unga yaxshi tarbiya berishni, el-yurt koriga xizmat qiluvchi farzand o‘sirishni niyat qiladi. Farzandi yuzini oydin qilishini tilab uni “yuz yorug‘im” deb ataydi. Shu bilan birgalikda farzandini hayotining yorug‘lik manbayi shamchiroqqa mengzab, o‘zini shu chiroq atrofida giryon aylanayotgan parvonaga qiyoslaydi:

*Yuz yorug‘im, bek bolam, alla,  
Parvonalar bo‘layin, alla.  
Ko‘z qarog‘im **chirog‘im**, alla,  
Giryonalar bo‘layin, alla.*

“Chirog‘im” istiorasi turk ninnilarida ham “çıram” tarzida uchraydi.

*Sen gülşenim, bağımsın, ninni,  
Dayanacak dağımsın, ninni,  
Karanlık gecelerde, ninni,  
Yaktığım **çıramınsın**, ninni.*

Ona farzandini gullar ungan go‘zal bog‘ga qiyoslab, butun kelajak orzularini u bilan birga quradi. Farzandi uning suyangan tog‘i, nafaqat qorong‘u kechalarda, balki umrining “kecha”larida—qayg‘u, iztiroblarida ham farzandi unga “yo‘lchi yulduz” bo‘lib hayotini yoritib boradi.

Umumturkiy xalqlarning barchasida bolani erkashida nur tafsilidan foydalanish kuzatiladi. Oy – yorug‘lik, ezgulik timsoli. “Ay, doğuşu, batışı ve yeniden doğuşyla doğumu, ölümü ve yeniden doğumu da işaret etmektedir. Ayın ortaya çıkıştı şeklindeki kozmik hadisenin “doğmak” fiiliyle nitelenmesi de aslında ay ile doğum kavramı arasındaki semantik yakınlığı göstermektedir. Kısacası, ayın çok çeşitli sembolik anlamları içinde doğum da vardır”

Turk onasi bolani tog‘ridan tog‘ri onadan “**oy**” tug‘ildi deb ta’riflaydi.

*Dandini dandini danadan  
Eksilmesin aradan  
Bağışlasın yaradan  
Bir ay doğmuş anadan.*

“Dandini dandini...” deb boshlanuvchi an'anaviy turk allalaridagi “dandini” so‘zi fransuzcha “dandiner” tebratmoq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, turk shevasida fonetik o‘zgarishga uchragan.

**Gul bilan bog‘liq istioralar.** O‘zbek xalqi orasida azaldan bolani gul-u yaproqqa o‘xshatish tamoyili bor. Bu, birinchidan, bola va gulning ifori bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, bolada ham, gulda ham navqironlik, rivojlanish va o‘sish sur’ati bor. Shuning uchun onalar farzandini “gul-u lolam” deb ataydi.

*Uxla, erkam, ol orom,  
Alla, alla, jon bolam,  
Mendan zuryod, mendan nom,  
Bog’da ochilgan lolam, alla.*

Ona erkatoy farzandi timsolida o’zining umri davom etajagini biladi. Uni bog‘idagi gul-u loladay go‘zal kamolga yetishiga umid qiladi.

*Benim yavrum sağ olsun ninni  
Ninni dersem dağlar uyur  
Dağlardaki laleler büyür  
Benim yavrum şimdi yürür ninni.*

Onalar o‘z allalarida farzandlariga baxt, sog‘lik, omad tilaydilar. Boshlari tog‘larday tik bo‘lishini tilab, tog‘lardagi lolalar yanglig‘ farzandi kamoli ham go‘zallik kasb etishiga umid bildiradi.

Folklorshunos M. Yoqubbekova ta’kidlaganidek: gulning semantik jihatdan farzand tushunchasini anglatishida undagi go‘zallik, noziklik, xushbo‘ylik mutanosiblik xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi. Muhim moslik shundaki, go‘dak ham gul ham o‘sish, o‘zgarish, taraqqiyot va yetilish jarayonining boshlang‘ich nuqtasidir. Shuning uchun ham allalarining ko‘pchiligida farzandga “gulim” deb murojaat qilinadi. Turk allalarida ham ayni holatda bolani gulga, chechakka, bulbulga qiyoslash o‘rinlari uchraydi.

Bolani “asal”, “shakar”, “novvot” deb erkalash va istioralash – anchagina an’anaviydir, lekin hamisha ohoriy. Bunda buyumning shirinlik belgisi bola bilan qiyoslanadi va ikkisi o‘zaro mengzaladi. Quyida ona bolasiga shirinlikning orttirma darajasini ifoda etuvchi obraz nomi bilan, ya’ni “asalim” deya murojaat qiladi. Yana bola guldai nozik va nafis bo‘lganligi uchun uning beshiklari ham gul taxtasidan, yumshoq paxtaday yelkalariga qattiq botmasligi uchun yumshoq qilib to‘shalgan:

### ***Asalimga atalgan***

*Beshiklari gul taxta.  
Uxlab bir orom olgin,  
Yelkang muloyim paxta.*

Turk allalarida ham onalar farzandlarini shirinlik bilan istioralab “tatlim”, “balim”, “şekerim” istioralarini ishlatganlar.

*Sarmaşar uyku sana  
Kondu gece tavana  
Ko uykun olsun tatlı  
Nice pitalar ballı  
Uyu, şekerim, nenni  
Nenni, kizim, nenni.*

Bolaning ko‘ziga uyquning tarmashishi, uyqu obrazining bir “sharpa” holida tasavvur uyg‘otadi. Kechaning yer yuziga qo‘nishi, o‘z-o‘zidan osmondan pastga qarab inishiga ishora qiladi.Uyqu qanchalik “Totli” bo‘lsa, uxlayotgan go‘dak undan ham totli.

*Yavrumun gözleri sürmeli,  
Yumuk yumuktur elleri,  
Tatlı mı tatlıdır dilleri,  
Nenni oğlum nenni nenni!  
Sözleri ballım, nenni!*

Odatda chaqaloqlar 3-4 oygacha qo’llarini musht qilib olishadi, bu uyqu holatida ham shunday kechadi. Bola 4-5 oyga o‘tishi bilan kulish, atrof-muhitni anglashi, dunyoni bilihga intilar ekan, qo‘l oyoqlarini ongli ravishda qimirlata boshlaydi.Biron narsani ushlarloq yoki ko‘rsatmoqqa urinadi. Ana shu vaqtda uning barmoqlaridagi musht yechiladi. Ko‘rinadi bu alla matni chaqaloqning 3-4 oylik davri uchun mo‘ljallangan.

*Kızım güldür açılır  
Hanemize saçılır  
Hemi bal hemi şerbet  
Benim yavrum içilir [turk ninnileriden sechmeler, 85]*

Qizining gul ekanligini e’tirof etgan ona uning xushbo‘y ifori butun xona bo‘ylab sochilganini ta’kidlaydi. Qizalag‘onini ham bol, ham sharbat deb atayotgan ona uni “bir qultum suv” kabi ichish mumkin ekanligini aytadi. Turk onasi an’anaviy shirinlik bilan bog‘liq istioralardan qochadi. O‘zbek allalarida “qandim”, “shakarim”, “novvotim” kabi suvgaga tushsa erib shirinlik hosil qiluvchi qandolat mahsulotlari uchrasha ham, bolani “sharbat” ga qiyoslash turk onalarining poetik topilmasi sifatida baholash mumkin.

Turkiy xalqlar tarixi, ijtimoiy kelib chiqishiga nazar solsak, xalq og‘zaki ijodi namunalarida nega chorvadorlik bilan bog‘liq urf-odatlar, atamalar ko‘p qo‘llanganligining sababini anglay boshlaymiz. Onalar qo‘shig‘i hisoblanmish alla matnlarida ham bu an’ananing davom etganini ko‘ramiz.

Farzandini “uloqcham”, “qo‘zim”, “qo‘zichog‘im”, “toyim” deb erkalash ildizi bir ariqdan suv ichuvchi bu millatlar uchun umumiyyidir. Barcha turkiy millatlarda bolasini “qulunim”, “saman toyim”, “qo‘zim” deb erkalash pozitsiyasi yetakchilik qiladi.

*Alla, qulunim, alla,  
Mangu o‘lanim, alla  
Quluntoyginam, alla  
Kenja toyginam, alla.*

Qulun—yangi tug‘ilgan otning bolasi. Toy-bir yoshli ot. Alla matnlarida, asosan, o‘g‘il bolalarga nisbatan “qulunim”, “toychog‘im” istiorasi uchraydi. Turkiy xalqlar orasida “ot—yigitning yori”, “ot—yigitning yo‘ldoshi”, “ot—yigitning qanoti” kabi ko‘plab maqollar mavjud. O‘zbek mifologiyasida Ot—qadimgi dinozavrlar avlodi sifatida ilohiyashtiriladi, “o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ot-muros-maqсад ramzidir”.

Marmara Universitetining Fan-adabiyot fakulteti, turk tili va adabiyoti bo‘limi professori Amil Chelebio‘g‘li turk allalaridagi istioralar haqida shunday deydi: “Ayrıca “yavrum” hitabı en yaygın olanıdır. Bunun yerine bazan “arslanım, bebeğim, gülüm, oğlum vs.” denildiği gibi doğrudan doğruya çocuğun adı da zikr edilir”. Tarjimasi: “Yavrum “(hayvon bolasi) hitobi eng keng tarqalgan ko‘rinishidir. Buning o‘rniga bazan “arslonim, gulim, og‘lim va hz” so‘zlari kabi to‘g‘ridan to‘g‘ri bolaning ismi zikr etilur.”

*Haydi sende yum gözünü  
Minicik **yavrum** ninni  
Artık yeter sus ağlama  
Minicik **yavrum** ninni*

Sevimli o‘zbek yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida “Alla” deb nomlangan maxsus hikoya bor. Unda go‘rkovning kelini tilidan aytilgan allada bola “Qo‘zim “ deb erkalanadi.

*Alla-yo alla, jonim bolam-a, alla,  
Uxla qo‘zim, alla-yo, shirin qizim, alla-yo.*

Ko‘rinadiki, “Qo‘zim” istiorasi ham, asosan, o‘g‘il bolaga nisbatan qo‘llansa ham, bu alla matnida qiz bolaga nisbatan ishlatilmoxda.Odatda, onalar tomonidan qiz bolaga “gulim”, “lolam”, “rayhonim” kabi istioralarning ishlatilishi odatiy hol bo‘lsa-da, chorvador xalq mafkurasida “Qo‘zim” deb erkalash an’anasi yetakchilik qiladi. Muallif shu asnoda o‘z onasining ukasiga aytgan allasini shu taxlit eslaydi:

*Alla, bolam, u xlabel qol-a, alla,  
Qu chog‘imda orom ol, alla...  
...Tog‘lardagi shunqorim-ey, alla  
Beshikdagi qo‘chqorim-ey, alla.*

Onalar bolasining erkin, mustaqil va xushqomat bo‘lishini niyat qilib tog‘dagi shunqorga, dushmanqa qarshi mardlarcha mag‘rur turishi, o‘z qavmini himoya qilishini niyat qilib qo‘radagi qo‘chqorga istioralaydi.

Turk allalarida ham bolasini qo‘yning bolasi qo‘ziga istioralash keng tarqalgan.

*Nennin deyirem yatasın  
Al kızıl güle batasın  
Büyyüp adam olunca  
Ata sözünü tutasın  
Nenni benim **kuzum** nenni  
Nenni iki gözüm nennin*

Ota tilidan aytilgan bu alla namunasida ota bolasining tezda ulg‘ayishi, unga izdosh, mashaqqatlarida ko‘makdosh bo‘lishiga ishonadi.

*Shirin erkam, oppog‘im, alla,  
Jon dilim, ko‘z qarog‘im, alla,  
Oy ham botti, chirog‘im, alla,  
**Qo‘zichog‘im**, alla.*

Kichraytirish-erkalash qo‘srimchasi sifatida o‘zbek allalarida “-choq” qo‘srimchasi ishlatilsa, turk allalarida ham parallel ravishda”-cak” shakli uchraydi. “Qo‘zichog‘im” so‘zida qanday “q” tovushining “g“ “ ga o‘zgarishi kuzatilsa, “yavrucak” so‘zida ham shunday “k”ning “g“ “ ga o‘zgarishi kuzatiladi.

*Ninni desem beni yakar*

*Beşiginde güler kokar*

*Kötü sözler hatır yikar*

*Ninni yavruağım ninni (Çelebioğlu, 1995: 51)*

Ko’pgina, ayniqsa buvi va momolarning tilidan aytilgan allalarda bolaning qantak o’rikka, uning danagiga, uzum yoki olma –anorga mengzash ko’p kuzatiladi.

*Bolaginam bolasi, alla,*

*Qantak o’rik donasi, alla.*

*Qantdan ham shirin ekan, alla,*

*Bolaginamning bolasi, alla.*

Elimiz orasida yuradigan qadrdon satrlar bor: “O’rigidan danagi shirin”. Qantak o’rik – farzand, nabira–danak tashbehidir. Nabiraning qimmatini buvi bo’lganlar biladi. Qaynona bo’lgan ayol borki, buvi bo’lishni intiqib kutadi. Nabirasini erkelayotgan buvijonlar uni qantak o’rik donasiga qiyoslashida ham bir hikmat bor. O’zi o’rik navlarini orasida eng kichik meva tuguvchi qantak navi mazasining alohidaligi bilan ham ajralib turadi.”**Qandak**” atamasi “ tojikcha qand otiga (к)- ak qo’shimchasini (TjRS,543) qo’shib hosil qilingan bo’lib, to‘q sariq-qizg’ish rangli, kmsuv, sershira o’rik ma’nosini anglatadi. **Qandak** — xalq seleksiyasida chiqarilgan mahalliy ertapishar o’rik navi. Farg’ona vodiysi, Buxoro va Samarqand viloyatlarida keng tarqalgan. Bir qancha klonlari bor. Daraxti o’rtacha kattalikda, shoxshabbasi quyuq, balandligi 7 m gacha. Shoxlari ingichka, kurtak va gullari mayda. Mart oxirlarida gullab, iyunning 2-yarmida pishadi. Mevalari mayda (20—25 g), dumaloq, po’sti qalin, tuklari bor, eti to‘q sariq, o’rtacha tig’izlikda, shirin (qand miqdori 14—] 7%, quruq modda 26—28%, nordonligi past — 0,4—0,6%), danagidan oson ajraladi, danagi mayda. Sovuqqa va kasalliklarga chidamsiz. Ekilganidan keyin 5—7 yili hosilga kiradi. Asosan, qoqi solinadi, kompot, murabbo qilinadi.

*Bog’da uzumning g’o’rasi, alla,*

*Tog’da kiyikning bolasi, alla.*

*Do’ppisida ukkipari, alla,*

*Bu kimning nevarasi, alla.*

Ushbu misralardagi “uzumning g’o’rasi”, “kiyikning bolasi” – istioraviy ko’chimning yorqin namunasi bo’lib, nabirasini uzumning g’orasiga mengzashida ham dono buvijonlarning bir qancha falsafasi bor. Uzum serfarzandlik ramzi bo’lib, yana ko’pgina nabiralar umidi hisoblansa, uning g’oraligida bolaning hali yoshligi, tajriba hosil qilib bir kun shirin meva bo’lib yetishiga ishonch bor. Tog’ yuksaklik, kiyik bolasi navqironlik, go’zallik timsolidir. Momolarimiz nabirasining boshi tik bo’lishini istab, do’ppisiga ukkipar qadashadi.

Albatta, ona farzand ko’rar ekan, butun umidini shu farzandiga tikadi. Xuddi shu lahzalarda butun borlig’i, ko’z nuri farzandi hisoblanadi. Momo havodan meros bo’lib o’tib kelayotgan onalik mehri ila farzandini xushxulq qilib tarbiyalashni niyat qilib, katta-katta ko’zlarini charosga menzab, “charosim” deb ataydi. Charos – uzum navi hisoblanib, katta-katta, tim qora donachalardan iborat bo’ladi. Uzum xalqimizda “serfarzandlik” timsoli ekanligini inobatga olsak, onalar o’z davomchilari xuddi shu charos donachalariday barakali bo’lishini tilaydilar.

*Borlig’im ham o’zingsan, alla,  
Nuridiydam, ko’zimsan, alla,  
Momo havo merosim, alla,  
Xush xulqligim, **charosim**, alla*

Onalar har doim o’zlarini Mamo havoning davomchilari sifatida ko’radilar. Yer yuzidagi ilk ayol “Mamo havo” – ayol zoti va moddiy hayot ramzi. Havo barcha mavjudotlarning onasi yoki “*Natura naturans*” tug’uvchi tabiat” hisoblanadi.

*Shirin uzumning shirasi, alla,  
Balxi tutning oq mevasi, alla.  
So’lim bahorning havosi, alla,  
Bolam – bag’rimning chevasi, alla. [110,23]*

Farzand – ona uchun dunyodagi eng totli ne’mat, balx tutining oppoq mevalariday barakotli, ilk bahor havosiday yoqimli. Bag’rida yetishtirgan nihol, uning kelajagi davomchisidir. “Tut-balog’at, orzudagi juftlik ramzi”. Ayol orzusidagi inson bilan baxtli ekani, visolning shirin og’ushida mast ekani, sevgisining mahsuli sifatida farzandi dunyoga kelganini kuyga soladi.

*Olmali boqqa kirib, alla,  
Shaftolida sindi ko’nglim, alla.*

*Yaxshisini izlab yurib, alla,  
Yomon bilan o’tdi umrim, alla*

O’zbek folklorida olma muhim badiiy detall hisoblanadi. Ertak va dostonlarda qandaydir ilohiy zot yoki sehrgar farzandga muhtoj ota-onaga olma berib ketishi va shu olmani yegandan so’ng ayolning homilador bo’lishi motivlari uchraydi. Masalan, ”Xurshid va Laylo”, ”Zar kokilli yigitcha”, ”Tohir va Zuhra” ertaklarida ota-onalarga sehrgar bergan olmani yegach, farzand ko’rishadi.”Go’rog’li” dostonida ham Bibi Hilol ariqdan oqib kelgan olmani yegach, homilador bo’lganligi haqidagi syujet bor. Faqat bu misralarda olmaning “farzand” ma’nosi emas, balki ”Sevgi” ramzi ifodalangan. Shaftoli-yolg’on muhabbat, o’tkinchi sevgi ramziy mazmunida keladi. Ona sevgi va vafo istab turmushga chiqqani, ammo hiyonatga duch kelgani, orzusidagi hayotning armonga aylanganidan shikoyat qilmoqda.

Alla—dunyo bolalari uchun musiqa, tahayyul va taffakkur olamiga ochilgan ilk eshik, onalarning umid va orzulari, dardlari va tashvishlari oynasidir. Bu xazina xalqlarning ming yillik tarixi, o’lmas an’ana va qadriyatlaridan rang olgan. Onalar farzandlariga yurtning ertasi, millat kelajagi nazari bilan boqqanlar, ularni o’zlari bilgan eng yuksak pardalarda sharaflagan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Turdimov Sh.Xalq qo’shiqlarida ramz.- T.:”Fan”,2020.B 127
- 2.Mingboyeva D.Timsollar tilsimi. –Toshkent.:Adabiyot,2022.B 99
3. *O’zbekiston milliy ensiklopediyasi* (2000-2005)
- 4.TÜRK NİNNİLERİNDEN SEÇMELER.B 22
- 5.O’tkir Hoshimov . Dunyoning ishlari.-Toshkent, O’qituvchi,-2018, B .201
6. N inniler konusuyla ilgili olarak daha fazla bilgi, örnek, yabancı ninniler, bibliyografya ve ninni notları için, bkz., Â m il Çelebioğlu, T ü rk Ninnileri Hazînesi, İstanbul 1982.
7. Yoqubbekova M.O’zbek xalq qo’shiqlarida gul timsoli/ Til va adabiyot ta’limi,- Toshkent.2003.No4
- 8.DUYMAZ, Ali (2007), Oğuz Kağan Destanı’ndan Dede Korkut Kitabı’na Kahramanların Beden Tasvirlerinin Sembolik Anlamları Üzerine Değerlendirmeler, Millî Folklor, Cilt:10, Yıl: 19, Say: 52

- 9.Raximova Shaxzoda. R. (2023). Artistic coverage of pedagogical problems in the works of Valentin Rasputin. International Journal of Advance Scientific Research, 3(12), 378-382
- 10.Raximova Shaxzoda. R. (2023, December). Views and pedagogical experience of valentin rasputin. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 80-82).
- 11.Nishonova, X.T. (2024). Methodology of development of young learner’s lexical competence through comics in primary english classes. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 29-36
- 12.Nishonova, X. T. (2024). Boshlang’Ich Sinf Ingliz Tili Darslarida O’Quvchilarni Leksik Kompetensiyasini Komikslar Orqali Rivojlantirish. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 785-790
- 13.Олимова, М. (2024). Жизни и творчества ис тургенева с акцентом на его цикл очерков" записи охотника". ilm fan xabarnomasi, 1(2), 579-581
- 14.Egamberdiyeva Sh. Umumturkiy tillar allalarida alliteratsiya va assonans //tadqiqotlar. – 2024. – Т. 32. – №. 2. – С. 46-50.
- 15.Egamberdiyeva Sh. Problems in the study and classification of turkish lullabies //International journal of artificial intelligence. – 2024. – Т. 4. – №. 03. – С. 588-591.
- 16.Habibullayev, Nodirbek. "Qozoq va o’zbek tilidagi modal so’zlar chog’ishtirmasi." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.5 (2023): 27-33.
- 17.Xabibillayev, Nodirbek. "Mumtoz Adabiyotni Targ’Ib Etishda Adabiy Moslashtirishning Ahamiyati (“Lison Ut-Tayr” Ning Moslashtirilgan Matni Misolida)." *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 16.3 (2024): 65-71.
- 18.Tashpulatovna B. M. Development of Lingvokultural Inofons Competence on Russian Lessons //International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 1.
- 19.Бабажанова М. Т. Изучение категории вида русского глагола в классах с узбекским языком обучения как лингвометодическая проблема //Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 16. – №. 3. – С. 55-64.
- 20.Dehqanova G.A (2024). The importance and role of lexical competence in teaching foreign languages to students. Ethiopian International Journal of

- Multidisciplinary Research, 11(05), 16–23. Retrieved from  
<https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/1451>
21. Dehqanova. G.A. Improving the scientific and methodological aspects of preparing students for effective communication techniques and innovative technologies in teaching foreign languages //ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – т. 15. – №. 3. – с. 81-88.
22. Yuldashev O. K. et al. CHARACTERISTICS OF LITERARY TRENDS OF AMERICAN LITERATURE //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1202-1208.

## РОЛЬ ИГРЫ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ОБУЧЕНИЕ, МОТИВАЦИЯ И РАЗВИТИЕ

*Шахзода Раҳимова,*

*преподаватель кафедры Узбекского и иностранных языков  
Наманганского государственного педагогического института*

**Аннотация:** В данной статье мы рассмотрим роль игры на уроках русского языка и ее значимость для обучения. Использование ролевых игр на уроках русского языка способствуют формированию мотивации и интереса к изучению русского языка. Применение сюжетно-ролевых игр на уроке русского языка является эффективным методом обучения, который способствует реализацию умений, навыков и знаний учащихся.

**Ключевые слова:** коммуникация, потенциал, ролевая игра, обучение, активизация, мышление, внеаудиторный, положительный.

**Abstract:** In this article we will consider the role of games in Russian language lessons and its significance for learning. The use of role-playing games in Russian language lessons contributes to the formation of motivation and interest in learning the Russian language. The use of role-playing games in the Russian language lesson is an effective teaching method that contributes to the implementation of students' skills, abilities and knowledge.

**Key words:** communication, potential, role-playing game, learning, activation, thinking, extracurricular, positive.

Учебный процесс в современном образовании требует применения разнообразных методов, которые способствуют более эффективному усвоению знаний и развитию навыков у учащихся. Одним из таких методов является использование игр на уроках русского языка. Игра – это не только средство развлечения, но и мощный инструмент обучения, который активизирует участие учащихся, мотивирует их к учебной деятельности, а также способствует развитию коммуникативных и когнитивных навыков. В данной статье мы рассмотрим роль игры на уроках русского языка и ее значимость для обучения.

### 1. Мотивация и эмоциональное вовлечение:

Игра на уроках русского языка помогает создать положительную атмосферу в классе и повысить мотивацию учащихся к изучению языка. Ученики с большим интересом вовлекаются в игровую деятельность, так как она предлагает им возможность проявить свои способности, применить полученные знания на практике и достичь успеха. Мотивированные учащиеся более открыты к усвоению новых знаний и проявляют большую инициативу в обучении.

### 2. Развитие коммуникативных навыков:

Игры на уроках русского языка способствуют развитию коммуникативных навыков учащихся. В процессе игры они активно общаются, выражают свои мысли и идеи, обмениваются информацией с другими участниками. Такая коммуникативная практика помогает учащимся улучшить свою речь, сформировать навыки слушания и понимания речи партнера, а также научиться работать в команде.

### 3. Усвоение грамматических и лексических навыков:

Использование игр на уроках русского языка позволяет эффективно усваивать грамматические и лексические навыки. В процессе игровой деятельности учащиеся неосознанно применяют грамматические структуры и новые слова, что способствует их закреплению. Благодаря играм ученики легче

запоминают и активно используют языковые единицы, так как они вовлечены в реальную коммуникативную ситуацию.

#### 4. Развитие творческого мышления:

Игры на уроках русского языка способствуют развитию творческого мышления учащихся. В процессе игры они вынуждены применять свои навыки ассоциативного мышления, находить нестандартные решения, развивать фантазию. Такой подход к обучению способствует формированию креативности и гибкости мышления у учащихся, что важно для их будущей успешной адаптации в современном информационном обществе.

#### 5. Социальное взаимодействие и развитие навыков сотрудничества:

Игры на уроках русского языка способствуют развитию социального взаимодействия и навыков сотрудничества. Учащиеся работают в парах или группах, обмениваются мнениями, решают задачи вместе. Такой формат работы способствует развитию навыков командной работы, умению слушать и уважать мнение других, а также разрешать конфликты и находить компромиссы.

### **Вывод**

Использование игр на уроках русского языка играет значимую роль в образовательном процессе. Они способствуют повышению мотивации учащихся, развитию коммуникативных навыков, усвоению грамматических и лексических знаний, развитию творческого мышления, а также социальному взаимодействию и навыкам сотрудничества. Игра на уроках русского языка делает учебный процесс интересным, активным и эффективным, способствуя всестороннему развитию учащихся. Педагоги и ученики могут вместе использовать потенциал игр для достижения наилучших результатов в обучении русскому языку.

### **Использованная литература**

1. Игры – обучение, тренинг, досуг / Под ред. В.В. Петрусинского. – М.: Новая школа, 1994.

2. Raximova Shaxzoda. R. (2023). Artistic coverage of pedagogical problems in the works of Valentin Rasputin. International Journal of Advance Scientific Research, 3(12), 378-382
3. Raximova Shaxzoda. R. (2023, December). Views and pedagogical experience of valentin rasputin. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 80-82).
4. Nishonova, X.T. (2024). Methodology of development of young learner's lexical competence through comics in primary english classes. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 29-36
5. Nishonova, X. T. (2024). Boshlang'Ich Sinf Ingliz Tili Darslarida O'Quvchilarni Leksik Kompetensiyasini Komikslar Orqali Rivojlantirish. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 785-790
6. Олимова, М. (2024). Жизни и творчества ис тургенева с акцентом на его цикл очерков" записи охотника". ilm fan xabarnomasi, 1(2), 579-581
7. Egamberdiyeva Sh. Umumturkiy tillar allalarida alliteratsiya va assonans //tadqiqotlar. – 2024. – Т. 32. – №. 2. – С. 46-50.
8. Egamberdiyeva Sh. Problems in the study and classification of turkish lullabies //International journal of artificial intelligence. – 2024. – Т. 4. – №. 03. – С. 588-591.
9. Habibullayev, Nodirbek. "Qozoq va o'zbek tilidagi modal so'zlar chog'ishtirmasi." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.5 (2023): 27-33.
10. Xabibillayev, Nodirbek. "Mumtoz Adabiyotni Targ'Ib Etishda Adabiy Moslashtirishning Ahamiyati ("Lison Ut-Tayr" Ning Moslashtirilgan Matni Misolida)." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 16.3 (2024): 65-71.
11. Tashpulatovna B. M. Development of Lingvokultural Inofons Competence on Russian Lessons //International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 1.
12. Бабажанова М. Т. Изучение категории вида русского глагола в классах с узбекским языком обучения как лингвометодическая проблема //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 16. – №. 3. – С. 55-64.



## BOSHQARUVDA RAHBAR VA XODIM MUNOSABATLARINI YAXSHI BO`LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Xasanboyev Azizbek Botirali o`g`li**

*Namagan davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi yo`nalishi 2-  
bosqich magistranti.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola boshqaruv sharoitida rahbarlar va xodimlar o`rtasidagi muvaffaqiyatli munosabatlarga hissa qo'shadigan murakkab psixologik xususiyatlarni o'rganadi. Mayjud adabiyotlarni o'rganish, turli xil tadqiqot usullarini qo'llash va asosiy topilmalarni taqdim etish orqali tadqiqot rahbarlar va ularning jamoa a'zolari o`rtasida ijobjiy va samarali ish munosabatlarini rivojlantiradigan muhim jihatlarni yoritishga qaratilgan. Maqola boshqaruv amaliyotini takomillashtirishga intilayotgan rahbarlar va tashkilotlar uchun tushunchalar, natijalar va takliflar bilan yakunlanadi.

**Kalit so'zlar:** Empatik rahbarlar, konstruktiv, menejment, ish joyining dinamikasi

Samarali yetakchilik har qanday tashkilot muvaffaqiyatining ajralmas qismidir va bu muvaffaqiyatning hal qiluvchi elementi rahbarlar va xodimlar o`rtasidagi munosabatlar sifatiga bog'liq. Ish joyi murakkab ekotizim bo'lib, unda psixologik dinamika o'zaro ta'sirlar va natijalarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqolada biz menejment kontekstida rahbar va xodimlarning ijobjiy munosabatlariga hissa qo'shadigan psixologik xususiyatlarni o'rganamiz.

Mayjud adabiyotlarni har tomonlama ko'rib chiqish ushbu tadqiqotning asosini tashkil etadi. Oldingi tadqiqotlar ishonch, muloqot, hamdardlik va o'zaro hurmat kabi asosiy psixologik xususiyatlarni muvaffaqiyatli rahbar va xodim munosabatlarining muhim tarkibiy qismlari sifatida aniqladi. Ushbu elementlarni tushunish boshqaruv stsenariylari doirasida o'ynayotgan nozik dinamikani o'rganishimiz uchun nazariy asos yaratadi.

Muvaffaqiyatli rahbar va xodim munosabatlarini belgilaydigan psixologik xususiyatlarni chuqurroq o'rganish uchun aralash usulli yondashuv qo'llanildi.

Ham rahbarlar, ham xodimlar bilan sifatli suhbatlar shaxsiy tajribalar va hislar haqida tushuncha berdi. Bundan tashqari, aniqlangan psixologik xususiyatlarning tarqalishi va ta'sirini o'lchash uchun miqdoriy tadqiqotlar o'tkazildi.

Rahbar va boshqaruvdagi xodim o'rtasidagi munosabatlar tashkiliy muvaffaqiyatning hal qiluvchi jihatni hisoblanadi. Ijobiy va samarali munosabatlar ishdan qoniqishning oshishiga, mahsuldarlikning oshishiga va qo'llab-quvvatlanadigan ish muhitiga hissa qo'shishi mumkin. Rahbar va xodim o'rtasidagi yaxshi munosabatlarni belgilaydigan ba'zi psixologik xususiyatlar:

Ishonch:

- Ishonch har qanday sog'lom munosabatlar uchun asosdir. Rahbarlar va xodimlar o'zlarining rollari va majburiyatlarini bajarish uchun bir-birlariga ishonishlari kerak.
- Rahbarlar ishonchni mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash uchun o'z harakatlarida va muloqotlarida ishonchli, shaffof va izchil bo'lishlari kerak.

Aloqa:

- Ochiq va samarali muloqot rahbar va xodimlarning yaxshi munosabatlari uchun juda muhimdir. Rahbarlar faol tinglashlari, konstruktiv fikr bildirishlari va yaqinlashishlari kerak.

- Xodimlar ochiq muloqot madaniyatini rivojlantirib, o'z fikrlari, tashvishlari va g'oyalarini ifoda etishda o'zlarini qulay his qilishlari kerak.

Hurmat:

- O'zaro hurmat ijobiy munosabatlar uchun juda muhimdir. Rahbarlar o'z xodimlarining hissalarini qadrlashlari va ularga munosib munosabatda bo'lishlari kerak.

- Xodimlar, o'z navbatida, o'z rahbarlarining vakolatlari va qarorlarini hurmat qilishlari kerak. Hurmatli muhit hamkorlik va jamoaviy ishni rag'batlantiradi.

Hamdardlik:

- Empatik rahbarlar o'z xodimlarining his-tuyg'ularini, istiqbollarini va ehtiyojlarini tushunadilar va ko'rib chiqadilar. Bu aloqa va qo'llab-quvvatlash hissini uyg'otadi.

- Xodimlar, ayniqsa qiyin paytlarda hamdardlik ko'rsatadigan rahbarlarni qadrlashadi. Bu ish joyida kuchli hissiy aloqani o'rnatishga yordam beradi.

E'tirof va qadrlash:

- Xodimlarni sa'y-harakatlari va yutuqlari uchun tan olish va qadrlash kuchli motivatordir. Rahbarlar katta va kichik muvaffaqiyatlarni tan olishlari va nishonlashlari kerak.
- O'zingizni qadrli his qilish ishdan qoniqishni oshiradi va xodimlarni o'z ishlariga ko'proq sarmoya kiritishga undaydi.

Aloqa va rivojlanish:

- Konstruktiv fikr-mulohazalar shaxsiy va kasbiy o'sish uchun zarurdir. Rahbarlar xodimlarga malaka va ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradigan fikr-mulohazalarni taqdim etishlari kerak.
- Uzluksiz o'rganish va rivojlanishni rag'batlantirish xodimlarning muvaffaqiyati va martaba o'sishiga sodiqligini namoyish etadi.

Birgalikda ko'rish va maqsadlar:

- Ikkala tomon ham umumiy qarash va maqsadlarga ega bo'lganda, yaxshi rahbar va xodim munosabatlari mustahkamlanadi. Shaxsiy maqsadlarni tashkiliy maqsadlarga moslashtirish maqsad tuyg'usini rivojlantiradi.
- Rahbarlar xodimlarga umumiy maqsadlarga erishishda o'z rollarini tushunishga yordam berib, kengroq tasavvur qilishlari kerak.

Moslashuvchanlik va moslashuvchanlik:

- Ijobiy munosabatlar imkon qadar ish tartibida moslashuvchanlikni ta'minlaydi. O'z xodimlarining turli ehtiyojlarini tushunadigan va qondiradigan rahbarlar isjni qondirishga hissa qo'shadilar.
- Moslashuvchanlik, shuningdek, etakchilik uslublarini individual jamoa a'zolarining ehtiyojlariga moslashtirishni o'z ichiga oladi.

Mojarolarni Hal Qilish:

- Mojarolar muqarrar, ammo rahbar va xodimlarning yaxshi munosabatlari samarali hal qilishni o'z ichiga oladi. Rahbarlar nizolarni zudlik bilan, xolisona va munosabatlarni saqlaydigan tarzda hal qilishlari kerak.
- Ochiq muloqotni rag'batlantirish va nizolarni hal qilish uchun xavfsiz joyni ta'minlash sog'lom ish muhitini yaratadi.

Motivatsiya:

- Xodimlarni ilhomlantirish va rag’batlantirish rahbarning asosiy mas’uliyatidir. Shaxsiy jamoa a’zolarini nima boshqarayotganini tushunish va bu motivlardan foydalanish ijobiy va band bo’lgan ishchi kuchini yaratishga yordam beradi.

- Rahbarlar ichki va tashqi motivatorlardan xabardor bo’lishi va ularning yondashuvini moslashtirishi kerak.

Yetakchi va xodimlarning muvaffaqiyatli munosabatlari ishonch, samarali muloqot, o’zaro hurmat, hamdardlik, tan olish, umumiy maqsadlar va muammolarni birgalikda boshqarish qobiliyatiga asoslanadi. Ushbu psixologik xususiyatlar ijobiy ish muhitiga hissa qo’shamasi va tashkilotning umumiy muvaffaqiyatini qo’llab-quvvatlaydi.

Muhokama rahbar va xodim munosabatlarining o’zaro bog’liqligini ta’kidlab, topilmalarning oqibatlarini o’rganadi. Ushbu psixologik xususiyatlarni rivojlantirish qanday qilib ishdan qoniqish, yuqori darajadagi faollik va tashkilotning samaradorligini oshirishga olib kelishi mumkinligini o’rganadi. Bo’lim, shuningdek, keyingi tadqiqotlar uchun potentsial muammolar va yo’nalishlarni ko’rib chiqadi.

### **Xulosa va takliflar:**

Xulosa qilib aytganda, ishonch, muloqot, hamdardlik va o’zaro hurmatning psixologik xususiyatlari menejment doirasida muvaffaqiyatli rahbar va xodim munosabatlarini o’rnatishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tashkilotlar va rahbarlar ish joyining dinamikasini oshirish va ijobiy tashkiliy madaniyatni targ’ib qilish uchun ushbu xususiyatlarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Amalga oshirish bo'yicha takliflarga etakchilikni o'qitish dasturlari, muntazam aloqa mexanizmlari va ochiq muloqot madaniyatini rivojlantirish kiradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola menejmentda muvaffaqiyatli rahbar va xodim munosabatlarini belgilaydigan psixologik nozikliklarni har tomonlama o’rganishni ta’minlaydi. Ushbu xususiyatlarni tushunish va birinchi o’ringa qo'yish orqali tashkilotlar yanada ijobiy, samarali va qoniqarli ish muhitiga yo'l ochishi mumkin.

### **Adabiyotlar.**

1. Назаров А. Психологические особенности руководителей, влияющие на принятие управленческих решений // Молодой ученый. – 2019. – № 44. – С. 298-300.
2. Nazarov A.S. Psychological analysis of levels of administration of management decisions // Вопросы экономики и управления. – 2020. – № 3. – С. 1- 5.
3. Умаров Б.М., Назаров А.С. Низоли вазиятларда бошқарув қарорларини қабул қилишнинг ташкилий ва ижтимоий-психологик механизмлари // Молодой ученый. – 2020. – № 7. – С. 352-353.
4. Nazarov A.S. et al. Қарор қабул қилиш бошқарув фаолиятининг психологик мезони сифатида // Молодой ученый. – 2020. – №. 11. – С. 280-282.
5. Назаров А.С. Adoption of management decisions as the main function of the modern manager // Проблемы современной экономики. – 2020. – С. 7-12.
6. Назаров А.С., Худайбергенова З. Socio-psychological features of management decision-making // Молодой ученый. – 2020. – № 50. – С. 430-432.
7. Назаров А.С. Psychological aspects of managerial decision making // Молодой ученый. – 2020. – № 44. – С. 45-48.

### **SOMONIYLAR DAVRI TARIXINI RUS OLIMLARI ASARLARIDA O’RGANILISHI. V. V. BARTOLD ASARLARIDA SOMONIYLAR TARIXI**

***To‘xtasinov Mira’zam Abdujabbor o‘g‘li***

*Namangan Davlat Universiteti*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi*

*[mirazamtohktasinov@gmail.com](mailto:mirazamtohktasinov@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Somoniylar tarixini rus tarixchi olimlar tamonidan o‘rganilishi aks ettirilgan. Jumladan V.V.Bartold asarlarida Somoniylar bevosita ularning kelib chiqishi, nomlanishi va mamlakat ijtimoiy – madaniy va iqtisodiy tamonlari yoritilishi tahlil qilingan. Bundan tashqari ushbu maqolada Somoniylar davri haqidagi boshqa manbalardagi ayrim ma’lumotlarni keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Movaraunnahr, Xuroson, Somoniy hukumdorlar, mamlakat boshqaruvi, mansablar, yer egaligi, “Sohib ash-shurat”

**Аннотация:** В данной статье отражено изучение истории сомонитян российскими историками. В частности, в работах В. В. Бартольда непосредственно анализируются сомониты, освещаются их происхождение, наименование, социальные, культурные и экономические аспекты жизни страны. Кроме того, в данной статье представлены некоторые сведения о периоде Сомона из других источников.

**Ключевые слова:** Моварауннахр, Хорасан, соманские правители, управление страной, должности, землевладение, «Сахиб аш-шурат».

**Abstract:** This article describes the study of the history of the Samanids by Russian historians. In particular, the works of V.V Bartold directly analyze the Samanids, their origin, naming and coverage of the socio-cultural and economic aspects of the country. In addition, this article contains some information about the Somoni period from other sources.

**Keywords:** Movaraunnahr, Khorasan, Samanid rulers, government, positions, land ownership, “Sahib ash-Shurat”

Somoniyalar Movaraunnahr va Xurosonda mustaqil davlat tuzish uchun avvalambor, kuchli markazlashgan hokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu ayniqsa Ismoil Somoniy hukmronligi davrida kunning dolzARB masalasiga aylandi. Chunki Ismoil Somoniy Movaraunnahr va Xurosonni birlashtirishga va yagona markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Endi bu davlatni idora qilish lozim edi. Shuning uchun Ismoil bir qancha islohotlar o’tkazdi. Mana shunday islohotlardan biri davlatni boshqarish ma“muriyatini joriy qilish bo‘ldi. Bu islohotga binoan davlatni idora qilish saroyi (dargoh) va 10 ta devon (harbiy -fuqaro mahkamalari) tashkil etildi.[1] Ismoil Somoniy davlatning majmuini tashkil etishda Sosoniylar Eron va Arab xalifaligida qabul qilingan tajribalardan foydalandi va uni zamon talabiga qarab mukammallashtirdi. Hokimiyatning eng yuqori pog‘onasida somoniylar turib, ular amir unvoni bilan davlatni idora qilganlar. Davlat majmuini mustahkamlashda, Nasr II Somoniyning ma’rifatli vazirlari Abuabdullo Muhammad Jayhoniy va Abufazl Muhammad

Balamiylarning xizmatlar katta bo’lgan.[2] Umuman, Somoniylar hukmdorligi davrida vazirlik mansabiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlangan. Davlat majmuini dargoh va devonlarga bo’linishi ma’lum darajada rasmiy bo’lgan. Chunki saroyning nufuzli kishilari ko‘p xollarda devonlarning ishlariga aralashib turganlar. Saroyda siyosiy hokimiyat “Sohibi xoras” qo’li ostida bo’lgan. Sohibi Xoras Amirning farmonlari bajarilishini nazorat qilgan. Saroyda Sharbatdorlar, Dasturxonchilar, Tashtadorlar, Otboqarlar, xo‘jalik beklari kabi turli xizmatchilar bo’lgan. Saroydagi hamma xo‘jalik ishlarini “vakil” boshqargan. Vakil saroydagi e’tiborli kishilardan biri hisoblangan. Narshaxiyning yozishicha, Nasr II Somoniy hukmronligi davrida o„n devonga Buxoro registonida o’nta maxsus bino qurilgan. [3] Devonlar orasida vazir yoki “xo‘ja buzurg” devoni alohida o‘rin tutgan. Bu devonga boshqa hamma devonlar bo‘ysungan. U hamma mamuriy, siyosiy va xo‘jalik mahkamalarini nazorat qilgan. Davlatni idora etishda “mustafiy devon” ham muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Bu devon davlatning butun moliya ishlarini boshqargan va nazorat qilgan. Devon xazinador tomonidan boshqarilgan. “Devon Amir-al-mulk” yoki “al-rasayi” davlat ahamiyatiga molik bo’lgan rasmiy hujjatlarni tuzish bilan shug‘ullangan. Bundan tashqari bu devon chet davlatlar bilan bo‘ladigan munosabatlarni ham boshqargan. “Sohib ash-shurat” devoni davlatning butun harbiy ishlarini, shu jumladan amirning shaxsiy qo’shinini boshqargan. “Sohib ash-shurat”ning maxsus yordamchisi-Aris bo’lgan. U mahkama va uning boshlig‘i amir qo’shini xazinasi bilan shug‘ullangan. Qo’shimcha bir yilda to‘rt marta maosh to’lagan. Davlatni idora etishda “sohib al-borid” devonining ahamiyati ham juda katta bo’lgan. Bu devon davlat ahamiyatiga molik bo’lgan hujjatlarni va xabarlarni yetkazish bilan shug‘ullangan. Devonning hamma shahar va viloyatlarda mahalliy mahkamalari bo’lgan. “Muxtasiba” devoni bozorlarni, sotuvchilarni, qadoqboshlarning og‘irligi, bozordagi mollarning narxini, sifatini nazorat qilgan. Davlat xazinasining daromadlarini va xarajatlarini “mushrif” devoni nazorat qilgan. Bundan tashqari “qozi az-ziya” va “vaqf” devonlari bo’lgan. “Qozi az ziya” devoni davlat yerlarini, “vaqf” devoni hadya etilgan yerlarni va musulmon ruhoniylarining boshqa mol-mulklarini nazorat qilishgan. Devonlarning aytarli hammasini viloyatlarda boshqarmalari bo’lgan. Devonlarning viloyatlardagi boshqarmalari bir tomondan o‘z devonlariga, ikkinchi tomondan viloyat hokimiga

bo’ysunishgan. Bundan faqat “Sohib al-borid” devonining amaldorlari mustasno bo’lgan. [4] Viloyat va tumanlar amir tomonidan tayinlangan hokimlar tomonidan idora qilingan. Odatda bunday lavozimga mahalliy boy zodagonlar tavsiya etilgan. Somoniylar davlatida musulmon ruhoniylarning ta’siri nihoyatda kuchli bo’lgan. Ular markaziy hokimiyat ishlarida ham faol ishtirok etganlar. Somoniylar davlatining diniy hayotida hanifiylar mazhabligiga mansub ruhoniylar hamma diniy lavozimlarni o’z qo’llariga olishgan. Ruhoniylarning boshlig‘i “ustod”, keyinchalik “Shayx ul islom” deb atalgan. “Ustod” dan so’ng o’z lavozimi bo'yicha ruhoniylar orasida “xatib” turgan. U jome masjidlarida juma namozida xutba o'qish huquqiga ega bo’lgan. Bu davrda Buxoro Sharqdagi islom olamining eng nufuzli markazlaridan biriga aylanadi. Movarounnahrdagi dastlabki madrasalarning bu yerda barpo etilishi ham beziz emas. Mulki sultoniy - shaxsan amirga tegishli yersuv, tegirmon, do’konlar. Bu mulkni qishloq chorikorlari ijaraga olganlar. Yana yer egaligining toma (umrbod berilgan yer), iqto (merosiy) turlari bo’lgan. Xususiy shaxslarga tegishli mulk: hukmdor tabaqa xonadoni, dehqon-zodagonlarga, sayyidlar, sipohsolor, badavlat savdogarlarga tegishli mulklar hisoblangan. Shartli yer egaligi ham bo’lgan. Vaqf mulklari: diniy muassasalar va madrasalarga tegishli mulk. Bu mulkni muassasa mutavallisi boshqargan. Jamoa mulki: yaylov, tog‘ yonbag‘irlaridagi lalmi yerlar. Xiroj hajmi shariat va davlat qonunlari asosida belgilangan. Somoniylarning birgina Buxoro va Karmana viloyatlari xirojidan tushgan daromadi 116866 dirxamni tashkil qilgan. [5] Somoniylar davrida yerlar qaytadan taqsim qilindi. Yer egalarining yangi guruhi tashkil topdi. Ularning ko‘pi sipohiylardan chiqqan edi. Masalan, Alpteginning Xurosonda va Movarounnahrda 500 qishlog‘i bo‘lib, biror shahar yo‘q ediki, unda uning qasri yo bog‘i, yoxud karvonsaroyi bo’lmasa. Uning tasarruffida minglab otlar va chorva mollari bo’lgan.

Xulosa o’rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, Somoniylar hukmronligi davrini tarixiy adabiyotlarda yoritilishi mavzusini o’zi dolzarb. Ya’ni bu mavzuni tadbiq etishda birgina Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari kamli qiladi albatta. Bu mavzuni ochishda albatta yevropalik tarixchilar qanaqa fikr bildirgan, ular Somoniylar davrini qay darajada ochib bera olganlar degan savolga ham to’xtalib o’tish kurs ishining dolzarbligini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan yirik markazlashgan davlat poytaxti Buxoro

shahri bo’lgan Somoniylar davlati X asrning birinchi yarmi bu davlatning gullagan davridir. Somoniylarning oilaviy nisbasi, ya’ni nomi ularning ajdodi bo’lmish Somonxudot ismi bilan bog’liq. Somonxudotning kelib chiqishi haqida turli xil ma’lumot va fikrlar mavjud. Abu Bakr Narshaxiy (X asr) va Xamza Isfahoniy (X asr) keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, Somonxudot Balx viloyatidagi Somon qishlog’idan, al-Muqaddasiy (X asr) ma’lumotiga ko’ra esa, u Samarqand viloyatidagi Somon nomli qishloqdan bo’lgan. ”Sa’diya” nomli asarda (XVII asr) keltirilgan ma’lumotlarga ko’ra, uning asl ismi Arquq bo’lib, u Farg’onadan Termizga ko’chib kelgan va u yerda Somon nomli qishloqqa asos solgan. O’rta asrlarda Buxoro, Farg’ona, Toxariston, Xuttalon va boshqa viloyatlarda ham Somon nomli qishloqlar bo’lganligi qayd etilgan. Bu ma’lumotlar “Somon” toponimi yerlarida ham keng tarqalgan joy nomi bo’lganligidan dalolat beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Б.В.БАРТОЛЬД - СОЧИНЕНИЯ.Т.2.Ч.1. «Восточной литературы». 1963.Москва. 118 ст
2. Камалиддинов Ш.С. Историческая география. С. 116 – 117.
3. Имеются данные, что родина Бахрама Чубина находилась в Мавераннахре (см.: Мухторов А. Сомониён. С. 38), а родиной Саманидов была Усрушана. См.: Мухторов А. Порча. С. 163.
4. Для этого имени допускается также чтение Шадил. См.: Мухтаров А. Сомониён. С. 285.
5. В арабском предисловии Бал ами к персидскому переводу сочинения атТабари. См.: Абу-л-Фазл ал-Бал ами. Т. I. С. 11.
6. Farrux Kamoliddinov (2021). Amir temur va temuriylar davri adabiy muhit va tasviriy san’atning ba’zi jihatlari tarixiy manbalarda. Academic research in educational sciences, 2 (9).
7. Вольный А. Женский труд в промышленности // Чачваны горят. -М., -Т., 1931.
8. Maxamatjonovich, N. O., & Burxoniddin o‘g’li, K. F. (2022). Legal Education Is the Basis for the Development of Society. Journal of Ethics and Diversity in International Communication.

9. Valijonoivna Q.M., & Burxoniddin o‘g‘li, K. F. (2022). Sobiq sovet ittifoqi davrida turkiston hududida amalga oshirilgan hujum harakati tavsilotlari va uning oqibatlari. Innovative Developments and Research in Education.

## **AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR SULOLASI DAVRIDA ILM-FAN VA ADABIYOT**

*Ilmiy rahbar: Namangan davlat universiteti Kengashi kotibi PhD To‘xtaboyev*

**A’zamjon Sharipxo‘jayevich**

**Yo’ldashev Safoxon A’loxon o‘g‘li**

*Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo‘nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ular tasarrufidagi hududlarda ham fan, ham adabiyot gullab-yashnadi. Temur, ya’ni Tamerlan nomi bilan ham tanilgan, XIV — XV-asrlarda ulkan imperiya ustidan hukmronlik qilgan qudratli sarkada edi. Temur buyuk sarkarda sifatida tanilganiga qaramay, san’at va ilm-fanga homiyligi bilan ham mashhur edi.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar, merosi, ma’rifat, ilm-fan, madaniyat, kutubxona, astronomiya, matematika, adabiyot.

**Аннотация:** В данной статье в период правления Амира Темура и династии Тимуридов на подконтрольных им территориях процветали наука и литература. Тимур, также известный как Тамерлан, был могущественным правителем, управлявшим огромной империей в 14 и 15 веках. Хотя Тимур был известен как великий полководец, он также славился покровительством искусству и науке.

**Ключевые слова:** Тимуриды, наследие, просвещение, наука, культура, библиотека, астрономия, математика, литература.

**Abstract:** In this article, during the period of Amir Temur and the Timurid dynasty, both science and literature flourished in the territories under their control. Timur, also known as Tamerlane, was a powerful ruler who ruled over a huge empire in the 14th and 15th centuries. Although Timur was known as a great general, he was also famous for his patronage of art and science.

**Key words:** Timurids, heritage, enlightenment, science, culture, library, astronomy, mathematics, literature.

Amir Temur vorisi sifatida Movarounnahr yurtini 40 yil boshqargan hamda bu davlat taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan Mirzo Ulug`bek ayni chog‘da ilm-fan rivojiga, madaniyat yuksalishiga ham beba ho hissa qo‘sghan buyuk siymodir. Utashkil etgan boy kutubxonada turli fan sohalariga oid 160 mingdan ortiq kitoblar mayjud bo‘lgan. Bu davrda ilm-fanga qo‘sghan eng muhim hissalardan biri astronomiya sohasida bo‘ldi. Temuring o‘zi ham astronomiyaga qiziqib, o‘z imperiyasining turli shaharlarida rasadxonalar qurishga buyurtma bergan. Burasadxonalar samoviy jismlarni o‘rganish va aniq astronomik hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ishlatalgan. Bu rasadxonalarda ishlagan olimlar yulduzlar va sayyoralarining harakatlarini tushunishda muhim yutuqlarga erishdilar. “Temuriylar davrida tasavvuf ta’limoti keng quloch yoydi. Sohibqiron tasavvuf qoidalari dan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo‘qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat vaadolat o‘rnatishda, insonparvarlik g‘oyalarini tarqatishda foydalangan. Temuriylardan Shohruh, Ulug`bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar davlatni boshqarishda, din va tasavvuf qoidalari ga amal qilishda, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda uning an‘analarini izchil ravishda davom ettirdilar. XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning ko‘p sohalarida yuksalish yuz berdi. Jahonga mashhur olimlar, tabiatshunoslar va shoirlar yetishib chiqdi. Tibbiyot, riyoziyot, handasa, tarix, adabiyot, jug‘rofiya, pedagogika, mantiq, falsafa, axloqshunoslik va boshqalarga e’tibor berildi. Ayniqsa, badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik tez rivoj topa boshladi”. Temuriylar hukmronligi davrida astronomiya bilan bir qatorda matematika, tibbiyot, kimyo kabi fanning boshqa sohalari ham rivojlandi. Temur va uning avlodlari tomonidan tashkil etilgan ma’rifiy markazlarga islom olamining allomalari jalb qilingan, ular o‘zaro fikr va bilim almashgan.

Bu davrda adabiyot ham gullab-yashnadi, shoirlar, yozuvchilar va tarixchilar tomonidan asarlar yaratilib, bugungi kungacha nishonlanadi. Temuriylar davrida Jomiy va Hofiz kabi shoirlar fors adabiyotining durdonalaridan hisoblangan she’rlar yaratib, fors she’riyati yuksak cho‘qqilarga chiqdi. Sharaf ad-Din Ali

Yazdiy kabi tarixchilar Temurning istilolari va sultanati haqida batafsil ma'lumotlar yozib, tarixning bu shiddatli davri haqida qimmatli ma'lumotlar berdilar. “Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ta’limga e’tibor, ilm-fanga homiylik davlat siyosatiga aylandi. Barcha shaharlarda oliy ta’lim dargohlari madrasalar barpo etilib, o‘z davrining yetuk olimu ulamolari tolibi ilmlarga dars berishga jalb etildiyu Amir Temur va temuriylar davri qadim Turon o‘lkasida maorif va ta’lim tizimi, ilm-fan yuksak rivojlangan davr sifatida ahamiyatlidir. Temuriylar davri renessansi rivoji bevosita Amir Temur asos solgan ulkan sultanatda adolatli boshqaruv tizimi barpo etilganligi katta o‘rin tutgan. Qudratli sultanat va ma’rifatli jamiyat barpo etishda qadim turkiy davlatchilik an’analari va islomiy shariatga tayanib ish tutgan Amir Temur. har qanday taraqqiyotning asosi sifatli ta’lim tizimi ekanligini chuqr anglagan edi. Shu sababli Sohibqiron birinchi galda ta’lim va tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ilmli, ma’rifati shaxslarning jamiyatdagi mavqeyini ko‘tarish yo‘lidan bordi. Ulkan sultanatning barcha shahar va yirik qishloqlarida ko‘plab boshlang‘ich maktablar barpo etildi. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, bu davrda o‘g‘il bola 4 yil, 4 oy va 4 kunlik bo‘lganda maktabga berish an’anasi amalda bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim ulkan sultanatning barcha madaniy o‘lkalarini qamrab olgan edi”. Temuriylar sulolasining ilm-fan va adabiyotga homiyligi nafaqat ilm-fan rivojiga, balki asrlar davomida saqlanib qolgan boy madaniy merosni yaratishga ham yordam berdi. Bu davrda intellektual qiziquvchanlik, badiiy ifoda va siyosiy kuchning uyg‘unligi olimlar va san’atkorlar o‘rtasida ijodkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantirgan noyob muhitni yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va temuriylar sulolasini davrida ilm-fan va adabiyot turli sohalarda sezilarli yutuqlar bilan ajralib turadigan oltin davrni boshidan kechirdi. Ularning olimlar va san’atkorlarga homiylik ko‘rsatishi bu sohalardagi kelajakdagi taraqqiyotga zamin yaratgan jo‘shtin intellektual muhitni yaratishga yordam berdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Temur tuzuklari. Ahmedov B. tahriri.- Toshkent: G‘afur G‘ulom, - 1991
2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar.-Toshkent: O‘qituvchi, 1994.

3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi.- Toshkent: Sharq, -2000.
4. Otamurotov S., Xusanov S., Raxmatov J.. Ma’naviyat asoslari. (o‘quv qo’llanma), - T.:A.Qodiriy nomidagi xalq meros nashriyoti, 2002 y.
5. Usmonov Q. “O‘zbekiston tarixi”. Toshkent, 2016 yil.
6. <https://oliymahad.uz/39276>
- 7.<https://xs.uz/uz/post/amir-temur-va-temurijilar-davri-renessansida-talim-tizimining-tutgan-ahamiyati>
- 8.w.w.w.ziyouz.com kutubxonasi
9. w.w.w.wikipedia.uz

## **OTA – ONA QARAMOG’ISIZ QOLGAN BOLALARNI TUTINGAN OILALARGA MOSLASHUVIDA MULOQOTCHANLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

***Axadova Shaxnoza Odiljonovna***

*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada olimlarining ota-onan qaramog’isiz qolgan bolalar haqidagi fikrlari, oila uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuv jarayonlari, oilaviy mehribonlik uylarini tashkil etilishi, bolalar salbiy ijtimoiy xodisalarni yuzaga keltirish sabablari , tutingan oilaga moslashuvchanligi, ota-onalar, Vazirlar maxkamasi qarorlari va farmoyishlari jamlangan.

**Kalit so’zlar:** Ota-onasiz bolalar psixologiyasi, mehribonlik uyi, oila tipidagi mehribonlik uyi, mehr-muruvvat, hayr-saxovat, insonparvarlik, oilalarning mustahkamligi.

Yurtimining kelajagi, ertangi kuni, mamlakatimizning jahondagi obro‘-e’tibori, avvallambor, farzandlarimizning unib-o’sib, katta bo’lib, qanday inson bo’lib borishiga bog’liqdir. Biz bunday o’tkir xaqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov, darxaqiqat, keljak avlodni vatan ravnaqi, xalq farovonligi uchun o‘z hissasini qo’shadigan, hech kimdan kam bo’lmagan, mustaqil fikrli, yuksak intellektual salohiyatli, har

tomonlama komil shaxs etib voyaga yetkazish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2008-yil 17-oktabrdagi 230-sonli qarori, "Mehribonlik uyi to‘g‘risida" nizom, "Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini kiyim-bosh, poyafzal va yumshoq jihozlar bilan ta’minalash normalari", 2010 yil 2 avgustda qabul qilgan "Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni turar joylar bilan ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “2017-2021 Harakatlar strategiyasi” dasturi va qator qaror va farmonlari mamlakatimiz o‘g‘il-qizlarini har jihatdan himoyalash, farzandlarga ta’lim va tarbiya berish, hayotga ijtimoiy moslashuvi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yaqindan ko‘maklashish muhim bo‘lmoqda. Bugunning talabi va dolzarb vazifalaridan biri bu yetim va qarovchisini yuqotgan bolalar sog`ligini, ma’naviy axloqiy jixatdan normal rivojlanishini ijtimoiy ximoya qilishdan iboratdir. O’zbekiston mustakillikni qo`lga kiritgandan so`ng, inson shaxsiga bo‘lgan munosabat keskin o`zgardi. Jamiyatimiz a’zosi bo‘lgan xar bir shaxs taqdiriga alovida e’tibor berilmoqda. Asosan, ma’lum bir sabalarga ko`ra, o‘z ota-onasidan, yaqin kishilari mexridan maxrum bo‘lgan yetim va qarovsiz bolalarga ta’lim va tarbiya berish, pedagogika va psixologiya, xamda ijtimoiy psixologiya fanlarining eng dolzarb muammolaridan biri. Xususan, kelajagi buyuk davlatni bunyod qilish uchun xar qanday davlatning asosiy bo`gini bo‘lmish oilaning mustahkamligini. uning jamiyat oldagi asosiy funktsiyalaridan biri bo‘lmish tarbiyaviy funktsiyasini to`la-tukis bajarishga, unda dunyoga kelayotgan bolalaring to`liq oilada, ota-onas mehriga emin-erkin qonib jamiyatning yetuk fuqarosi sifatida shakllanib katta bo‘lishiga sharoit yaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, eng avvalo, bolalar uylarida tarbiyalanuvchilar sonini keskin kamaytirish. ularni mehribonlik uylarida emas. balki o‘z ota-onalari quchogida, o‘z yaqinlari atrofida ulg`ayishini ta’minalash mustakil mamlakatimizning istiqbolini va ma’naviyatini ta’minlovchi asosiy omillardan xisoblanadi ( O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.08.2021 yildagi PQ-5215-sonli qarori). Quyida qayd etilgan ma’lumotlar prezident Shavkat Mirziyoyevning Toshkentdagli 21-sonli Mehribonlik uyiga tashrifi va undan keyin o’tkazilgan videoselektor yig‘ilishida taklif etilgan masalardir. 2021

- yil 9 avgust Milliy gvardiya mehribonlik uylaridagi bolalarni oilaga qaytarishga ko‘maklash topshirig‘i belgilab berildi. Milliy gvardiya prezident qarori bilan o‘ziga biriktirilgan Mehribonlik uylaridagi bolalarni ota-onalariga qaytarish, vasiy tayinlash va farzandlikka olishga ko‘maklashadi. O‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchilarning muammolarini o‘rganish va hal etish uchun «Mehr daftari» tizimi joriy qilinadi. Prezident 2021-yil 9 avgust kuni «Yetim bolalar va ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzolagan edi. Shunga ko‘ra, «Mehribonlik» uylari (16 ta, 1 541 nafar bola), Bolalar shaharchalari (4 ta, 236 nafar bola), oilaviy bolalar uylari (5 ta, 46 nafar bola) va Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimining Bolalar uylarini (13 ta, 506 nafar bola) Milliy gvardiyaga biriktiriladi. Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi organ «SOS — O‘zbekiston bolalar mahallalari» uyushmasining bolalar mahallalari bilan hamkorlik o‘rnatadi. Ushbu chora-tadbirlar yetim bolalar va ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish, ularning barkamol avlod sifatida shakllanishi hamda ijtimoiy moslashuvini taminlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilinmoqda. Agar psixologiyaga yuzlanadigan bo‘lsak, psixolog **A’zamxo‘jaevan**ing fikricha, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilardagi deprevatsiya holati muomala jarayonidagi asosiy qiyinchiliklarning sababchisi hisoblanadi.

Tarbiyalanuvchilardagi aqliy jarayonlarning saqlanganligi o‘zini o‘zi namoyon etish layoqati sifatida shakllangan attraksiyaning yuqori darajasini ko‘rsatadi. Olim attraksiya va o‘z o‘zini qabul qilish darajasining susayishi ular hayot tarzining o‘ziga xosligiga bog‘liq bo‘lib, o‘zgalar bilan muomalaga kirishishiga to‘sinqinlik qiladi. Muomala maromining dinamikasi ehtiyoji, mohiyati, hissiy, irodaviy, kognitiv, regulativ va shaxslilik sohalariga bog‘liq; O‘quv materiallari, umumiyl axborot yangiliqi qancha yuqori bo‘lsa, tarbiyachi pedagog bilan tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi muomala muhiti shunchalik ili, aniqlik darajasi barqaror va puxta bo‘ladi; bilimni o‘zlashtirish sifati, shaxslararo fikr almashish istagi, mustaqil fikrlash xohishi shunga mutanosib ravishda ijobjiy o‘zgarishlarga yuz tutadi deb hisoblaydi. I.P.Shukratovaning ta’kidlashicha, Ota-onasini yo‘qotgan bolalar muloqotidagi qiyinchiliklarni o‘rganishda uning rang-barangligini,

muloqotga kirishuvchilarining o‘zaro ta’sir etish texnikasini yaxshi bilmasliklari, ijtimoiy perceptiv funksiyalarning yaxshi rivojlanmaganligi kabi holatlarni e’tiborga olish zarur. I.P. Shkuratova tadqiqotlari natijalarigako‘ra, muloqot jarayonidagi qiyinchiliklar insonning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishiga xalaqit beruvchi omillardan biri hisoblanadi.

E.V. Ulibinaning ta’kidlashicha, **ota-onasini yo’qotgan bolalar** shaxslararo muloqot tarkibini ichki (harakatga undash) va tashqi (vosita va usullar) kommunikatsiya sifatida qaragan ma’quldir. Muloqot jarayonida bu ikki tomon bir-biri bilan o‘zaro bog’liqdir. Shuningdek muloqotdagi qiyinchiliklar motivatsion determinantlashgan hamda muloqot vositalarini takomillashmaganligi tufayli ham ro‘y beradi.

Turli xil shaxsiy xususiyatlarga ega inson sheri gida salbiy emotsiyalarni vujudga keltirishi, uning uchun ahamiyatli bo’lgan ehtiyojlarning qondirilishiga xalaqit berishi mumkin. Ota-onasiz bolalarda muloqot jarayonidagi qiyinchiliklarning paydo bo’lishi uning ishtirokchilari turli yosh guruhlariga mansubligiga ham bog’liqdir. Natijada hayotiy tajribaning o‘zaro mos kelmasligi ular o’rtasidagi muloqotga, uning samaradorligiga ham o‘z ta’sirini ko’rsatadi. V.A. Labunskaya tomonidan muloqotdagi psixologik qiyinchiliklarning tiplari ajratib ko’rsatilgan bo’lib, ular «ijtimoiy perceptiv-muloqot sharoiti», «ekspressivnutqiy – ijtimoiyperseptiv», «murojaatqilishsharti –muloqotsharoiti», «ijtimoiyperseptiv – munosabat - murojaat» vaboshqalardaniborat.

V. N. Kuznetsovaning aniqlashicha, tarbiyalanuvchilar muloqotidagi qiyinchiliklarning yana bir sababi tortinchoqlik bo’lib, u psixologik qo’rquv va psixologik noqulaylik sharoitida yaqqol namoyon bo’ladi. Shaxsga xos autizm, begonasirash, yolg’izlik, senzitivlik, isteroidlik va asabiylikka bu sifatlar ham muloqotning borishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Muloqot shaxslararo birgalikdagi harakat, ya’ni odamlarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida tarkib topadigan aloqalari va o‘zaro bir-birlariga ta’sirining yig‘indisi sifatida yuzaga chiqadi. Hamkorlikdagi faoliyat va munosabat ijtimoiy qoidalar – odamlarning birgalikdagi harakati va o‘zaro munosabatlarini qat’yan belgilab qo‘yadigan hamda jamiyatda udum bo’lgan xulq atvor namunalari asosida amalga oshiriladigan ijtimoiy nazorat sharoitida yuz beradi. Jamiyat ijtimoiy qoidalar

sifatida qabul qilgan, ma’qul topgan, udumga aylangan va tegishli vaziyatda turgan har bir kishidan bajarilishini kutayotgan namunalarning o’ziga xos tizimini yaratadi. Ularning buzilishi qoidadan chetga chiqadiganlarning xulq atvori to‘g’rulanishini ta’minlaydigan ijtimoiy nazorat mexanizmlari (ma’qullamaslik, ta’naqilish, jazolash)ni o‘z ichiga oladi. Qoidalarning mavjudligi va qabul qilinishi haqida biron kishining barcha boshqa odamlar xulq-atvoridan farq qiluvchi xatti harakatiga atrofdagilarning bir xilda munosabat bildirishidan dalolat beradi.

Muloqotchanlikning quyidagi bosqichlari mavjud:

1. Muloqotga ehtiyoj boshqa kishi bilan muloqotga kirishishga undaydi.
2. Muloqot maqsadi va vaziyatiga moslashish.
3. Suhbatdosh shaxsiga muvofiq harakat qilish.
4. O‘z xabarining mazmunini rejalashtirish nima haqida gapirishi kerakligini tasavvur qilish.
5. Anglamagan yoki anglangan holda aniq vositalar, iboralarini tanlash o‘ziniqanday tutish kerakligini aniqlash.
6. Suhbatdoshning qanday idrok qilish yoki baholash orqali tezkor aloqani tashkiletish.
7. Muloqot uslubi, usullari va yo‘nalishlarini tuzatib borish. Agar yuqoridagi bosqichlardan birortasi buzilsa, muloqot jarayoni to‘la qonlibo‘lmasligi, kutilgan natijani bermasligi mumkin. Psixologiyada muloqotning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Niqoblar aloqasi rasmiy muloqot bo‘lib, bundan suhbatdoshini tushinish uningshaxs sifatidagi xususiyatlarini e’tiborga olish mavjud emas, odatda turli niqoblar yuz ifodasi imo-ishora bir qolipdagi so‘z birikmalaridan foydalanib xistuyg‘ular yashirin tutiladi. Ba’zi vaziyatlarda bunday niqoblar aloqasi zarur bo‘lishi ham mumkin.
2. Sodda muloqot boshqa kishini kerakli yoki keraksiz obyekt deb baholash. Agarkerakli deb topilsa bunday suhbatdoshga nisbatan qo‘pol va zo‘ravonlik shaklida munosabat bildiradi.
3. Rasmiy rolli muloqot, muloqotning bu turida mazmun va vosita qat’iy chegaralangan bo‘lib, suhbatdosh shaxsiyati emas, balki ijtimoiy roliga e’tiborberiladi.

4. Ish yuzasidan muloqot suhbatdoshning shaxsi, yoshi, xarakter kayfiyati e’tiboriga olinadi, ammo ish manfaatlari ham hammasidan ustun turadi.
5. Ma’naviy shaxslararo muloqot do’stlar o’tasidagi muloqot bo’lib, bunda turli mavzularda fikr yuritish mumkin. Suhbatdoshlar bir-birini so’zsiz yuz ifodasi harakatlari ham tushunishlari mumkin.
6. Monipulyativ muloqot suhbotdoshdan biror manfaat kutib, turli usullardan foydalanish.
7. Soxta muloqot odamlar nimani o’ylatganlari emas, shunday vaziyatda nimani gaprish talab qilingan bolsa, shuni gapiradilar.

Pedagogik muloqot o’quv jarayonidagi o’zaro ta’sir shakli bo’lib o’qituvchilar va o’quvchilar hamkorligida namoyon bo’ladi. O’z navbatida pedagogik muloqot xali verbal va noverbal vositalardan foydalanilgan holda kommunikativ va perceptiv vazifalarini bajarishdan iboratdir. Keng ma’noda pedagogik muloqot «Ta’lim jarayonida o’qituvchining o’quvchilar bilan o’quv faoliyati ijodiyligi va o’quv motivlarini rivojlantirish maqsadida eng qulay sharoit yaratishga qaratilgan muloqotdir. Shu bilan birga pedagogik muloqot o’quvchi shaxsining shakllanishi, jamoada sog’lom ruhiy muhitning yaratilishi uchun eng qulay sharoit yaratadi».

Pedagogik muloqotning o’ziga xosligi uning ko’pgina obyektlarga yo’naltirilganligidir. Muloqotning bu turi nafaqat ta’lim oluvchilar shaxsiningshakllantirish maqsadida ularga ta’sir etishga balki o’quv bilimlarini o’zlashtirishshu asosida ijodiy ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratilgandir. Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu dunyoda hayot bor, oila bor. Oila bor ekan, farzand bor. Farzand bor ekan, odamzot ham ezgu orzu intilishlar bilan yashaydi”. Lekin, shuni afsus bilan ta’kidlash joizki, farzand deb atalmish beba ho ne’matidan voz kechib, undan yuz o’girib, ularni tashlab ketayotgan ota-onalar ham borki, ularni ta’riflashga til ojiz. Bu begunoh bolalarning ayanchli taqdiri, ularning murg’akligidan duch kelgan taqdirning qattiq zARBALARI, afsuski, bu bolalarning ko’ngli o’ksik bo’lib kamol topishiga olib keladi. To’g’ri, bugungi kunda qarovsiz qolgan bolalarni o’z bag’riga olgan “Mehribonlik” uylaridagi davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan shart-sharoitlar juda ham yaxshi, aniqrog’i xavas qiladigan darajada. Lekin, ko’ngli o’ksik bu bolalarning qalbiga boylik ham va hech bir zot

ularning haqiqiy ota-onasichalik yo'l topa olmaydi. O'sib kelayotgan yosh, buniyodkor avlod kelajagini har tomonlama takomillashgan va ijtimoiy taraqqiyot talablariga to'la-to'kis javob bera oluvchi ta'lim tizimining muvaffaqiyatli tatbiqisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'limning muvaffaqiyati esa tashkil etilgan o'quv faoliyatining har bir o'quvchi shaxsiga, uning ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Bu mas'uliyatli vazifani, ayniqsa, bugungi kunda psixologik xizmatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qolaversa, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, o'quv topshiriqlarini takomillashtirishda, o'quvchilarini u yoki bu kasbga yo'naltirishdagi o'ziga xos individual psixologik xususiyatlarini va qiziqishlarini aniqlashda, ularni o'z-o'zini anglashlarida, o'quv jarayoni, o'quvchilar jamoasi, o'quvchi-o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq barcha muammolarni bartaraf etish yo'llarini izlashdagi psixolog olimlarning bugungi yutuqlari haqida yetarli dalillar mavjud. Masalan, I.V.Dubrovina tadqiqotlarida mактабда psixologik xizmatni tashkil etishdagi nazariy va amaliy jihatlarning asoslanishi, L.I.Bojovichning o'quvchi shaxsi va uning mактаб yoshidagi shakllanish bosqichlarini psixologik tasniflovchi empiric ma'lumotlari; A.G.Asmolovning o'quvchi faoliyati va ustakovka uyg'unligini izohlab beruvchi tadqiqotlari; D.I.Feldshteynning ontogenezda rivojlanuvchi shaxs ijtimoiy taraqqiyotining psixologik qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan qator ilmiy-tadqiqiy ko'rsatmalari, E.A.Klimovning o'quvchini kasbga yo'naltirishdagi individual uslubni o'zida mujassamlashtirgan psixologik mezonlar ishlanmalari, B.S.Merlinning o'quvchi shaxsidagi individual va sotsial tipik xususiyatlar psixologiyasini izohlab berishga qaratilgan asarlari, E.G.G'oziyevning ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmat vazifalarini qayd etishga bag'ishlangan ko'rsatmalari, M.G.Davletshinning O'zbekistonidagi psixologik xizmatning bugungi holati va vazifalarini talqin qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy fikrmulohazalari, V.A.Tokarevaning o'quvchi shaxsi taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan o'z-o'zini bilish va axloqiy rivojlanish imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan ilmiy va empirik ma'lumotlari, G.B.Shoumarovning Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi bilan bog'liq yangiliklar, muammolar va yechimlarga bag'ishlangan nazariy-ilmiy va ijtimoiy-amaliy ahamiyatga molik fikr-mulohazalari, B.R.Qodirovning O'zbekistonidagi iqtidorli va iste'dodli

bolalarni tanlash va tarbiyalashga qaratilgan qator nazariy-ilmiy va amaliyuslubiy asarlari shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytadigan bolsak, mazkur mavzu orqali muloqotning ijtimoiylashuv jarayonidagi ahamiyati, ta’sir vositasi sifatida vazifalari, shaxs taraqiyotida tutgan o’rni, uning turlari, shakllari, bosqichlari, psixologik tuzilishga oid ma’lumotlar, bilim, malaka va ko’nikmalar shakllantiriladi. Shu bilan birga, fikrimizga yuqorida bayon etilgan ishlar samarasini yanada oshirish uchun bolalarni jamiyatga faol moslashishlari sohasida yana bir qator ishlar qilinishi zarur deb hisoblaymiz. Shundagina, jamiyatning qolgan qatlaminida ham psixologik ong va bilim rivojlanib shakllanib boraveradi. Bu pirovard vazifalarni bajarish esa shubhasiz jamiyatimizning barcha qatlamini e’tiborsiz qoldirmasligi kerak. Barcha birdek kurashgan davrdagiga ma’lum maqsadga erishilishi mumkin. Ulg’ayotgan shaxsda ijobiy sifatlar shakllanishida oiladagi sog’lom muhit katta ahamiyat kasb etadi. Oilada sog’lom muhitning saqlanishi ko’p omillarga bog’liq. Masalan, oila boshliqlarning o’zaro yaxshi munosabati, xonodon qariyalariga hurmat, e’tibor oiladagi bolalarning o’zaro munosabatlari to’g’ri tarbiyalangani, ota onaning bolalar tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o’rnatilgan to’g’ri munosabatda bo’lish kabilalar shular jumlasidandir. Bularning qay birida mutanosiblik buzilsa demak, o’sha oiladagi sog’lom muhitga putur yetadi. Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati o’zlarini tuta bilishlari muhimdir. Oilada muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi lozim. Kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash, bir-biriga mehribonlik, ayniqsa, ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanib borishi kerak. Oilada sog’lom muhit yaratish va uni uzoq vaqt bir necha o’n yillar mobaynida saqlash uchun oila a’zolarining dunyoqarashi, nuqtai nazari, fikrlari o’zaro yaqin bo’lishi lozim.

Oila a’zolari o’rtasidagi kelishmovchiliklar ko’pincha insoniy munosabatlardan, kishilar xulqini, hayotiy munosabatlarini baholashdan kelib chiqadi. Bu oilaviy muhit qarama-qarshi munosabatlardan tarkib topganligining natijasidir. Tarbiya ishida esa bunday kelishmovchiliklar salbiy iz qoldiradi. Bolalarda shubha, ikkilanish paydo bo’ladi, ota yoki onaning o’gitlariga ishonch susayadi yoki butunlay yo’qoladi. Shuning uchun ham oilada sog’lom muhitni

shakllantirishda fikrlar so’lomligiga e’tibor qaratiladi. Sog’lom oila bor joyda- oilalar ajrashmaydi, bolalar yetim qolmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Yetim bolalarga oid muhim qarori.Janiyat. 2019-yil 11 fevral kuni.
2. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to`g`risida»gi Qonuni.
3. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika darslik. «Toshkent»2009,
4. Berns R. Razvitiya Ya-kontseptsii i vospitaniya. M. 1986 s. 159
5. Абдурасулов, Р. А., & Qarshiboyeva G.Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
- 6.Абдурасулов, Р. А., Qarshiboyeva G. Психологик маслаҳат. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Qarshiboyeva, G. (2021). The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. Архив Научных Публикаций JSPI
8. Karshibayeva, G. (2021). Диагностика суициального поведения у подростков. Вестник интегративной психологии , (22), 84-89.
9. **G’oziyevE. Faoliyatvaxulq-atvormotivastiysi. Toshkent, Univyeritet, 2003**

#### **RELATIONSHIP OF NATIONAL IDEA AND SPIRITUAL LIFE**

***Kasimov is the son of Khamidullo Abdughakhhor***

***[gosimovxamidullo852@gmail.com](mailto:gosimovxamidullo852@gmail.com)***

*Namangan State University Faculty of Law, student of the National Idea, Spiritual Foundations and Law Education Department*

***Abstract:*** In this article, the concept of national idea and spiritual life is inextricably linked with the cultural, social and historical development of the nation. The national idea expresses the basic values, beliefs and aspirations of society, and spiritual life includes religious, moral and philosophical aspects that shape the

*collective consciousness of the people. We explore how these two aspects interact and influence each other in shaping a nation's identity and destiny.*

**Key words:** National idea, spiritual life, patriotism, cultural heritage, moral principles, philosophical views, development, society.

Each nation has its own values and principles that define its own characteristics and uniqueness. This national ideal serves as a unifying force that connects individuals with a common purpose and sense of belonging. It often reflects the historical experiences, struggles and achievements of the nation and guides its future development. The national idea can manifest itself in various forms, such as patriotism, cultural heritage, political ideology or economic prosperity. A national ideal expresses the common beliefs, values, and aspirations of a group of people, and spiritual life includes individual and collective beliefs, practices, and experiences that give meaning and purpose to their existence. The national idea serves as the leading force shaping the spiritual life of the people. It provides a framework for understanding the world, defining moral values, and setting goals for collective development. For example, a nation that values freedom and democracy in its national ideal may prioritize individual rights and social justice in its spiritual life. The national idea can evoke religious beliefs, cultural traditions and moral standards that are in harmony with the values established in it. Spirituality plays a decisive role in the formation of values, morals and outlook of individuals in society. It includes religious beliefs, moral principles, philosophical views, and personal experiences that guide people in their search for meaning and purpose in life. Spiritual life can also influence the national idea by forming the beliefs and values of its people. Religious teachings, philosophical views and cultural traditions help shape the worldview of individuals within a nation. These beliefs can inform political decisions, social policies, and cultural expressions that reflect a community's spiritual heritage.

The relationship between the national idea and the spiritual life, that is, the national idea and the spiritual life are not mutually exclusive, but interdependent aspects of the collective identity. is considered A national ideology often relies on spiritual principles to reinforce its values and inspire its followers. For example,

many nations incorporate religious symbols or traditions into their cultural practices to represent their shared beliefs and heritage. Likewise, spiritual teachings can influence political decisions or social policies that reflect the moral values of a society. The integral connection between the national idea and spiritual life is their influence on each other. Individuals contribute to the maintenance and development of their cultural identity as they draw inspiration from their spiritual beliefs to support the principles enshrined in their national ideals. Similarly, societies support their national ideals through political institutions or social movements based on shared values derived from their spiritual heritage.

In conclusion, the concept of national idea and spiritual life is necessary to understand the complex dynamics of national identity formation. By embracing both aspects with respect and understanding, societies can foster a sense of unity in the midst of diversity while promoting peace, harmony and progress for all members. Through such harmonious integration, countries can fully realize their potential and make a positive contribution to the world community. the integral connection between the national idea and spiritual life is necessary to understand the identity of the nation. By recognizing how these two aspects influence each other's development over time, it is possible to strengthen unity in different societies and promote harmony between different cultures worldwide. As nations navigate the challenges of today's interconnected world, understanding these relationships is critical to supporting sustainable development for peace and well-being worldwide.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ziyomuhhammadov B., Ziyomuhammedova S., Qodirova S. Ma’naviyat asoslari. T.: O‘zbekiston Milliy etiklopediyasidavlat ilmiy nashriyoti, 2000.
2. Nazarov Q.N. “Qadriyatlar falsafasi” Toshkent UFMJ 2004
3. E.Umarov, M.Abdullayev “Ma’naviyat asoslari” “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati TOSHKENT - 2005
4. Haydarov K, Irgasheva M, .Ziyoev S, Yo’ldosheva S. “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”.Samarqand,“Zarafshon”, 2006.
5. Muhammadjon Imomnazarov “Milliy ma’naviyat bosqichlari” Toshkent 2010
6. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. T.: G‘.G‘ulom nomidagi

nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

7. Ismoilov Temurbek Islomovich “Uyushmagan yoshlarning madaniyatini shakllanishining ijtimoiy-falsafiy asoslari” Namangan – 2021
8. Xoliqov I., Sobirova M., Masharipova G. “Ma’naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o’qitish. - T.-.TDPU, 2013.
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## SOMONIYLAR DAVLATI - YIRIK MARKAZLASHGAN DAVLAT

**To’xtasinov Mira’zam Abdujabbor o‘g’li**

*Namangan Davlat Universiteti*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi*

[mirazamtohktasinov@gmail.com](mailto:mirazamtohktasinov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘rta Osiyoda IX - X asrlarda hukm surgan Somoniylar sulolasining kelib chiqishi va ularning huquqiy maqomi hamda yirik markazlashgan Somoniylar davlatining siyosiy jarayonlari haqida ma'lumotlar berildi.

**Kalit so‘zlar:** Ismoil ibn Ahmad, Siyosatnama, Nasr, Tohiriylar, G‘aznaviylar, Buxoro, Kampirak devori, Bag‘dod, Talos vodiysi, Yoqub ibn Lays, Sejiston, G‘uzg‘on, G‘azna, Garjiston, Isfijob, Xorazm.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о происхождении династии Соманидов, правившей в Средней Азии в IX – X веках, и их правовом статусе, а также о политических процессах крупного централизованного государства Соманидов.

**Ключевые слова:** Исмаил ибн Ахмад, Политическая книга, Наср, Тахириды, Газневиды, Бухара, Стена Кампирака, Багдад, долина Талос, Якуб ибн Лаис, Седжистан, Гузган, Газна, Гарджистан, Исфиджаб, Хорезм.

**Abstract:** This article provides information about the origin of the Somanid dynasty, which ruled in Central Asia in the 9th - 10th centuries, and their legal status, as well as the political processes of the large centralized Somanid state.

**Key words:** Ismail ibn Ahmad, Policy book, Nasr, Tahirids, Ghaznavids, Bukhara, Kampirak wall, Baghdad, Talos valley, Yakub ibn Lais, Sejistan, Guzghan, Ghazna, Garjistan, Isfijab , Khorezm.

Ismoil Somoniyning Amr ibn Lays bilan bo’lgan to’qnashuvi haqida Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarida ajoyib ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Ismoil asirlikka tushgan Amr ibn Laysni ozod qilish haqida shunday deydi: “Bilib qo’yinglar, bu Amr ibn Lays bir buyuk hikmat egasi hotamtoydek saxiy, qudratli, ishlari tadbirli, irodasi kuchli, dasturxoni ochiq kishidir. Mening fikrim shunday: unga zarar yetkazmaslikka harakat qilaman, toki u shu asirlikdan xalos bo’lsin”. Bu xabarni Amr ibn Laysga yetkazishgach, bu asirlikdan qutulolmasligini aytadi hamda Ismoilni kuch-qudratiga tan bergenini, Alloh hukumatni o’zidan olib, Ismoilga bergenini, Ismoilga faqat yaxshiliklar tilashini aytadi. Ismoil davlatni egallagan bo’lsada xazina va oziq-ovqati yo’qligini, shuning uchun o’zidagi barcha xazinalar ro’yxati va kalitlarini Ismoilga tuhfa qilishini bildiradi. Bu esa Amr ibn Laysning makkorligi edi. Ziyorak va zehnli bo’lgan Ismoil buni darrov anglab yetadi va shunday javob qaytaradi: “Buni o’ziga qaytar va ayt, shartaki va o’tkir bo’lganining uchun hammaning ustidan sakrab o’tmoqchisan. Otalaring bir zolim hukmdor bo’lsa, senga zolimlikni o’rgatdi. Osmoniy tasodif tufayli mulkni zo’rovonlik bilan oldingiz. Bu xazinay-u dirham va dinorlarning hammasini odamlarga zulm qilib, nohaq yo’llar bilan qo’lga kiritgansiz. Bularning bari qari kishilar-u g’ariblarning moli, yetim-u zaiflar haqidir. Shularning javobini xudoyi taolo oldida o’zlaringiz berishingiz kerak. Sen makkorsan va shu zulmlarni mening bo’ynimga qo’ymoqchisan. Erta qiyomatda sizlardan mol tovonini so’rasa-lar, nimaiki bo’lsa Ismoilga berdik va undan talab qilinglar, deb javob berasizlar. Mening dushman uchun javob be-rishga toqatim yo’q”. Ko’rinib turibdiki, Ismoil ushbu vaziyatda juda katta zehn bilan ish tutgan. Bu orada davlat yaxlitligini ancha - muncha tartibga solib olgan Ismoil moliya islohoti ham o’tkazadi. X asrda Buxorodan tilla (dinor-lar), kumush (dirhamlar) va mis (chaqa) tangalar chiqaril-gan. Dinorlar kichik ko’lamda zarb qilinib, unchalik katta rol o’ynamagan. Ismoil ibn Ahmad nomi bilan so’qilgan Ismoiliy dirhamlari ancha mo’l chiqarildi. Ular yuqori sifatli bo’lganligidan xalqaro savdoda juda faol ishlatildi.

Ismoil Somoniy o‘z davrining yirik va aqlli davlat arboblaridan bo‘lgan. U yirik va markazlashgan davlat barpo qilishdan manfaatdor bo‘lgan barcha oqsuyak amaldorlami o‘z atrofiga to‘playdi. Ularning yordami bilan Ismoil shun-day bir qudratli markazlashgan davlat barpo qiladiki, bu davlat o‘sma vaqtida Sharqda shuhrat topadi. Ismoil Somoniy davrida Movarounnahr Arab xalifaligining istibdodi-dan abadul-abad ozod bo‘ldi. Ammo bir qarashda qudratli bo‘lib ko‘ringan bu davlatni ichdan yemirayotgan bir qator ijtimoiy ziddiyatlar bor ediki, buni hatto Ismoil Somoniy ham bartaraf eta olmadi. Bu markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat o‘rtasidagi qarama-qarshilik edi. Somoniylar har qancha urinsalar-da, Sejiston, G‘uzg‘on, G‘azna, Garjiston, Isfijob, Xorazm hozirgi Tojikistonning tog‘li viloyatlari: Chag‘oniyon va Rashtani o‘zlariga batamom bo‘ysundira olmadilar. Bu viloyatlaming hokimlari markaziy hokimiyatni rasman tan olsalarda, amalda mustaqil siyosat yuritardi. Shu tariqa Ismoil Somoniy Movarounnahr va Xuroson, Eronning qator sharqiy va shimoliy viloyatlarini o‘z ichiga oluvchi yirik davlatga asos soladi va bu hududlarda Arab xalifaligi hukmronligiga chek qo‘yiladi. Farg‘ona, Isfijob (Sayram), Shosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chag‘oniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson, Seyiston, G‘azna kabi qator viloyatlar Somoniylar davlati tarkibiga kiradi.

Somoniylar sulolasining hokimiyatdagi vakillari amir deb atalgan bo‘lib, ularga dargoh (saroy axli) va devonlar (harbiy boshqarmalar) bo‘ysungan. Vazir mansabiga, asosan, Jayhoniylar, Bal‘amiylar va Utbiylar aslzoda oilalarining vakillari tayinlanar edi. Jayhoniy va Bal‘amiy ulardan eng mashhur vazirlardir. Somoniylarda vazir devonidan tashqari 10 devon bo‘lib, ular uchun Buxorodagi Registon maydonida maxsus katta bino qurilgan edi. Somoniylarning boshqaruvi tizimi, asosan, mahalliy dehqonlar, aslzodalar va din arboblaridan tashkil topgan bo‘lib, har bir amaldor arab va fors tillarini mukammal bilishi, shuningdek, diniy va dunyoviy fanlardan xabardor bo‘lishi shart edi. Bunday odamlarni ahl alqalam (qalam axli) deb atashgan. Saroy harbiy qo‘mondonlari hojib, Xuroson lashkarboshisi esa sipoxsolor deb atalgan bo‘lib, boshqaruvi ishlariga katta ta’sir o‘tkazib kelishgan. Somoniylarning soliqlardan kelib tushadigan yillik daromadi 45 mln. dirhamni tashkil qilgan bo‘lsa, bu mablag‘dan 20 mln.ga yaqini boshqaruvi tizimida xizmat qilayotgan amaldorlar va qo‘sish ehtiyojlariga sarflangan. Xizmat

uchun ish xaqi hammaga har 90 kunda, ya’ni bir yilda 4 marta muntazam ravishda berib turilgan. X asr boshida Somoniylar hukmronligi ostidagi mulklar quyidagi viloyatlardan tashkil topgan: Buxoro, Samarqand, Ustrushona, Farg‘ona, Shosh, Isfijob, Xorazm, Kesh, Nasaf, Chag‘oniyon, Xuttalon, Badaxshon, Balx, Tohariston, Guzganon, G‘archiston, Marv, Hirot, G‘ur, Nishopur va Go‘rgon. Viloyatlarda boshqaruv hokimlar qo‘lida bo‘lib, ular amir tomonidan tayinlangan. Bu mansabga ko‘pincha mahalliy yer egalari va viloyat hokimlari xonadoni vakillari tayinlanar edi. Shaharlarning boshqaruvi raislar qo‘lida bo‘lib, ular hokimlar tomonidan tayinlangan. Somoniylar hukmronligi davrida Tohariston shaharlarida banichuriylar sulolasi, Xurosonda simjuriylar sulolasi, Guzganonda farig‘uniylar sulolasi, Xorazm va Isfijobda mahalliy turkiy sulolalar, shuningdek, Chag‘oniyon, G‘azna, Sijiston, G‘ur va G‘archistonda mahalliy sulolalar hukm surgan. Somoniylarning saroy ma’muriyati ichidagi amaldorlarning bir qismini forelar, qolgan qismini mahalliy turkiylar tashkil etgan. Viloyatlarda ham xuddi shunday ahvol kuzatilgan. Harbiy va mudofaa ishlari to‘la turkiylarning qo‘lida bo‘lgan X asr ga kelib Isfijob, Taroz va boshqa shaharlarning turkiy aholisi ko‘plab islom dinini qabul qilganliklari tufayli Somoniylarning boshqaruv tizimida ularning salmog‘i oshib ketgan. Xususan, Alptegin, Sabuqtegin, Alp Arslon, Alitegin, Simjuriy, Bektuzun, Qorategin, Ayach, Altuntosh, Banichur, Tosh singari mashqur tarixiy shaxslar va ularning avlodlari shular jumlasidandir. Shuningdek, turli viloyatlar va shaharlarni Inaj, Sabukra, Boyqaro, Alxunmish, Boytuz, Tuztosh, Kunbosh, Suboshitegin, Kamtegin, Fayozbek, Xumorbek, Xumortosh, Oytug‘dibek, Bilgategin, Fategin, Shukrtegin, Aytug‘mish va boshqa g‘ukmdorlar boshqargan. Hokimiyat Somoniylar qo‘lidan ketib, qoraxoniylar qo‘liga o‘tgandan keyin ularning deyarli barchasi ikkilanmay yangi hukmdorlar xizmatiga o‘tishgan. Shuning uchun Bug‘roxon 992-yilda Isfijobdan yurish qilib, Samarqand va Buxoroni egallaganda, unga hech kim qarshilik ko‘rsatmagan. Chunki mahalliy aholi, shu jumladan, amaldorlar ham shu jumladan, amaldorlar ham, ularga Movarounnahrning arablargacha bo‘lgan asl egalari sifatida va endi islom dinini qabul qilib, o‘z yerlariga qaytib kelgan hukmdorlar deb qaraganlar. Shunday qilib, Somoniylar boshqaruv tizimi aniq va mukammal ravishda tuzilgan bo‘lib, o‘zida davlatchilikning o‘sha davrda eng ilg‘or an‘analarini mujassamlashtirgan. Lekin

qonunchilik nuqtai nazaridan Somoniylar hukmronligini teng huquqli mustaqil davlat sifatida qarash haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki u davrda, IX-X asrlarda, Abbosiylar xalifaligida markaziy hokimiyat zaiflashib, viloyatlardagi mahalliy hokimiyat kuchaygani va deyarli mustaqil ichki siyosat olib borgani bilan, barcha mahalliy sulolalar, shu jumladan, Somoniylar ham, rasman bo‘lsada, Bag‘dod xalifalariga bo‘ysungan edilar. Ular faqat ma’muriy boshqaruva va xo‘jalik ishlarini yuritishda xalifalar tomonidan berilgan keng huquklar va o‘zini o‘zi boshqarish vakolatlariga ega bo‘lganlar. Shariat nuqtai nazaridan g‘am, xalqaro huquq nuqtai nazaridan ham, Xuroson va Movarounnahr ma’muriy jihatdan Abbosiylar xalifaligining ajralmas qismi, Somoniylar esa xalifalarning shu viloyatlardagi hokimiyatni boshqarish uchun tayinlangan voliylari hisoblangan. Demak, Somoniylarning hukmronligi davlatchilik sifatida emas, balki Abbosiylar xalifaligining tarkibida Bag‘doddan tayinlangan va nisbatan mustaqil ichki siyosat olib borgan mahalliy hukmdorlar sulolasining hokimiyati sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, XIV - XV asrlarda Samarqand Amir Temur va Temuriylarning poytaxti bo‘lganda, Buxoro va Samarqandda katta qurilish ishlari olib borildi, shunda bu yerga Erondan minglab me’morlar, hunarmandlar va quruvchilar taklif etildi, chunki Eron Temuriylarga qarashli yer edi. XVI-XVIII asrlarda, Shayboniylar Safaviylar bilan uzoq vaqt olib borgan urushlar davomida asir qilib olingan barcha eronliklar qulga aylantirilib, Buxoro va Samarqandda qoldirilgan. 1810-yilda Marvdan Turkistonga taxminan 40 ming eroniylar ko‘chirilgan va asosan Samarqand va Buxoro atroflariga joylashtirilgan edi. Ularning bir qismi turk, lekin asosiy qismi fors edi. XIX-XX asr boshlarida qul savdosi bilan asosan hindlar va turkmanlar shug‘ullanganlar, ular Turkistonning qul bozorlariga Erondan minglab qullarni keltirganlar. Buxoroda ham katta qul bozori bor edi. Fors qullari eng arzon edi - bir rus qulining narxiga 6 ta fors qullarini sotib olish mumkin edi. XIX asr o‘rtalarida Buxoro aholisining chorak qismini o‘zbeklar, to‘rtadan uch qismi esa fors qullari tashkil qilar edi. Erondan odamlarni ko‘chishlar 1917-yildagi rus inqilobiga qadar davom etgan. Shi‘a mazhabiga e’tiqod qiluvchi aholining ko‘pligi sababli 1910-yilda Buxoro xonligida sunniylar va shi’alar o‘rtasida katta to‘qnashuv sodir bo‘ldi. Buxoro va

Samarqand shaharlarining aholisi ana shunday shakllangan, lekin ulardagi hokimiyat Turk xoqonligi davridan boshlab rus istilosiga qadar har doim turklarning qo‘lida bo‘lgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Наршахий А. Бухоро Тарихи. – Т.: Фан. 1996. Б. 120.
2. Нематов Н. Давлати Сомониён. –Ирфон. 1999. Б. 328.
3. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –Т.: Sharq. 2010. Б. 511
4. Эшов Б.ва Одилов А. Узбекистон Тарихи. – Тошкент. 2014. Б. 489.
5. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 93.
6. Sagdullayev A. O‘zbekiston tarixi. –T.:Donishmand ziyosi. 2021.B. 624.
7. Bobojonova F. Buxoro me’moriy obidalari tarixi. Buxoro:. Fan va ta’lim. 2022. B. 285.
8. Boydedayev D. /Buxoro faxri – Ismoil Somoni. Yangi O‘zbekistonning umidli yoshlari. 14-son. 28.05.2022-y.
9. Yo‘ldasheva B. /Somoniylar va Qoraxoniylar davrida Buxoro shahri madaniyatining rivojlanishi va atrof-muhitga munosabat. 3. 2022-yil.
10. <https://shosh.uz/uz/mutafakkirlar-abu-abdulloh-xorazmiy>
11. <https://buxoroisharif.uz/5115/?amp=1>
12. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/q/qoraxoniylar-davlati>
13. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Hojib>
14. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/r/rabod>
15. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Al\\_Muqtadir](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Al_Muqtadir)

#### **KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA HAMDA MAKTAB HAMKORLIGINING AHAMIYATI**

***Matqurbanova Sevara Ikromjon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim*

*yo‘nalishi talabasi*

***E-mail: sevaramatqurbanova8@gmail.com***

***Tel: 998-94-535-37-67***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada komil inson, komil insonni tarbiyalash jarayonidagi oila, mahalla va maktab hamkorligining ahamiyatlilik darajasi hamda hamkorlikdagi faoliyatning yutuqlari haqida keltiriladi. Bundan tashqari yurtimizda oila, mahalla va maktab hamkorligini yanada jipslashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kirish so‘zlar:** tarbiya, komil inson, konsepsiya, hamkorlik, oila, mahalla va maktab hamkorligi, hamkorlikning asosiy vazifalari.

**Аннотация:** В данной статье описывается значение сотрудничества семьи, соседства и школы в процессе воспитания совершенного человека, а также достижения совместной деятельности. Кроме того, будет предоставлена информация о реформах, реализуемых в нашей стране для укрепления сотрудничества между семьей, районом и школой.

**Ключевые слова:** образование, совершенный человек, концепция, сотрудничество, семья, соседское и школьное сотрудничество, основные задачи сотрудничества.

**Abstract:** This article describes the importance of family, neighborhood and school cooperation in the process of raising a perfect person, as well as the achievements of cooperative activities. In addition, information will be provided about the reforms being implemented in our country to strengthen the cooperation between family, neighborhood and school.

**Key words:** education, perfect person, concept, cooperation, family, neighborhood and school cooperation, main tasks of cooperation.

Barchamizga ma'lumki, jannatmakon O'zbekistonimiz kunda –kunga taraqqiy topib, rivojlangan davlatlar qatoriga kirish uchun tinimsiz foydali islohotlarni amalga oshirmoqda. Bular qatorida davlatimiz rahbarining yoshlarga hamda ularning mukammal tarzda ilm-fan egallashiga qaratgan e'tiborlarini alohida ta'kidlamaslikning iloji yo'q. Bugungi kunda yoshlarimizning zamoniylar egallashlari, o'z ustida xohlaganicha ishlashlari uchun deyarli barcha shart-sharoitlar mavjud. Bu imkoniyatlardan qanday foydalanish esa ularning o'ziga bog'liq. Shunday ekan, yoshlarimizning axloqiy tarbiyasi qay darajada ekanligi ularning keljakda kim bo'lishidan dalolat beradi. Zero, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala –

bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, - deya bejiz ta’kidlab o‘tmaganlar.

Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minalash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig’indisi.[1]

Ayni damda yosh avlodga o‘zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg‘ularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo‘yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish, jamiyatimizda bugun mavjud bo‘lgan hurfikrlikdan qat’iy nazar yoshlarni birlashtiradigan, davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari olg‘a chorlaydigan yagona g‘oya- milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash o‘qituvchi va murabbiylar zimmasiga yuklatilgan eng mas’uliyatli ish desam aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Har bir ustoz degan sharaflı nomga muyassar bo‘lgan shaxs o‘quvchi yoshlarga ta’lim berish jarayonida bolalarning oila a’zolari va mahallasi bilan hamkorlikda ish olib borishga o‘z faoliyatidan kelib chiqqan holda majburdir. Bunda o‘qituvchi har bir bolaning psixologik holati, aqliy imkoniyati hamda iqtisodiy ahvolining qay darajada ekanligini bilishi ta’lim sifatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bolalarning bilim olishi bilan oila, mahalla va maktab o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati shundaki, agarda o‘quv jarayonida bolada qandaydir o‘qituvchi tomonidan tuzatib bo‘lmaydigan shaxsiy nuqsonlar paydo bo‘lsa, bunday holatda o‘qituvchi uning oila a’zolari bilan bog‘lanadi, ammo salbiy nuqsonning kelib chiqishiga asosiy sabab oila va undagi yomon muhit bo‘lsa shubhasiz bu paytda o‘qituvchi mahalla bilan ish olib borishga o‘z-o‘zidan majbur bo‘ladi. Davlatimiz tomonidan tarbiya jarayonining ishtirokchilarini bitta ezgu maqsad

yo‘lida birlashtirish uchun ham 1993-yilda “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” konsepsiysi ishlab chiqildi.

Konsepsiya- (lot. conceptio – majmua, tizim) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarini tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar.[2]

Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo‘ladi:

- ta’lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;
- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi;
- hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas’uliyati;
- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;
- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.[3]

Shu o‘rinda o‘qituvchi va o‘quvchi hamda o‘quvchining oila a’zolari va o‘qituvchi o‘rtasida yuzaga keluvchi bir necha salbiy holatlar tahlilini ko‘rib chiqsak: masalan, o‘qituvchi rahbarligidagi sinfda moddiy ahvoli og‘ir bo‘lgan, oilaviy muhiti ham havas qiladigan darajada yaxshi bo‘lmagan yoki o‘qishga ishtiyoqi past bo‘lgan o‘quvchi bor deylik. O‘scha bolaning dars jarayonidagi o‘zlashtirishini tekshiradigan bo‘lsak, katta ehtimol bilan o‘zlashtirish ko‘rsatkichi past bo‘lishi muqarrar. Bunday salbiy holatning oldini olish uchun o‘qituvchida bir necha yo‘llar mavjud.

Birinchi holat, o‘qituvchi past o‘zlashtiruvchi o‘quvchining shaxsiy hayoti bilan qiziqib ham o‘tirmasdan unga dakki beradi, tengdoshlari orasida izza qiladi, kezi kelganda kaltaklaydi ham.

Ikkinci holat, bunda o‘qituvchi past o‘zlashtiruvchi, oilaviy ahvoli yaxshi bo‘lmagan bola bilan qilgan shuncha mehnatlari zoya ketayotganligi uchun ham umuman ishi bo‘lmay qo‘yadi ya’ni u bola bilan umuman qiziqmaydi.

Uchinchi holat, bu paytda o‘qituvchi har bir bolaga individual tarzda yondashib, darsni o‘zlashtirishda turli xil qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolaning avval o‘zi bilan alohida ish olib boradi. Agarda foydasi bo‘lmasa, u bolaning oilaviy sharoiti, ota-onasining ahvoli bilan qiziqadi va oilasini batafsil o‘rganib chiqadi. Mabodo, bolaning oilaviy ahvoli yaxshi, ota-onasi ham farzandining ilm olishiga qo’llaridan kelgunicha yordam ko‘rsatishadigan bo‘lsa, bu paytda barcha ayb bolada

ya’ni unda psixologik irodaning yetishmasligidadir. Bu holatni esa o‘qituvchi o‘quvchi bilan hamda uning oilasi bilan tinimsiz ish olib borishi natijasida to‘g‘irlashi mumkin. Agarda muammo bolada emas uning ota-onasida bo‘lsa-chi? Bunday paytda esa o‘qituvchi mahalla bilan hamkorlikda o‘z faoliyatini davom ettiradi.

O‘qituvchilar oila va mahalla bilan hamkorlik jarayonida bir necha vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi zarur. Bularga: maktabda bolaga kasb-kor egallashi uchun mustahkam zamin yaratish, bolalarga ta’lim berishni ilg‘or pedagogik texnologiyalar, zamponaviy o‘quv-uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o‘quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta’minalash, qolaversa, o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitidan kelib chiqib, ularni turli soha bo‘yicha kasb asoslariga yo‘naltirish va yana bir qancha vazifalarni kiritishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishim joizki, haqiqiy Vatanparvar, o‘z elini sevadigan, yurt tarqqiyoti uchun tinimsiz harakat qiladigan, har tomonlama mukammal komil insonni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligi juda katta ahamiyat kasb etadi. Ya’ni komil inson shaxsini shakllantirish jarayonida duch keladigan turli xil katta-kichik to‘silqarimizni oila, mahalla va mакtabning hamkorlikda faoliyat olib borishi orqali yengib o’tishimiz shubhasiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mavlonova R., Normurodova B., Rahmonulova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010. – bet 8.
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Konsepsiya#:~:text=Konsepsiya%20\(lot.,adabiyotda%20%E2%80%93%20biror%20asarning%20asosiy%20g%CABBoyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Konsepsiya#:~:text=Konsepsiya%20(lot.,adabiyotda%20%E2%80%93%20biror%20asarning%20asosiy%20g%CABBoyasi).
3. Asqarova O‘., Xayitboyev M., Nishonov M. Pedagogika. – T.: Talqin, 2008. – bet 276.
4. Tursunov S., Nishonaliev B. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 1996. – bet 58.
5. Mirtursunov Z. Xalq pedagogikasi. – T.: O‘qituvchi, 1994.
6. Zunnunov A., Mahkamov A. Didaktika. – T.: Sharq, 2006
7. Yo‘ldoshev J. O‘qituvchi madaniyatini shakllantirish, - T.: O‘qituvchi, 2001.
8. Musulmonova A. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996.



## VIRTUAL TUTQUNLIKKA QARSHI KURASH

**Sobirova Ozodaxon Oribjon qizi**

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 1- kurs talabasi*

**Tel:** +998 91 201 45 63

**E-mail:** [farmonov938@gmail.com](mailto:farmonov938@gmail.com)

**Annotatsiya:** Biz ”Globallashuv” shiddat bilan rivojlangan zamonda yashayapmiz. Bu holat yildan – yilga o’sib bormoqda. Bunday paytda virtual olam o’zining ta’sirini insonlarga o’tkazmay qo’ymaydi. Ayniqsa, XXI asr vabosi bo’lgan ”Internet” inson ongida katta buzilishlar sababchisiga aylanib ulgurdi.

Ushbu maqola hozirgi kundagi globallashuv zamonida bo’layotgan turli virtual olam jarayonlari va ularga qarshi kurashish yo’llari haqida.

**Annotation:** We live in the time of rapid development of This situation is growing year by year. At such, a time, the virtual world does not fail to transfer its influence to people. Especially, ”Internet”, which is a plague of the 21st century, has become the cause of great distortions in the human mind.

This article is about the various virtual world processes taking place in today’s are of globalization and ways to combat them.

**Аннотация:** Мы живем во времена, когда ”глобализация” быстро развивается. Эта ситуация растет из года в год. В такое время виртуальный мир, кажется, не передает свое влияние на людей. В частности, ”Интернет” чума XXI века, стал причиной великих беспорядков в человеческом сознании.

Эта статья о различных процессах виртуального мира, которые происходят в эпоху глобализации, сегодня, и о способах борьбы с ними.

**Kalit so’zlar:** virtual olam, Internet, virtual tutqunlik, kompyuter, telefon, aloqa vositalari, ta’lim va tarbiya, virtual olam vakillari.

**Keywords:** virtual world, Internet, virtual captivity, computer, telephone, means of communication, education and training , representatives of the virtual world.

**Ключевые слова:** виртуальный мир, интернет, виртуальный плен, компьютер, телефон, средства связи, образования и воспитания, представители виртуального мира.

### KIRISH

“Virtual borliq” atamasini ilk bor o’tgan asrning 70-yillarda Massachusetts texnologiya instituti xodimi Jeron Lener ishlatgan bo‘lsa-da, ”muomalaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko‘ra, tabiiy yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik shaklda amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar”.

Bugungi kunda turli ko‘rinishda axborotlarni uzatishga moslangan texnologiyalarning ijtimoiy-mana’viy hayotning turli sohalariga shiddat bilan kirib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Qadriyatlarning makon bilan bo‘liq xususiyatlari IT ta’sirida yo‘qolib bormoqda, bu esa etnik birlik madaniyatlarining universallashuviga, an’anaviy qadriyatlari va namunali ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarining zaiflashuviga sabab bo‘lmoqda.

Internet tarmog‘i orqali yoshlar ta’lim tarbiyasi va ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, axloqsizlik, buzg‘unchiliklarni targ‘ib qiluvchi yot g‘oyalar keng tarqalmoqda. Biz xohlaymizmi yo‘qmi internetga murojat qilamiz. Undan yaxshi yo‘lda ham, yomon yo‘lda ham foydalansa bo‘ladi. Muhimi, to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olish.

Ko‘pchilik yoshlar hozirda virtual olam tutquniga aylanib bo‘lishgan. Bunday bo‘lishining asosiy sababi bolalar tug‘ilgandan telefon ushlab ulg‘aymoqda. Biz shu telefon orqali ularni ovutganday bo‘lamizu, ammo bu endilikda ularning kelajagiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi haqida hech o‘ylab ko‘rmaymiz. Ota-onaning o‘z farzandiga bo‘lgan e’tiborining kamligi oqibatida keljakda bola ham bor vaqtini mana shu telefon bilan o‘tkazadi. Borgan sari u tutqunlikka tushib qolganini o‘zi ham bilmay qoladi. Natijada virtual olam qurbanlari ko‘payib boradi.

O‘zbekistonda aholining 70 foizdan ortig‘i internetdan foydalanadi. Bu raqam yildan – yilga o‘sib bormoqda. Shu o‘rinda internetning ijobiy va salbiy tomonlari haqida gapirib o‘tishni joiz deb bilaman.

Oddiy elektron pochta xizmatini olib ko‘raylik:

Bir necha soniya ichida maktub yozib, uni kompyuter yoki telefonning ichidagi bitta tugmani bosish orqali dunyoning istalgan joyiga bir soniyada jo‘natishingiz mumkin. Internetdan xususiy davlat kompaniyalari tomonidan ham keng qo‘llanilmoqda. Hozir deyarli barcha yirik kompaniyalar o‘z xodimlari va mijozlari bilan aloqalarni to‘liq internet orqali olib boradi. Yangi mahsulotlarni internet orqali ommaga taqdim etadi, sotadi va boshqa turli xizmatlar ko‘rsatadi.

Internetning salbiy jihatlari ham yo‘q emas.

Internet tufayli kiber xuruj va kiber urush degan atamalar paydo bo‘ldi. Internetdan foydalanuvchilarga tahdid, ularning shaxsiy ma’lumotlari boshqalarning qo‘liga tushishi yoki oshkor qilinishi xavfli hisoblanadi. Biz onlayn xizmatlardan foydalanganimizda ko‘plab shaxsiy ma’lumotlarimizni internetga kiritamiz.

Agar elektron pochtangizga kelgan shubhali maktubdagi havolani bosib, uni ochsangiz va natijada shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlashni maqsad qilgan zararli dastur kompyuteringizga o‘rnashib olsa, u kompyuteringiz va elektron pochtangizdagi barcha shaxsiy ma’lumotlarni ko‘chirib, ushbu dastur ortida turgan shaxslarga jo‘natishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlar asnosida internetdan yaxshi maqsadda ham, yomon maqsadda ham foydalanish mumkinligiga amin bo‘ldik.

Virtual olam vakillari ham o‘z-o‘zidan bu yo‘lga kirib qolmaydi. Nimagadur bo‘lgan qiziqish va atrofidagi odamlar orqali bu yo‘lga kirib keladi. Zero, hech narsa o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Ayniqsa, turli pulli o‘yinlar chiqishi, shu o‘yinda pul yutib olish maqsadida bu yo‘lga kirib, qarzdan boshi chiqmayotganlar ham oramizda talaygina uchraydi.

Bunday holatlarni oldini olish har birimizning o‘zimizga bo‘liq. O‘zimizni telefonga termulib, unga bor vaqtimizni sarflagandan ko‘ra ko‘proq foydali ishlar bilan shug‘ullanishimiz mumkin. Masalan, kitob o‘qish, sport bilan shug‘ullanish va hokazolar bilan vaqtimizni mazmunli o‘tkazsak, menimcha o‘zimiz uchun ancha foydali bo‘ladi.

Bu sohada albatta ta’limga murojat qilamiz. Maktablarda o‘quvchilarga telefondan ko‘ra qiziqarli mashg‘ulotlar tashkil qilinsa va bunga o‘quvchilarni jalg qilinsa foydali bo‘ladi deb hisoblayman. Shuningdek, telefonning ko‘zlarga, miyya

faoliyatiga ta’siri va qimmatli vaqtimizni o‘g‘irlashi haqida ularga tushuncha berishimiz zarur. Albatta, bu ishlarda ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan ma’qul.

Keltirilgan fikrlar asosida shuni xulosa qilamanki, virtual tutqunlik insonni o‘z domiga tortmasdan oldin inson o‘zini bu yo‘ldan qaytarishi lozim. Bu holatga qarshi kurashish har birimizning burchimiz ekanligini his qilish asnosida harakat qilsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblayman. Internetda ba’zi bir saytlarga chek qo‘yilsa, ularning faoliyati nazorat ostiga olinsa bu ijobiy natijalar beradi deb hisoblayman.

Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, hech kim o‘z yaqinlarining va farzandlarining kelajagiga bee’tibor bo‘lmasligi kerak!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Astaxova I.F, I.K Astanin va boshqalar
  2. Kuzin A.V Kompyuter tarmoqlari. Darslik
  3. Popov I.I Kompyuter tarmoqlari , N.V Maksimov
  4. Pronchev G.B Kompyuter aloqalari. Eng oddiy kompyuter tarmoqlari : Darslik
- Pronchev – M: KDU.

### **O’ZBEKISTONDA SUV RESURSLARINI MUHOFAZA QILISH**

*Mahamadjanova Rayhona Malikjon qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

*E-mail: [muzaffarmirzobek9@gmail.com](mailto:muzaffarmirzobek9@gmail.com)*

*Tel: 998(33)707-98-78*

**Annotasiya:** Respublikamiz arid zonada joylashganligi sababli suv resurslari notejis taqsimlangan. Shu sababli yurtimizda suv resurslari yetarli emas va suvdan oqilona foydalanish talab etiladi. Suv resurslariga bo‘lgan ehtiyojni yildan - yilga oshib borish sabablari va uning yechimlari haqida ma’lumot berilgan.

**Аннотация:** Поскольку наша республика находится в засушливой зоне, водные ресурсы распределены неравномерно. Поэтому водных ресурсов в нашей стране недостаточно и требуется рациональное использование воды. Даны информация о причинах увеличения потребности в водных ресурсах из года в год и ее решениях.

**Annotation:** Due to the fact that our Republic is located in the arid zone, water resources are unevenly distributed. Therefore, our country does not have enough water resources and requires rational use of water. The reasons for increasing the need for water resources from year to year and its solutions have been described.

**Kalit so'zlar:** suv resurslari, arid zona, ekin maydonlari,oqava suvlar, yer osti suvlar, zovurlar, daryolar,artezian quduqlar ,suvni tozalash usullari, tomchilatib sug'orish .

**Ключевые слова:** водные ресурсы, засушливая зона, пахотные земли, сточные воды, грунтовые воды, канавы, реки, артезианские скважины, методы очистки воды, капельное орошение.


**Keywords:** Water Resources, arid zone, arable land, wastewater, groundwater, ditches, rivers, artesian wells, water treatment methods, drip irrigation

### **Kirish.**

Suv insonning moddiy manbai. Suv barcha tirik organizmlar hayotida muhim ahamiyatga ega. Suv hidsiz, ta'msiz, kimyoviy shakldagi shaffof suyuq modda. U yer qobig'ining yuqori qatlamlaridan yuqorida joylashgan okeanlar, dengizlar, ko'llar, daryolar, yer osti suvlarini va yerning tuproq qatlamlarini hosil qiladi. Qattiq holatda u qutb va tog'li hududlarda qor va muz shaklida bo'ladi. Dunyodagi suv miqdorini aniqlash juda qiyin, chunki suv dinamik va doimiy harakatda bo'ladi. Dunyodagi suv resurslarining umumiy miqdori gidrosferaning barcha suvlari yig'indisi sifatida baholanadi. Sayyoramizning juda katta qismi suvdan iborat. Lekin bu suvlarning katta qismi shor bo'lib is'temolga yaroqsiz.

Masalan: Yer yuzasini 1,386 mlrd km<sup>3</sup>,biroq, bu hajmning 97,5% sho'r suv va 2,5% chuchuk suvdir.[1]

**Asosiy qism:** Hozirgi kunda chuchuk suv muammosi butun dunyoda global muammoga aylanib bormoqda. Nafaqat, respublikamizda ham chuchuk suvga bo'lgan talabni oshishi. Keyingi yillarda chuchuk suv tanqisligi bo'lishi ham ko'zda tutilgan. Respublikamizda 97 ta suv ombor bor. Ularning umumiy suv zaxirasi 64 mln metr<sup>3</sup> tashkil etadi. Bu suv zaxiralarinig asosiy qismi: Toshkent, Samarqand, Surxandaryo, Namangan, Andijon, va Farg'ona viloyatlarida tarqalgan. Buning asosiy sababi, hududlarda suv bilan ta'minlab turuvchi tog'lar mavjudligi. Ammo, Xorazm viloyati, va Qoraqalpog'iston Respublikasi shimoli-g'arbda ya'ni tekislikda



joylashganligi sababli chuchuk suvlar deyarli mavjud emas. Buxoro va Navoiy viloyatlarida o'rtacha suv zaxiralari bor. Eng katta muammo mamlakatdagi suv resurslarining teng tarqalmaganida.

O'zbekistonda 25 mingdan ziyod daryo, soy va soyliklar mavjud bo'lib, ular relyefga bog'liq holda notekis joylashgan. Bundan tashqari kichik daryolar, kanallar,

zovur suvlari va va artezian quduqlar va yer osti suvlari ham mavjud. Yer osti suvlari-yer po'stining yuqori qismidagi tog' jinslari qatlamlarning g'ovak bo'shliqlarida joylashgan suyuq, qattiq, bug'simon holatdagi suvlar.

Yer osti suvlari atmosfera yog'inlari, daryo va sug'orish suvlarining shamilishi natijasida hosil bo'ladi. Mamlakatimizda yer osti-suvlardan asosan qishloq xo'jaligi va sanoat maqsadlarda keng foydalanilayotgan bo'lib, jami 18,6 mln metr<sup>3</sup> sutkasiga 6,8 km<sup>3</sup> miqdorida olinmoqda. Yer osti chuchuk suvlari zaxiralari respublika bo'yicha bir xil tarqalgan bõlib, Toshkent viloyatida 23%, Samarqand 14 %, Surxandaryo va Namanganda 13%, Andijonda 12% va Farg'onada 8% ga tog'ri keladi, respublika ichimlik suv ta'minotining 67% tashkil. Sanoat va qishloq xo'jaligining jadal rivojlanishi chuchuk yer osti suvlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda yer suvlardan tejamkorlik bilan foydalanish ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston ichki suvlari orasida inson hayoti va xo'jalik faoliyati uchun eng

muhimi daryolardir .Respublikamizni suv bilan ta'minlab turuvchi asosiy daryolari; Amudaryo, Sirdaryo, va Zarafshondir.

Amudaryo - O'rta osiyoning eng sersuv daryosi hisoblanib,u Tojikistonning Pomir tog'i etaklaridagi Panj va Vaxsh daryolarining birlashuvidan boshlanib, O'zbekiston, Afg'aniston, va Turkmaniston hududlaridan oqib o'tadi, va tobora qurib borayotgan orol dengiziga quyiladi. Uzunligi 2540 km, suv toplash maydoni 309 ming km<sup>2</sup>. Amudaryo Qoraqum va Qizilqum cho'llari orasidan keng o'zanda oqib o'tadi.Uning suvi juda ko'p miqdorda sug'orishga va bug'lanishga sarf bo'lib, yerga shimilib kamayib qoladi.Amudaryo muz-qor suvlarining erishidan to'yinadi. U yoz oylarida sersuv bo'lib oqadi.Amudaryo suvi bilan bir necha mln hektar yer sug'oriladi.O'zbekiston sug'oriladigan maydonlardan jahon paxta hoslining

10-20 % ni beradi. Ammo sug'orish tufayli yilning ko'p qismida suvlari Orol dengiziga yetib bormaydi, bu esa, dengizning qurib ketishiga sabab bo'ladi.

Amudaryo xaritasi.

Sirdaryo - O'rta Osiyoning eng uzun va Amudaryodan keyingi eng sersuv daryosi hisoblanadi. U Farg'ona vodiysing sharqiy chekkasida, Baliqchi qishlog'i yonida Norin va Qoradaryo qo'shilgan joydan Sirdaryo deb ataladi.Uzunligi (Norin daryosi bilan birgalikda 3019 km). Uning havzasasi 219 ming km<sup>3</sup>. Sirdaryo qor va muzlarning erishidan to'yinadi. Suvi asosan, iyun va iyul oylarida to'lib oqadi. Sirdaryoning eng ko'p suv sarfi Bekabod shahri yaqinida ko'pincha 1500-2000 m<sup>3</sup>/sek. o'rtasida eng ko'p suv sarfi 3340 m<sup>3</sup>/sek. ga yetgan. Yildan-yilga tobora ko'proq yerlar sug'orilishi natijasida ayrim pastqam joylarni sho'r va botqoq bosa boshladи. Ana shunday joylarning zaxini qochirish va yig'ilgan sizot suvlari bilan sug'orishdan ortgan suvlarni daryolarga tashlash maqsadida Sirdaryo havzasida 300 dan ortiq kollektor va zovurlar qazilgan. Sirdaryo O'zbekistonning shimoliy chegarasidan oqib o'tib, Orol dengiziga quyiladi.



### Sirdaryo xaritasi.

Zarafshon Tojikiston va O'zbekistondagi daryo uzunligi 877 km. Uning suv sarfi  $162 \text{ m}^3/\text{s}$ . Zarafshon tog'lari tutashgan ko'ksuv tog' tugunidagi Zarafshon muzligidan Mastchoh nomi bilan boshlanadi. U Ayniy qishlog'i yonida Fandaryo bilan qo'shilgach, Zarafshon nomini oladi. Zarafshon muz-qorlarning erishidan to'yinib, to'linsuv davri iyun-avgustga eng kam suv sarfi esa qishga tog'ri keladi. Zarafshon daryosining bir yillik suv miqdori  $5,4 \text{ km}^3$  bo'lib, shundan  $5,2 \text{ km}^3$  Tojikiston hududida vujudga kelgan oqimga,  $254 \text{ mln m}^3$  esa O'zbekiston hududidan boshlanuvchi uzunligi 10 km dan ortiq bo'lgan 137 ta irmoq mavjud. Soylariga to'g'ri keladi. Zarafshon daryosi suvining 90% qishloq xo'jaligida foydalinadi. Olimlar tomonidan ichimlik suvi tanqisligi bo'yicha ko'rsatgichlar yaqin yillarda oshib borishi taxminan qilayotgani aytib o'tildi.

Respublikamizda chuchuk suv muammosi kelib chiqishiga asosiy sabablar:

1. Ekin maydonlari yerlarining kengayishi.

2. Shahar xo’jaligining va sanoatning ayniqsa, kimyo va metallurgiya tarmoqlarining suvga bo’lgan talabi ortmoqda va tabiiy suvlar ifloslanishining manbai bo’lgan oqava suvlar ham ko’paymoqda.

3. Oqava suvlarni sun’iy tozalashning hozirgi kundagi imkoniyatlariga ortiqcha baho berilyapti.

4. Tabiiy suv manbalariga ekin maydonlaridan chiqqan suvlarning oqizilishi, natijada is’temolga yaroqsiz holga kelishi.

5. Suv tejamkor usullardan foydalanmasdan sug’orishni tashkil etish.

6. Respublikamizdan oqib o’tuvchi barcha daryolarning manbai boshqa davlat hududida joylashganligi.

**Natijalar:** Suv resurslaridan foydalanishdagi muammolarni bartaraf etish usullari.

1. Shaharlarning oqava suvlaridan dehqonchilik asosan, yem-xashak yetishtiriladigan dalalarni sug’orishda foydalanish mumkin, albatta gigiyena nuqtai nazarida, bunday dalalarda to’g’ridan-to’g’ri iste’mol qilinadigan ekinlar ekilmaydi. Eng muhimi bu suvlar tuproq tarkibiga ziyon yetkazmaydi.

2. Sanoat korxonalarini aylanma suv ta’minotiga o’tkazish zarur. Bunda korxona suvni o’ziga kerakli darajada tozalaydi va undan qayta foydalanadi. Bu tizimning qulay tomoni:

Birinchidan, oqava suvlarning daryolarga oqizilishiga chek qo’yiladi.

Ikkinchidan, korxona o’zi ifoslantirilgan suvni tozalashga majbur bo’ladi.

3. Shaharlardagi yirik sanoat korxonalarida (ayniqsa, kimyo va metallurgiya) iloji boricha suvdan foydalanish me’yorini kamaytirish.

4. Ekin maydonlarini sug’orish natijasida qaytarma suvlardan unumli foydalanish. Ularning tabiiy botiqlarga oqizilishiga, va behuda sarflanishiga iloji boricha yo’l qo’ymaslik.

5. Yer maydonlaridan ekin turlarini almashlab ekish, ya’ni, qurg’oqchil hududlardan suvni kam talab qiladigan ekin turlarini ekish.

6. Respublikamizda tomchilatib sug’orishni tashkil etish:

Olkamiz sharoitida foydalaniladigan suv resurslarining 90% dan ortig’i irrigatsiya maqsadlarida ishlataladi. Uning qolgan qismidan sanoatda hamda maishiy va kommunal maqsadlarda foydalaniladi. Ana shunday sharoitda suvdan

tejab-tergab foydalanish, uning samarasiz yo'qotilishiga yo'l qo'ymaslik, qaytarma va oqava suvlardan unumli foydalanish eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda.[2]

Amudaryo va Sirdaryo haqida gidrologik ma'lumotlar.

O'zbekiston maydoni va suv miqdori jihatidan qo'shni havzalardan keskin ajralib turadigan Orol havzasidan joylashgan. Bu havza kattaligi jihatidan yuzasidagi berk havzalar orasida faqat Kasbiy dengizi havzasidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Дарёлар ҳавзалари	Ўртacha ийдлик сув сарфи, м <sup>3</sup> /с	ИЙЛЛИК ОКИМ ҲАЖМИ, км <sup>3</sup> /Г йил		
		Ўртacha	Энг кўп	Энг кам
<b>АМУДАРЁ</b>				
Панж	1140,0	35,0	49,10	27,66
Вахш	661,0	20,8	28,6	16,2
Кофирихон	187,0	5,89	9,81	4,09
Сурхондарё, Шербодарё	127,0	4,0	5,71	2,44
Кашкадарё	49,6	1,56	2,72	0,897
Зарафшон	169,0	5,32	6,86	3,81
<b>Хаммаси</b>	<b>2332,6</b>	<b>73,57</b>	<b>100,8</b>	<b>55,1</b>
<b>СИРДАРЁ</b>				
Норин	448,0	13,8	23,4	8,17
Фарғона водийси	405,8	12,8	24,6	6,35
Туркистон тизмаси	4,63	0,303	0,446	0,225
Охангарон	38,5	1,22	3,04	0,577
Чирчик	248,0	7,82	14,5	4,53
Калас	6,67	0,21	0,507	0,088
Арис	64,2	2,02	4,91	0,35
Қоратоғ тизмаси	21,1	0,663	1,61	0,11
<b>Хаммаси</b>	<b>1242,9</b>	<b>38,84</b>	<b>72,67</b>	<b>20,4</b>

havzalari ana shunday berk havzalar hisoblanadi.

Amudaryo bilan Sirdaryo havzasidagi eng yirik daryolar bo'lib, respublikamiz hududidan ularning Norin. Qashqadaryo, So'x, Chirchiq, Zarafshon. Surxandaryo, Sheraboddaryo va boshqa irmoqlari oqib o'tadi. O'zbekistonga ularning o'rta va quyi oqimlari tog'ri keladi. Amudaryoning ham o'rta va quyi oqimlari O'zbekistonda joylashgan.

**Xulosa:** Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, qayd etilgan vazifalarni bajarish nafaqat suv taqchilligini oldini olish, balki suv resurslaridan mukammal foydalanishni, suv resurslarining ifloslanishini oldini olishga, tejalgan suv resurslaridan qo'shimcha yerkarni o'zlashtirishga ikkilamchi sho'rланishni oldini oladi va hosildorlikni oshiradi .

#### Foydalangan adabiyotlar:

1.P. Baratov, M. Mamatqulov , A .Rafiqov (O'rta Osiyo tabiiy geografiya) / Muharrir : P .Baratov. --- T: ,, O'qituvchi ", 2002. ISBN --- 5 - 645- 03879-7.

- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.12.2022 sanadagi „Yer osti suvlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora -tadbirlar to'g'risida "PQ -439- sinli qarori.
- 3.G'. X . YUNUSOV, R.R.ZIYAYEV ( Umumiy gidrologiya va iqlimshunoslik) /o'quv qo'llanma:,, Barkamol fayz media" nashriyoti ,2018-yil.
- 4.H.Vahobov, (Umumiy yer bilimi )/ o'quv qo'llanma: Toshkent-2005.
- 5.[https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_daryolari](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_daryolari)
- 6.O'zbekistonning tabiiy geografiyasi .1-qism, I.A.Hasanov,P. N.G'ulomov .
- 7.<https://uzsuv.uz/oz/posts/999>

## MEDIA MAYDONDA AXBOROT TARQATISH MADANIYATI

***Abdullahjonova Mahliyo Abdulvosi qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti o'zbek tili va  
adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada media maydonda axborot tushunchasi va axborotning jamiyat uchun qanchalik muhim ekanligi, hozirda kuzatilayotgan axborot tahdidlari, virtual olamdagи shaxs axloqi, shaxsiy ma'lumot maydoni psixologiyasi tushunchalariga oid qarashlar fikr-mulohazalar bildirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** virtual olam, axborotlashgan jamiyat, internet, axborot tahdidlari, axborot quroli.

Axborot sohasidagi globallashuv qanchalik yuqori cho'qqisiga chiqqaniga bugungi kunda millionlab yoshlarning internetdan foydalanishga o'tganligi va o'z kasbining ustalarini internet tarmog'i orqali mablag' ishlab topayotganidan ham anglash mumkin.Shunday chigal va murakkab sharoitida biz uchun gal dagi eng muhim vazifalardan biri - yosh avlodning ongi hamda qalbini yot g'oyalardan, mafkuraviy tahdidlardan asrab-avaylashdir.

Axborotlashgan jamiyatda yoshlarni kiberjinoyatdan himoya qilish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir.Inson ma'naviy ongini saqlab qolish, uning axloqiy ongini kiberhujumlardan saqlab qolish hali hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

Albatta, bu birinchi navbatda axborot masalasiga borib taqaladi va unda axborotning qay tarzda yetkazib berishligi, ya'ni uni tarqatish madaniyati eng muhim tushuncha ekanligi anglashiladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lumki, bugungi kundagi axborot inson ongiga ham salbiy, ham ijobiy ta'sir ko'rsatishligi bilan bir qatorda u yaratgan kompyuter vositalari insonni boshqarayotganligiga guvoh bo'lamiz.

Madaniyatshunoslikda media madaniyati deganda 20-asrda ommaviy axborot vositalari ta'sirida paydo bo'lgan va shakllangan zamonaviy G'arb kapitalistik jamiyati tushuniladi. Bu atama ommaviy axborot vositalarining nafaqat jamoatchilik fikriga, balki did va qadriyatlarga ham ko'rsatadigan umumiyligi va intellektual ta'sirini anglatadi.

Muqobil atama, ommaviy madaniyat, XX asrgacha ommaviy san'atda bo'lgani kabi, bunday madaniyatning o'z-o'zidan ommanning o'zida paydo bo'lishini anglatadi. „Mediamadaniyat“ iborasi esa bunday madaniyat ommaviy axborot vositalarining mahsuli ekanligini bildiradi.

Ommaviy axborot vositalari, reklama va jamoatchilik bilan aloqalarga yo'naltirilgan media madaniyat ko'pincha ommani manipulyatsiya qilishga qaratilgan tizim sifatida qaraladi. Korporativ ommaviy axborot vositalari asosan dominant mafkura\*larni ifodalash va ko'paytirish uchun ishlataladi. 1940-yillarda bu tendentsiyaning rivojlanishida Teodor Adornoning ishi yaqqol namoyon bo'ldi. Media madaniyati iste'molchilik bilan bog'liq va shu ma'noda muqobil ravishda „iste'mol madaniyati“ deb nomlanadi.

Virtual dunyoda foydalanuvchi foydalanuvchiga idrok ogohlantirishlarni taqdim etuvchi kompyuter taqlid qilingan dunyoga kiradi, u esa o'z navbatida modellashtirilgan dunyoning elementlarini manipulyatsiya qilishi va shu tariqa o'z tajribalarini boshdan kechirishi mumkin.

Kompyuterlar tomonidan amalga oshirilgan eng qadimgi virtual olamlar orasida virtual haqiqat simulyatorlari, masalan, Ivan Sazerlend ishi bor edi. Bunday qurilmalar katta hajmli minigarnituralar va sensorli kirish simulyatsiyasining boshqa turlari bilan tavsiflanadi. Zamonaviy virtual olamlar, xususan, ko'p foydalanuvchili onlayn muhitlar, asosan, ushbu tadqiqotdan mustaqil ravishda paydo bo'ldi, buning o'rniga o'yin sanoati ta'minlangan, lekin shunga

o‘xshash ilhomga asoslangan. Klassik sensorli taqlid qiluvchi virtual haqiqat immersiv muhitni boshdan kechirish uchun idrok tizimini aldashga asoslangan bo‘lsa-da, virtual olamlar odatda aqliy va hissiy jihatdan jozibali tarkibga tayanadi, bu esa immersiv\* tajribani keltirib chiqaradi.

„Axborotlashgan jamiyat“ — bu zamonaviy xalqlar jamiyatlarida, ayniqsa Ikkinchini jahon urushidan keyin axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va madaniy o‘zgarishlarni tavsiflash uchun ishlataladigan keng atama. Axborotlashgan jamiyat — bu axborotni yaratish, tarqatish va manipulyatsiya qilish eng muhim iqtisodiy va madaniy faoliyatga aylangan jamiyat. Axborot jamiyati iqtisodiy asosi asosan sanoat yoki agrar jamiyatlarga qarama-qarshi bo‘lishi mumkin. Axborot jamiyatining dastgohlari stanoklar yoki pulluklar emas, balki kompyuterlar va telekommunikatsiyalardir. Axborot jamiyati — ishchilarning ko‘pchiligi axborotni, ayniqsa uning eng yuqori shakli - bilimni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug‘ullanadigan jamiyat.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasidagi taraqqiyot barchaning hayot tarzini o‘zgartirmoqda: qanday ishlash va biznes qilish, farzandlarga qanday ta’lim berish, o‘qib-o‘rganish va tadqiqot qilish, qanday zavq olish - bularning barchasi zamonaviy axborot texnologiyalari ta’sirida o‘zgarmoqda. Axborot jamiyati nafaqat odamlarning o‘zaro munosabatlariiga ta’sir qilmoqda, balki an’anaviy tashkiliy tuzilmalarni yanada moslashuvchan va markazlashtirilmagan bo‘lishini talab qilmoqda.

Bugungi kunda axborot xavfsizligiga ko‘plab ta’riflar berilgan. Mana ularning ikkitasi . Axborot xavfsizligi (inglizcha "Information security")- axborot va tegishli infratuzilmani, shuningdek, ma’lumot egalariga yoki foydalanuvchilariga zarar yetkazish bilan bog‘liq tasodifiy yoki qasddan ta’sirlardan himoya qilingan guli. Axborot xavfsizligi - ma’lumotlarning yaxlitligi, maxfiyligi va mavjudligini ta’minlash. Axborot xavfsizligida dezinformatsiyadan saqlanish lozim.

Tahdid deganda, kimlarningdir manfaatlariga zarar yetkazuvchi, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqeя, ta’sir, jarayon tushuniladi. Axborotga yoki axborot tizimiga

salbiy ta’sir etuvchi potensial ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqeal yo’ki jarayon axborot munosabatlari subyektlari manfaatlariga qaratilgan tahdid deb yuritiladi.

Axborot quroli -qurol turi bo‘lib, uning asosiy elementlari axborot, axborot texnologiyalari va axborot urushida qo‘llaniladigan axborot jarayonlari. Axborot qurolining vazifasi, M.Bulgakov fikricha, "boshdagi vayronalikdir" kim, bu iqtisodiyotdagi vayronagarchilikdan ham xavfliroqdir, chunki milliy va ma’naviy qadriyatlarni yo’qotish xalqning tanazzulga uchrashiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, media maydon muhiti hozirgi kunda jamiyatimizning har bir shaxsi hayotiga yetarlicha salbiy va ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday ekan axborot olish, joylash, tarqatish jarayonida uning xavfsizligiga, ishonchliligi, maxfiyligiga jiddiy e’tibor qaratish kerakdir.

#### **Foydalaniłgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М., Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри.  
– Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2022. – 308 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 33 б.
3. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асрар масъулияти.– Тошкент: Ўзбекистон, 2018, – 73 б.
4. Колосова О.Ю., Несмеянов Е.Е. Социокультурные трансформации в условиях глобализационных процессов // Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2-14. – С. 3201–3204.

### III. MAXSUS PEDAGOGIKA

## **LOGOPEDIYA SOHASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARI**

***Toshtemirova Ruxshonabegim Yusupjon qizi***

*Namangan davlat pedagogika insituti*

*Maxsus pedagogika(Logopediya) yo’nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada axborot texnologiyalari va “raqamlashtirish” ga yurtboshimiz tomonidan qaratilayotgan e’tibor va imkoniyatlar hamda ularning sohalarda qo’llanilishi va ahamiyati keltirilgan. Logopediya sohasida axborot texnologiyalarining ahamiyati va yaratilayotgan g’oyzlar aniqlanadi.

**Kalit so’zlar:** Axborot texnologiyalari, innovatsion dastur, logopediya, dastur, raqamlashtirish, platforma, artikulyatsion apparat, tovush, gramatik nutq.

Axborot texnologiyalari — bu kompyuter tizimlari, dasturiy ta’milot, dasturlash tillari, ma’lumotlar, ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlashni o’z ichiga olgan tegishli sohalar to’plami. Ushbu qisqacha atama ma’nosи oddiy ko’ringani bilan juda ko’p sohallarda ham nazariy ham amaliy qo’llanilmoqda. Bugungi kunda ko’p rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalari va raqamli texnologiyalar keskin yoyilgan. Shu jumladan mamlakatimizda ham axborot texnologiyalari va raqamli texnologiyalar rivojlanishiga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Barcha sohalarga axborot texnologiyalari birdek kirib borishini va jamiyat hayotini “raqamlashtirish”ga qaratilgan qarorlar va president farmonlari joriy qilingan va hozir ham barcha sohalarga kirib borishini ta’milagan holda jamiyat ijtimoiy hayotni osonlashtirib, vaqtadan unumli foydalanishlariga yordam berilmoqda. Bu albatta juda quvonarli holat hisoblanadi, sababi shaxs o’zining kasbin bir platforma orqali sarhisob qilishi va osonlashtirishi mumkin.

Shu kabi yangi texnologiyalar, innovatsion dasturlar va platformalarni yaratish va targ’ib qilish bo'yicha yurtboshimiz tomonidan imkoniyatlar va mablag’lar ko’plab ajratilmoqda. Buning yorqin dalili sifatida prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 22-avgustdagи “2022-2023-yillarda axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-son qaroriga muvofiq, shuningdek mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat rivojlanishini jadallashtirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjalariiga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritilsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjalari 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoyev.Toshkent sh.,2022-yil 22-avgust, PF-194сон)

Bunday imkoniyatlardan yoshlаримиз unumli foydalangan holda kundan kunga foydali dasturlar, qo’llanmalar, yangi texnologiyalar va ixtiolar yaratib ommaga taqdim qilishmoqda. Shu kabi samarali ixtiro va yaratuvchanliklarni kuzatgan holda logopediya sohasiga ham axborot texnologiyasini kiritish bo‘yicha menda yangicha va o‘zgacha g’oya paydo bo‘ldi. Ushbu g’oyam logopediya sohasida logopedlar uchun dastur ishlab chiqish va yaratish. Dasturni barcha logoped shahobchalarida, umumta’lim maktablaridagi va maktabgacha ta’lim muassasalaridagi logoped shahobchalarida, maxsus maktabgacha ta’lim muassasalari va maktablaridagi logoped shahobchalaridagi logopedlar va bolalar ota-onasi yoki bolaga masul shaxslar tomonidan o’rnatib olinishi ko’zda tutilgan. Hamda logoprd o’zining har kunlik logopedik va pedagogik faoliyatini bolalar ota-onalariga yoritib bera olishi, o‘z ish faoliyatlarini oson rejalashtirishi va shu kabi boshqa ko’plab qulayliklar yaratishga hizmat qiladi.

Dasturning asosiy ko’rinishi quyidagicha:

№		I.F.SH		C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O	P	Q	R	S	T	V	X	Y	Z	AA	AB	AC	AD	AE	AF	AG	AH
1	Bahodirova Nodira	O	O	O	O	O	O	X	O	O	O	O	O	X	X	O	O	O	O	O	O	X	O	O	O	O	O	O	O	O	O		
2	Ismoiljonova Shoksanam	O	X	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	X	O	X	O	O	O	O	O	X	O	O	O	O	O	O	O	O		
3	Ojorayava Zholta	O	O	O	O	O	O	X	O	X	O	O	O	O	X	O	O	O	O	O	O	O	X	X	O	O	O	O	O	O	O		
4	Mamatov Bilol	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	X	O	O	O	O	O	O	O	O		
5	Mutalipov Behruz	O	O	O	O	O	O	(V)	(S)	O	O	O	O	O	O	(Y)	O	O	O	O	O	O	O	(X)	O	O	O	O	O	O	O	O	
6	Mo'minjonova Musofot	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	X	O	O	O	O	O	O	O	O		
7	Odiljonova Fayruza	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	(Y)	O	O	O	O	O	O	O	O	(S)	O	O	O	O	O	O	O	
8	Qurbanov Murod	O	O	O	X	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	X	O	O	O	O	O	O	O	O		
9	Sotvoldiyev Sotvoldi	O	O	O	X	O	O	X	O	O	O	O	O	O	X	O	O	O	O	O	O	O	X	O	O	O	O	O	O	O	O		
10	Solijonova Shabbona	O	O	X	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	X	X	O	O	O	O	O	O	X	X	O	O	O	O	O	O	O		
11	Abdulhodiyev Azam	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O	O		
12	Qofurjonov Kamron	O	O	O	O	O	O	O	O	X	X	O	X	X	O	O	O	O	O	O	O	O	X	O	O	O	O	O	O	O	O		
13																																	
14																																	
15																																	
16																																	
17																																	
18																																	
19																																	
20																																	
21																																	
22																																	
23																																	
24																																	
25																																	
26																																	
27																																	
28																																	
29																																	
30																																	
31																																	
32																																	
33																																	
34																																	

Dasturning shu kabi bo'limlarga ajratilgan 4 ta bo'limi mavjud bo'lib har bir bo'limning o'z nomi bo'ladi. Bular:

- “Tovushlar” bo'limi
- “Tovushlarni farqlash” bo'limi
- “Artikulyatsion apparatni tekshirish” bo'limi
- “O'quvchilar gramatik nutqini o'rganish” bo'limi

Bu bo'limlar ham o'z ichida qismlarga bo'linadi. Misol uchun yuqorida namunada “tovushlar” bo'limida har bir tovushni bir qism sifatida alohida yachevkaga joylangan. Qolgan 3 bo'lim ham o'z nomidan kelib chqqan holda qismlari mavjud. Dasturning bunday bo'limlari va qismi har bir bola haqida birinchi o'rinda logopedik so'ng pedagogic-psixologik ma'lumotlarni bir joyga jamlagan bo'ladi. Hamda bolaning holatini reyting qilib solishtirish va nutqini ijobjiy yoki salbiy tarafga o'zgarayotganini bolalarning ota-onasi yoki mas'ul shaxslariga o'z farzandlarinig ma'lumotlarigina ko'rindi.

Yuqorida keltirilgan na'munda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan (aqli zaif) bolalar uchun matab-internatining 3-sinf o'quvchilaridan olingan natijalar. Bu logoped va muassasa rahbarlari uchun umumiy ko'rinish bo'lib bolaning ota-onasi yoki mas'ul shaxslariga o'z farzandlarinig ma'lumotlarigina ko'rindi.

Dastur namunasidagi “X” belgisi bilan belgilangan yachevkadagi tovush bola nutqida yo'qligini bildiradi, “O” belgisi esa aksincha belgilangan tovush

mavjudligini bildiradi. Bu ikki belgi ham bo’lmay qavs ichida boshqa bir tovush (misol uchun (V), (Y), (S) va boshqalar) qo’yilgan bo’lsa yacheykadagi tovush bola nitqida mavjud ammo so’zlarda u tovushni boshqa yani shu qavs ichidagi tovushda ta’lafuz qilayotganini bildiradi. Logoped sinfdagi 12 nafar bolada birdek natijalarga erishishi uchun har bir bolaning logoped ko’rigini dastur ichida belgilab borishi va “tovushlar” bo’limiga qarab tovushlar ustida korreksion ish olib borishi hamda bola nutqidagi har qanday o’zgarishni kiritib borishi mumkin bo’ladi. Boshqa bo’limlarga ham e’tiborli bo’lgan holda bolaning umummiy holatini belgilash lozim.

Ushbu o’ylab chiqqan dasturim ayniqsa maktab-internatlaridagi bolalar va ularning ota-onas (mas’ul shaxs)lariga ko’p imkoniyatlar yaratadi. Ular bolalarining logoped ko’rigiga qatnashayotgani yoki qatnashmayotganini, uning umumiy holati va logoped mashg’ulotlarda o’zini qanday tutushi kabi ma’lumotlarni to’g’ridan-to’g’ri kuzatib borishadi.

Albatta, bu dasturni yanada mukammalroq qilib ishlab chiqish mumkin. Bu orqali logopediya sohasiga yangicha dastur kiritilgan hisoblanadi. Mamlakatimdagи ixtiro qilinayotgan yangiliklar va rivojlanishlarni ko’rib har bir yosh avlodning ishtiyoqi jo’shadi va el-yurtiga, vataniga o’z hissasini qoshgisi keladi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanishimiz burchimiz va vazifamiz deb hisoblayman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. . [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Axborot\\_teknologiyalari](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Axborot_teknologiyalari).
2. .. <https://lex.uz/docs/-6168649?ONDATE=23.08.2022%2000>
3. Roziqova, M., & Moxistarabonu, X. (2024). INKLYUZIV TALIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OVYALARI , 41 (1), 92-94.
4. Roziqova, M. (2024). O'SMIRLARDA IJTIMOIY TARMOQLAR TASIRIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING OLDINI OLISH PSIXOLOGIK XIZMATNING DOLZARB VAZIFASI SIFATIDA. DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OVYALARI , 41 (1), 95-97.
5. Roziqova, M. (2023). Baynalminal oilalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. *Interpretation and researches*, 1(1).

6. Olimovna, R. M. (2023). BAYNALMINAL OILALARING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ORGANISH IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *PEDAGOOGS*, 48(2), 49-51.
7. qizi Rustamova, G. Z. X. (2024). Boshlangich sinf o ‘quvchilarining mакtabga intellektual tayyorgarlik muammoasi. *Science and Education*, 5(5), 331-335.
8. Сатаров, А. Х. (2021). ВЕЧЕРА ДРУЖБЫ В СТУДЕНЧЕСКОЙ СРЕДЕ КАК ОДНА ИЗ ФОРМ ВОСПИТАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ И КОММУНИКАТИВНОСТИ. In Диалог культур и толерантность общения (pp. 6-9).

## **LOGOPEDIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXI VA HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI**

*Roziqova Malika Olim qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

*G‘iyosova Saodat Otobek Qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Maxsus pedagogika(Logopediya ) yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Logopediya atamasi, nutqdagi kamchiliklar, logopediya fani rivojlanishi, nutq buzilishi, logopediya fanini mustaqil fan sifatida shakillanishi, maqsadi va vazifalari.

**Аннотация:** Понятие логопедии, дефекты речи, развитие логопедической науки, речевые нарушения, становление логопедической науки как самостоятельной науки, ее цел и задачи.

**Annotation:** The term speech therapy, speech defects, the development of the science of speech therapy, speech disorders, the formation of the science of speech therapy as an independent science, its purpose and tasks.

**Kalit so‘zlar:** logopediya, nutq nuqsonlari, korreksiya, kompensatsiya, talaffuz, metodika.

**Ключевые слова:** логопед, дефекты речи, коррекция, компенсация, произношение, методика.

**Key words:** speech therapy, speech defects, correction, compensation, pronunciation, methodology.

Kirish: Logopediya (logos va yun.paideia tarbiyalash, o'qitish) - pedagogika fani tarmog'i; nutqdagi kamchiliklar( duduqlik, til rivojlanmaganligi, o'qish va yozuvdagi nuqson va boshqalar) sabablari, ularning oldini olish, tuzatish yo'llarini hamda nutq faoliayti buzulishi mexanizmlari, alomatlarini maxsus ta'lif va tarbiya vositasida o'rganadi.

Nutqdagi nuqsonlarni tuzatish masalalari dastlab 17- asrda Yevropa mamlakatlarida Surdopedagogikaga oid ilmiy ishlarda tadbuq etila boshlandi. 19-asrning 2 yarmidan bu sohaga mustaqil ravishda , ammo tibbiyat nuqtai nazaridan yondashila boshlandi. Asta- sekin nutq faoliyatining tabiatiga haqidagi ilmiy tasavvur kengaya borishi bilan , logopefiya yo'nalishi tubdan o'zgardi, pedagogik mazmun 1-o'ringa qo'yila boshlandi.

Qadimgi Sharq va Osiyo adabiyot yodgorliklarida nutq buzilishlari haqidagi birinchi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Logopediya faning antik davrdan 18 asrgacha bo'lgan davrda;  
-Tibbiy bilimlarni falsafiy asoslari;  
-Psixik faoliyat va nutq bo'yicha falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlar;  
-Nutqiy buzilishlarni bartaraf etish va tasnifi, simptomatikasi, mexanizmlari va sabablari haqida tasavvurlar kengaydi.

18 - asrdan 19 - asrning 3 choragigacha rivojlanishiga, psixik va nutq faoliyatiga fanning turli oblastlarini ta'siri. Logopediya fan sifatida tiklanishi. Fanlar tizimida logopediya fanining o'rni va predmetini anjqlashda yurli yo'nalishlqrni shakllanishi kabi jarayonlarni takomillashuvi.

19- asrning 3 choragidan 20 -asrning 50- yillarigacha rivojlanishiga:  
- Nutq buzilishlarini tekshirishga yondashish, nutqni yuqori darajada tsbunish;  
- Nutqiy buzilishlar organizmning hamma holatida, nevrologik, nevropsixik va individni boshqa xususiyatlari;  
- Shaxsiy xususiyatlari va faoliyati bilan bog'liqligi haqida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va konspektlar yozish kabi ishlarni amalga oshirildi.  
20- asrning 50 yillaridan hozirgi davrgacha rivojlanishi jarayonida esa;

- Nutqiy faoliyat va oliv psixik faoliyat kontsepsiysi. Nutq buzulishlari va unibartaraf etish metodlari haqida fikrlar.

-Logopediyada logopedik tekshiruvning yangi metodlarini kiritilishi;

-Logopediya fanida yqngi muammolarni, hali o'rganilmagan kasallikkarni o'rganish va muhokama qilish;

-Logopediya faning ilmiy tashkiliy, amaliy rivojlanishida tadqiqotchi olimlarni tadqiqot ishlarining ahamiyati kabi juda ko'plab ishlarni rivojlantirilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

20 asrga kelib Loholediya mustaqil fan sifatida shakllandi, uning maqsadi va vazifalari, metodik asks va tamoyillari, bkshqa fanlar bilan aloqadorligi masalalari ishlab chiqildi. Logopediya alohida fan sifatida ajralibhina qolmay Zamonaliv logopediya, maktabgacha yoshdagi bolalar Logopediysi, mакtab yoshidagi bolalar Logopedyasi, o'smirlar va katta yoshdagilar Logopedyasiga bolindi.

Yurtimizda logopediya faniga ayniqsa hozirgi kunda juda katta e'tibor va rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratilinmoqda. Ilk bor Logopediya yo'nalishi Nizomiy nomidagi Toshkent Pedagogika instituti huzurida ochilgan hisoblanadi. Hozirda yurtimizning deyatli barcha oliv ta'lim muassalarida logopediya yo'nalishi mavjud. Logopediya faning asosiy maqsadi nutqida nuqsoni bor bolalarni o'qitish, tarbiyalsh va qayta tarbiyalshning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, shuningdek nutq nuqsonini oldini olish, korrrksiyalash va kompensatsiya jarayonlarini amalga oshirish hisoblanadi.

Logopediya fan sifatida katta bazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u tilning nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning talaffuzi, leksik- grammatik tuzumi, talaffuzi va butun ruhiy faoliyati bilan bog'liqligi belgilanadi [1.5 b].

Nutq buzulishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi , aslida bo'lмаган ruhiy buzulishlarni, uning xarakteridagi salbiy xususiyatlar(tortinchoqlik, qatiyatsizlik, odamovilik, salbiylik , nomukammalik tuyg'usi)ning rivojlanishi uchin yo'l ochib berishi mumkim.

Logopediya fani ahamiyati bolaning nutqiy buzulishini bartaraf etish, shu bilan birga uning mukammal, har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir.Demak logopediya faniga talab va ehtiyoj masuliyati ortib bormoqda.

Xulosa: Logopediya yo'nalishiga talab va e'tiborlar berilayotgani 17-19 asrlardan ko'rishimiz mumkin. Logopediya fani alohida fan sifatida ajralib chiqishi insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar eshigini ochdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Logopedlarning asosiy vazifalari nafaqat nutqida nuqsoni bor shaxslarni, bolalarni nutq nuqsonlarini oldini olish, uni korreksiyalash va bartaraf etish bo'libgina qolmay, ularni ota - onalari yaqinlari bilan hamkorligda ishlash, ruhiy faoliyati turli salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarini, muhitni, ruhiy buzilishlarini oldini olish, har bir bolaning o'z xususiyatiga ko'ra individual yondashuv va metodlar bilan ishlash kabi korreksion jarayonlarni amalga oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ayupova M.Y. Logopediya: darslik/ M.Y. Ayupova; 0 'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rta maxsus t a 'lim vazirligi. — T.: 0 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. —560
2. Логопедия: Учеб. для студ. дефектол. фак. пед. высш. учеб. Л69 заведений / Под ред. Л.С. Волковой, С.Н. Шаховской. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2003. — 680 с. — (Коррекционная педагогика). ISBN 5-691-00128-0.
3. F.U.Qodirova va Z.X.Xusnuddinova. "Tiflopedagogika". Chirchiq-2023.
4. Roziqova, M., & Moxistarabonu, X. (2024). INKLYUZIV TALIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OYALARI , 41 (1), 92-94.
5. Roziqova, M. (2024). O'SMIRLARDA IJTIMOIY TARMOQLAR TASIRIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING OLDINI OLISH PSIXOLOGIK XIZMATNING DOLZARB VAZIFASI SIFATIDA. DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OYALARI , 41 (1), 95-97.
6. Roziqova, M. (2023). Baynalminal oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. *Interpretation and researches*, 1(1).
7. Olimovna, R. M. (2023). BAYNALMINAL OILALARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ORGANISH IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *PEDAGOOGS*, 48(2), 49-51.
8. qizi Rustamova, G. Z. X. (2024). Boshlangich sinf o 'quvchilarining maktabga intellektual tayyorgarlik muammosi. Science and Education, 5(5), 331-335.



## **BOLALARDA NUTQ FAOLIYATI VA JARAYONINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI**

**Olimova Oliyajon Ibragimovna.**

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Maxsus pedagogika: logopediya yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

**Tel:** 91 091 72 76

**Annotatsiya:** nutq o’zi nima, nutqning o’rni va ahamiyati, turlari me’yoriy rivojlanishi, muloqot jarayonidagi nutqning o’rni hamda, bolalarda nutq faoliyatining shakllanish jarayonidagi bosqichlarning ketma-ketligi va tartibi Nutq bu-bola va uning atrofidagi dunyosi o’rtasidagi aloqa vositasi, faqat odamga xos bo’lgan muloqotning eng yuksak darajasi hisoblanadi.

**Аннотация:** Что такое сама речь, роль и значение речи, виды нормативного развития, роль речи в процессе общения, а также последовательность и порядок этапов в процессе формирования речевой деятельности у детей речь - средство общения ребенка с окружающим миром, высший уровень общения, присущий только человеку.

**Annotation:** What is speech itself, the role and meaning of speech, types of normative development, the role of speech in the process of communication, as well as the sequence and order of stages in the process of forming speech activity in children, speech is a means of communication between a child and the outside world, the highest level of communication inherent only to a person.

**Kalit so’zlar:** Nutq, o’g’zak va yozma-muloqot, monologik, dialog, pollilog.

**Ключевые слова:** Речь, устная и письменная, общение, монолог, диалог, полилог.

**Key words:** Speech, oral and written communication, monologue, dialogue, polylogue.

**KIRISH:** Nutq faoliyati murakkab jarayon bo’lib, insonning oliy psixik funksiyalaridan biridir. Nutq xarakatlari murakkab a’zolari orqali amalga

oshiriladi. Bunda bosh miya faoliyati asosiy rol o'ynaydi. Nutq funksiyasi miyadagi maxsus nutq markazlari bilan uzviy bog'langan.

Nutq oliv nerv faoliyatining reflekslari asosida shakllanadi. Nutq reflekslari miyaning turli qismlardagi markazlar bilan bog'liqdir. Bosh miya qobig'inинг, ayrim bo'llimlari nutqning hosil bo'llishida muhim ahamiyatga ega. Bular chap yarim sharlarning peshona, chakka va ensa qismlaridir. Bosh miya qobig'inинг bu qismlarida nutq faoliyatida faol ishtirok etuvchi zonalar hisoblanadi. Mana shu organlarning faol ishtirokida nutq faoliyatida va o'zaro bir - biri bilan uzviy bog'langan. Bilamizki, nutq og'zaki va yozma jarayonda bayon etiladi va shu tariqa insonlar o'rtasida muloqot o'rnatiladi. Bu muloqot jarayonida kishilar fikr almashadi hamda ichki tuyg'ulari, hissiyoti va kechinmalari bilan o'rtoqlashadi.

**Asosiy qism:** Nutq - bu insonga xos xususiyat bo'lib, markaziy nerv sistemasi bilan bog'liqdir hamda nutq jarayonida faol ishtirok etuvchi organlar: nafas, ovoz va artikulatsion organlarning harakatchanligi bilan uzviy bog'langan. Shu bilan bir qatorda nutqning rivojlanishini birinchi navbatda oila, ijtimoiy muhit va pedagogik ta'lim tarbiyaning o'rni kattadir.

Bolalarning chaqaloqlik, go'daklik davrda nutqning shakllanishi, taqlid orqali rivojlanadi. Bunda bola atrofdagilar: yaqin insonlariga va onasiga taqlid qilishi asosida nutqi asta - sekinlik bilan rivojlanib boradi. Shuning uchun ham bolaning nutqi rivojlanishini jarayonida oiladagi ta'lim-tarbiyaning o'rni katta ahamiyatga ega bo'lib, bola bilan qanchalik muloqot madaniyati bo'lsa, bolada nutq shakllanish jarayoni tezlashadi.

Nutq faoliyati juda murakkab jarayon bo'lib, har bir shaxsning hayot faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Nutq orqali insonlar o'zaro bir birlarini tushunishi ulardagagi ichki tuyg'ularini quvonchi, shodligi, qayg'usi va g'amni ulashishadi. Bunday jarayonlar nutqning og'zaki muloqotda amalga oshiriladi.

Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqining to'g'ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq.

Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi.

Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish lozim.

Nutq faqat inson uchun xos bo'lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir. Nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir-birlariga ta'sir etadilar. Nutqiy aloqa til orqali amalga oshiriladi. Til — bu fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimidir. Gapiruvchi o'z fikrini bayon etish uchun zarur so'zlarni tanlaydi, ularni til grammatikasi qoidalariga asoslanib bog'laydi va nutq a'zolari artikulatsiyasi orqali talaffuz etadi.

Odam nutqi tushunarli va ma'noli bo'lishi uchun nutq a'zolarining harakatlari aniq va to'g'ri bo'lishi kerak. Shu bilan birga, bu harakatlarni maxsus ixtiyoriy kuch ishlatmasdan, ro'yobga chiqarish mumkin bo'lgan avtomatik bo'lishi lozim. [1.31] Aslida ham xuddi shunday bo'ladi. Odatda, gapiruvchi faqat o'z fikrini nazorat qiladi, nafas olganda uning tili og'zida qanday holatda bo'lishi va hokazolar haqida o'ylab ham o'tirmaydi. Bu nutqni talaffuz etish mexanizmi faoliyati oqibatida sodir bo'ladi. Nutq talaffuzi mexanizmi harakatini tushunish uchun, nutq apparatining tuzilishini yaxshi bilish zarur.

Nutq apparati o'zaro chambarchas bog'langan ikki qismdan: markaziy (yoki boshqaruvchi) nutq apparati va periferik (yoki bajaruvchi) qismdan tashkil topgan.

Markaziy nutq apparati bosh miyada joylashgan. U bosh miya qobig'idan, qobiq osti tugunlaridan, o'tkazuvchi yo'llar, o'zakdan (avvalo, uzunchoq miyada), yadrolar va ovoz, nafas, artikulatsiya muskullariga boruvchi nervlardan tashkil topadi.

Nutq, boshqa oliy nerv faoliyatining ko'rinishlari singari, reflekslar asosida shakillanadi. Nutq reflekslari miyaning turli qismlari faoliyati bilan bog'liqdir. Biroq bosh miya qobigining ayrim bo'limlari nutqning hosil bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Bular chap [chapaqaylarda o'ng] yarimsharlarning peshona, chakka va ensa qisimlaridir. Bosh miya qobig'ining bu qisimlarida nutq faoliyatida o'lchamli ishtirok etuvchi 1. Nutq xarakat analizator'i. 2. Nutq ko'ruv analizator'i. 3. Nutq eshituv analizator'i joylashgan.

Nutq xarakat analizator’i bosh miya qobig’ining chap peshona qismida joylashgan bo’lib, Broka markazi deb ataladi. Bu qism og’zaki nutiqning paydo bo’lishida qatnashadi.

Nutq eshituv analizator’i bosh miya qobig’ining chap chakka qismida joylashgan bo’lib, Vernike markazi deb ataladi. Bu qismda begona nutqni qabul qilish jarayoni ro’y beradi. Nutqni tushunishda bosh miya qobig’ining orqa bo’lagi katta rol o’ynaydi. Bu bosh miyaning ko’rvu markazi hisoblanib, yozma nutqni o’zlashtirish uchun xizmat qiladi.

Periferik nut apparatigi uch bo’limdan iborat

1. Nafas bo’limi;
2. Ovoz bo’limi;
3. Artikulyatsion bo’lim.

Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqining to’g’ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to’g’ri nutq muhiti va t a ’lim-tarbiyaga bog’liq. Nutq tug ‘ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi. Mualliflar bola nutqining shakllanish davrlarini turlicha ko’rsatadilar, ularni har xil nomlaydilar va har birining yosh chegaralarini turlicha ifodalaydilar.[2]

G.L. Rozengrad-Pupko bolada nutq rivojlanishini ikki davrga ajratadi:

- 1) tayyorlov davri (2 yoshgacha);
  - 2) nutqning mustaqil shakllanish davri. A. N. Leontev bola nutqining shakllanishini 4 davrga bo’lib ko’rsatadi;
    - 1) tayyorgarlik davri — 1 yoshgacha;
    - 2) bog’chagacha bo’lgan davr — 3 yoshgacha;
    - 3) maktabgacha bo’lgan davr — 7 yoshgacha;
    - 4) maktab davri [1. 69]

**Nutq** – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og’zaki (ovozi) va yozma ravishda namoyon bo’lishidagi jarayonlar, ya’ni so’zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Asl nutq (“tashqi nutq”) bilan bir qatorda ichki nutq ham bor. U so‘zlovchi ongida bilishga yordam beradigan turli xil masalalarni muhokama qilish va hal etishga qaratiladi. Ichki nutq tashqi nutq asosida, tovush yoki yozuv qo‘llanmagan holda, faqat ovozli nutqdagi so‘zlar haqidagi aniq tasavvurlar bilan kechadigan jarayonlar tarzida amalga oshadi. Yozma nutq og‘zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so‘zlarning o‘ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og‘zaki nutq uchun xos bo‘lgan ohang, mimika va qo‘l harakatlarining bevosita qo‘llana olmasligi bilan farqlanadi.

**Monologik nutq** – so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e’tiborda tutmaydigan nutq shakli. Ayrim dramatik asarlarda personajning Monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo‘ladi. Monologik nutq nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Ba’zan Monologik nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o‘zaro bog‘liq, o‘ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo‘lgan matnning ma’lum bo‘lagi xos bo‘ladi. Monologik nutq og‘zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklida ifodalanishi mumkin. Monologik nutqning og‘zaki shaklida ohang (intonatsiya) muhim o‘rin egallaydi, yozma Monologik nutqda esa ohang matnning sintaktik konstruk-siyasiga, mantiqiy urg‘u tushuvchi so‘zlarning joylashish o‘rniga bog‘liq.[3]

**Dialog** (yunoncha: dialogos – suhbat) – nutq turi; ikki yoki undan ortiq shaxsning bir-biriga qaratilgan nutqi. Dramada harakterlar va voqealar rivojini ifodalashning asosiy vositasi; nasrda (ba’zan nazmda) badiiy ifoda usuli. Masalan, Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida Hisrav bilan Farhod to‘qnashuvini Dialog vositasida ta’sirli qilib tasvirlaydi.

**Xulosa:** Nutq faoliyati va jarayoni inson uchun hos bo‘lgan xususiyat hisoblanadi. Nutq oraliq insonlar o‘rtasida o‘zaro muloqot jarayonlari amalga oshiriladi, muloqot jarayonida odamlar fikr almashiniladi va ichki kechinmalarini, tuyg‘ularini, hissiyotlari bilan o‘rtoqlashadi. Natijada bir - birlarini tushunish hissi uyg‘onadi.

Nutqning mukammal va aniq rivojlanishi uchun bolalarda aqliy va ruhiy sog‘lom rivojlanishdan tashqari oilada sog‘lom muhit bo‘lishi lozim, bolaga go‘daklik

davrdanoq to'g'ri va sog'lom muloqot bilan yondashish, nutq madaniyatni to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Bola birinchi o'rinda yaxshi eshitsa, ya'ni, eshituv madaniyati to'g'ri shakllangan bo'lsa nutq faoliyati to'g'ri shakllanadi.

Nutq avval aytganimizdek asosiy ahamiyatga ega bo'lib, axborot yangiliklar to'plashga hamda ularni bayon etishga yordam beradi. Inson nutqi qanchalik chiroyli bo'lsa, fikrni yetkazib berishi shunchalik osonlashadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.Y. Ayupova. Logopediya. T "O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashiriyoti ", 2007. 561bet
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Monologik\\_nutq](https://uz.wikipedia.org/wiki/Monologik_nutq) //Monologik nutq[murojat qilingan sana 27.03.2024]

## **MAKTABGACHA TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIM DASTURI XORIJIY TA'LIM DASTURI MISOLIDA**

***Rahimjanova Mashhura Rustamjon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti*

*Maktabgacha ta'lim yo'naliishi 2-bosqich talabasi*

*Tel:+998939230026*

*E-mail:@rahimjanovamashhuraxon@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning joriy etilishi xorijiy davlatlardagi inklyuziv ta'lim dasturi va uning amaliy va nazariy jihatlarini O'zbekiston Respublikasida qo'llash va uni amaliyotga tatbiq etish, O'zbekiston va Xorijiy mamlakatlardagi imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bolalar qatorida ta'lim olishi hamda ularga yaratilgan shart-sharoitlarini bir-biriga taqqoslanishi haqida ma'lumot berilgan.

**Аннотация:** В данной статье речь идет о внедрении инклюзивного образования в дошкольное образование, применении программы инклюзивного образования в зарубежных странах и ее практических и теоретических аспектах в Республике Узбекистан и ее реализации, здоровье детей с

ограниченными возможностями в Узбекистане и за рубежом. странах представлена информация об образовании детей и сравнение условий, созданных для них.

**Abstract:** This article is about the introduction of inclusive education in preschool education, the application of the inclusive education program in foreign countries and its practical and theoretical aspects in the Republic of Uzbekistan and its implementation, the health of children with disabilities in Uzbekistan and foreign countries. Information is provided about the education of the children and the comparison of the conditions created for them.

**Kalit so’zlar:** inklyuziv ta’lim, xalqaro tajribalar, imkoniyati cheklangan bolalar, individual rejalashtirish, konsepsiya, integratsiya, konvensiya, intellekt, ta’lim integratsiyasi.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, международный опыт, дети с ограниченными возможностями, индивидуальное планирование, концепция, интеграция, условность, интеллект, образовательная интеграция.

**Key words:** inclusive education, international experiences, children with disabilities, individual planning, concept, integration, convention, intellect, educational integration.

## KIRISH

O’zbekiston Respublikasida ta’lim taraqqiyoti strategiyasi uchun katta e’tibor berilmoqda. Yangi O’zbekistonning yangi Renessans davrida ta’lim tizimida berilayotgan islohotlarning barchasi o’z samarasini ko’rsatib, xalqimizning ertangi kelajagi uchun yangi zamin yaratmoqda. Jumladan, inklyuziv ta’lim ham bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib qoldi.

Prezidentning 2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiysi, [1] 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021- yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘gisida” gi PQ-2707 -sonli qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq qator vazifalar belgilab berildiki, xorij mamlakatlarining maktabgacha ta’lim tizimi chuqur o’rganilib amalda mamlakatimizda joriy etilishi hamda hamkorlikda ishlash kabi muhim

hamda dolzarb vazifalar belgilab olindi. [2] Bundan tashqari bugungi kun talablari asosida inklyuziv ta’limni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni loyihasiga inklyuziv ta’lim tushunchasi kiritildi. Bu borada Prezidentimizning 2018-yil 5-sentyabrda qabul qilingan “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori tizim rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Bosh qomusimiz – Yangi Konstitutsiyamizda ham ilk marotaba inklyuziv ta’lim tushunchasini kiritlishi inklyuziv ta’lim sohasidagi eng katta o‘zgarishlardan biri bo‘ldi desam, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ya’ni Yangi Konstitutsiyadagi tahrirga muvofiq ikkinchi bo‘lim, to‘qqizinchi bobning 50-moddasida:” Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’milanadi.” Bu yil Vazirlar Mahkamasining qarori bilan maktabgacha va maktab ta’limi uchun

“Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli qarori imzolandi. [3] Mamlakatimizda qilinayotgan bunday sa’y-harakatlar kelajakda albatta o‘z samarasini ko‘rsatishi shubhsizdir.

Dunyo mamlakatlarida nogironligi bo‘lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash, ularning jamiyatda o‘ziga munosib o‘rinni egallashlariga ko‘maklashish masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”, “Aqliy jihatdan orqada qolgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi”, “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, “Ta’lim hamma uchun” reja dasturi to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi, “Osiyo va Okeaniya mamlakatlari nogironlar huquqlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari dasturi”, “Nogironlar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha Standart qoidalar”, “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya va boshqa xalqaro miqyosda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi nogiron bolalarni himoyalashga qaratilgan bo‘lib, bu xalqaro-huquqiy asoslar ta’lim jarayoniga inklyuziv yondashuvni samarali joriy etishni nazarda tutadi.[4]

Manchester Universiteti professori Piter Mittler shunday deb yozadi: “inklyuziv ta’lim – bu yakuniy maqsadga erishish yo‘lidagi qadamdir-jinsi, yoshi, etnik kelib chiqishi, qobiliyati, buzilishi bor yoki yo‘qligidan qat’i nazar, barcha

bolalar va kattalarga yoqadigan jamiyatni yaratish, jamiyatda ishtirok etish va unga hissa qo’shish”, - deya ta’kidlagan.

Muhtaram Prezidentimizning :” Biz mакtabgacha ta’lim va mакtab ta’limi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassassalari bo’lg‘usi Renessansning to’rt uzviy halqasi deb bilamiz, bog’cha tarbiyachisi, mакtab muallimi, professor o’qituvchilar, va ilmiy – ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to’rt tayanch ustuni deb baholaymiz “, - degan fikrlarini o’zidayoq Maktabgacha ta’lim tizimi birinchi ustun ekanligi ya’ni poydevor ekanligini anglagan holda, biz bugungi yosh kadrlar zamon talabiga javob bera olishimiz, ertangi kelajagimizga to’g‘ri ta’lim- tarbiya bermog‘imiz darkor.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

### **Germaniya**

Germaniya qonunlarida mакtabgacha ta’lim olishning bepul huquqi belgilangan. Bolalarni 4 oyligidan boshlab yasliga olib borish mumkin. Ko’pchilik nemislar bu huquqdan foydalanadilar. Germaniya bolalar bog’chalarini turlari xilmashildir. Xususan, ular quyidagilarga bo’linadi:

1. Waldkindergarten (nemischa Wald so’zidan -o’rmon, nemischa Kindergarten - bolalar bog’chasi) demakdir. Bunday bolalar bog’chalarini yaratish fikri Skandinaviyada boshlangan. Ko’pgina bunday bog’chalar o’rmonda joylashadi. Bolalar doimo ochiq havoda sayr qilib turli mashg’ulotlar bilan shug’ullanadilar, daraxtlar va boshqa o’simliklarni o’rganadilar, tabiiy materiallardan turli narsalar yasaydilar, ular to’g‘risida tasavvurlarga ega bo’ladilar. Bu orqali bolalarga tabiatni sevish va uni asrab - avaylashdek insoniy tuyg‘ular shakllantiriladi.

2. Bauernhofkindergarten (nemischa Bauernhof so’zidan - dehqon hovlisi, qo’rg’oni; Kindergarten - bolalar bog’chasi). Bunday bog’chalar dehqon xo’jaliklarida, fermalar yoki ularga yaqin yerlarda joylashgan bo’ladi. Bolalar kuchlari yetguncha fermerlarga mollarni boqishda, dala va bog’larda sabzavot va mevalar o’stirishda yordam beradilar.

3. Freinet-Kindergarten. Maktabgacha pedagogikaning bu yo’nalishi o’z nomini bolalar tarbiyasida o’ziga xos yondashish usulini ishlab chiqqan italiyalik oilaviy juftlik familiyasidan olingan. Bu yo’nalishning o’ziga xos xususiyati shundaki bunda bola butunlay erkin va mustaqil bo’ladi. Ya’ni bolalar nima

qilishlarini, qanday o‘yin o‘ynashlarini, nima bilan shug‘ullanishlarini, qachon ovqatlanishlari va uqlashlarini o‘zlari hal qiladilar. Bolalarni ko‘proq ijod qilish, syujetli-rolli o‘yinlari, tajribalar, tabiat qo‘ynida yoki shaharning korxona va tashkilotlarida sayohatga olib borish muhim ahamiyat kasb etadi

4. Integratsion bolalar bog‘chalari. Bunday turdagি MTM larda sog‘lom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruhiy nosog‘lom bolalar birgalikda tarbiyalanadilar. Bunday sharoit oddiy bolalar uchun chidamlilik, bag‘rikenglik va hurmat qilishni o‘rganishga ajoyib imkoniyat, deb qaraladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar jamiyatdan ajralgan holatda bo‘lmaydilar, o‘z tengdoshlari bilan muloqot va hamjihatlikda bo‘lishni o‘rganadilar. Shunday bog‘cha va maktablarning soni ko‘pligi Germaniyada nogironlarning yashashi, ta’lim olishi va o‘zini namoyon qilishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

5. Internatsional bolalar bog‘chalari. Bunday bolalar bog‘chalari emigrantlar uchun yaratilgan bo‘lib, ko‘pincha ularni emigrantlarning o‘zlari farzandlari uchun tashkil etadilar.

Germaniya turk-nemis, yahudiy, rus-nemis bolalar bog‘chalari juda ko‘p. Bunday guruhlarda doimo bolalar bilan ona tilida so‘zlovchi tarbiyachi bilan birga nemis tilida so‘zlovchi tarbiyachi ham bo‘ladi. Bunda bolalar ham ota-onalarining tilini, shuningdek nemis tilini ham o‘rganadilar. Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, Germaniyada maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar bilan harakatli o‘yinlar, gimnastika, yugurish, sakrash kabi ish shakllari o‘tkaziladi. Jismoniy tarbiya dasturi suv o‘yinlari va suzish mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi. .[5]

### **Yaponiya**

Yaponiya davlatida bolalarni olti yoshga to‘lishi bilan mакtabga berishadi. Unga qadar bolalar bog‘chada ta’lim-tarbiya olishadi. Bog‘cha davrida bolalarga pedagoglar sodda hisob-kitoblarni, shuningdek, “xiragana” va “katakana” alifbolarini o‘qishni o‘rgatishadi. Maktabgacha ta’limga Yaponiyada katta e’tibor beriladi, chunki psixologlarning ta’kidlashicha, 5 yoshgacha inson bilimlarning 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o‘zlashtirar ekan. Yaponlarda maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollarini uchun onalik birinchi o‘rinda turadi. Ko‘pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi-hayotlarining maqsadlaridir. Yaponiyada maktabgacha ta’lim muassasalarining

59,9 foizi xususiy, 40,8 foizi davlatnikidir. Yapon bog’chalarida bolaning ilk yoshidanoq o’ziga xos bo’lgan tarbiya usullaridan foydalanib, hayotda uchraydigan muammolarni har etishga doir ko’nikmalari bosqichma-bosqich shakllantirib boriladi. Masalan, 1 yoshda bolada o’ziga ishonch hissini uyg’otishga o’rgatishadi; 2 yoshda amaliy san’at orqali qo’l mehnatiga o’rgatiladi; 3 yoshda bolalarda burch hissi tarbiyalanadi; 4 yoshda yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o’rgatiladi; 5 yoshda bolada liderlik hislatlari tarbiyalanadi, ularni mustaqillikka o’rgatishadi, rejalar tuzishga va ularni bajarishga doir ko’nikmalar shakllantiriladi. Yaponiyada bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O’g’ilga oilaning bo’lajak tayanchi sifatida qaraydilar va bolalikdanoq qiyinchiliklarni yengishga o’rgatadilar. Qizlarni ham bolalikdanoq uy ishlariga tayyorlaydilar. Yaponiya bog’chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar-“xanlarga” bo’ladi. Bu bolalarga bog’chada o’z ish o’rnilarini ajratiladi, ular o’z “xanlariga” nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o’rgatadilar. Bu guruhdagi har bir tarbiyanuvchi guruhda o’z o’rniga ega bo’lishga doir ko’nikmalar shakllantiriladi. Yaponlar ekologik tarbiyaga ham katta e’tibor qaratishadi. Ular bugungi kunda preslangan chiqindilardan butun boshli bir orolni barpo etmoqda. Bunda albatta bolalarning ham hissasi bor.

[6]

### AQSH

AQSH da Maktabgacha ta’lim muassasalarida, jumladan, ijtimoiy va xususiy yasli, bog’cha va maktabgacha tayyorlov markazlarida amalga oshiriladi. Davlat faol ravishda maktabgacha ta’lim muassasalarining ta’lim berish vazifasini qo’llab – quvvatlaydi va bolalarning maktabgacha ta’lim olishi va maktabga tayyorlanishi uchun moliyaviy yordam ko’rsatadi. 5 yoshli ko’plab amerika bolalari bolalar bog’chalarida tayyorlov sinflarda ta’lim olishadi. Bu sinfda bolalar boshlang’ich maktabda o’qish uchun tayyorlanishadi, ya’ni asta – sekin o’yindan o’qish, yozish va boshqa kerakli ko’nikmalarni o’zlashtirishga o’tishadi. Ijtimoiy maktabgacha ta’lim muassasalarida 60 foiz besh yoshli bolalar ta’lim oladi, ammo ko’plab ota – onalar xususiy maktabgacha ta’lim muassasalarini ma’qul ko’radilar. Agar nogironligi bo’lgan bola tug’ilsa, uni tug’ilganidan boshlab ijtimoiy hayotga moslashtirish, avvalo maktabgacha ta’lim bosqichiga, so’ngra maktab, kollej va universitetlarda tahsil olishiga erishish va amalga oshirish uchun mutaxassislar, nevropatolog,

psixolog, nogironlik turiga qarab logoped, oligofrenopedagog yoki tiflopedagog biriktiriladi. Bu mutaxassislar bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlab bola bilan shug‘ullanishadi va uni bog‘chaga (ijtimoiy muhitga) har tomonlama moslashtirib borishadi. Bog‘chada ishlaydigan maxsus pedagoglar imkoniyati cheklangan bolani maktabga tayyorlashadi. Natijada bunday bolalar inklyuziv ta’limga tayyor holatda, oddiy maktablarda boshqa sog‘lom bolalar bilan birqalikda tahsil olish, bunday muhitda ulg‘ayishga moslashgan holatda chiqadi.[7]

### **Koreya**

Koreyada bolalar bog‘chalari umumiy ta’lim dasturining bir qismi hisoblanmaydi, ota-onalar bolalarni xususiy muassasalarga topshiradilar. Bolalar bog‘chasiga bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Olti yoshga to‘lgan bolalar odatda maktabga boradi. 1980-yillardan boshlab bolalar bog‘chalari va maktabgacha muassasalarga boradigan bolalar soni keskin o‘sdi: bunda 901 ta muassasaga 1980 - yilda 66 433 bola borgan bo‘lsa, 1987- yilda 7 792 muassasa mavjud bo‘lib, ulardagi bolalar soni 397 020 taga etdi. Ulardagi tarbiyachi va pedagoglar soni ham ortdi, ularning katta qismini ayollar tashkil etdi. Koreya bog‘chalari quyidagi turlarga bo‘linadi: boshlang‘ich; o‘rta; yuqori. Janubiy Koreya maktabgacha ta’lim tizimi asosan bolaning boshlang‘ich har tomonlama rivojlantiruvchi ko‘nikmalarni o‘rgatishga qaratilgan. Bolalar uch yoshdan boshlab koreys va ingliz tillarida o‘qish va yozishni o‘rganadilar. Shu yoshdan boshlab bolajonlar matematika sir-asrorlarini o‘rganadilar. Koreyslar bolalarning jismonan sog‘lom va baquvvatligiga, shuningdek, musiqa darslarining o‘zlashtirishiga alohida e’tibor qaratadilar. Bog‘chadan boshlab bolalarga judayam katta hajmda uyga vazifalar beriladi, ingliz tili darslarida alohida so‘z va jumlalarni tarjima qilishdan tashqari, bolalar o‘z fikr va qarashlarini ingliz tilida ravon va sodda so‘zlashni o‘rganadilar. Koreyada boshlang‘ich ta’lim uchun o‘quv yilida 1 martga qadar 6 yoshdan yuqori bo‘lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o‘qishga kirishga huquqli bo‘lib, buning uchun maktab mas’ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo‘ladi. Bolalar bog‘chasing asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog‘chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o‘tiladi. Koreys bog‘chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e’tibor beriladi. [8]

## Xitoy

Xitoyda maktabgacha ta’lim bolalar bog‘chalari va maktabgacha ta’lim muassasalari hisoblanadi va 3-6 yoshli bolalar qabul qilinadi. Maktabgacha ta’limining maqsadi bolani matabda o‘qishiga tayyorlashdan iborat. Bog‘chalar davlat va xususiy muassasalarga bo‘lingan. Hozirgi kunda xususiy bog‘chalar soni jami bolalar bog‘chalarining 30 %ini tashkil etadi. Maktabgacha ta’lim Xitoyda jamiatning birgalikdagi sa’y-harakatlari natijasida amalga oshiriladi. Davlat mayjud qonunlar asosida bolalar bog‘chalarini ochishga xohishi bo‘lgan tashkilotlar, nodavlat notijorat muassasalar, hamda alohida shaxslarni qo’llab- quvvatlaydi.

Xitoyda bolalar bog‘chasi katta bo‘lib, o‘rtacha 270 bola va 60 ta tarbiyachilar jamoasidan iborat. Guruhda 26 ta bola bo‘lib, ularning bir qismi bog‘chada kunduzgi soat 8:00 dan 18:00 gacha bo‘ladilar va kechqurun uyga ketadilar. Bir qismi (5%) kechasi ham qoladilar. Chorshanba va shanba kunlari uyga ketadilar. Bog‘chaga qabul soat 7:45 da boshlanadi. Ma‘lumki, Xitoy aholisi juda ko‘p davlat. Shu bois, ham Xitoy davlati tug‘ulishni rejorashtirish sohasida qat’iy siyosat olib boradi. Har bir oila bittadan ortiq bola ko‘rmasligi kerak. Oilada bola sonining chegaralanganligi ota-onaning bolaga munosabatida o‘z ifodasini topadi. Xitoy oilasida bittayu-bitta bolasini erkalatadi, yaxshi ta’lim berishga harakat qiladi. Bolalar bog‘chasida qat’iy tartib va intizom o‘rnataladi, bolalar erkaliklari ta‘qilganadi. Tarbiyachilar bolałaming shaxsiy xususiyatini yaxshi biladilar, lekin bu xususiyatlari tug‘ma deb hisoblamaydilar. Yomon intizom ilk ko‘rinishidayoq bartaraf etiladi, agar bola o‘zini yomon tutsa, tarbiyachi uning yoniga kelib, bu holatini sezganini bildiradi, lekin gapirmaydi. Bola o‘z aybini tushungachgina tarbiyachi uning nomini aytib chaqiradi. Urish, xonadan haydab chiqarish, umuman jazolash man etiladi. Intizomni yaxshi ushlab turishning samarali yo‘li bu - taqqoslash va rag‘batdir.

Buyuk Xitoy filosofi Konfutsiy: “Bolalar to‘g‘ri intizomli bo‘lib tug‘ilmaydilar: ularning xarakterlari tajribada shakllanadi, ustoz esa to‘g‘ri tarbiyaga mas’uldir. Tarbiyachilar o‘ta bosiq, qat’iyatl bo‘lishi lozim”, - deb ta’kidlagan. Xitoy maktabgacha ta’lim tizimini qattiqqo’lligi uchun tanqid qilishadi. Tarbiyachilar bolalarning tartibini nazorat qiladi va chegaralaydi. Bolalar mashg‘ulotlarda nofaol,

kattalar fikriga mutlaq qo’shiladilar. Lekin ota-onalar tarbiyachilami o‘z kashining kasbining ustasi deb bilishadi, farzandlarini tarbiyachisiga to‘liq ishonishadi. [9]

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytishim joizki, xorijiy mamlakatlardagi Maktabgacha ta’lim tizimi va unda imkoniyati cheklangan bolalarning ham tahsil olishi meni lol qoldirdi. Maktabgacha ta’lim tizimi barcha davlatlarda turlicha tartibda, o‘z qonuni, qarori, farmoyishi doirasida ishlab chiqilishi, davlatning, mamlakatning o‘z mentalitetidan kelib chiqqan holda imkoniyati cheklangan bolalarga ham ta’lim berish mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratmagan holda ularga ham xorijiy davlatlardagi innovatsion yondoshuvlar, texnologiyalar asosida davlatimizda iqlab chiqilayotgan qonunlarga zid ko‘rilmagan holda xorij va O‘zbekistondagi inklyuziv ta’lim tajribasini integratsiya qilib o‘zlashtirish bugungi kun kadrlarining mahoratiga bog‘liqdir. Xorij tajribalarini, ta’lim tizimini mamlakatimizga joriy etishda o‘z mentalitetimizni hisobga olish, imkoniyati cheklangan bolalarni tashxis, tahlil, psixologik, ruhiy, jismoniy, aqliy salohiyatlarini bilish, bola uchun nima mumkin-u nima mumkin emasligini his etal olish biz yosh kadrlarning oldimizga qo‘ygan ustuvor vazifalarimizdan biridir. Hamma kasb egalari faoliyati davomida xato qilishi mumkin, lekin shifokor va pedagog o‘qituvchilar xato qilishi mumkin emas. Chunki ertangi yosh avlodni har tomonlama mukammal etib tarbiyalash tarbiyachi pedagogning vazifasidir. Ya’ni tarbiyachi pedagog bolaning shaxs sifatida shakllanishida birinchi imoratning ustunidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiysi
2. 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021- yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘gisida” gi PQ-2707 -sonli qarori.
3. “Alohibda ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida” 2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli qarori.
4. “Inklyuziv ta’lim asoslari “ O‘quv uslubiy qo’llanma. Urganch.2020.

5. R.Sh. Shomaxmudova „ Maxsus va inkyuziv ta’lim xalqaro va milliy tajribalar”-o‘quv uslubiy qo‘lanma.Toshkent 2011.
6. <http://info-tashxis.uz/home/SinglePage/1267> sayti va  
<https://uz.m.wikipedia.org> sayti
7. NEW INNOVATIONS IN NATIONAL EDUCATION ( NINE) Xalqaro KONFERENSIYA jurnalidagi maqolalar materiallari . 2023- yil.
8. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/14993/10436/12222> sayti
9. <https://arxiv.uz/> sayti



#### **IV. ILG’OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR:**

## **ЎЗБЕКИСТОН МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА (ГЕРМАНИЯ, ЯПОНИЯ ВА ТУРКИЯ МИСОЛИДА)**

***Uzakov Kahramon Pazildinovich***

*Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги*

*Давлат бошқаруви академияси ўқитувчиси*

*Teacher of the Academy of Public Administration under*

*the President of the Republic of Uzbekistan*

*dba\q.uzaqov@dba.uz*

***Meliqo’ziyev Abrorjon Akram o’g’li***

**Аннотация:** Маскур мақолада Ўзбекистондаги Маҳалла институтининг ўзига хос жиҳатлари Германия, Япония ва Туркия давлатлари билан солиштирилиб муҳокама қилинган.

**Калит сўзлари:** Маҳалла, фуқаролик институтлари, жамоат ташкилотлари, фуқаролик жамияти, ижтимоий фаоллик.

### **КИРИШ**

Сўнгги йилларда ўзбек жамиятининг энг муҳим ва таянч бўғини ҳисобланган маҳалла институтини халқнинг чинакам қўмакдошига айлантириш, маҳаллий ўзини ўзи бошқаришининг хуқуқий базаси, бошқарув тизими, институционал асосларини яратиш бўйича кенг кўламли тизимли фаолият амалга оширилмоқда.

Мамлакатда тарихий ривожланиши, ижтимоий-маданий хусусиятларига мос келадиган маҳаллий ўзини ўзи бошқариш моделининг самарали мезонларини аниқлашга қаратилган илмий ёндашувлар ишлаб чиқилмоқда.

Хусусан, соҳага оид 40дан ортиқ қонун хужжати қабул қилинди, 50 дан ортиқ норматив-хуқуқий хужжатлар такомиллаштирилди ва бу жараён бундан кейин ҳам давом этади. Сабаби вақт ўтиши билан жамиятдаги ижтимоий-маданий қарашлар ҳам ўзгаради ва бу маҳалла ташкилотига янги вазифаларни юклайди.

Маскур соҳадаги ислохотларни янгила бориша доимий равишда хорижий тажрибани ҳам ўрганиб бориш фойдадан холи бўлмайди албатта.

Шу сабабдан ҳам маскур мақолада ўзбек маҳалласини турк қўшнилари, немис “Гемайдени” ва япон Чўнакайи билан солишириб, уларнинг ўзига хос жиҳатлари муҳокама қилинди.

### **АСОСИЙ ҚИСМ**

Мустақилликнинг илк йиллариданоқ маҳалла институтининг хукукий асосларини яратиш, уларни замон талабларига мос холда такомиллаштириб бориш, жамиятимиз сиёсий-иктисодий ва маънавий ҳаётининг ажралмас бир қисми сифатида ушбу ноёб тузилма мақомини мустаҳкамлашга катта эътибор қаратиб келинмоқда. Аввало, миллий давлатчилигимиз тарихида илк бор шаҳарча, қишлоқ, овул ва маҳалла фуқаролар йигинлари ўзини ўзи бошқаришнинг худудий бирликлари сифатида Ўзбекистон Республикаси Конституциясида мустаҳкамлаб қўйилди, уларнинг мақомини белгилаш, ваколатларини кенгайтиришга қаратилган қатор қонун хужжатлари қабул қилинди.

Ўзбекистонда маҳалла бўлиб, жамоа бўлиб яшашнинг минг йиллик тарихи бор. Ўзбекистонда Маҳалланинг шаклланиши босқичларини 3 та даврга ажратиш мүкин:

**Биринчи босқич** – маҳалланинг миллий қадриятларимизни, маънавий мухитни мужассам этган жамоавий турмуш тарзи сифатида маҳалланинг шаклланиши, яъни ўзбек миллати ва давлатчилиги шаклланишидан бошлиб то Туркистон Россия империясининг мустамлакасига айлангунгача бўлган давр.

**Иккинчи босқич** - Туркистон Россиянинг мустамлакасига айланган даврдан то Ўзбекистон ўз мустақиллигига эришгунгача бўлган давр.

**Учинчи босқич** – Ўзбекистоннинг мустақиллик йиллари даври.

Тарихий манбаларга кўра «Авесто»да илк жамоавийликнинг пайдо бўлиш ва ривожланиши босқичлари қайд этилган. Жумладан, нмана катта патриархал оилани, бир неча нманаларнинг бирикуви, яъни уруғ жамоаси - висни ташкил этган. Муайян худуддаги кўшни вислар бирикувидан варзана – худудий кўшничилик жамоаси, уларнинг уюшувидан занти - қабила юзага келган.

Қабилаларнинг ўзаро бирлашуви эса дахиюни, яъни қабилалар иттифоқини вужудга келтирган.

IX аср тарихчиси Наршахийнинг «Бухоро тарихи» китобида Бухори Шарифда бундан 1100 йил олдин ҳам маҳалла, гузарлар мавжудлиги қайд этилади. Леонид Левитин таъкидлаганидек, «Хозирги Ўзбекистон худудида бўлган шаҳарлардаги маҳаллаларнинг айрим мавзелари ўша пайтлардаёқ шу қадар катта эди, уларни шаҳарнинг мустақил қисми деса бўлади. Маҳаллага обрўли шахслар-умумий йиғилишда сайланадиган шайх ёхуд юзбоши раҳбарлик қилар эди. Ҳар бир маҳалла ўзининг кўкаламзор худудида масжид ва чойхона жойлашган жамоатчилик марказига эга бўлган. Маҳалладагилар ҳар хил турдаги жамоат ишлари ўтказиш учун зарур бўлган умумий асбоб-анжомларга эга бўлишган»[1].

Самарқанд, Тошкент, Андижон, Кўқон ва бошқа йирик шаҳарлар даҳаларга, улар эса, ўз навбатида, маҳаллаларга бўлинниб, маҳаллаларга оқсоқоллар бошчилик қилган. Ҳар бир маҳаллада масжид бўлиб, одамлар ҳаётидаги барча муҳим воқеалар шу ерда ҳал қилинган. Фарзанд туғилганда, никоҳ тўйларида оиланинг моддий аҳволига караб, дастурхон қандай бўлиши, қанча одам чақирилиши белгиланган. Дафн маросимини масжид имоми билан сўфи ташкил этган.

Даҳа юзбошилар томонидан бошқариладиган кўплаб маҳаллалардан ташкил топган. Н.А.Маевнинг маълумотларига кўра, XIX аср охирида Тошкентдаги маҳаллалар сони 149 та бўлиб, уларнинг 48 таси – Шайхонтохур, 38 таси – Себзор, 31 таси – Кўкча ва 32 таси – Бешёғочда жойлашган[5].

1932 йил 17 апрелда Ўзбекистонда биринчи марта шаҳарлардаги маҳалла қўмиталари тўғрисида Низом чиқди. 1935-1936 йилларда маҳалла қўмиталари ташкил этилиб, аҳоли ўртасида олиб бориладиган барча ишларни қўмита раиси бошқарадиган бўлди.

Орадан салқам 30 йил ўтгач, 1961 йил 30 августида Ўзбекистон Республикаси Олий Қенгаши республика шаҳар, қишлоқ, посёлка ва овуллардаги маҳалла қўмиталари тўғрисидаги Низомни қабул қилди[2].

Ўтган давр мобайнида Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолияти самарадорлигини ошириш, маҳалла институтини ахолига энг яқин ва

халқчил тузилмага айлантириш, фуқаролар йиғинларининг муштарак манфаатларини ифода этадиган уюшмага бирлашиш хукуқларини рўёбга чиқариш, уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ҳамда давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари билан ўзаро ҳамкорлигини янада ривожлантириш мақсадида бир қанча қонун ва қонуности хужжатлари имзоланди.

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолияти самарадорлигини ошириш, маҳалла институтини аҳолига энг яқин ва халқчил тузилмага айлантириш, фуқаролар йиғинларининг муштарак манфаатларини ифода этадиган уюшмага бирлашиш хукуқларини рўёбга чиқариш, уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ҳамда давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари билан ўзаро ҳамкорлигини янада ривожлантириш мақсадида...:

Ўзбекистондаги маҳалла институти қаби тузилмаларни бошқа давлатларда ҳам учратиш мумкин. Улар зиммасидаги вазифалар билан бир биридан бироз факр қилиши мумкин.

Жумладан ривожланган Германия давлати муисолида кўрадиган бўлсак маскур давлатда фуқаролик институтлари фаоллиги алоҳида аҳамиятга эга.

Германияда маҳалла институтига ўхшаш “Гемайдени” деган тузилма мавжуд бўлиб, у Дастреб Германияда 1965 йил 7000 та Гемайдени (маҳалла) бўлган бўлса, кейинчалик 2031 тага камайган. Гемайденининг ўз бюджети бўлиб, у маҳаллий солик тушумлари ҳисобига шакллантирилади. Шунингдек, ўз маҳалласи доирасида қарор қабул қилиш, назорат ва озодалик масалаларига жавоб беради. Кези келганда чора кўриши ҳам мумкин. Ўз бошқарувидаги ходимлар сони, штатлар жадвалини ўзи мустақил ҳал қиласди.

Унинг функционал вазифалари қуйидагича:

- ўз маблағлари ҳисобига ва ўз жавобгарлиги остида мустақил тадбирлар ташкил қиласди;
- маҳалла ташкилотчилигини олиб боради;
- хусусий корхоналарни қўллаб-куватлайди;
- маҳалла фаолиятини мустақил ташкил қиласди;
- маҳаллалараро ҳамкорлик қиласди;

— маҳаллада волонтёрлик асосида фаолият юритаётган уюшмаларни қўллаб-кувватлайди.

Германияда ушбу тузилма давлат томонидан қўллаб-кувватланиб, масъул идоралар томонидан (молия, ссуда ва субсидия масаласида) консультация берилади[3].

Шунга ўхшаш институтни Япония мисолида ҳам қўриш мумкин.

Японияда ҳар бир маҳаллада Чонаикай ёки Жичикаи (маҳалла уюшмаси ёки аҳоли уюшмаси) номли маҳаллий ташкилот мавжуд. Маҳалла бирлашмалари маҳаллий аҳоли томонидан бошқариладиган ўзини-ўзи бошқариш тузилмаси бўлганлиги сабабли уларнинг фаолияти худудга қараб фарқланади, лекин улар асосан куйидаги фаолият турларини амалга оширадилар[6].

Уларнинг асосий вазифалар қуқийдагилардан иборат:

Резидентлар ўртасидаги яқин муносабатларни ривожлантириш (ёзги фестиваллар, спорт кунлари ва х.к. ўтказиш);

Оммавий ахборот тахталарини ташкил этиш (худуд хақидаги маълумотларни ўз ичига олган ҳужжатлар ва маҳаллий ҳокимият органларининг аъзолари томонидан ўқиладиган хабарлар);

Табиий оғатларга ёрдам бериш ва табиий оғатларнинг олдини олиш бўйича ўзаро машғулотлар, чиқиндиларни йиғинш жойларини тозалаш.

Шу ўринда савол тутулади “Маҳалла уюшмаларига аъзо бўлиш шартми?”. Маҳалла уюшмалари маҳаллий аҳолининг ихтиёрий ташкилотлариридир, шунинг учун сиз қўшилишингиз шарт эмас ва қўшилганингиздан кейин чиқиб кетишингиз мумкин.

Маҳалла бирлашмаларида хорижликларнинг иштироқи хақида куйидагиларни баён этиш мумкин.

Сўнги йилларда маҳалла фуқаролар йиғинларига аъзо бўлган хорижликлар сони ортиб бормоқда ва қўп тилли қўлланмалар яратиш орқали хорижликларни маҳалла фуқаролар йиғинларига аъзо бўлишга фаол раг‘батлантираётган маҳаллий хукumatлар ко‘п.

Маҳаллий аҳоли ўртасида ўзаро муносабатлар ва ўзаро тушуниш тарғиб қилинаётгани, хорижлик резидентларнинг анъанавий фестиваллар каби

қизиқарли тадбирларда иштирок этиши, маҳалла бирлашмалари орқали кўшнилар билан танишиш ва бир-бирига ёрдам беришдан завқланиш ҳолатлари кўп. Япониядаги маданиятни ўрганишни истаганлар учун маҳалла уюшмасига кўшилиш тавсия этилади.

Ривожланган узок Германия ва олис Япония каби давлатлардан кўра географик жиҳатдан ҳам, маданий ва этник томондан ҳам бизга яқин бўлган қардош туркларда маҳалла институти ўзбек маҳалласига жуда ҳам яқин.

Туркияда "Маҳалла" ёки "Турк қўшнилари" деб юритилувчи тузилма мавжуд[7].

Туркияда маҳаллалар деб аталадиган аҳолиси ўртасидаги муносабатлар оиласвий муносабатлар каби муҳим аҳамиятга эга. Маҳалла қаҳвахоналари, маҳалла посбонлари, икки маҳалла жамоалари ўртасидаги футбол ўйинлари, маҳалла дўконлари, маҳалла дўстлари ва ҳоказо урф-одатлари ҳозирги кунгача, одамларнинг турмуш тарзига таъсири сақланиб келмоқда.

Улранинг вазифалари ҳам ўзбек маҳлла ташкилоти вазифаларига жуда ҳам яқин.

Туркиядаги маҳалла шунчаки яшаш жойи эмас, балки умуман турк жамияти ҳаёти ва маданиятининг кўплаб нозик томонларини ўрганиш мумкин бўлган мактабдир.

Маҳалла маъмурий бирлик сифатида илк бор Усмонлилар империясида вужудга келган. Агар маҳаллада жамоат тартиби бузилган бўлса, бир киши эмас, маҳалланинг барча аҳолиси жавобгар бўлган. Қоида жиноят даражасини минимал даражага туширди.

Одамларнинг бир-бирлари олдидағи ўзаро масъулияти универсал бўлиб қолган ва бир кўчада яшовчи одамлар, гўё бир катта оиланинг аъзолари бўлишган.

Маҳалланинг турмуш тарзи ҳамжиҳатлик, ўзаро ёрдам тушунчаларига асосланади. Кийин дамларда бу ҳамжиҳатлик жамиятга ҳар қандай қийинчиликка дош беришга куч беради.

Аёллар маҳалла ҳаётининг ажралмас қисми бўлган "аёллар кунлари"ни уюштиришади. Бу хотин-қизлар йигинларида турли қатлам ва қасб-хунар аёллари йигилади.

Оила ичидаги ҳам, маҳалла ахли ўртасидаги ҳамжиҳатлик туфайли иқтисодий қийинчиликларни енгиш осонроқ бўлади.

## **ХУЛОСА**

Умуман олганда айнан Ўзбекистондаги маҳалла каби институт бошқа жамиятларда кам учрайдиган ходиса.

Шу сабадан ҳам Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2021 йил 22 март куни “Маҳлла тизими ходимлари куни” байрам табригига “Маҳалла — асрлар оша миллий урф-одат ва анъаналаримизни безавол сақлаб, халқимиз учун эзгулик ва тарбия бешиги, яхши қўшничилик ва ҳамжиҳатлик маскани бўлиб келмоқда. Биз маҳалла деганда, дунёда камдан-кам учрайдиган, инсонни жамият билан уйғун бўлиб яшашга ўргатиб, бағрикенглик руҳида тарбиялайдиган, халқ билан давлат ўртасидаги ишончли кўприк вазифасини бажарадиган ноёб тузилмани тушунамиз.” деб таъкидлаган эди[7].

## **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР**

1. *Мухаммад Наршахи. Исторія Бухары* / пер. с пер. яз. Н. Лыкошинъ, под. ред. В. В. Бартольда. — Ташкентъ, 1897. — С. 7. [Архивировано](#) 3 апреля 2022 года.
2. «Тошкент оқшоми», газетаси. №70 (9.567). 2001 йил, 18 июль.
3. Ханс Зайдель жамғармасининг Ўзбекистондаги ваколатхонаси оғиси раҳбари Жавҳар Дўстовнинг “Маҳалла институтини жамият ҳаётида тутган ўрни” мавзусидаги форумдаги нутқи. 2023 йил ноябр. Тошкент шахри. <https://uzmahalla.uz/2023/10/06/mahalla-institutini-jamiyat-hayotida-tutgan-orni/>
4. Янги ўзбекистон газетаси. №58 (314), 2021 йил 22 март.
5. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси. “Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари: асосий йўналишлари ва ёндашувлар” Республика ёш олимларининг биринчи илмий конференцияси материаллар тўплами. 2009 йил. Тошкент.
6. <https://scholar.ui.ac.id/en/publications/chonaikai-a-crossroad-rethinking-the-japanese-traditional-neighbo>  
[https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiya\\_qishloqlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiya_qishloqlari)



## **SHARQ MINIATYURA MAKTABLARI VA ULARNING QISQACHA TARIXI**

**Ayubova Shohsanam Shukurjon qizi**

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishi*

*2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: R. M. Akbarov*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sharq miniatyura san’atining pasydo bo’lishi tarixi, dastlab bu san’at qayerda paydo bo’lganligi, uni rivojlanish va taraqqiyot bosqichlari, shuningdek, miniatyura san’ati bilan shug’ullangan olimlar va ularning maktablari yaratilishi tarixi bo'yicha qisqacha so'z yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье описана история развития восточного искусства миниатюры, где оно впервые появилось, этапы его развития и развития, а также будет рассмотрена история создания ученых и их школ, занимавшихся искусством миниатюры. кратко обсудили.

**Abstract:** This article describes the history of the development of oriental miniature art, where it first appeared, the stages of its development and development, as well as the history of the creation of scientists and their schools who were engaged in miniature art. will be briefly discussed.

**Kalit so‘zlar:** “Buxoro maktabi”, “Boburiylar” miniatyura maktabi, “Sheroz” maktabi, “Asfaxon” maktabi, “Yazd” maktabi, “Bag’dod” maktabi, “Tabriz” maktabi, “Rafaeli”.

**Ключевые слова:** «Бухарская школа», миниатюрная школа «Бабурый», школа «Широз», школа «Асфахан», школа «Йезд», школа «Багдад», школа «Тебриз», школа «Рафаэли».

**Keywords:** "Bukhara school", "Baburiyy" miniature school, "Shiroz" school, "Asfakhan" school, "Yazd" school, "Baghdad" school, "Tabriz" school, "Rafaeli".

Qadimdan Markaziy Osiyo, Misr, Xitoy, Yaponiya, Xindiston kabi mamlakatlarda tasviriy san’atning ancha qiyin grafik chizmalari paydo bo’lgan. Misr qadimdan tasviriy san’at maktablariga ega bo’lgan davlatlardan biridir.

Tasviriy san’at borasida nazariy bilimlarni ilmiy pedagogik jihatdan talqin etish masalasiga san’at tushunchasining o’zini taxlil qilish orqali yondoshish maqsadga muvofiqdir[1]. Odamlar tomonidan biron-bir ish, narsa, buyum va xakozalarning moxirlik bilan bajarilishi va maromiga etkazish inson mexnatining san’atkorona bajarilganini bildiradi. Demak, pedagoglarning xam o’z mexnatini puxta, chiroyli, kam-ko’stsiz bajarishi san’atkorlik namunasi bo’lib xisoblanadi. Ta’lim-tarbiya berishda tasviriy san’at tushunchasining o’zi qanday xarakterga ega ekanligi alohida ilmiy pedagogik taxlilni taqozo etadi. Tasviriy san’at-eng qadimiy va keng tarqalgan san’at turlaridan biridir. U keng ma’noga ega. O’z o’rnida xaykaltaroshlik, rangtasvir, amaliy san’at va grafika kabi turlarga bo’linadi. Turlari xam o’z o’rnida yana bir qancha janrlarga bo’linib ketadi. Tasviriy san’at tur va janrlarini nazariy jihatdan o’rganish, shuningdek talaba, o’quvchilarga mashg’ulot yoki suhbat davomida ko’rgazmali qurollar orqali o’rgatishning uslubiy asoslari, yo’l-yo’riqlari metodik jihatdan alohida o’ziga xos alifbosiga ega. Tasviriy san’at voqealikni, borliqni shakllar, chiziqlar, ranglar, buyoqlar surtmasi orqali ma’lum bir tekislikda, yuzada, makonda va xokozalar ijodkor (xaykaltarosh va rassom) tomonidan tasvirlanadigan san’atdir. Shuningdek, tasviriy san’at maxobatli va dastgohli san’at ko’rinishlarga ega. Maxobatli deyilganda-hajm jihatdan bir necha barobar katta me’morchilik, me’morlik-yodgorlik san’atiga, shuningdek biron-bir badiiy muhitga mo’ljallangan tasviriy san’at asarlari tushuniladi. Dastgoh bu asosan erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratilgan asarlar tushuniladi, ularni xoxlagan joyga qo’yish, namoyish qilish mumkin bo’ladi.

Ajdodlarimiz tarixi bizdan qancha uzoq bo’lmashin va ularning diniy e’tiqodlari o’ziga xos bo’lganligidan qat’iy nazar biz bilan ularni bog’lab turadigan nozik ko’priklar bor. U xam bo’lsa, ular yaratgan ajoyib san’at namunalari, ularning ma’naviy qadriyatları, umumiylar dunyoqarashlarida insoniyat tafakurining uzviy rivojlanishiga o’z ta’sirini o’tkazib qolgan tushunchalari va bilimlaridir. Shuning uchun xam zamонавиyy rassomni har tomonlama tarbijalashda, shakllantirishimizda bunday o’tmish meros namunalariga murojat qilib turishimiz, ularni ta’lim jarayonida nafaqat o’tmish namunasi sifatida, balki uslubiy mukammal vositalar sifatida foydalanishimiz mumkin.

Eng qadimgi tasviriy san’atdan farqli o’laroq Markaziy Osiyo san’at maktabini Yunon san’ati bilan uyg‘unlashgan namunalaridan ko‘rish mumkin. Bu san’at maktabini Iskandar izi bo‘ylab shakllangan tasviriy san’at maktabi deb atashga asoslar bor. Ma’lumki, miloddan avvalgi 329-327 yillarda Iskandar qo’shinlari Markaziy Osiyo xududlarini makkorlik va xiyla bilan bosib olishgan. Yunon tili, madaniyati, san’ati dinini targ‘ib qilishgan. Natijada yunonlashtirish vujudga kelgan. Mahalliy xalqlar tasviriy va amaliy san’ati bilan yunonlar san’ati o’rtasida uyg‘unlashuv boshlangan, natijada yunon san’atiga xos xaykaltaroshlik, devoriy rasmlar, amaliy san’at namunalari paydo bo’lgan. Tasviriy san’at tarixida xalqlarning aloqalarini bog‘lab turgan Buyuk ipak yo’lining xam ta’siri katta bo’lgan. Xalqlar o’rtasidagi savdo-sotiqlar aloqalari, ulardagi xar xil asbob-uskuna, qimmatbaxo san’at namunalari orqali o’tishi natijasida tasviriy san’atning uyg‘unlashuviga olib kelishi tabiiy bir xol edi. Buyuk ipak yo’li orqali xalqlar o’rtasidagi aloqa tasviriy san’atni nafaqat uyg‘unlashuviga ta’siri bo’lib qolmasdan, bir-biridan andoza olib, boyib borishiga sababchi bo’lganini Kushonlar davrini o’rganish jarayonida guvohi bo’lamiz[2].

Tasviriy san’atning ilg‘or namunalari qadimgi madaniy taraqqiy etgan o’lkalar So‘g’diyona (Zarafshon va Qashqadaryo viloyatlari), Baqtriya (Surxondaryo, Janubiy-G‘arbiy Tojikiston, Shimoliy Afg‘oniston), Parfiya (Turkmanistonning Ashxabod viloyati, SHimoliy-G‘arbiy Eron), Choch (Sirdaryoning o’rta xavzasi, xozirgi Toshkent viloyati, Janubiy Qozog‘iston) shuningdek Qadimgi Xorazm, Qadimgi Farg‘ona hududlarida mavjud bo’lib kelganini ko‘ramiz. Qisqasi tasviriy san’at borasida bebaxo asarlarini har bir kishi bilishi lozim.

O‘zbekiston xududiga mansub qadimgi rangtasvir san’ati o‘ziga xos bebaxo namunalarga ega Afrosiyob rangtasvir san’ati, Beshiktepa rangtasvir san’ati, Varaxsha san’ati, kabi o’tmishdagi mashxur rassomlarning ish tajribasi, bilimi shuningdek pedagogik maxoratiga e’tibor qaratmoq lozim va bugungi musavvirlarning shakllanishida san’atimiz merosidan to‘g‘ri, unumli va ilmiy asosida foydalanishimiz joizdir.

Biz ajdodlarimizning madaniyati va san’ati sirlarini qanchalik o’rganar ekanmiz, ular qoldirlgan izlar aniqroq ko‘zga tashalanaveradi, qadimgi

manzilgohlar, ular yaratgan madaniy-ma’naviy meroslar haqida batafsil xikoya qilaveradi. Biz ularni yaqindan o‘rganib dunyoqarshimizni boyitishimiz va tarixiy dalillar asosida tasviriy san’at metodikasini yanada rivojlantirishga xissamizni qo‘sishimiz kerak. Miniatyura san’atiga kelsak, bu san’at avvalo qog‘oz bilan bog‘liq. Arab olimi Ibn Nadimning yozishicha, 87 xijriy (milodiy 706) yilda dastlab Samarqandga kelganlarida qog‘ozsozlik korxonalarini ko‘rib xayratga tushgan, deb yozib qoldirgan. Bunday ustaxonalar Xivada, Qo‘qonda, Buxoroda, Samarqandda, Toshkentda va boshqa joylarda mavjud edi. Xiva xoni Said Muxammad o‘z saroyida bir qancha xattotlarni, mohir naqqoshlar va rassomlarni to‘plagani ma’lum bo‘lib, u kitobga ixlos qo‘ygan kishi edi. Uning katta kutubxonasi bo‘lib, shu kutubxonada qo‘lyozmalar ko‘chirilar va bezatilar edi. Bundan tashqari Buxoro xoni Amir Olimxon saroyida xam mashhur kutubxona bo‘lib, unda juda ko‘p miqdorda kitoblar to‘plangan va hattotlar shug‘ullanganlar. Xiva maktabiga mansub Xudoybergan-Devon malakali usta soatsoz bo‘lib u bir qancha kitoblarni bezaganligi ma’lum. Buxoroda to‘g‘ilib o‘sgan shoir Axmad Donish (1827-29-1897) shoirlilik bilan birga hattotlik ham qilgan. Bir qancha qo‘lyozmalarni qayta ko‘chirib ularga miniatyuralar ishlagan. Buxoro muzeyida saqlanayotgan “Lazzati va Niso” kitobiga ishlangan 27 ta miniatyurasi juda ham xarakterlidir. Bu rassom ijodiy faoliyati yaxshi o‘rganilmagan, keng kitobxonlar bu rassom bilan yaqindan tanish emas. Uni shoir deb bilishadi. Tasviriy san’atning tarbiyaviy vazifalarini yuksak mutaxassislik tayyorgarligiga ega bo‘lgan musavvirlar tomonidan amalga oshirilishi, tarbiyaning yanada mazmunli bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Agar tasviriy san’at orqali tarbiya olib borilmas ekan, bunday ta’lim sinadi va o‘z ta’sirini yo‘qotadi[3].

Bunday ta’lim-tarbiyaning moxiyatini ulug‘ mutaxassislar, olimlar, shoiru yozuvchilar, musavvir-pedogoglardan K.Bekzod, Lutfiy, A.Jomiy, Z.Bobur, D.Samarqandiy, Xondamir, Kamoliddin Attor, A.Yassaviy, Abu Nasr bin Arron, Ulug‘bek, X.Abdulxay, Pir Said Ahmad va boshqalar juda yaxshi tushinishgan. Pir Said Ahmad va X.Abdulxay kabi rassomlar Samarqandda yashab ijod etgan va ularni Osiyo miniatyurachilari qatorida eslashimiz mumkin. 1398 yili yaratilgan miniatyuralar “Antigeologiyasi” o‘z mazmuniga egadir. Bu kitob Turkiyadagi davlat kutubxonasida saqlanmoqda. Turon (Qashqar)dan topilgan Moniy asarlari

Samarqand qog’oziga bitilganligini tadqiqotchilar tomonidan aniqlagan. Moniy qadimning mashhur rassomi bo’lgan. Uning asarlaridan namunalar topilgan “Xududul olam” (olam chegaralari) degan X asr grafik asarlarida yozilishicha, moniylar (Moniy ta’limoti tarafdozlari) ning Samarqandda obru e’tibori kuchli bo’lib, hijriy 372 (melodiy 682) yilgacha ijodlari orqali katta nufuzga ega bo’lganlar. Arxeologik yozma manbalarga asoslanib biz O’rta Osiyo miniatyurasining tarixi juda qadim-qadimlardan tarqalganini ayta olamiz. O’rta Osiyoda mashhur rassomlar, ustalar, naqqoshlar va haykaltaroshlar o’tganligini tarixiy faktlar asosida isbotlay olamiz va O’rta Osiyoda tasviriy san’at va miniatyura san’ati bo’lmagan degan ba’zi da’volarni asossiz ekanligini isbot qilamiz. Bizga ma’lumki O’rta Osiyoda rivojlangan madaniyat va san’at o’choqlari Arab, Mug’il bosqinchilari tomonidan yakson qilingan.

Albatta, Temur va Temuriylar davrida madaniyat juda ravnaq topib gullab yashnagan. XIV-XVI asrlarda Sharq mamlakatlarida, jumladan O’rta Osiyoda rivojlangan bu san’at XVIII-XIX asrlarga kelib ancha tushkunlik darajasini boshidan kechirdi. Bu davrda ya’ni XVI-XVII asrlarda Boburiylar tomonidan tashkil qilingan tamoyili yangi tasviriy san’at mакtabida O’rta Osiyolik mashhur miniatyurachi rassomlar etakchi rol o’ynaganlar[4]. “Boburiylar” miniatyura maktabiga asos solganlardan biri Mir Said Ali bo’lib, XVI-XVII asr Xind yozma manbalarida yozilishicha, u o’z zamonasining ko’zga ko’ringan mussaviri bo’lgan. Mir Said Ali Termizda tavallud topgan, musavvirlilik kasbini otasi, moxir rassom Mir Mansur yoki usta Mansurdan o’rgangan va tirikchilik taqozasi bilan Hindistonga borib qolgan. Bundan tashqari Hind miniatyura maktabida boshchilik qilgan O’rta Osiyolik Muhammad Murod, Muhammad Nodir Samarqandiylar va Farruhbeklarning o’z yurtini tashlab ketishlariga albatta O’rta Osiyo xonliklarining tarqoqligi va madaniyatning uncha qadrlanmasligidan dalolat beradi. Biz XVIII, XIX, XX asr boshlarida O’rta Osiyoda bir qancha hattotlik ustaxonalari, moxir musavvir ustalaridan biri Kamoliddin Bexzod to‘g’risida gapirar ekanmiz, u ijodiy faoliyatida Osiyoda tengsiz musavvir darajasiga ko’tarila olgan shaxsdir. Bexzod va uning shogirdlari tasviriy san’atni ommaviy darajada-jamiyat miqyosida ko’tarishga erishgan musavvirlardir. Ularning g’oyaviy tarbiyasiga qo’shgan xissasi esa o’ziga xos tasviriy san’at o’qitishning uslubiy shaklini qoldirganligida bo’lib,

hozirgi kunda ham o‘zining baxosini yo‘qotgan emas. U ustoz sifatida o‘z shogirdlarini formalizmdan yiroq tutishga harakat qiladi. Buni isboti esa Bexzodning o‘ta qobiliyatli, inson sifatida juda mumin-qobilligi Alisher Navoiy tomonidan juda yuqori baxolangan. Alisher Navoiyning va temuriylarning xomiyligi tufayli tasviriy san’at o‘ta talabga javob beradigan darajada rivojlangan. Miniatyura maktablari Sharqda juda rivojlangan bo‘lib, turli nomlar bilan ataladi. Misol, “Buxoro maktabi”, “Boburiylar” miniatyura maktabi, “Sheroz” maktabi, “Asfaxon” maktabi, “Yazd” maktabi, “Bag‘dod” maktabi, “Tabriz” maktabi kabi yirik tasviriy san’at markazlari mavjud bo‘lgan. Temur va Temuriylar davrida Samarqand o‘zining ravnaq topishi tufayli jahonni va G‘arbiy Evropa davlatlarini ham lol qoldirgan edi. Ammo Samarqand miniatyura maktabi to‘liq yoritilmagan. Sharqning “Rafaeli” xisoblanmish Kamoliddin Bexzod boshchiligidagi kamol topgan Xirot maktabining shakllanishida Samarqand miniatyura maktabining tutgan o‘rni muhimdir. Samarqand Temuriylar davrida ilm-fan, san’at ravnaq topgan davlatning poytaxti edi. Hirot maktabi Samarqanddek san’at va madaniyat o‘chog‘ining ajralmas bir qismi bo‘lgan. Samarqandga bostirib kelgan arablar ilk bor qog‘ozni Samarqand shahrida ko‘rishgan va lol qolishgan. Demak, Samarqand tasviriy san’at maktabi o‘ziga xos taxlilni kutib yotibdi. Ayniqsa “Samarqand devoridagi jang” asari (Turkiyada “Yulduz” kutubxonasi) saqlanmoqda[5]. Bu asarlarda Samarqand tasviriy san’at maktabiga xos portretlar aniqligi va tabiat manzarasini yorqinligi bilan miniatyuralarga o‘ziga xos uslub baxsh etgan. 1441-1442 yillarda noma'lum musavvirlar tomonidan Mirzo Ulug‘bek tasvirining yaratilish davri Xirot maktabidan xam avvalroq Samarqandda keng rivojlanganligining isbotidir. Ayniqsa, “Sohibqironning bo‘ladigan jang oldi majlisi” miniatyura asari diqqatiga sazovordir. Bu asarda Temur va uning ayonlarining surati chizilgan. Bu asarga “Xalil Mirzo Shoxrux” deb imzo chekilgan. Boburiy “Jaxongirning” guvohligida “Agarda tasvirda musavvir nomi aniq qilib yozilmaganda edi, bu asarni Kamoliddin Bexzod muyqalamiga mansub deyish mumkin edi”. Chunki bu ish uslubiy jihatdan Bexzod ijodiy maktabini eslatadi. Kamoliddin Bexzod faoliyatidan ancha avval yaratilgan bu asarning muallifi Xalil Mirzo Shoxrux o‘z navbatida ustoz Bexzodning ustozi bo‘lgan. Ammo Jaxongir ta’riflab ketgan bu asar xali chop etilmagan.

Xulosa qilib aytganda, Sharq miniatyura san'atining yetuk tasviriy san'at turi sifatida uning mazmuni, qoyasini badiiy estetik idrok etish jarayonida ularda tasvirlangan ijtimoiy xayot, tarixiy evalyusiyalar, personajlarning ichki dunyosi, adabiy asar miniatyura mualliflarini aks ettirayotgan voqeа va xodisalarga nisbatan ifodalangan o'zlarining falsafiy muloxazalari, qarashlari, bu voqeа va xodisalardagi etnik xususiyatlarni anglab yetish, baho berish va ular asosida o'z munosabatlarini amaliy, tasviriy ko'rinishda ifodalash muqim aqamiyat kasb etadi. Bu masalani bir tomoni. Yana bir muxim masala – o'quvchilarga Sharq miniatyura san'atining jaxon madaniyatida tutgan o'rni, Sharq miniatyura maktablari va markazlari, ularda mavjud bo'lgan badiiy umumiylilik va tafovutlarning sabablari, bu maktablarni zabardast vakillari xaqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Shuningdek, Sharq miniatyura san'atining mustaqil san'at turi sifatida shakllanish tarixi, uning san'atning boshqa turlari, xususan, adabiyot bilan boqliqligi, xar bir asardagi taraqqiyot darajalarini shu zamonni ijtimoiy - siyosiy va madaniy xayoti bilan boqliqligi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Norqulov N., Nizomiddinov I. Miniatyura tarixidan lavhalar. –T.: G.G'ulom nashriyoti, 1970. – B. 25
2. Sharq miniatyura maktablari: maqolalar to'plami. –Toshkent: Adabiyot va san'at. 1989. – B. 184.
3. Ashrafiy M. Temur va Ulug'bek davri Samarqand miniatyurasi. –Toshkent: G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1996. – B. 18
4. Abdullayev N. San'at tarixi. –Toshkent: O'qituvchi. 1987. –B. 27
5. Usmonov O va Madraximov A. Kamoliddin Behzod. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti., 2000. – B. 18
6. Abdurazzaqov Sh. Sharq miniatyura san'ati namoyondalar va maktablari tarixi. – Namangan, 2022. – B.16



## **LOYDAN YASALGAN MILLIY O’YINCHOQLAR TARIXI VA BOLALAR UCHUN MILLIY O’YINCHOQLARNI TARBIYAVIY AHAMIYATI**

***Maxsudova Yodgoroy Raxparali qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti dispecher*

*+998338551307, [yorginkulol@gmail.com](mailto:yorginkulol@gmail.com)*

**Annotatsiya:** ushbu maqola qadimgi loydan yasalgan milliy o’yinchoqlarimiz tarixi va usta Hamro rahimova haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek Milliy o’yinchoqlarimiz tarixini yosh avlodga anglatish. Bolalar milliy o’yinchoqlarimizni o’ynash orqali yosh avlodni axloqiy tarbiyasiga va milliy urfodat qadriyatlarimiz anglash uchun katta ahamiyatga ega.

**Kalit so’z:** dizayn, o’yinchoq, estetik, ideal, terakota.

**Аннотация:** данная статья содержит информацию об истории нашей национальной игрушки из древней глины и мастера Хамро Рахимова. А также объяснить подрастающему поколению историю нашей национальной игрушки. Играя в наши национальные игрушки, дети имеют большое значение для нравственного воспитания подрастающего поколения и понимания ценностей наших национальных традиций.

**Ключевое слово:** дизайн, игрушка, эстетика, идеал, терракота.

**Abstract:** this article contains information about the history of our national toys made of ancient clay and the master Hamro Rahimova. Also, to explain the history of our national toys to the younger generation. Children playing our national toys are of great importance for the moral education of the younger generation and for understanding the values of our national traditions.

**Key word:** design, toy, aesthetic, ideal, terracotta.

“O’yinchoq, avvalambor bolani hayratda qoldiradi  
va bu tuyg’u tushunishing boshlanishidir.  
O’yinchoq bolani atrof-muhit bilan tanishtiradi,  
ularni o’rgatadi, taassurotlarini mustahkamlaydi  
va muloqotga bo’lgan ehtiyojni qondiradi”.

**Buyuk rus olimi A. M. Gorkiy**

**Kirish:** Loydan yasalgan o'yinchoqlar kulolchilik bilan shugullanadigon ustalar deyarli qadimgi davrdan boshlangan loydan yasalgan o'yinchoqlar xalq ogzaki xalq ijodi bilan bog'liq bo'lib eng qadimgiy shaqlardan biri hisoblanib asarlar davomida xalq madaniyati bilan birga o'zgarib milliy xususiyatlar va o'ziga xosliqni o'ziga sindirib bordi. Xalq amaliy san'ati xalqning go'zaligi estetik va ma'naviy ideallarni haqidagi g'oyalarni umumlashtirdi. Loydan yasalgan o'yinchoqlar bilan birga urf odatlar va kundalik turmushning o'ziga xos xususiyatlari avloddan avlodga o'tib bordi. Islomgacha bo'lgan davrlarda kush shaklidagi o'yinchoqlar xalq irim sirimlariga binoan sexrli kuchga ega bo'lgan kushlar ko'rinishida ishlangan o'yinchoqlarni bazilarning qismiga yog' kuyish uchun maxsus idishlar ham o'rnatilgan ulardan nafaqat xushtak sifatida balki maxalliy mexroblar uchun chiroq sifatida ham foydalinishgan xayvon shaklining orqa tamonida yonayotgan olov yovuz ruxlarni qo'rkitish uchun xizmat qilgan bu shaklining faydo bo'lishi o'rta osiyoda zardushlik yashnagan ancha uzoq tarixga borib taqaladi bir faytlar bu xaykalchalalar oilaviy udumlarning bir qismi o'laroq xomiy-xayvonlar bilan bog'liq tumor sanalgan navro'zni nishonlash kunlariga yaqin o'yinchoq xushtaklarni ommaviy ishlab chiqarish boshlangan. Shoshma shosharlik bilan ishlangan xushtaklarni dexqon dalalariga yomgir yogishini so'rab chalishlari uchun bolalarga tarqatishgan. Xayvonlar shaklidagi xushtaklar sir bilan qoplanmagan Ammo xuddi dala bo'ylab sochilgan urug'larni eslatuvchi rang-barang ziraxollar bilan bezatilgan bu o'z o'rnila sermaxsul ishboshi kelajakdagi boy xosilning ramzi xisoblangan. Bu yasalgan o'yinchoq xushtaklar kam kuydirilgani uchun kamdan-kam xollarda keying bahor fasliga qadar omon qolgan har yili o'yinchoq xushtaklarni kaytadan yasashgan. Bu ishni asosan ayollar va keksa kulollar bajarishgan. Chunki katta xajmdagi loylarni fishirishga kuchi yetmaganlar. Vaqt o'tishi bilan fil, ot, va it shakllar kamroq uchrab ularning o'rnnini Xayvon yoki ajrarxo kiyofalari egallagan. Xayvon ko'plab boshqa jonzotlar a'zolarini mujjasam etgan it og'zi, ot tanasi va kuloqlari fil, oyoqlari ko'chkor shoxlari va ajdar toji bu xayoliy xayvon shakli sexrli tumorga aylangan. Shu tarika o'zbek ajdarxosi bizgacha yetib kelgan. Samarqandda olib borilgan qazishlar chogida bundan ming yillar oldin loydan yasalgan o'yinchoqlar topilgan Arxeloglarning qazishmalarda topilgan o'yinchoqlar bilan Xamro raximova yasagan o'yinchoqlarini kiyoslaganlaridagi

xayratni tasavvur qilish qiyin emas ular bir-biridan farq qilmas xuddi bitta usta tamonidan yasalgandek edi. Uba qishlogining o'yinchoqlari ularning shakli,xarakterli detallari va xatto ranglari ham muayyan meyorlar asosida ishlandi. Hozirda Muzey kolleksiyasida xar bir aloxida ajralib turuvchi uslublarga ega bo'lgan tanikli ustalarning xushtaklari ham saqlanadi.

Bu ustalar o'zbekistondagi uba qishlog'idan Xamro rahimova ( 1896-1979) o'yinchoq xushtakchalari yumshoq va noziq chiziqlari bilan alohida ajralib turadi o'yinchoqlari gajakdor shox va tojlar bilan bezatilagan ,cho'zilgan bo'yinlari va boshlari, konussimon oyoqlari bir-biriga xamohang ifodalangan afsonaviy xayvonlarga juda o'xshab ketadi. ushbu xaykalchalar odatda tuxum oqi bilan kizil, fushti va ko'k rangdagi kichik nuqtalar bilan bo'yalgan

o'yinchoqlar insoniyatga qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lib, ular arxeologlar tomonidan qadimgi sivilizatsiyalar qoldiqlarini qazish paytida topilgan. Hind sivilizatsiyasidan (miloddan avvalgi 3000-1500 yillar) qazilgan o'yinchoqlar orasida kichik vagonlar, qush shaklidagi hushtaklar va arqondan pastga sirpanib keta oladigan o'yinchoq maymunlar kiradi.G'ildirak ustidagi ot. Qadimgi Yunoniston, kulolchilik eramizdan avvalgi 950-900 yillar Eng qadimiy o'yinchoqlar mavjud tabiiy materiallardan, toshlardan, tayoqlardan va loydan qilingan. Ming yillar oldin misrlik bolalar tosh, sopol va yog'ochdan yasalgan pariklari va oyoq-qo'llari harakatlanuvchi qo'g'irchoqlar bilan o'ynashgan. Qadimgi Yunoniston va qadimgi Rimda bolalar mum va terakotadan yasalgan qo'g'irchoqlar, kamon va o'qlar, yo-yos bilan o'ynashgan. Gretsiyada bolalar, ayniqsa, qizlar voyaga yetganida, bolalik o'yinchoqlarini xudolarga qurban qilish odat edi. To'y arafasida o'n to'rt yoshga to'lgan qizlar o'yinchoqlarini balog'atga etish marosimi sifatida ma'badga olib kelishdi.sivilizatsiyaning texnologik taraqqiyoti bolalar o'yinchoqlariga ham ta'sir qildi. Bugungi kunda o'yinchoqlar plastmassadan tayyorlangan, batareyali o'yinchoqlar paydo bo'ldi. Agar ilgari o'yinchoqlar uy qurilishi bo'lsa, endi ommaviy ishlab chiqarish va tarqatish mexanizmlariga ega bo'lgan o'yinchoqlarning butun sanoati mavjud. O'yinchoqlar evolyutsiyasini qo'g'irchoqlar misolida kuzatish mumkin. Eng qadimgi qo'g'irchoqlar oddiygina yog'ochdan o'yilgan yoki o'tdan bog'langan. Qadimgi Misrda qo'g'irchoqlar allaqachon oyoq-qo'llarini harakatga keltirishlari mumkin edi. 20-asr boshidagi

qo'g'irchoqlar allaqachon "ona" deb aytishni bilishgan. Bugungi kunda ob'ektlarni, o'z egasining ovozini taniy oladigan va dastur tomonidan o'rnatilgan yuzlab variantlardan iboralarni tanlay oladigan qo'g'irchoqlar allaqachon mavjud. O'yinchoqlar va ularni ishlab chiqarish texnologiyalari o'zgargan. O'yinchoq asosan bolalar o'ynashi uchun yasalgan buyumdir. O'yinchoqlarni yasashda yog'och, gil, qog'oz va plastmassa kabi turli xil materiallar qo'llaniladi. Ba'zi o'yinchoqlar asosan kolleksionerlar buyumlari o'laroq ishlab chiqarilib, faqat namoyish etish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

O'yinchoqlar asosan kichik yoshdagilar uchun ishlab chiqariladi. Hozirga qadar ma'lum bo'lgan eng eski o'yinchoq bu qo'g'irchoq bo'lib, uning yoshi 4 000 yosh deb taxmin qilindi. O'yinchoqlarning turlari, xarakteri, mazmuni va dizayni bolalarning yoshiga qarab, ularning rivojlanishi va qiziqishlarini hisobga olgan holda aniq ta'lim vazifalari bilan belgilanadi. San'at va hunarmandchilik asarlari sifatida o'yinchoqlar, ayniqsa milliy-an'anaviy narsalar zamonaviy interyerda bezak elementlari sifatida ishlatiladi.

**Ma'lumot uchun:** O'yinchoq –maxsus ravishda bolalar o'yinlari uchun mo'ljallangan predmet undan foydalanish bolalar ong-bilim doirasini kengaytirishga, unda aks ettirilgan narsa va borliq hodisalariga qiziqisg uyg'otishga, mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi. O'yinchoqlar bilan o'ynaladigan birgalikdagi oyinlarda bollarda do'stona munosabatlar, o'z harakatlarini muvofiqlashtirish malakasi tarkib toptiriladi. Loy – qo'lbola o'yinchoqlar yaratishda yaxshi natija beradigan material. Bolalar undan odamchalar, hayvonlar, uy-ro'zg'or buyumlari yasaydilar. Pishirish – bu o'yinchoqlarni mustahkam qiladi, ulardan keng foydalanish, ularni boshqalarga sovg'a qilish imkonini beradi. Qo'lbola o'yinchoqlar bolalarning o'zlari yoki ota-onalar, tarbiyachilar tomonidan tayyorlanadi. Bu qo'g'irchoq ishlab chiqarish sanoati bo'limgan vaqtida, ko'pgina avlod bolalarining hamrohi bo'lgan. Bu o'yinchoqlar hozir ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Eng oddiy o'yinchoqni tayyorlash vaqtida bola fikr yuritadi, qiyinchiliklarni yengadi, muvaffaqiyatdan quvonadi. O'zining ijodiy, yaratuvchilik mehnati jarayonida u do'stlari bilan muomalada bo'lish yo'llarini axtaradi, ularga birgalikda o'ynashni taklif qiladi. Bunda faqat o'zi uchun emas, balki boshqalar uchun ham o'yinchoq yasashga tayyor

turish tuyg‘usining shakllanishi axloqiy tarbiyada katta ahamiyatga ega. O‘yinchoq bolalarda ong-bilim doirasini kengaytirishga, unda aks ettirilgan narsa va borliq hodisalarga qiziqish uyg‘otishga mustaqil fizrini rivojlanishiga yordam beradi. Bir donishmand bolalarga olam, o‘z mamlakati haqida bilim berish zarurligi to‘g‘risida gapirib, shunday degan ekan: Qiziqaqlar qilib, aql yugirtirib va sodda til bilan yozilgan kitob bo‘lsa, bunda bemalol erishish mumkin, ammo qiziqaqlar o‘yinchoq bilan bunga yanada osonroq erishiladi.

Maktabgacha va maktab davri bolalarga o‘yinchoqlar yasash katta ahamiyatga ega, u loy bilan o‘yinchoq yasaganda ko‘rib idrok etishni, xotirani, obrazli fikrlashni rivojlanishiga, qo‘l mehnati ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga yordam beradi. O‘yinchoqlar yasash tasviriy faoliyatning boshqa turlari singari estetik didni shakllantiradi. Loydan yasalgan o‘yinchoqlarda milliy urf odatimiz aks etgan bo‘lib navro‘z, ko‘pkari, bobo va buvi, turli xil ertak qaxramonlari mujassam etadi. Bolalar Bu yasalgan o‘yinchoqlarni o‘ynash orqali ular atrof-olam bilan tanishadi va uning go‘zaligini his qilishga, undagi rang barangligini tushinishga, ona tuproqqa, oilaga, tabiatdagi muvjudotlarga mehrni o‘rganadi. Usta kulollarimiz yasagan xushtak o‘yinchoqlar esa bolalar salomatligi uchun o‘rni muhimdir

I.Y.Ginsburg- o‘yinchoq yasash xuddi matematika fanlaridagi arifmetika kabi ro‘l o‘ynaydi. U predmet to‘g‘risidagi alifbosidir, u predmetni o‘qish uni bayon etishning dastlabki shaklidir. Bollarning hatto eng oddiy o‘yinchoqni yasash ham ijodiy jarayonidir, chunonchi loyning sharsimon bir bo‘lagi bolalarga kopto‘q, apelsin, olma kabi tuyiladi ish vaqtida bola loyni turli shaklga solib o‘ynar ekan uning yumshoqligidan, hajmliligidan zavqlanadi o‘zi yasagan shakllarga qarab xursand boladi, yasagan o‘yinchoqlaridan ertak tuza boshlaydi bu esa bolani nutqini rivojlaniradi, shu bilan birga bola loy va plastilinning turli xossalari anglab yetadi, hajmli shakl predmetning tuzilishi hamda nisbatlari bilan tanishadi, qo‘llari aniq harakatlantirish, ko‘zlar bilan to‘g‘ri mo‘ljal olishni o‘rganadi, unda konstruktiv qobiliyatlar shakllanib boradi. Loy bilan o‘yinchoq yasashning yana bir xususiyati uning turli o‘yinlar bilan uzviy bog‘liqdir. Bajarilgan figuraning hajmliligi bolalarni shu o‘yinchoq yordamida turli o‘yin harakatlariga rag‘banlantiradi, loy bilan o‘yinchoq yasashda o‘z xarakteriga ko‘ra bir tamonda

rivojlangan sezgi va idrokni talab qilsa, ikkinchi tamondan uning o‘zi sezgi idrokni rivojlantiradi. Real olamdagi predmetlarni bilishda ko‘rish yetakchi hisoblanadi, lekin bolalarda obrazlar shakllanishing dastlabki bosqichlarida sezish ko‘rish uchun tayanch bo‘ladi. I.M.Sechenov ta’kidlaganida qo’llar predmetning shaklini ko‘zga nisbatan boshqacharoq va to‘liqroq aniqlaydi. Agar faoliyatning bu turi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa loydan turli o‘yinchoqlar yasash bolalalarning sevimli mashg‘ulotiga aylanib qolishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda olamni anglash, o‘rganishga qiziqishni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning eng qulay va samarali turlaridan biri, shubhasiz, loy ishi – haykaltaroshlik mashg‘ulotlaridir. Bu turdagи mashg‘ulotlarda bolalarda ijodkorlik ko‘nikmalarini tarkib toptirish bilan bir qatorda mакtab ta’limida muhim ahamiyat kasb etuvchi qo’llarning mayda motorikasini rivojlantirish jarayoni kechadi. Shuning uchun ham haykaltaroshlik mashg‘ulotlarida muayyan didaktik vazifalar qo‘yiladi. Unga ko‘ra, haykaltaroshlik mashg‘ulotlarining maqsadi, birinchi navbatda, bolalarda ijodkorlikni shakllantirish, ularda haykaltaroshlik sohasiga oid texnik va ijodiy malakalarni tarkib toptirish orqali tasviriylashtirish san’atga, umuman go‘zallik namunalarini yaratishga qiziqish, rag‘batni tarbiyalashdan iborat.

**Xulosa:** Xulosa o‘rnida takidlash mumkinki, har bir millatning milliy o‘yinchoqlari tarixi bor bolalarga milliy o‘yinchoqlarimiz tarixini anglatish. O‘yinchoq bolani xursand qiladi, quvontiradi va atrof- muhitga ijobiy munosabatini uyg‘otadi. Qo‘g‘irchoq bilan o‘ynash bolalarda g‘amxo‘rlik, hurmatli munosabat.ehtiyyotkorlik, muloyimlikni uyg‘otadi va ijobiy axloqiy tajribalarni to‘plashga yordam beradi. Ota-onalar bolalarga o‘yinchoq sotib olishda Qiz bolalar uchun o‘zbek milliyligi aks ettirilgan qo‘girchoqalar sovg‘a qilish tavsiya etiladi. O‘gil bolalarga uchun asosan o‘zbek xalq ertaklari qahramonlari va ularning tabiatiga mos bo‘lgan milliy hushtak o‘yinchoqlarni sovg‘a qilish maqsadga muvofiq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Buvayev.V.S. (2023) Badiiy kulolchilikda ashyolarda ishlash. O‘quv qo’llanma
2. Ubaydullayev.M.A.(2023) DEVELOPMENT AND POPULARIZATION OF METHODS OF TEACHING STUDENTS OF THE DIRECTION OF FINE ARTS

THROUGH INFORMATION TECHNOLOGY. Евразийский журнал  
академических исследований, 3(2) 166-169

3. Ruzinov, B. A. (2022). Fargona vodiysi amaliy san‘ati. Journal of new century innovations, 10(3), 70-74.

4. Nuriddinov, B., & Ruzinov, B. (2021). Namangan, The City Of Flowers. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(01), 35-38.

5. Ruzinov, B. (2022). INTERDISCIPLINARY LINKS IN RESEARCH ON CULTURAL HERITAGE SITES AND ITS IMPACT ON THE YOUNGER GENERATION. Science and Innovation, 1(3), 167-172.

6. Ruzinov, B. (2022). INTERDISCIPLINARY LINKS IN RESEARCH ON CULTURAL HERITAGE SITES AND ITS IMPACT ON THE YOUNGER GENERATION. Science and Innovation, 1(3), 167-172.

8. Xalezova N.B. (1991) Bolalar bog‘chasida loy va plastilindan o‘yinchoqlar yasash. T: O‘qituvchi, 192b

9. Apuxtin O.K. Tasviriy san‘at darslari va samaradorligini oshirish

10. Abdullayeva. X.A. (2013) “maktabgacha ta’lim muassasasida loy va plastilindan o‘yinchoqlar yasash va ularning bolalar hayotida tarbiyaviy ahamiyati”.

11. Internet saytlari.

## **BADIY MATN TAHLILIDA MUSTAQIL TA’LIMGA INNOVATSION YONDASHUV**

*To‘ychiyeva Zulayho Hamraqulovna,  
GulDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasи o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada badiy matn tahlilida mustaqil ta’limga innovatsion yondashuv asosida matn tarkibidagi lug‘aviy birliliklarning lingvopoetikasi o‘rganilgan. Shu bilan birga she’riy matndagi sinonim, omonim, antonim so‘zlar, frazeologik birliklar va xalq maqollarining poetik aktuallashuvdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** innovatsiya, lingvopoetika, matn, she’riy matn, indeks, sinonim, omonim, antonim, frazeologizm, xalq maqollari, mustaqil ta’lim.

Jahonda rivojlangan davlatlar, jumladan, jumladan, AQSH, Finlandiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniyada ta’lim tizimiga alohida e’tibor berib kelmoqdalar, bizning mamlakatimizda ham ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimining bosh bo‘g‘ini sifatida oliv ta’lim tizimida o‘quv faoliyatini modernizatsiya qilish masalasi bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. Ta’lim jarayonini tashkil qilish va unda mustaqil ta’limning o‘rnini tahlil etar ekanmiz, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni tahlil qilish, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni asosida “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” qabul qilinganligi ayni mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilganligini e’tirof etish mumkin. Shu bilan birga, ta’limning mustaqil ta’lim shaklini talqin etilganligi bois, 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan yangi tartibdagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ham ta’limni tashkil etish shakllarini tahlil qilib, unda mustaqil ta’limning o‘rni va roliga alohida e’tibor qaratilganligi muhimdir. Mazkur Qonunda mustaqil ta’lim olish yakka tartibda amalga oshirilishi hamda ta’lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma’naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qilishi, oilada mustaqil ravishda ta’lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni berilishi davlat ta’lim muassasalarining tasdiqlangan o‘quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Tilshunoslik, xususan, o‘zbek tilshunosligi hozirgi darajaga yetguncha uzoq tarixiy rivojlanishni bosib o‘tdi. Shu davr mobaynida boshqa sohalar singari o‘zbek tilshunosligining barcha tarmoqlarida ilmiy izlanishlar olib borildi va fandagi yangiliklar hayotga tatbiq etilmoqda. Yaratilayotgan keng imkoniyatlar eshigi ushbu sohada yanada yangi izlanish va tadqiqot olib borishga zamin yaratayotganini Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning quyidagi

fikrlaridan ham bilishimiz mumkin: “Barchamizga ayonki, O’zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatdir. Bu salohiyatni yaratish va yanada ko’paytirishda hurmatli ziyorolarimiz – ilm-fan va texnika namoyondalari, birinchi navbatda qadrli va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san’at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz”.

Badiiy asar xalq tilini o’zining barcha imkoniyatlari bo‘yicha namoyon qila oladigan, yozuvchining mahorat darajasiga ko‘ra bu imkoniyatlarni to‘laligicha ishga solish mumkin bo‘lgan o’ziga xos maydondir. Bu imkoniyatlar cheksiz-chegarasiz bo‘lib, muayyan asarda uning ro‘yobi masalalarini o‘rganish, avvalo, yozuvchining badiiy til borasidagi mahoratini, qolaversa, xalq tilidagi ifoda vositalarining boyligini namoyish qilishga asos bo‘ladi.

Yangi davr kishini shakllantirishda badiiy asarga xos tasviriy vositalar, o’ziga xos xususiyatlar o‘quvchiga tushunarli bo‘lgan taqdirdagina uning tarbiyaviy ahamiyati, ta’sir kuchi to‘liq namoyon bo‘ladi. Buning uchun esa badiiy asar tilini lisoniy tahlil qilmasdan turib, ko‘zlangan maqsadga erishish qiyin. Shuning uchun badiiy asarlar tilini tahlil qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda “Badiiy matnning lisoniy tahlili” fanining o‘qitilishi talabalarning umumfilologik saviyasini oshirish, matn tahlili bo‘yicha bilimlarini kuchaytirishda ahamiyati katta bo‘lmoqda. Mazkur fan umumlashma xususiyatga ega bo‘lib, u tilshunoslik, adabiyotshunoslikdan olgan bilimlarni yangi ilmiy va uslubiy bosqichga ko‘taradi. O‘quv jarayonida quyidagi vazifalarning bajarilishini taqozo etadi:

1.Matn tiplari va turlari, ularni tahlil qilish metodi va prinsiplari bilan tanishtirish.

2.Har qanday matnning u yoki bu funksional uslub talablari asosida yaratilgan bo‘lishidan, bunda badiiy matnning o’ziga xos jihatlari borligidan xabardor qilish.

3.Til birliliklarining lisoniy va uslubiy xususiyatlarini farqlay olishga o‘rgatish.

4. Mazkur kurs bo‘yicha olingan nazariy bilimlarni badiiy asardan tanlangan matn tahlilida sinab ko‘rish.

Mustaqil ta’lim talabalarning bilim olishdan maqsadlari va shu maqsadlarga qanday erishishlari – mavjud o‘quv resurslaridan foydalangan holda amaldagi o‘quv dasturlari doirasidagi materiallarni qanday o‘zlashtirishlari bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilishlarini nazarda tutadi.

Talaba o‘zi anglashi va harakat qilishi, o‘qituvchi esa, o‘z navbatida, talabalarning tadqiqot olib borish ko‘nikmalari, o‘tilgan materiallarni yanada chuqurroq o‘zlashtirish uchun qo‘srimcha ma’lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashi lozim. Talabalarni mustaqil faoliyatni tashkil etishga va uni bajarishga o‘rgatish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Badiiy adabiyot tilini o‘rganish va tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy masalalari ko‘pdan buyon filologlarni qiziqtirib keladi. Chunki muayyan til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati kattadir.

Badiiy asar tilida keng qamrovli til birliklari -fonetik, leksik, grammatik va majoziy vositalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga, ijodkorning so‘z boyligidan o‘ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilishda qator tamoyillarga tayanib ish ko‘rish mumkin. Jumladan, “Badiiy matnning lingvistik tahlili” fani bo‘yicha “Lug‘aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari” mavzusini o‘rganishda quyidagicha yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi ana shunday tamoyillardan biri - lisoniy birliklar indeksini tuzishni talabalarga mustaqil topshiriq sifatida berishi mumkin.

Buning uchun talaba badiiy matnning lingvopoetik tahlili jarayonida asardagi lisoniy birliklarning indeksini tuzib chiqishi kerak bo‘ladi. Buning uchun dastlab, asardagi eng ko‘p qo’llanilgan, asar badiiyati uchun xarakterli bo‘lgan birliklar (masalan, iboralar, sinonimlar, antonimlar, epitetli birikmalar, metafora, metonimiya, okkazionalizmlar bo‘lishi mumkin) aniqlanadi. Keyin alifbo tartibida terib chiqiladi. Bu yozuvchining (shoirning) lisoniy mahoratini yoritishda faktik material vazifasini o‘taydi. Masalan, mohir so‘z san’atkori Erkin Vohidovning she’riyatida qo’llangan yuzlab ibora, xalq maqollari, ko‘chma ma’noli so‘zlar,

sinonimlar, antonimlar va omonimlar indeksini quyidagi tarzda tuzib chiqish mumkin.

### ***Frazeologik birlik:***

Ayt, qachon ko‘nglimga solding  
Ishq o‘tin, ey sohira,  
Dil o‘zi bog‘landimu, yo  
Bog‘lading jodu bilan?  
Men senga ko‘nglimni ochdim,  
Ha deb ayt, yo yo‘q deb ayt,  
Buncha qiynaysan dilimni,  
O‘rtama kulgu bilan.

### ***Xalq maqoli:***

Ko‘yida men tosh boshimni  
Urmagan ostona yo‘q.  
Elda bor shunday masal:  
Jon chekmasang jonona yo‘q.

### ***Yoki:***

Seving, deb she‘r bitib avval,  
O‘zim bo‘ldim asiri ishq,  
O‘zi tushgay emish oxir  
Birovga kimki qazgay choh.  
Bo‘libsan oshiq, Erkin,  
Uz umid jondin, o‘kinch qilmay,  
O‘zingga, deydilar, dushman  
Keyin chekkan pushaymon, oh.

### ***Metafora:***

Dilkusho do‘st, dilrabo yor-  
Birla kechgan dam shirin.  
Do‘stu yor birlan hayotu

Siynai olam shirin.  
Sevgining dardi faqat  
Beishq uchun begonadir,  
Ishqi yor bo’lsa firoq-  
Chekkanda hatto g’am shirin.

### ***Sinonimlar:***

Dilga oqsin baxtli umrim  
Kuy bo’lib, ohang bo’lib,  
Sen uning “Oromijoni”,  
“Gulyoru Shahnozi” bo’l.  
Orzu-istikdin-ku shodon  
Dilga bog’labsan qanot,  
Bu tilak osmonining  
Doim baland parvozi bo’l.

### ***Antonimlar:***

Barcha shodlik senga bo’lsin,  
Bor sitam, zorlik menga.  
Barcha dildorlik senga-yu,  
Barcha xushtorlik menga.  
Bu jahoning rohatin ol,  
Bor azobin menga ber.  
Senga bo’lsin barcha orom,  
Barcha bedorlik menga.

Topshiriqning shu tarzda qo’yilishi tadqiqotchiga induktiv metoddan foydalanish, ya’ni fakt, dalillardan qoidaga, nazariyaga borish imkoniyatini beradi. Bu esa, o’z navbatida, talabaga til birliklari haqidagi bilimlarni ongli o’zlashtirishiga keng imkoniyatlar ochadi.

Lingvopoetik tahlil har bir asarga individual yondashishni taqozo qiladi. Chunki lisoniy birliklar asarga alohida maqsad va badiiyat ehtiyoji bilan olib kiriladi. Shuning uchun har bir asar lisoniy jihatdan yaxlit butunlik deb qaraladi.

Tahlil asardan uzib olingan misol haqidagi mulohazalardangina iborat bo‘lib qolmasligi uchun har bir unsur asarning butuniga aloqador estetik yukni o‘zida aks ettirishini nazardan chetda qoldirmaslik muhim sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matn tahlilida talabalar tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ta’limning o‘rni beqiyosdir.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. ЎРҚ – 637-сонли “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. 2020-йил 23-сентябрь: <https://lex.uz/>.
2. ПФ-5847-сонли “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш Концепцияси” Фармони. 2019-йил 8 октябрь: <https://lex.uz/>.
3. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2016, 13-bet.
4. Vohidov E.Ishq savdosi.Saylanma. I jild.-Toshkent:Sharq.2000.
5. Yo‘ldoshev M.Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili.- Toshkent: Fan. 2006.
6. Yo‘ldoshev B., Qurbanov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari.- Samarqand: SamDU nashri, 2006, 18-24-betlar.
7. Samadov Q. So‘z va she’riy ifoda. - Guliston, 1994, 5-b.

#### **MILLIY USLUBDAGI LIBOSLAR YARATISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

##### ***Qahharova Husnida Dilmurod qizi***

*NamDPI, Texnologik ta’lim yònaliishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Özbek milliy liboslari hamda hozirgi kundagi zamonaviy liboslar haqida ma'lumotlar beriladi. Ayollar milliy kiyimlaridan nimcha misolida zamonaviy usulini yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Milliy, ayollar, erkaklar, nimcha, ko‘ylak, shim, yubka, andoza, kofta, Bibi hanum, ipak, shoyi, xonatlas, nimshoyi, beqasam, banoras, adres, estetik qadriyatlar, xulq-atvor normalari, dunyoqarash, axloq, diniy e’tiqodimiz, an’ana

**Аннотация:** Данна информация о национальных костюмах Узбекистана и современных костюмах. Разработаны рекомендации по созданию современного стиля женской национальной одежды.

**Ключевые слова:** Национальный, женский, мужской, нимча, рубашка, брюки, юбка, модель, блузка, госпожа Биби, шелк, шелк, домашний атлас, нимшойи, бекасам, банорас, адрес, эстетические ценности, нормы поведения, мировоззрение, мораль, наши религиозные убеждения, традиции.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.06.2023 yildagi Farmoni bilan "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PF-91-son farmonida.

Mamlakatimizda hunarmandchilikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususan hunarmandlarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, ularni zarur xomashyo va moliyaviy resurslar bilan uzlucksiz ta’minlash, hunarmandchilik mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun infratuzilma yaratish va bozorlarni kengaytirish hamda aholini hunarmandchilikka keng jalb etish maqsadida qabul qilindi.

Xalqning kiyim-kechaklaridagi o‘zgarishlar, asosan, XX asr boshlarida sezilarli ravishda namoyon bo‘ldi va undagi transformatsiya asosan, shaharlarda ochiq ko‘zga tashlanadi. XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyoga Rossiyadan ip gazlama va boshqa matolarning keltirilishi sababli XIX asr oxiri va XX asr boshida mahalliy aholi orasida asosan fabrikada tayyorlangan ip gazlamalar: chit, bo‘z, xom surpdan tikilgan kiyim-kechaklarni kiyish odatga aylangan. Boy-badavlat kishilar esa ipak, atlas, duxoba, rang-barang movutlarni sotib ola boshlaganlar.

Shunga qaramay, kosiblar dastgoxidan chiqqan mahalliy gazlama: mato, bo‘z, nimshoyi kabi gazlamalar (adras, beqasam, shoyi, xon atlas, katak shoyi kabilar) ning turli xillariga ehtiyoj katta bo‘lgan.

Buxoro, Samarqand, Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan va boshqa shaharlarda an’anaviy o‘zbek ipak (shoyi, xonatlas), nimshoyi (beqasam, banoras, adras) gazlamalardan tikilgan turfa kiyimlar boy-badavlat kishilar orasida urf bo‘lgan.

Formuladan ko'rinib turibdiki qandning bir qismi  $\text{CO}_2$  gacha oksidlanib, qolgan qismi spirtgacha qaytariladi. Bu jarayonda  $\text{O}_2$  kirib kelasda, qandning parchalanishi o'z molekulsidagi  $\text{O}_2$  ning qayta taqsimlanishi hisobiga amalga oshadi. Qandlar to'liq parchalansa 686 kkal energiya ajraladi, anarob nafas olishda 48 kkal energiya ajraladi. Spirt molekulasida katta miqdorda potensial energiya qolib ketadi. Chunki oksidlanish jarayoni oxirigacha bormaydi. O'simliklar uzoq vaqt anaerob nafas olib yashay olmaydi. Bunday sharoitda ular nobud sabab hosil bo'lgan spirtdan zaharlanib nobud bo'ladi. Anaerob nafas olish o'simliklar uchun vaqtincha hisoblanadi. Anaerob nafas olishda o'simliklardagi spirtli bijg'ish kabi jarayon boradi. Bu jarayonda qator fermentlar ta'sirida oraliq moddalar hosil bo'ladi ya'ni pirouzum kislota  $\text{CO}_2$  va spirtga parchalanadi. Aerob sharoitda esa pirouzum kislota  $\text{CO}_2$  va  $\text{H}_2\text{O}$  gacha parchalanadi. Kislorodli nafas olish jarayonida juda katta miqdorda energiya ajrlib chiqadi va ular ATF molekulalarida to'planadi. Ikki molekula sut kislotani kislorodli sharoitda to'liq parchalanishida 36 molekula ATF hosil bo'ladi. Hujayrani energiya bilan ta'inlashda aerob nafas olish asosiy vazifani bajaradi.

$\text{CO}_2 + \text{C}_2\text{H}_5\text{OH} \rightarrow$  kislorodsiz muhitda parchalanishdan hosil bo'lgan mahsulotlar.

$\text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow$  kislorodli muhitda parchalanishidan hosil bo'lgan mahsulotlar.

Nafas olishdagi umumiy reaksiyalar;



Hayvonlarda glukoza iste'mol qilyotgan mahsulotlardan sintezlanib va u ham  $\text{CO}_2$  va  $\text{H}_2\text{O}$  gacha parchalanadi.

### **NAFAS OLISHDA TASHQI MUHIT TA'SIRI**

Nafas olish intensivligi o'simliklar gulida yuqori bo'lib, harorati ichida ko'tarilib, atmosferadagidan  $12^{\circ}\text{C}$  ga oshishi kuzatilgan. O'sayotgan urug'lara nafas olish intensivligi yuqori bo'ladi. Qatqaloq tuproqda o'simliklar ildizlari nafas olish jarayoni qiyinlashadi va o'simlik nobud bo'lishiga olib keladi. Bu jarayonni oldini olish uchun vaqt vaqt bilan o'simlik tuproqlarini yumshatib turishi kerak. Nafas olishda harorat katta ta'sir ko'rsatadi. Haroratning nafas olishdagi pastki

chegarasi o’simliklarda 0° dan pastbo’ladi. Masalan; ignabarglilarda -20-25 °C da ham nafas oladi. Nafas olish intensivligiga o’simliklar hujayrasidagi suv miqdori ta’sir etadi. Misol qilib, barglarning namligi pasaytirilsa, nafas olish kuchayib, suvsizlantirilganda susayadi. Urug’lar quruq havoda nafas olish sust bo’ladi, ularning namligi oshirilsa nafas olish kuchayadi. Don davrida ulardagi namlik kamayishi bilan nafas olish intensivligi ham pasayadi. Bunda suvnin miqdori kamayib (16 %), nafa olish intensivligi pasayadi, chunki don tarkibidagi suv kolloid zarrachalar yordamida qattiq ushlanar ekan. O’simliklarga zaharli moddalar ta’sir etsa, nafas olish susayib, so’ngra nobud bo’ladi. Zaharli moddalar oz miqdorda bo’lsa nafas olish jarayoni yaxshilaydi. O’simliklar shikaslanganda nafas olish intensivligi ortadi. Bu ularning himoya reaksiyasi hisoblanadi. Yorug’lik- quyosh nuri ta’sirida o’simliklarda nafas olish intensivligi ortadi. Bunda yorug’lik assimilyatorligini to’plab nafas olish intensivligiga ta’sir ko’rsatadi. Atmosferadagi kislorod miqdori o’simliklarning nafas olish uchun yetarli ta’sir qiladi. Kislorod miqdori normal holatda 21 % bo’lsa, o’simliklarning nafas olishi uchun yetarli hisoblanadi. Kislorod miqdori 5 % dan kamaysa, o’simliklarning nafas olishi qiyinlashib, anaerob nafas olish boshlanishi mumkin. Tuproqdagi kislorod miqdori 7-12 % bo’lganda o’simliklarning ildizi va ildizmevalari normal nafas oladi. Botqoq tuproqlarida kislorod miqdori kam bo’lib, nafas olishga yetarli bo’lmasligi mumkin. Bunday holatda anaerob nafs olish boshlanib, zaxira kislorod tugagandaan keyin o’simliklar nobud bo’ladi.

## **DON VA ZABZAVOTLARNI SAQLASHDA NAFAS OLISHNING AHAMIYATI**

Don va sabzavotlarni saqlashda asosiy sharoit (harorat, havo namligi va boshqlar) hisobiga olinsa, nafas olish kuchayib, ularning quruq moddasi kamayib ketishi kuzatiladi. Buning uchun nafas olishni minimumga tushirish shart. Saqlanadigan asosiy omillardan harorat va suvning sabzvot va mevalardagi suv miqdori boshqarilishi kerak. Donni saqlashda namligini boshqarish shart bo’lsa, sabzavot va mevalarda haroratni boshqarish kerak bo’ladi. Don tarkibida 10-12 foiz suv bo’lishi kerak, bunda nafas olish intensivligi minimumga ega bo’ladi. Haroratning ko’tarilishi bilan nafas olish intensivligi patyoishig sabab, hujayralarning shikastlnishi va fermentlarning buzilishidir. Yuqori namlikda nafas

olish kuchayib, don tarkibidagi zaxira modalarni yoqotish kuzatiladi. Donni nafas olishda issiqlik energiyasi ajralib, ular qizib ketish kuzatiladi va nafas olishi kuchayib, don qorayib, unib chiqishi yomonlashishi mumkin. Meva va sabzavotlarni saqlashda o’zgacha sharoit talab qilinadi, chunki ular tarkibidagi suv miqdori 70-95 foizni tashki qiladi. Sabzavot va mevalarni saqlashda asosan haroratni 0 °C da nafas olish juda bo’ladi, harorat ortishi bilan kuchayadi.

## XULOSA

Barcha tirik mavjudotlar borki O<sub>2</sub> ga muhtoj hisoblanadi. Suv muhitida yashovchi jonzotlar suvda erigan kislorod bilan (jabra) orqali nafas oladi. Quruqlikda yashovchi organizmlar tana yuzasi yoki o’pkasi orqali, nafas olish jarayoni kechadi. Kislorodsiz tirik organizm yashashi qiyin hisoblanadi. Ko’p insonlar o’simliklarni fotosintezdan, hayvonlar esa havodan nafas oladi deb o’ylashadi. Aslida o’simliklar ikkalasini ham amalga oshiradi. Dastlab o’simliklar glukoza hosil qilish uchun va tabiatga O<sub>2</sub> ishlab chiqarish uchun fotosintez jarayonini amalga oshiradi. Hayvonlar fotosintez qilishning hojati yoq, chunki ular glukozani iste’mol qiladiga ovqatidan oladi. Tabiatda asosan O<sub>2</sub> manbayi yashil o’simliklar hisoblanadi va buning natijasida kislorod va karbont angidrid ya’ni gaz almashinuv jarayonini boshqaradi. Nafas olishga ham antropogen omillar 2 xil ta’sir ko’rsatadi: ijobiy va salbiy.

Ijobiy tomondan yondashsak nafas olish murakkab tizim bo’lib u karbonat angidrid chiqindilarini olib tashlash bilan birga tanani doimiy kislorod bilan ta’minlaydi. Ijobiy ta’sirlarga quydagilarni misol keltiramiz:

- 1) Atrof muhitni chiqindilardan muhofaza qilish;
- 2) Korxonalar joylashgan shahar joylarga daraxtlarni ko’plab ekish.

Hozirgi kundagi global muammolardan biri orol dengizini qurishi va Orol bo’yi hududlarda tuzning uchib yurushi insonlar orasida nafas yo’li allergelik kasallik astma hastaligini keltirib chiqaradi. Bu vaziyatni oldini olish uchun astma xastaligiga turli dori vositalar va preparatlar tayyorlash va orol dengizi qurib qolgan qismiga saksavulni turli navlarini ekish zarur. Biz yoshlar bu muammolarni hal etishga o’zimmizni hisammizni qo’shishimiz va bu salbiy oqibatlarni oldini olishimiz zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdulkarimov A, G‘ofurov A. T., Nishonboyev K.N. va boshq. Biologiya: Akademik litsey va kasb-hunar kollej lari o‘quvchilari uchun darslik // Mualliflar jamoasi: — T.: «Sharq», 2014. — 275 b.
2. Najimov A.U. Gomoyoterm va poykiloterm hayvonlarning to‘qima hujayralari bioenergetikasi, funksional faolligi va ularga flavonoid birikmalarining ta’siri: b.f.f.d. PhD dissert. – Namangan, 2023. – B.12.
3. Ikromov M. I., Normurodov X. N. Yo’ldashev, A. S. “Botanika” “O’zbekiston”- 2002. TOSHKENT
4. Sagdiyev M.T. Alimova R.A., “O’simliklar fiziologiyasi”. “YANGIYUL POLIGRAPHSERVICE” 2007. TOSHKENT
5. Pratov O’, To’xtayev A. S., Azimova F. O’, Saparboyev I. Z., Umaraliyeva M. T. darslik uchun qo’llanma. - “O’zbekiston”-2017.

**BOSHLANG‘ICH VA UMUMIY O’RTA TA’LIM O‘QUVCHILARI UCHUN  
INGLIZ TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN  
KENG FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**

***Navbahor Nabiyeva Botirali qizi***

*Namangan State Pedagogical Institute faculty of Foreign Language and Literature*

*Tel: +998940804828*

*E-mail: [nabiyevanavbahor77@gmail.com](mailto:nabiyevanavbahor77@gmail.com)*

**Annotation.** Ushbu maqolada bugungi global makonda ta’lim sohasi uchun, chet tillarini o‘rganish ko‘nikmasini oshirish uchun juda ham zarur bo‘lgan innovatsion texnologiyalar, interaktiv usullar, shuningdek, ularni qo’llash metodologiyalari haqida batafsil to‘xtalib o’tilgan. Kompyuter va mobil tarmoqlardan foydalananish madaniyati to‘g‘risida ham ma’lumotlar berilgan.

**Annotation.** This article provides a detailed discussion of the innovation technologies, interactive methods and utilization methodologies that are crucial for today’s global education sector. Information about the culture of using computers and mobile networks is also provided.

**Аннотация.** Эта статья подробно рассматривает инновационные технологии, интерактивные методы и методологии их применения, которые являются крайне важными для современной глобальной образовательной сферы. Также предоставляется информация о культуре использования компьютеров и мобильных сетей

**Kalit so’zlar:** Axborot texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar, interaktiv ta’lim dasturlari, Google Docs, Microsoft Teams, Zoom, mobil ilova, virtual o’qish, sotsial tarmoqlar.

**Key words:** Information technology, innovative technologies, interactive learning programs, mobile applications, virtual learning, social networks.

**Ключевые слова:** Информационные технологии, инновационные технологии, интерактивные образовательные программы, мобильные приложения, виртуальное обучение, социальные сети для образования.

Bugungi kunda zamonaviy axborot-texnologiya vositalaridan har bir sohada foydalanish bugungi davr talabiga aylanib ugurdi desak, to’g’ri bo’ladi. O’z navbatida, innovatsion texnologiyalarni ta’lim tizimi jarayonlariga jalg qilish orqali darsning samaradorlik koefitsiyentini yanada oshirishga olib keladi. Bu borada boshlang’ich va umumiy o’rta ta’lim sinflarda ingliz tilini o’rganish uchun innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish istiqbollari mavjud. Bu texnologiyalar o’quvchi qiziqishlarini oshirish, o’rganish jarayonini qiziqarliroq va interaktivroq qilish hamda o’quvni o’zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratishga yordam beradi, Quyidagi innovatsion texnologiyaladan boshlang’ich sinf o’qutuvchilari ingliz tili darslarida foydalanishi mumkin:

1. Interaktiv ta’lim dasturlari. Masalan, interaktiv darslar va onlayn ta’lim platformalari, o’quvchilarga va talabalarga o’zlarini o’rganish va o’zlashtirish imkoniyatlarini beradi. Interaktiv ta’lim dasturlari, o’quvchilarining o’zlashtirishni oshirish osonroq bo’lgan o’zlashtirish usulidir. Ushbu dasturlar orqali o’quvchilar o’zlaridagi ingliz tilini amaliy ravishda mustahkamlashlari mumkin.

2. Onlayn resurslar. Internet o’quvchilarga keng imkoniyatlar taqdim etadi. O’quvchilar onlayn platformalar, veb-saytlar, elektron kutubxonalar orqali ingliz

tilini o'rganishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Bu usul o'quvchilarning o'ziga qulay vaqtida tilni o'zlashtirishlari uchun imkon yaratadi.

3.Mobil ilovalar. O'quvchilarning ingliz tilini o'rganishini osonlashtiradi. O'quvchilar, mobil ilovalar yordamida gaplashish, lug'atlar, grammatika qoidalari va o'quv testlari bilan mashg'ul bo'lishlari mumkin.

4.Kollaborativ o'rganish vositalari.Telehamkorlik va jamoa bilan ishslash platformalari, masalan, Google Docs, Microsoft Teams va Zoom talabalarga birqalikda ishslash, ma'lumot almashish va ish yurgizish imkoniyatlarini beradi.

5.Mintaqaviy o'quv.Virtual o'qish imkoniyatlari o'quvchilarga dunyo bo'ylab bir-biriga bog'liq bo'lishlarini ta'minlaydi. Video-konferensiylar, onlayn muloqotlar va global hamkorlik platformalari orqali o'quvchilar boshqa mamlakatlardagi o'quvchilar bilan ingliz tilida muloqotlashishlari va o'zlashtirishlari mumkin.

6.Tashqi bog'lanishlar. Sotsial tarmoqlar, forumlar va onlayn jamoalar o'quvchilarga ingliz tilida muloqotlashish va tilni o'zlashtirish imkonini beradi.

O'quvchilar o'z tengdoshlari bilan mavzular bo'yicha muloqotlashishlari va fikrlarini almashtirishlari mumkin.

Yuqoridagi ushbu dasturlar o'quvchilarga texnologiyalardan foydalanishning yanada keng imkoniyatlari haqida kerakli ma'lumot berishga yordam beradi. Bu innovatsion texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va qiziqishni oshiradi, avvalgi metodlarni yanada samarali qiladi va o'quvchilar bilimlarini amaliyatga o'tkazish imkonini beradi. Bu jarayonlar orqali o'quvchilar tezroq va samarali bir tarzda ingliz tilini o'rganishlari mumkin. Bundan tashqari dars jarayonida yangi usuldagagi metodlardan foydalanish ham talaba-yoshlarning ingliz tili o'rganish jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatini beradi,ya'ni „baliq skeleti”, „venn diagrammasi”, „klaster”, „aqliy hujum”, „savol-javob”, „rolli o'yinlar” kabi metodikalar hamda komikslar orqali tushuntirib,dars o'tish o'qituvchi uchun ham birmuncha yengilliklar olib keladi. Ushbu metodlarning har birining qo'llanilish uslubi va ta'sir etish holatlari bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, savol-javob metodini oladigan bo'lsak, bu metod har qanday yoshdagi talaba-o'quvchilarni o'rgangan bilimini yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratib, fikrlash jarayonida topqirlikka undaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida” gi PQ-1875-son qaroriga muvofiq chet tillarni o‘rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg‘or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to‘liq javob bermayapti. Ta’lim, asosan, an’anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o‘rganishni tashkil qilish, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minalash, yanada takomillashtirilishini taqozo etadi.

Xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish jarayonlarida bugungi kunda zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanish ommalashib bormoqda. Ayniqsa, multimedia vositalari orqali ingliz tilini boshlang‘ich sinflarda o‘qitish dars samaradorligini hamda o‘quvchilarda ingliz tilini o‘rganishlarida bir qancha qulayliklarni keltirib chiqaradi. Chunki yosh o‘quvchilar o‘yin o‘ynash, zamonaviy multimedia vositalaridan video, multfilm, kino, qiziqarli qo‘shiqlar tomosha qilishga qiziqishlari tabiiy. Har qanday tilni o‘rganish uchun ma’lum til ko‘nikmalariga amal qilgan holatda o‘rganish talab etiladi. Ya’ni tinglash(listening), o‘qish(reading), yozish(writing) va gapirish(speaking) kabi tilni baholash ko‘nikmalari mavjud va bu to‘rtala ko‘nikmalar o‘rganuvchidan o‘z-o‘zidan yangi innovatsion texnologiyalar orqali o‘rganishni talab etadi. Avvalo, innovatsion texnologiyalar nima o‘zi degan savolga javob topsak? „Innovatsiya” atamasi lotinchcha „novatio” so‘zidan olingan bo‘lib, „yangilanish” (yoki „o‘zgarish”), „in” qo’shimchasi esa lotinchadan „yo’nalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit „Innovatio” ko‘rinishida tarjima qilsak - „o‘zgarishlar yo’nalishida” deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi bo‘lib XIX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo boldi.

Y. Shumpeter ushbu termini iqtisodda 1900-yillarda ilmiy qo’llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. Darhaqiqat, ushbu so‘zni oldin hech qayerda va hech kimdan eshitmaganmiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy, innovatsion texnologiyalar orqali har qanday tilni hech qanday qiyinchiliklarsiz va tez muddatda o‘rganish mumkin. Bu borada innovatsion ta’lim texnologiyalaridan

foydalanimish o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi. Maqolada ko‘rib chiqilgan innovatsion usullar, turli metodikalar va amaliyot shuni ko‘rsatadiki, an‘anaviy o‘qitish usullaridan ko‘ra, zamonaviy ta’lim dasturlari va vositalaridan foydalanimish ta’lim jarayonlariga hamda o‘rganuvchiga bir qancha imkoniyatlarni yaratib beradi. Bunga qo‘srimcha qilamizki, ta’lim jarayonlarida zomonaviy texnologiyalardan foydalanimish ham yoshlarning tilga bo’lgan umumiyligini qiziqishlarini oshirishga hamda ularning kompyuterda ishlash ko‘nikmasini ham rivojlantirib, taraqqiyotga hissasini qo’shmay qolmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. <https://lex.uz/docs/-2126032>
- 2.N. Yuldasheva va M. Xasanova „Chet tillari o‘qitishning innovatsion usullari tarjimashunoslik va filologik, tadqiqotlarda zamonaviy yondashuv” | | 2022.
3. Chet tilidagi ta’lim nazariyasi va texnologiyalari kabi usullar.-Mup „Tipografiya” G.Eltsa,2010-yil.
4. Chet tilini o‘qitish metodikasi, Muhammadjon Hodjaev, Mavluda Qahhorova, 2012-yil, ISBN raqami: 978-9943-10-716-8
5. Chahalaeva I.I. Chet tilidagi nutqni o‘rganish nazariyasini o‘rganish asoslari(Tarjimonlar tayyorlash).-m: Oliy maktab,1989-yil.

### **TEXNOLOGIYA FANINI MASHG’ULOTLARINI O’TKAZISHDA STEAM YONDOSHUVIDAN FOYDALANISH.**

***Begmatova Nigina Salimjon qizi.***

***NamDPI. Texnologik ta’lim yonalishi***

***1-kurs talabasi***

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) texnologiyalarini umumta’lim maktablari texnologiya fani mashg’ulotlarida joriy etishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Unda STEAMni maktabdagi fanlarini integratsiyalashning afzalliliklari muhokama qilinadi, texnologiyani amalga oshirish strategiyalari taklif etiladi, shuningdek

*muvaffaqiyatli amalga oshirish natijalari taqdim etiladi va texnologiya fani mashg’ulotlarida STEAM texnologiyasini joriy etish bo`yicha ma`lumotlar beriladi.*

**Kalit so’zlar:** STEAM texnologiyasi, texnologiya fani, amaliy ta’lim, interfaol ta’lim, STEM ta’limi, fanlar integratsiyasi, ijodkorlik, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash.

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются эффективные способы внедрения технологий STEAM (наука, технология, инженерия, искусство и математика) на уроках технологий в средней школе. В нем обсуждаются преимущества интеграции STEAM технологий с школьными предметами,лагаются стратегии внедрения технологий, представлены результаты успешного внедрения, а также предоставляется информация о внедрении технологии STEAM на уроках технологических наук.

**Ключевые слова:** технология STEAM, предмет технологии, практическое образование, интерактивное обучение, STEM-образование, интеграция предметов, креативность, решение проблем, критическое мышление.

**Abstract:** This article explores effective ways to integrate STEAM (science, technology, engineering, arts, and mathematics) technologies into high school technology classes. It discusses the benefits of integrating STEAM technology into school subjects, suggests strategies for technology integration, presents results of successful implementation, and provides information on integrating STEAM technology into technology classrooms.

**Key words:** STEAM technology, technology subject, practical education, interactive learning, STEM education, subject integration, creativity, problem solving, critical thinking.

Umumta’lim mablag’i bilimini boyitish, amaliy mashg’ulotlarda kasbiy ko`nikmalarini shakllantirish bugungi kundagi ta’lim olishga erishishdagi imkoniyatlaridan keng foydalanish ta’lim va tarbiya jarayonining alohida amaliy ahamiyatini aks ettiradi. Bu ta’lim va ishlab chiqarish o`rtasidagi bilvosita aloqadorlikni ta`minlanish maqsadida eng muhim talablarni shakllantiradi. Bu bevosita ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash hamda aloqalar tizimida

pedagogik texnologiya, didaktik jarayonlar, zamonaviy o`qitishning STEAM texnologiyalaridan keng foydalanishning yangi usullarini ishlab chiqishga nisbatan bir qator talablarni shakllantiradi. Shunday ekan umumta'lif maktab texnologiya fani mashg'ulotlarida "STEAM" ta'lifidan foydalanish bugungi kun dolizarb masalalaridan biridir.

Ta'lifda STEAM yondashuvi umumta'lif maktablarida sinf-dars tizimidan loyihaviy faoliyatga tomon o'tish, fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko'chirish, ularni amaliyotda faol qo'llash jarayoni orqali fanlar integratsiyasi, kesishmasida muammolar yechimining yangicha yo'llarini izlash, lozim topilsa, kashf etishga yo'naltirish kabi vazifalarni qo'yadi.

Biz birinchi STEAM nimaligini bilishimiz kerak. STEAM bu S-science, tabiiy fanlar T-technology texnologiya E-engineering injineriya ya'ni muhandislik A-art ya'ni san'at M-math matematika so'zlarining bosh harflaridan tashkil topgan.

STEAM yondoshuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi? Bunda o'quvchilar mavzularini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi uchun aqliy hamda jismoniy ishlashni talab qiladi va ular bilim va ko'nikmalar hosil qiladilar. STEAM yondoshuvi bizning ta'limga bo'lgan qarashimizni qanday o'zgartiradi? Bunda o'quvchi yoki talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashunchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rgatadi

STEAM ilk bor Amerikada ishlab chiqilgan. Buni ishlab chiqishga sabab ba'zi maktab bitiruvchilarining mehnatlarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qabul qilishdi. Keyinchalik bunga Art ya'ni san'atni qo'shishdi va STEAM oxirigacha shakllandi. STEAM-yondoshuvining eng mashhur namunasi-Massachussts Texnologiya instituti (MIT) Ushbu dunyo universitetining shiori "Mens et Manus" (Aql va qo'l)

STEAM-yondoshuvining ta'lif jarayoniga tadbiq etishdan maqsad yaqin kelajakda yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog'liq kasblarga ega bo'lish, ayniqsa bio va nanotexnologiyani rivojlantirishdir.

### **STEAM ta'lifining afzalliklari.**

1. Ta'lif berishning o'quv fanlari bo'yicha emas, balki "Mavzular"bo'yicha integratsiyalab oladi.
2. Ilmiy texnik bilimlarni real hayotda qo'llash.

3. Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish.
4. O‘z kuchiga ishonch hisini uyg‘otish.
5. Faol kommunikatsiya va jamoada ishlash.
6. Texnika fanlariga bo‘lgan qiziqishni ortishi.
7. Loyihalarga kreativ va innovatsion yondoshuv.
8. Ta’lim va karyera orasidagi ko‘prik.
9. O‘quvchilarning texnologik innovatsion hayotga tayyorlash.

Endi STEAM-yondoshuvini Texnologiya fanining mashg’ulotlariga joriy qilsak. 7-sinf Texnologiya fanini Texnologiya va dizayin yo’nalishi, Yog’ochga ishlov berish texnologiyasi bo’limida 4-amaliy mashg’ulotni o’tkazishda ko’rib chiqamiz.

Bunda, Tokarlik stanogida shakldor, konus va slindr yuzali buyumlar tayyorlash nazarda tutilgan. Masalan, egov dastasi, jo’va, chekich, xontaxta oyoqlari, yelpig’ich dastasi va shunga o’xshash shakldor buyumlar.

Tayyorlanadigan (chekich) buyumga mos material tanlash lozim bo’ladi.

Yog’och materiallar quruq, ko’zsiz va yorilmagan bo’lishi shart. Chekich Tol, terak, tut, akatsiya, chinor shoxlaridan olingan g‘o’lalardan tayyorlanadi.

**S-science tabiiy fanlar.** O‘quvchilar yog’och materiallarni tanlashda uning fizik va mexanik xossalari bilishi talab qiladi. Bu esa tabiiy fanlar bilan bog’liqdir.

**T-technology, texnologiya.** O‘quvchilar chekich tayyorlashda texnologik jarayonlarni, ularni bajarish ketma-ketligi va texnologik jarayolardagi xavfsizlik qoidalarini bilishi talab qilinadi.

**E-engineering, injineriya ya’ni muhandislik.** O‘quvchilar tayyorlanadigan buyumlarni: rejlash, chizmalarini chizish va dizaynnini yaratishlari kerak buning uchun muhandislik va injinerlik bilimiga ega bo’lishi kerak.

**A-art, ya’ni san’at.** O‘quvchilar tayyorlanadigan buyumni ishlov berish jarayonida unga jilo berishida, pardozlash va bo'yash ishlarida san’atning o’rni katta.

**M-math, matematika.** O‘quvchilar tayyorlanadigan buyumga qancha materiall ketishini o’lchash va buyumning shakli va hajmi egallaydigan o’rni hamda iqtisodiy jihatdan hisoblash uchun matematikaga murojaat qiladi.

Endi shu ko'rsatma asosida Chekich tayyorlash texnologiyasini ko'rib chidamiz

Chekich Tol, terak, tut, akatsiya, chinor shoxlaridan olingan g'o'lalardan tayyorlanadi. Bularni mustahkamligi yuqori. Chekichlar katta kichikligiga qarab non chekich, patir chekichlarga bo'linadi. Chekichlar qisqa o'lchamli bo'lganligi uchun qisqa rumka-patron yordamida ko'plab markazlar o'rtasida tayyorlanadi.

Chekich rumka-patron yordamida donalab tayyorlanganda kerak o'lchamdagagi g'o'la olib patronga qoziq qilib qoqiladi va vint yoki burama mix bilan qoqiladi. Yog'och diametri 70 mm ga keltirib yo'nilgandan so'ng dastlab qismi rejalanib, uni 70 mm uzunlikda diametrini 25 mm ga keltirib yo'niladi. Dastlab uchidan 12 mm qalinlikda tugma qoldirib qolgan qismining diametrini 20 mm ga keltirib yo'nilib tutqich bo'yni hosil qilinadi. So'ngra 50 mm uzunlikda chekich kundasi rejalanib dasta tomoni suriladi va tekis ko'ndalang qirqim hosil qilib, unga ketma-ket aylanalar mix o'rni chiziladi. Tayyor bo'lgan chekichni jilvirlab silliqlangandan so'ng alif yoki lak surtib pardozlanadi. Talab etilishiga qarab rangli bo'yoqlar bilan hoshiyalanib, so'ng qirqib turiladi. Chekich ostiga aylanalar bo'yicha non yoki patirga mos uzunlikdagi mixlarni qoqib mix kallaklarini tekislاب qirqib tashlanadi.

Chekichlar markazlar orasida tayyorlangandan yog'och diametri 70 mm ga keltirib yo'nilgandan so'ng bir nechta chekich rejalanib ketma-ket tayyorlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, STEAM-yondoshuvini texnologiya fanida qo'llash orqali o'quvchilarda tabiiy fanlar, muhandislik, san'at va matematika fanlaridan qanday foydalanish kerak ekanligi haqida ko'nikma hosil bo'ladi va shu fanlarga bo'lgan qiziqishi ortadi. Bularni amaliyotda qo'llash orqali olgan bilimlari mustahkamlanadi va bajariladigan ishlarini rejakashni, qisqa vaqtida sifatli va samarali buyumlarni tayyorlashni o'rganadilar. Bundan tashqari maktablarda fanlar integratsiyasini yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Steam Riching: Whn weneed to put the arts into. Steam edikation 2016- yilgi 10-11 betida
2. B.Qurbanov va G. Kurbanovaning "Texnologiya va dizayn" qo'llanmasi . Toshkent "Innovatsiya Ziyo" 2020 138 bet

3. Sh.Sharipov va boshqalar. Texnologiya. 7-sinf uchun darslik. 2022 yil Toshkent.
4. Райхона Хамирова Шавкатвек Худойкулов Гулшода Абдуллажонова. “Эффективные методы использования технологии "STEAM" в дошкольных образовательных организациях.” Pedagogical Cluster-Journal Of Pedagogical Developments. 2023y.
5. Марғубахон Юнусалиевна Эшназарова, Сайфиддин Мухаммадинович Тошбоев. [Замонавий таълимда масоғавий ўқитишнинг педагогик асослари ва ташкил этилиши](#). Современное образование (Узбекистан). 2020.

## ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANTIRUVCHI OMILLARI

*Mirzayeva Ziyodaxon Abduvohid qizi*

*Namangan Davlat Pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Kimyo yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

*Tel: +998931551205*

*E-mail: [zmirzayeva323@gmail.com](mailto:zmirzayeva323@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Atmosferadagi jarayonlarning muhimligi va uni ifloslantiruvchi omillarni kamaytirish yechimlari va atmosferani ifloslanish sabablari shuningdek, shaharlashish jarayonini atmosferaga ta’siri ozon qatlaming ahamiyati va yemirilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

**Аннотация:** Значение процессов в атмосфере и решений по снижению ее загрязняющих факторов и причин загрязнения атмосферы, а также информация о значении озонового слоя и его разрушении, а также влиянии урбанизации на атмосферу.

**Abstract:** The importance of processes in the atmosphere and solutions to reduce its polluting factors and the causes of atmospheric pollution, as well as information on the importance of the ozone layer and its destruction, as well as the effect of urbanization on the atmosphere.

**Kalit so‘zlar:** atmosfera, ozon, antropogen, fotosintez, automobil, o‘simlik, sanoat, chiqindi, ehtiyoj, shaharlashish, kislotali yomg‘ir.

**Ключевые слова:** атмосфера, озон, антропогенный фактор, фотосинтез, автомобиль, завод, промышленность, отходы, потребность, урбанизация, кислотные дожди.

**Key words:** atmosphere, ozone, anthropogenic, photosynthesis, car, plant, industry, waste, need, urbanization, acid rain.

Atmosfera - Yerning gazsimon sferasi bo‘lib, yerning landshaft qobig‘i hayotida katta rol o‘ynaydi. Atmosfera yer po‘stiga fizikaviy, kimyoviy, biologik ta’sir etadi. Yer yuzasida issiqlik va namlikni tartibga solib turadi. Atmosfera bo‘lmaganda edi, yer yuzasi kunduzi + 100°C qizigan kechasi -100° C sovugan bo‘lar edi. Hozirgi vaqtda yer yuzasining o‘rtacha harorati +14° C ga tengdir[1].

Demak, atmosfera bizni o‘rab turmaganda yer yuzasida insoniyat yashamayotgan bo‘lardi. Nafaqat insonlar, balki, barcha tirik mavjudotlardan tortib, to o‘simliklarga yer sayyorasida mavjud bo‘lmassi. Atmosfera havosidan tashqaridan zararli va zaharli gazlar kirmasligini ozon qatlami ta’minlab beradi.

Hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalari, avtomobillar, kimyo sanoati, neft-gaz mahsulotlari orqali atmosfera havosiga, bu orqali esa ozon qatlamiga katta zarar keltirmoqda.

Hozirgi kunda atmosfera turli xil yoqilg‘ilarning yonishi tabiiy gaz yonuvchan slanestorf, yog‘och, o‘rmonlarning yonishi va vulqonlar otilishi natijasida 15 mlrd tonna turli gaz va changlar qo‘silmoqda. Akademik A.P.Vinogradovning ta’kidlashicha 2200 yillarda atmosferadagi CO<sub>2</sub> miqdori hozirgiga nisbatan 20% oshadi [2].

Dunyo miqyosida shaharlanshining ko‘payishi natijasida fotosintez jarayoni uchun muhim bo‘lgan daraxtlarni kesib tashlanishi yoki o‘rmonlarning yo‘q qilinishi ham CO<sub>2</sub> ning ko‘payishiga olib kelmoqda. Chunki atmosfera uchun fotosintez eng asosiy jarayon, bu jarayoni yashil o‘simliklar bajaradi. Nafas olishimiz, asosan, kislород bilan bog‘liq. Bu jarayonda yashil o‘simliklar yordam beradi. Yashil o‘simliklar fotosintez qilishi natijasida 110 mlrd CO<sub>2</sub> (ya’ni 5% yoqilg‘ilardan) havodan yutadi[1].

Jahonda har yili 3 mlrd<sup>3</sup> metr yog‘och tayyorlanadi. Bu esa biosferada kislородни hosil qiluvchi va tiklovchi asosiy manba yashil o‘simliklарdir.

Sayyoramizdagi o’rmonlarning umumiy maydoni jahon bo‘yicha 44,05 mln<sup>2</sup> km ya’ni quruqlikning 33% ini tashkil qiladi [2]. Hozirgi kunda inson ehtiyotlari ko‘payishi sababli o’rmonlar kamayishi kelib chiqmoqda . Buning natijasida yashil o’simliklar tobora kamaymoqda. Buni oldin olish maqsadida o’rmonlardagi daraxatlarni sonni kesishni kamaytirish lozim. Aks holda o’rmon yo‘q bo‘lib ketishi ham mumkin. Bu dunyo hamjamiyati uchun xavfli. Hozirgi kunda yurtimizda ham yashil o’simliklar sonini ko‘paytirish maqsadida turli joylarga daraxt, archa va boshqa manzarali ko‘chatlar ekish va ularni parvarishlash yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu esa aholi salomatligi uchun ancha foydali jarayon hisoblanadi.

Atrof muhitning antropogen ifloslanishi iqtisodiy munosabat shaklida umumiy ifloslanishning 90-97% ini tashkil qiladi. Odam bir sutkada 13 kg havoni iste’mol qiladi va o‘zida zaharli moddalarni akkumulyatsiya qiladi Buning natijasida insonlarda turli kasalliklarga qarshi kurashish kamaydi. Havoning ifloslanishi insonlarda o’nlab kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi [3].

Ekologiyaning buzilishida, asosan inson omili ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, insonlar o‘z ehtiyojlarni qondirish maqsadida daraxtlarni kesish, suvga tarkibida har xil kimyoviy moddalar bo‘lgan turli chiqindilarni tashlash, chiqindilarni yoqish orqali atmosfera buzilishi sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, kimyo sanoat fabrikalari, transport vositalardan chiqadigan zaharli gazlar ham atmosferaga salbiy ta’sir etadilar.

Atmosferani havosini ifoslantiruvchi omillar, asosan, transport vositalari hisoblanmoqda aholi sonining ko‘payishi natijasida transport vositalarga nisbatan ehtiyoj ko‘paymoqda. O‘z aslini olib qarangda atmosferani ifloslanishga asosiy sabablari aholining turli narsalarga bo‘lgan ehtiyojlarni ortishi, ya’ni, antropogen omillar sabab bo‘lmoqda. Turli xildagi polietilen mahsulotlarini yoqish ham, atmosferaga o‘ta badbo‘y hid chiqishga olib keladi. Dengiz va okeanlarda chiqindilarni ko‘payishi ham atmosferaga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Sanoat fabrikalardan ham, chang chiqishi ulardagi CO<sub>2</sub>, NH<sub>3</sub> va shunga o‘xshash zaharli gazlar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Neft va gaz mahsulotlari ham atmosferaga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bularning natijasida kislotali yomg‘irlar paydo bo‘lmoqda. Kislotali yomg‘irlarning paydo bo‘lishiga asosiy sabablari: Yiliga yer atmosferasiga 200 mln. tonna qattiq zarralar(chang), oltingugurt (IV) oksid (SO<sub>2</sub>), 700 mln. tonna,

uglerod (II) oksid (CO) 150 mln.tonna, azot oksidlari ( $\text{NO}_x$ ) 1mlrd.tonna zararli moddalarni tashkil etadi. Kislotali yomg’irlarning kelib chiqishing asosiy sabablari oltingugurt va azot birikmalari hisoblanadi [4].

Dunyo miqyosida yana bir dolzarb muamolardan biri Orol fojiasi ya'ni, orol dengizni qurish bo'lib kelmoqda. Orol dengizni qadimdan goh ko'tarilib, goh pasayib turishi qadimdan ma'lum. Lekin, hozirgi kunda Orol dengizning sathi tobora kamayib ketmoqda. Buning asosiy sabablari; O'rta Osiyo respubliklarda aholi sonining ortib borishi va bu holatdan insonlarning suvga bo'lgan, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ortib borishi va ekinlarni sug'oriladigan yerkarning sonini ko'payishi sabab bo'lmoqda. Hozirgi paytda Orol dengiz qurishi oqibatda bo'ronlar ko'tarilishi, buning oqibatida tuz va changlarni atmosferaga tarqalishi holatlari kuzatilmogda. Bu holat hudud aholisi uchun turli kasalliklar kelib chiqishga sababdir. Yurtimizda buni oldini olish uchun, Orol dengiz atrofidagi yerkarga saksovullarni ekish ishlari olib borildii. Orol dengizni hozirgi holatda saqlab qolish muhim sanaladi.

### Xulosa

Bularni oldini olish va atmosfera havosini saqlab qolish insoniyatga bog'liq. Chunki inson eng ongli mavjudotdir. Hozirgi kunda avtomobillardan foydalanishda elektromobillardan foydalanishga o'tilmoqda. Chiqindilarni har xil yerkarga tashlamasdan maxsus idishlarga tashlash va ularni qayta ishlash texnologiyalarni yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zavod va fabrikalardan chiqadigan gazlarni filtrlash jarayonini tashkil qilish uchun maxsus texnologiyalar yaratish. Neft mahsulotlarni zararli chiqindilarni qayta ishlash lozim. Orol dengizi hududlarida yashovchi aholining so'gligini nazorat qilish choralarini ko'rish . U yerdagi ekologiya holatini yaxshilashga harakat qilish lozim. Orol dengizni avvaligi holatiga qaytarish qiyin , lekin uni hozirgi holatida saqlab qolish darkor. Atmosferani saqlab qolishda insonlarda ekologik tarbiyani shakllantirish eng muhim masaladir. Agarda insonlarda ekologik tarbiya shakllansa, har bir inson o'zi atrofidagi holatlarga befarq bo'lmaydi. Ekologiyani asrab qolishda , asosan, inson omili ishtirok etadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shamsiddinova.G.D, Karimova. D.A “Kimyoviy ekologiya” - Toshkent-2010 32- 36

2. Allaberdiyev. R, Allaberdiyev.D, Karimova.D, Kuchkarov. N “Kimyoviy ekologiya” Toshkent-2019 69- 75
3. Abirqulov Q.N., Rafiqov A., Hojimatov A.N., Ekologiya. O‘quv qo’llanma. T.: 2004.
4. Чибисова Н.В., Долгань Е.К. Экологическая химия/ Калининград. – 1998.
5. To‘xtayev A. Ekologiya. T.: “O’qituvchi”. 1998 y.

## MUNDARIJA

### I.TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI;

1. Neyrolingvistik dasturlashning nazariy va amaliy jihatlari 3  
*Nafasov G.A., Abduraimov D.E., Ibragimov J.A., Rahmonov S.K.*
2. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar 14  
*To'xtaboyev A.Sh., Yo'lidashev S.A.*
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoada ishlash 22  
ko'nikmalarini shakllantirish  
*Komilova Sh.X.*
4. Sun'iy neyron to'rini sintez qilsh modeli va uning dasturiy 25  
ta'minoti  
*Nafasov G.A., Abduraimov D.E., Ibragimov J.A., Rahmonov S.K.*
5. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasiga jismoniy 37  
tarbiya darslarining ta'siri  
*Izatullayev A.M., Mahmudjonov A.A., Saxijonov J.J.*
6. Musobaqaning stressli holati va futbolchilarda 46  
musobaqadan oldingi ruhiy stressning xususylatlari  
*Satiev Sh.K.*
7. "Genetika va seleksiya asoslari" fanini o'qitishda axborot 52  
texnologiyalarining o'rni  
*Aliyeva M.X., Hasanboyev Sh.D.*
8. Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim 57  
tehnologiyalarga asoslangan xolda tanqidiy fikrlashga oid  
topshiriqlar tuzush va ulardan umumta'lim maktablarida  
foydanish  
*Abdullayeva H.S., To'ychiboyeva N.F.*
9. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarida 61  
komikslar orqali qiziqishlarini shakllantirish  
*Nishanova X.T.*
10. Masofaviy ta'limda talabalarining o'quv motivatsiyasi va 67  
akademik e'tiboriga ta'sir qiluvchi ergonomik omillar  
*Mahamadjanova N.A.*
11. Ingliz tez aytishlari va ularda uchraydigan qiyinchiliklarni 76  
bartaraf etish usullari  
*Yuldashev O.K.*
12. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv 84  
pozitsiyani shakllantirish texnologiyalasining psixologik-  
pedagogik xususiyatlari  
*Mirzayeva Sh.D.*

## II. IJTIMOIY PEDAGOGIKA

13. Ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда оиласвий ахлоқий тарбия ва қадриятларнинг самарали ва таъсирчан усуллари 97  
*Қулматов Н. Э., Примова Ф.А., Риззаев Ш.Р.*
14. Amir Temur va u amalga oshirgan huquqiy siyosatning hozirgi zamон huquqiy tizimi rivojiga qo’shgan ulkan hissasi 107  
*Umarov J.A.*
15. Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuchilariga ekologik ta’lim va tarbiyaning muhimligi 113  
*Ergashema M.K.*
16. O’zbek tilidagi tarkibga ajratilishi murakkab bo’lgan ayrim so’zlarning tahlili 116  
*Habibullayev N.*
17. O’zbek va turk allalaridagi istioralarning tasniflash tamoyillari 120  
*Egamberdiyeva Sh.M.*
18. Роль игры на уроках русского языка: обучение, мотивация и развитие 132  
*Рахимова Ш.*
19. Boshqaruvda rahbar va xodim munosabatlarini yaxshi bo`lishining psixologik xususiyatlari 136  
*Xasanboyev A.B.*
20. Somoniylar davri tarixini rus olimlari asarlarida o’rganilishi. V. V. Bartold asarlarida somoniylar tarixi 140  
*To’xtasinov M.A.*
21. Amir temur va temuriylar sulolasi davrida ilm-fan va adabiyot 145  
*To’xtaboyev A.Sh., Yo’ldashev S.A.*
22. Ota – она qaramog’isiz qolgan bolalarni tutingan oilalarga moslashuvida muloqotchanlik sifatlarini rivojlantirishning psixologik mexanizmlar 148  
*Axadova Sh.O.*
23. Relationship of national idea and spiritual life 156  
*Kasimov Kh.A.*
24. Somoniylar davlati - yirik markazlashgan davlat 159  
*To’xtasinov M.A.*
25. Komil insonni tarbiyalashda oila, mahalla hamda maktab hamkorligining ahamiyati 164  
*Matqurbanova S.I.*

26. Virtual tutqunlikka qarshi kurash 169  
*Sobirova O.O.*
27. O’zbekistonda suv resurslarini muhofaza qilish 172  
*Mahamadjanova R.M.*
28. Media maydonda axborot tarqatish madaniyati 179  
*Abdullahjonova M.A.*

### III. MAXSUS PEDAGOGIKA

29. Logopediya sohasida axborot texnologiyalarini 183  
rivojlantirishning mexanizmlari  
*Toshtemirova R.Y.*
30. Logopediya fanining rivojlanish tarixi va hozirgi kundagi 187  
ahamiyati  
*Roziqova M.O., G’iyosova S.O.*
31. Bolalarda nutq faoliyati va jarayonining shakllanish 191  
bosqichlari  
*Olimova O.I.*
32. Maktabgacha ta’limda inklyuziv ta’lim dasturi xorijiy ta’lim 196  
dasturi misolida  
*Rahimjanova M.R.*

### IV. ILG’OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR:

33. Ўзбекистон маҳалла институти ва хорижий тажриба 206  
(германия, япония ва туркия мисолида)  
*Uzakov K.P., Meliqo’ziyev A.A.*
34. Sharq miniyatURA maktablari va ularning qisqacha tarixi 213  
*Ayubova Sh.Sh., Akbarov R.M.*
35. Loydan yasalgan milliy o’yinchoqlar tarixi va bolalar uchun 220  
milliy o’yinchoqlarni tarbiyaviy ahamiyati  
*Maxsudova Y.R.*
36. Badiiy matn tahlilida mustaqil ta’limga innovatsion 226  
yondashuv  
*To’ychiyeva Z.H.*
37. Milliy uslubdagি liboslar yaratishni takomillashtirish 232  
*Qahharova H.D.*

### V. TA’LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKA

38. Ta’lim tarbiya tizimida geografiya o’qitish metodikasi 241  
*Raximov I.B., Zokirova Z.X.*
39. Проблемное обучение как инструмент развития 246  
критического мышления и креативности у школьников  
*Омаханова И.*

40. **Инновационные подходы в обучении и в воспитании как основной фактор повышения успеваемости учащихся** *Олимова М.* 253
41. **Изучение категории падежей имени существительного** *Бобажонова М.Т.* 257
42. **Qalamtasvir mashg‘ulotlarida talabalarni kompozisiya oid bilim va malakalarini rivojlantirish** *Komoldinov S.J., Sattarov F.I.* 263
43. **Rangtasvirda manzara janrining o’ziga xos tomonlari** *Sattarov F.I.* 269
44. **Effective ways and methods of teaching english to young learners** *Asqaraliyeva S.M.* 274
45. **Bacillus subtilis o’ziga xos jihatlari** *Ismatov A.M., Raxmonaliyeva G.B.* 284
46. **Composing written content is a crucial component of creating a case study** *Muhammadiyeva H.S.* 287
47. **Didaktika va ularning turlari** *Dehqanova G.* 294
48. **Nafas olishning tabiatdagi va tirik organizmlar hayotidagi ahamiyati** *Xakimbekova M.O.* 301
49. **Boshlang‘ich va umumiy o’rta ta’lim o‘quvchilari uchun ingliz tili darslarida innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish istiqbollari** *Nabiyeva N.B.* 307
50. **Texnologiya fanini mashg’ulotlarini o’tkazishda Steam yondoshuvidan foydalanish** *Begmatova N.S.* 311
51. **Atmosfera havosini ifloslantiruvchi omillari** *Mirzayeva Z.A.* 316



“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali elektron to’plam sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2024-yil 3-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 11-iyun 2024-yildagi 6-sonli kengaytirilgan yig’ilishida muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnomma № 06). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

**Texnik muharrir: R.Tursunov**

**Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy.**

**Pochta indeksi: 160136, Faks: (0369) 227-27-21,**

**Email: Info@namspi.uz**

**“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2024-yil 3-soni  
325 sahifadan iborat bo’lib, 51 ta ilmiy maqoladan tashkil topgan.**

**Jurnalning elektron holatini har qanday tartibda o’zgartirish yoki  
soxtalashtirishga uringan subyekt shaxsan javobgan hisoblanadi.**